


INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI



**VOLUME 3
ISSUE 2
2024**

*Exact sciences
Natural sciences
Medical sciences
Technical sciences
Economic sciences
Pedagogical sciences
Philological sciences
Philosophical sciences
Humanitarian sciences*

ISSN (E) 2181-2993



www.birunijournal.uz

www.birunijournal.uz



International Scientific Journal of Biruni

№ 3 (2)
2024

OCTOBER
&
DECEMBER



“**International scientific journal of Biruni**”. Ilmiy maqolalar to’plami. Uzbekistan:
www.birunijournal.uz. 2024. - 372 b.

ISSN 2181-2993

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Adilbekova, D.B. - t.f.d., professor
(O'zbekiston)

Pulatov, Sh.N. – PhD., dotsent
(O'zbekiston)

TAHRIR KENGASHI:**FALSAFA FANLARI:**

Huseynov, Sakit – Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi falsafa va sotsiologiya instituti professori, fal.f.d., prof. (Ozarbayjon)

FILOLOGIYA FANLARI:

Sayilov, Qalib – Turkiy Jahon Fanlar Akademiyasi direktorlar kengashi raisi, Fil.f.d., prof. (Ozarbayjon)

IJTIMOIIY FANLAR:

Manzarov, Y.X. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti dotsenti, t.f.n., dots.

PEDAGOGIKA FANLARI:

Jumayeva, G.T. – Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD.

HUQUQ FANLARI:

Sharaxmetova, U.Sh. – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, h.f.n., prof.

IQTISODIYOT FANLARI:

Rahimov, A.M. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, PhD.

ANIQ FANLAR:

Metin, Orbay – Amasya universiteti professori, fiz.mat.f.d., prof. (Turkiya)

Kuramboev, Y. – TTA Termiz filiali dotsenti, t.f.d., dots.

Aliqulov, T.A. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, f.m.f.n., dots.

Batirov, Z.L. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, t.f.d. (DSc), dots.

Eshmatov, B.E. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, f.m.f.n., dots.

Bozorov, O.N. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori, tex.f.n., dots.

Ochilov, Sh.A. – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD., dots.

TEXNIKA FANLARI:

Usmanov, R.M. – Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.,

Haydarov, S.S. – Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, PhD.,

TIBBIYOT FANLARI:

Ibragimov, A.J. – Termiz davlat universiteti O'quv metodik boshqarma boshlig'i, b.f.n., dots.

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI INSON RUHIY TABIATI HAQIDAGI QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

RUZMATOVA Gulnoz Miraxrarovna

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti professori,

falsafa fanlari doktori

ORCID: 0000-0001-7046-1732

ANNOTATSIYA

Sharq hamda G'arbning tarixiy tajribasi, keskin falsafiy baxs munozaralar olib borish an'analari, falsafiy baxs munozara an'analari, qadriyatlari favqulodda muhim o'rin tutadi. Erix Fromm va Forobiyning ilmiy faoliyatlari, boy, madaniy va ma'naviy meroslarini chuqur o'rganish orqali bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo qilish, ma'naviy hayotni yuksaltirishda, avvalo yosh avlodni barkamol avlod qilib tarbiyalashda, ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirish, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Erix Fromm va Forobiyning asarini chuqurroq o'rganish va tatbiq etish orqali rahbar kadrlarning ma'naviy va kasbiy salohiyatini yuksaltirish, ularni vatan tuyg'usi, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Ayniqsa, yoshlarni xalqimiz turmish tarziga, ma'naviyatiga yod illatlardan asrashda allomalarning ma'naviy merosi beqiyos ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *muallimi-soniy, inson xulqi, antropologiya, ruhiy «quvvatlar», totalitarhilik, insonparvarlik, tiriksevarlik (biofillik) va o'liksevarlik (nekrofillik), bixeviorizm.*

ABSTRACT

The historical experience of the East and the West, the traditions of conducting sharp philosophical debates, the traditions of philosophical debates, and values are extremely important. Using Erich Fromm's and Farabi's scientific activities, rich, cultural and spiritual heritage in depth, it is important to use them to build a civil society in our country, to improve spiritual life, and first of all, to educate the young generation into a well-rounded generation. studying the cultural heritage and high spiritual values of our people deeply and comprehensively, inculcating them in the mind of every person living in our Republic, especially educating the young generation to be spiritually mature and selfless people is one of the most urgent

problems today. To increase the spiritual and professional potential of the leading personnel by studying and applying the works of Erich Fromm and Farobiy, to educate them in the spirit of patriotism, diligence and patriotism. In particular, the spiritual heritage of scholars is of incomparable importance in protecting young people from vices alien to the way of life and spirituality of our people.

Key words: *teacher, human behavior, anthropology, spiritual "powers", totalitarianism, humanitarianism, love of life (biophilia) and love of death (necrophilia), behaviorism.*

KIRISH

Bugun nafaqat ajdodlarimiz merosiga, balki qardosh xalqlar merosiga, fanning zamonaviy muhim muammolariga dadilroq yondashish, jamiyat salohiyatini yuksaltirish kabi muammolarga ham alohida e'tibor qaratildi. Zamondoshlarimiz ijodi bilan bir qatorda, turli xalqlardagi ijtimoiy fikr tarixi, mutafakkir, faylasuflar va ularning ijodini hamda ilmiy faoliyatini teranroq tadqiq etishga keng yo'l ochildi. Hozirda, yangi davr sharq faylasuflari bilan g'arb faylasuflarining, xususan Abu Nasr Forobiy va Erix Fromning ijtimoiy-falsafiy, antropologik fikrlarini o'rganish orqali tahlil qilish ham muhim va dolzarb vazifalardan biri, deb o'ylayman. O'zbekiston o'zining erkin demokratik jamiyat qurish, barqaror demokratik taraqqiyot yo'lini, uning yuksak ma'naviy, falsafiy, siyosiy qadriyatlarini asoslashda "O'zbek milliy falsafasi" an'ana, qadriyatlari bilan birga jahon falsafiy tafakkur tajribalari, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish lozim. Tadqiqotning nazariy ahamiyati unda bayon etilgan mulohazalar, ijtimoiy fikrlar va qarashlar, nazariy xulosalardan falsafiy tafakkurni kengaytirishga, mustaqil fikrni o'stirishda, ontologik va gnoseologik qarashlarni boyitishga o'ziga xos hissa qo'shishida, zamonaviy G'arb va Sharq falsafasiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda, hamda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qilishda o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Forobiy ilmiy merosini ayniqsa, uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarini o'rganishda, tahlil qilishda katta ilmiy izlanishlar, amalga oshirilgan. Jumladan, M.M.Xayrullayev, X.A.Aliqulov, T.I.Raynov, I.Mo'minov, M.S.Bo'riboev, S.N.Grigoryan Forobiy ta'limotini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganlar. Bundan tashqari G'arb faylasufi Erix Fromning falsafiy-psixologik ilmiy meroslarini A.I.Titarenko, M.G.Stepanyan, A.Konstantinov, A.I.Fet, G.F.Shveynika, P.S.Gurevcha, Semen Frank "Inson qalbi" asari asarini falsafa savollariga javob tariqasida o'rganganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, taqqoslash va sinergetik metodlardan hamda to'ldiuvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik va vorisiylik tamoyillaridan foydalanildi.

NATIJA VA TAHLILLAR

Go'zal xulq fazilatlarini egallash, ta'lim-tarbiya masalalari moziydagi buyuk siymolar va donishmandlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Insondagi ezgulikka, yaratuvchanlikka undovchi xushsifat kuchlari qanchalik muhim bo'lsa, undagi yovuzlikka, buzg'unchilikka yetaklovchi badsifat kuchlarni tadqiq qilish ham shunchalik muhimdir. Agar inson xushsifat kuchlaridan ayriqcha qolsa, u biologik ehtiyojlari bilangina yashovchi va ushbu ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday zo'ravonlikka, vahshiylikka tayyor mahluqotga, agar badsifat kuchlaridan xoli o'rganilsa, insoniy his-tuyg'usiz, ehtirossiz va maslaksiz mavjudodga aylantiriladi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk olimi, o'z davri ilg'or falsafiy fikrining asosiy printsiplarini o'z ijodida aks ettirgan mutafakkir Abu Nasr Forobiydir. U o'rta asrning mashhur olimi – o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning harakteridan kelib chiqqan holda, o'z dunyoqarashida zamonasining g'oyaviy turmushidagi ilg'or, taraqqiyot va reaksiya kuchlarning kurashini, Sharq va qadimgi yunon madaniyatining birikishi natijasida vujudga kelgan turli ta'limotlarning to'qnashuvini o'zida ifodalagan. Shu qatorda, XX asrning mashhur mutafakkiri, neofreydizm asoschilaridan biri, Erix Frommning asarlari butun dunyoda o'ta keng shuhrat qozongan – uning hayotligidayoq inson tabiatining axloqiy va ijtimoiy – psixologik muammolarga bag'ishlangan asosiy asarlari millionlab tirajlarda bir necha o'n marta qayta nashr qilingan.

Bu ikkita buyuk allomalar biri Sharq va ikkinchisi G'arb faylasuflari bo'lishi va yashab ijod etgan davrlari turli xil bo'lsa ham inson xulqi va ruhiyatiga oid meroslari bir-birlarini to'ldirib turadi. Har ikkala alloma, Abu Nasr Forobiy va Erix Fromm antropologik, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashlarida inson xulqi, joni-ruhi, jamiyatda tutgan o'rni, ruhiy ma'naviyati haqida o'z davrlarida o'z ta'limotlarini yaratishgan. Abu Nasr Forobiy va Erix Frommning inson xulqi va joni haqidagi qarashlarini solishtirar ekanmiz hamohang qirralarini ko'rishimiz mumkin.

Bu masalada O'rta Osiyoning ulug' faylasufi Abu Nasr Forobiy G'arb faylasufidan farqli o'laroq – insoniy xislatlar, ta'lim-tarbiya haqida maxsus asar yozmagan. Uning insoniy fazilatlarini haqidagi fikrlari olimning turli risolalarida bayon qilingan. Bu borada allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risolasi", "Buyuk

kishilarning naqllari”, “Musiqqa haqida katta kitob”, “Fuqarolik siyosati” va boshqa risolalarida jamiyat va uni boshqarish, insoniy fazilatlar, axloq-odob, aqliy va xulqiy tarbiya haqida masalalarga bag‘ishlangan [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005: 291]. “Baxt-saodatga erishuv haqida” risolasida insoniy fazilatlarni egallash yo‘llari, ta’lim-tarbiya usullari, yosh avlodni maktabda o‘qitishning yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Forobiyning fikricha, yaxshilik va yomonlik, ayniqsa, adolat va adolatsizlik yaqin turuvchi tushunchalardir. Yaxshilik va yomonlik iroda erkinligiga asoslanadi va faqat insonga xosdir. Yaxshilik insonning 5 ta ruhiy quvvatiga tegishlidir. Bular: aqliy-nazariy, aqliy-amaliy, intiluvchi, tasavvur va his qilish quvvatlaridir [Aliqulov, 2013: 55]. Inson baxt-saodatga faqat nazariy quvvat orqali idrok qilib yetishadi. Ulug‘ faylasufning ta’kidlashicha, ya’ni yaxshilik baxt-saodatga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yaxshiliksiz va adolatsiz – ijtimoiy ideal va baxt-saodatga erishib bo‘lmaydi [Al-Farabi, 1975: 114]. Bu yerda ko‘rinib turibdiki, har ikkala allomaning hammohang jihatlari sifatida insonning axloqiy qarashlarida – insoniy holatiga xos hislatlariga, yaxshilik va yomonlikning faqatgina insonga xos ekanligini aytib o‘tishadi. Frommning “Yovuzlik faqat insonga xos hodisa. U insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos, aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo‘q qilishga bo‘lgan intilish” fikrlari, shu jumladan Forobiyning esa “yaxshilik va yomonlik, ayniqsa, adolat va adolatsizlik yaqin turuvchi tushunchalardir. Yaxshilik va yomonlik iroda erkinligiga asoslandi va faqat insonga xosdir” - degan fikrlari bir biriga o‘xshashdir. Forobiy inson tabiatini tahlil qilar ekan, har tomonlama: biologik, ruhiy – fiziologik, intellektual va ijtimoiy-siyosiy jihatlardan o‘rganishga yondashadi. Forobiyning odam haqidagi ta’limotining muhim ahamiyati uning odam tabiatining asosiy hususiyatlarini har tomonlama tahlil qilishga intilishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning fikricha, odam-avvalo hayvondir, sezish esa odamga ham, hayvonga ham xosdir. Shu bilan birga, odam – aqlga ega. Ana shu aql bilan ruh odamning tabiiy ibtidosi hisoblanadi. Lekin “bu ibtidolar – odamning tabiiy ibtidosi ta’siri ostida kamol topib, insonga aylanishiga kifoya qilmaydi, chunki inson inson bo‘lib, kamolotga erishuvi uchun so‘zlash va kasb-hunarga muhtojdir” [Xayrullayev, 1963: 260] - deb ta’kidlaydi Forobiy.

Forobiy boshqaruvni sharti sifatida falsafaga murojat qilishining asl mohiyati shundaki, falsafa aql va dalillar bilan ish ko‘radi. Aql va dalil bilan ish ko‘rish esa, ayrim millat va ummatgagina xos bo‘lgan narsa bo‘lmay, jahonshumul ahamiyatga egadir. Agar diniy e’tiqodlar bilangina ish ko‘riladigan bo‘lsa, unda ma’lum va mashhur narsalarga xitob qilish va ularga qoniqish bilangina ish tutishga to‘g‘ri keladiki, unda muayyan asr, shaxs va makon aks etadi, xolos. Ammo aqliy dalillarga tayanilsa, yuqoridagi chegaralanishlarga xojat qolmaydi. Aql o‘z-o‘zicha shunday

qoidalarga egadirki, hamma joyda va har qanday zamonda qo‘llansa bo‘laveradi [Abu Nasr Forobiy, 2002: 54].

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o‘zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqli hayvon» desa ham aqli inson haqida shunday yozadi: «Aqli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsa va hodisalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste‘dodga ega, (ular) yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil, deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo‘lganlarni aqli, deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim» Forobiy, borliqni insoning bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy «quvvatlar», jumladan, bilish qobiliyati ham unga bog‘liq, deydi. U o‘zining «Ilm va san‘atning fazilatlarini» risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aktsidenttsiya (al-oraz)lardan, ya‘ni sifatlardan substansiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi. Forobiy inson bilishi jarayonini ikki bosqichga bo‘lib, bu bosqichlarning o‘zaro bog‘liqligini, aqliy bilim hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta‘kidlaydi.

Erix Frommning asosiy diqqatini inson qalbining axloqiy talablariga munosabatini ochishga, totalitarchilik, insonparvarlik, tiriksevarlik (biofillik) va o‘liksevarlik (nekrofillik) haqidagi mulohazalarga qaratadi. U inson qalbini, ruhiyatini, xulqini o‘rganar ekan, u “Sevish san‘ati”, “Inson qalbi”, “Uning ezgulik va yovuzlik qobiliyati” kabi asarlarida axloqiy muammolarga keng e‘tibor berib, yorqin ifodalab bergan [Niyazimbetov, 2017: 61]. Erix Fromm o‘z falsafiy konstepstiyasini asoslash uchun ko‘plab ustoz faylasuflar kabi «Shoh Edip» asariga murojaat etdi. Fromm «Shoh Edip» qismatida insoniyat taqdirini, tug‘ilishi, yuksalishi va inqirozi ramzini ko‘rdi hamda asardagi taqdiri azal hukmi Shoh Edipning otasini o‘ldirib, bilmasdan onasiga uylanishi voqeasida emas, balki Shoh Edipning o‘zida yashirindir, dedi. Ya‘ni Shoh Edip yashash uchun kurashayotgan inson obrazidir. “Bu mif, – deb yozadi Fromm, – onasiga uylanishning timsoli emas, balki o‘g‘ilning patriarxat otaga va uning tartiblariga munosabati timsolidir. Edipning onasiga uylanishi taqdiri azalni emas, balki bolalikda onasiga muhabbati kuchli bo‘lgan bolaning tabiat hukmiga ko‘ra, er bo‘lib yetishgach xuddi otasi kabi patraxal tartib tarafdoriga aylanganidadir. Ya‘ni bu asar inson evolyustiyasini o‘zida timsollashtiradi”. Fromm Shoh Edipning otasini o‘ldirishi va onasiga uylanishini shunday tahlil qiladi. Edip va otasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik oqibatida o‘g‘il otani o‘ldirish voqeasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunmay, timsollar nazariyasiga ko‘ra baholash kerak. Bu degani

Edip onasiga – matrarxatga bo‘lgan muhabbati tufayli otasini inkor qildi. Inkor esa o‘limdir. Onasiga uylanishini ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunmaslik lozim. Onaga uylanish yaratuvchi kuchga, yaratishga o‘zni bag‘ishlashdir. Sofokl otasiga isyon qilgan Edip timsolida ona ma‘budlar o‘rnini egallagan ota ma‘budlarga va ularning mustabid tuzumi, tartiblariga, umuman, patriarxal tuzum qiyofasida kirib kelayotgan insonni qul qilish an‘anasiga qarshi kurashgan ozod inson obrazini yaratdi. Ozod inson Edip otasini yenggach, onalik bilan birlashgach, ma‘lum davr o‘tib uning o‘zi despotga aylandi, oqibatda xilvat va noma‘lum ibodatxonada o‘lim topdi, ya‘ni uning hayoti ham barcha mustabidlar kabi yo‘qlikka aylandi. Bunday talqinlar XX asr faylasuflari orasida ko‘plab topiladi. Frommning fikriga ko‘ra, yovuzlik faqat insonga xos hodisa [Abdulla Sher, 2010: 167]. U insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos, aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo‘q qilishga bo‘lgan intilish. Ayni paytda, insoniylikni yo‘qotish fojiviy holatdir. Chunki inson, hayvoniy darajaga qaytsa-da, u biror bir soniya odam ekanini unutmaydi, demak, uni yovuzlik masalani hal qilishning yo‘li sifatida hech qachon qoniqtirmaydi. Insonning yovuzlik holati – o‘zini ezib turgan insoniy turmushi og‘irligidan ozod bo‘lishga fojiviy urinishi tufayli ro‘y beradi, u o‘zini yo‘qotishdan iborat. Ezgulik bizning mavjudligimizni tobora mohiyatimizga yaqinlashtirib boradi, yovuzlik esa turmushimiz bilan mohiyatimizning o‘rib boruvchi begonalashuvi demakdir. Inson ortga va oldinga intilishga, boshqacha aytganda, ezgulik va yovuzlikka moyil. Toki ikkala mayl teng ekan, agar u o‘z ahvolini anglab etishga qobil bo‘lsa, tanlash borasida erkin. Biroq, agar insonning yuragi tosh qotib, mayllari ortiq tenglashmaydigan darajaga kelsa, u bundan buyon tanlovda erkin bo‘lolmaydi. Inson to tanlash erki qolmaydigan nuqttagacha o‘z xatti-harakatiga javobgardir. Inson yuragi qanchalik tosh bo‘lmasin, u insoniy yurak bo‘lib qolaveradi. Biz inson bo‘lib tug‘ilganmiz va shu bois oldimizda doimo qaror qabul qilish masalasi ko‘ndalang turadi. O‘z maqsadlarimiz bilan birga, biz vositalarimizni ham tanlashimiz kerak. Agar kimki hayotga befarq - loqayd qarasa, unday odamning ezgulikni tanlashiga umid yo‘q [Abdulla Sher, 2010: 168].

Forobiy Fozil shahar, undagi madaniy ravnaq munosabati bilan axloq, xulq-odob masalalariga juda katta e‘tibor beradi. Bu borada alloma, xulq-odob masalalarini intellektual sifatlari – “aqliligi”, “donoligi” bilan uzviy bog‘liq holda olib tekshiradi. Shuning uchun u tahlil etgan axloqiy tushunchalar, kategoriyalar kishilarning o‘zaro munosabatlarida mavjud bo‘lgan xulq normalarining ifodasi bo‘libgina qolmay, balki kishilarning o‘z tarixlari davomida olib borgan aqliy faoliyatlarining ham natijalari sifatida talqin etiladi. Aqliy faoliyat esa, insonning tabiatidan, o‘z mohiyatidan kelib chiqqanligi uchun, Forobiy xulq normalarini ham

insonning kundalik hayot faoliyatidan keltirib chiqaradi. Salibiy axloqiy hislatlarni: johillik, ayyorlik, yolg'ochilik, adolatsizlik, zolimlik, xasislik, ochko'zlik, boylikka intilish, turli hirslarga berilishni qoralaydi. Bundan tashqari u, xalqni aldab, diniy yo'lda qurbonlik qilish, din talablariga bo'ysunish zarurligini da'vo qilib, ulardan o'z maqsadida foydalanishga urunuvchi ruhoniylarni keskin tanqid qiladi va qoralaydi. Ammo Forobiy adolatsizlik, zo'ravonlikni qoralasa-da, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni tushunib yetmaydi, u oliy axloqiy ideallar uchun kurash olib boradi, lekin buning uchun ijtimoiy hayotni o'zgartirish, iqtisodiy asos yaratish zarurligini tushunmadi [Xayrullayev, 1971: 263].

Erix Fromm bixeviorizm, muhit nazariyasi, instktivizm va psixoanaliz oqimlarini tahlil qiladi. Bixeviorizmga ko'ra, xulq - atvor his, idrok, ta'surot, mayl, ehtiros, hatto fikrlash kabi sub'ektiv omillardan tashqaridagi hol sifatida o'rganilishi kerak. Demak, insondagi zo'ravonlik va tajovuzning kelib chiqishi sub'ektiv omillar bilan bog'liq emas, shuning uchun ular sof xatti-harakat sifatida qaralishi lozim. Neobixeviorizm namoyondasi B.F.Skinner esa "stimul-reaksiya" nazariyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, agar kishi ijobiy stimul bilan ta'minlanib tursa, unda kerakli xulq-atvorni shakllantirish mumkin. E.Fromm savol qo'yadi: Nima uchun ijobiy stimullar ba'zan kishini badxulqlikdan xolos qilmaydi, hatto uni aql, idrok, mehr-muhabbat, vijdonga zid xatti-harakatlar sodir qilishga olib keladi? Nega hayot talablariga muvofiq yashaydigan kishilar ba'zan o'zini baxtsiz sezadi va turli o'ng'aysizliklardan azob tortadi? Demak, kishi xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijobiy stimuldanda tashqari yana nimalardir bor.

Forobiy va Erix Frommning inson xulqi va axloqi haqidagi qarashlari bir biriga o'xshash jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, ikkita allomaning nafaqat insonning ijobiy xulqlari balki salbiy xulqlarini yoritib berishga harakat qilishgan. Masalan bu yerda, Fromm insonning ijobiy xulq-atvori bilan birga zo'ravonlik, johillik kabi salbiy tamonlarini, ya'ni salbiy axloqiy hislatlarini ham tahlil qilganligini ko'rsak, Forobiyning qarashlarida ham bu jihatni ko'rishimiz mumkin. Erix Fromm neyrofiziologiya, etnologiya, paleontologiya, antropologiya xulosalariga va boshqa tarixiy-madaniy manbalarga tayanib, agressivlik inson tabiatiga xos hodisadir degan fikrning noto'g'riligini asoslaydi. U, ibtidoiy odamlar zamonaviy odamlardan kam badsifat kuchlarga ega; madaniyati past ibtidoiy jamiyat stivilizastiyasi rivojlangan hozirgi jamiyatdan kam agressivdir, degan hayratli xulosaga keladi. Odamdagi tajovuz, yovuzlik neyropsixologik omillar natijasi ham emas. Ruhiiy zaif yoki kasal odam hayotni ongli tarzda yo'q qilishga intilmaydi, begunoh kishilarni o'ldirib, undan huzur olishni bilmaydi. "Odam urug'doshlarini o'ldirishdan va ularga azob berishdan huzur oluvchi jonzodlarning yagona vakilidir.

Agerssivlik odamda tug‘ma ham, uning tabiatida ham emas” [Fromm, 2009: 263]. Uning, stivilizastiyaning, ya’ni “mehnat taqsimotining paydo bo‘lishi, ishlab chiqarishning o‘shishi va ortiqcha mahsulotlarning to‘planishi, ierarxik tizimga ega davlatlar va elitar qatlamlarning yuzaga kelishi natijasidir”. Faylasuf, inson ziddiyatlarga to‘la sharoitlar ta’sirida yashab keladi. Shu bois u, ya’ni inson yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat kabi qarama-qarshi kategoriyalar yoki har doim ham unda yetarli darajada bo‘lavermaydigan instinkt va har doim keragidan ortiq darajada bo‘ladigan o‘z “men”ni yuqori qo‘yish kabi ziddiyatli hollar bilan idrok etilishi mumkin. Bepoyon olam oldida o‘zini yolg‘iz va tarixiy zaruriyat oldida o‘zini o‘jiz sezishi, bejilov munosabatlarga ta’sir o‘tkazaolmasligiga iqror bo‘lishi kishida ekzistenstional ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish kishi uchun tabiiy ehtiyojlarini qondirish kabi zarurdir. Agar ularni qondirish imkoni bo‘lmasa, kishi kuch ishlatishni lozim topadi, deb yozadi.

Erix Fromm agressiyani xushsifat va badsifat ko‘rinishlarga klassifikastiya qiladi. Xushsifat agressiya negizida, faylasuf ta’kidiga ko‘ra, yo o‘zini himoya qilish yoki o‘zini namoyon qilish maqsadlari yotadi. Himoyaviy agressiya ovchi, qassob, jarroh va milistionerlarning xatti-harakatlarida, kishining tashqi hujumlardan o‘zini, mulkini yoki yaqinlarini himoya qilishida namoyon bo‘ladi. Himoyaviy agressiya hayvonlarda ham kuchli rivojlangan, biroq odamgina agressiyani oldindan ko‘ra bilishi, uni o‘zi tomon yo‘naltirishi yoki soxta tajovuzlarni o‘ylab topishi mumkin. Masalan, kishilar o‘z huquqlarini ko‘proq anglab yetgan, jamiyat va davlat ishlariga ko‘proq aralashgan sayin ularni boshqarish murakkablashadi. Avtokratik davlatlar bu vazifani hal etish uchun yo zo‘ravonlik ishlatadi yoki soxta bosqinchilikni, “xalq dushmanlari”ni o‘ylab topadi. Ushbu badniyat ishlarga, da’vatlarga laqqa ishonuvchi ommi kishilar, avom, ular hamma jamiyatda va har doim istagancha topilgan, avval “vatanni himoya qilish”, keyin esa “dushman ustiga yurish”ning tarafdori bo‘lib chiqadi. Badniyat shaxslarning avom kishilar qalbidagi ushbu tuyg‘udan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanib kelayotgani sir emas, aslo. Shuning uchun ochiq tanqidiy fikr, o‘z erki va huquqini yaxshi bilish, ularni himoya qilish uchun birlashishgina “o‘zini himoya qilish”ning tajovuzga, agressiyaga aylanishidan saqlaydi.

Forobiy asarlarida esa ko‘proq inson, inson tarbiyasi, jamiyat va davlat muammolarini aks etirilgan. Erkin fikr yuritish, ya’ni xurfikrlilik g‘oyalaridan ilhomlangan o‘rta asr faylasufi: Abu Nasr Forobiy inson borlig‘i, xususan, uning tanasi bilan joni jismi bilan uning insoniyligi, insoniyligi bilan u yashayotgan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, insonning insoniyligini namoyon qiluvchi fazilatlar, xislatlar va ularning shakllanish jarayoni muammolarini nazariy jihatdan ochib

berishga harakat qildi. Jon va tananing o‘zaro aloqadorligi muammolari haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy qadimgi yunon faylasufi Platonning insonning ko‘chib yurishi haqidagi ta’limotiga qarshi chiqdi. O‘zining “Masalalarning mohiyati” (“O‘yinul masail”) risolasida jon tanadan oldin mavjud bo‘lmasligi, bir tanadan boshqa tanaga ko‘chib o‘ta olmasligi haqidagi g‘oyani olg‘a surdi. Abu Nasr Forobiyning fikriga asosan, odamlarning tanasi paydo bo‘lishi bilan uning “oziqlantiruvchi quvvat”i vujudga keladi. O‘sha quvvat yordamida inson tanasi hamisha oziqlanadi va shu jarayonda insonda sezgi organlari paydo bo‘ladi. Inson sezgi organlari tufayli his-tasavvur, xotira birlashib, xayol hosil bo‘ladi. “Xayol quvvati” yordamida inson bilim, hunar egalaydi, faoliyat ko‘rsatadi, foyda-zararning farqiga boradi [Al-Farabi, 1973: 34].

Forobiy ta’kidlaganidek, inson o‘zining aql-zakovati bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Undagi aql-zakovat (“Aqliy quvvat”) borliqning turli-tuman ko‘rinishlarining aksidir. Inson o‘zidagi o‘sha aql-zakovat yordamida avval yerda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sabablarini, so‘ng esa osmon jismlarining sir-u asrorini biladi. Insonning olam to‘g‘risidagi to‘plagan bilimlari, ya’ni hayotligida yaratgan ma’naviy boyliklari hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki “Dunyoviy aql”ni tashkil etadi. Inson aqli olam sirlarini bilishda eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarilganda, “dunyoviy aql”, “dunyoviy ruh” bilan qo‘shiladi. O‘z navbatida, har bir kishining joni va aqli, ya’ni “individual aql” va “individual jon”ning paydo bo‘lishida, “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql” hal qiluvchi rol o‘ynaydi [Xayrullayev, 1963: 13]. Forobiyning tushuntirishicha, “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql”, “individual jon”, “individual aql” paydo bo‘lishi va rivojlanishining sababchisidir. “Individual jon”, “individual aql” inson tanasining o‘limi, yo‘q bo‘lishi bilan yo‘qolib ketmaydi, balki “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql” ga qo‘shiladi. Insonning joni va aqli abadiylikka ketadi, biroq hech qachon qaytib kelmaydi, qayta namoyon ham bo‘lmaydi. Ular tanani tark etgandan so‘ng yana bir butun bo‘lib, birlashadi, har bir jon va har bir aql inson tanasida yashagan vatqda orttirgan barcha ma’naviy narsalar to‘planib, hamisha barhayot, “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql”ni tashkil etadi.

Forobiy inson bilish jarayonining bosqichlarini insondagi «tashqi quvvat» va «ichki quvvat»lar [Xayrullayev, 1971: 163] bilan izohlaydi. «Tashqi quvvatlar» bevosita tashqi ta’sirlar orqali sezgi a’zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Forobiy ta’rificha, odam o‘z bilimlarini tashqaridan, atrofdagi hodisalardan bilish jarayonida oladi. U bilishda hissiy va mantiqiy bilish bosqichlarini farqlaydi. Odamni tashqi dunyo bilan bog‘laydigan sezgining roliga to‘xtalib, Forobiy ularni sezgi a’zolariga muvofiq ravishda besh turga bo‘ladi. Ular: teri-badan sezgisi, ta’m bilish sezgisi, hid

bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularning hammasini Forobiy hissiy bilish («quvvat hissiya»), deb qaraydi. Sezgini dastlabki bilimning manbai deb hisoblagan Forobiy buyumning aks etishi yoki in'ikosi o'sha buyumning o'ziga muvofiq kelsa, sezgi haqiqiy bo'ladi, deydi. Forobiyning bilishda sezgining roli va ummuman hissiy aks ettirish to'g'risidagi qarashlari Arestotelning "Sezmagan odam hech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham" degan qarashlariga juda o'xshab ketadi. «Ichki quvvatga»ga esa, u esda olib qolish (xotira), xayol (tasavvur), his-tuyg'u, nutq (fikrlash) «quvvatlari»ni kiritadi. «Ichki quvvat» deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallash shu «quvvatlar» orqali amalga oshadi. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikrgacha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir. Forobiy talqinida "sezgining o'ziga muvofiq tartibi bo'lganidek, aqlning ham o'ziga muvofiq tartibi bor" [Xayrullayev, 1963: 13]. Birinchi usul tartibli fanlar uchun, ikkinchi usul esa, matematikaga xosdir, bu ikkala usuldan ham jismlarning u yoki bu tomonlarini chuqurroq bilish maqsadida faqat fanlar foydalanadi. Forobiy Arestotelga o'xshab yakka buyumlar-birlamchi, mavjud tushuncha va g'oyalar esa ikkilamchi va aniq buyumlarni aqlda mavxumlashtirish natijasida vujudga kelgan deb hisoblaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Forobiy dunyoqarashida uning jamiyat va axloq to'g'risidagi yaratgan yaxlit ta'limoti, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan siyosiy falsafasi ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Allomaning xizmati shundaki, u musulmon Sharqida birinchi bo'lib insonparvarlik va umumbashariy qadriyatlar asoslangan tuzum, insonlarni kamolotga va baxt-saodatga yetaklaydigan axloqiy fikrlarga asoslangan jamoa haqida o'z ta'limotini yaratdi. Forobiyning bu ta'limoti hayoliy bo'lishiga qaramasdan, uning g'oyalari keyingi davrlarda Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. O'rta asr mutafakkirlari Ibn Xallikon, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun va boshqalar Forobiyning ta'limotini chuqur o'rganib, uni yangi g'oyalar bilan boyitganlar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, XV asrning zabardast faylasufi Jaloliddin Davoniylar Forobiyning ijtimoiy-falsafiy merosini katta qiziqish bilan o'rgandilar.

Mutafakkirning falsafiy g'oyalari faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Ovrupoda ham keng tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mutafakkirning gumanistik va axloqiy g'oyalari hozir ham insoniyatning baxt-saodatga erishuviga, jahonda tinchlik o'rnatish ishiga, kelajak avlodning yetuk va barkamol inson bo'lib yetishuviga, ilm va ma'rifat yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Frommning ham ruhiy tahlil bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatning asosiy xususiyatlarini aniqlaydi: hech qachon ular bir-birini istisno qilmaydi. Bundan tashqari ruhiy tahlil amaliyoti diniy hissiyotning mavjudligini doimo tan olishi zarur va ruhiy terapiyada dinning ijobiy mazmunidan foydalanishi lozim. Fromm Sharq va G'arb dinlariga insonparvarlik g'oyalari xosligini, ular inson qalbi haqida qayg'urishini va unda muhabbat tuyg'usi borligini isbotlashga harakat qildi. Shundan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, ruhiy tahlil doimo dinga muhtoj bo'ladi, shu o'rinda diniy e'tiqod ham ruhiy tahlilning uslublaridan foydalanishi zarur: "Ruhiy tahlil, - deb yozadi Fromm, - bu maqsadga to'siqlik qilmaydi, aksincha, uni amalga oshirish uchun katta yordam beradi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 691 b.
2. Aliqulov H. Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ma'naviy merosi. – Toshkent: Noshir, 2013. – 95 b.
3. Al-Farabi. Grajdanskaya politika Sotsialno-eticheskiye traktati. – Alma-Ata: Nauka, 1975. – 114 c.
4. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi, 1963, – 360 b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002, – 154 b.
6. Niyazimbetov M. Axloqshunoslik, nafosatshunoslik, mantiq. Ma'ruzalar matni. – Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2017. – 161 b.
7. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 327 b.
8. Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1971. – 325 b.
9. Fromm E. Revolyusiya nadejdi // Fromm E. Chelovek dlya samogo sebY. Revolyusiya nadejdi. Dusha cheloveka.: [sb.: per.s angl.,nem.] /Erix Fromm. –M.: AST: AST MOSKVA, 2009. – 865 c.

10. Al-Farabi. Grajdanskaya politika Sotsialno-eticheskiye traktati. – Alma-Ata: Nauka,1975. – 114 c.
11. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. – Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi, 1963, – 360 b.
12. Xayrullayev M.M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1971. – 325 b.
13. Fromm, E. (2004). Sevish san'ati // Jahon adabiyoti. - 4-son. – B. 56-65.
14. Fromm, E. (1990). Psychoanalysis i Dzen Buddizm. –M.: Politizdat, 566.
15. Nekrasova, N.A., Tarnovskiy, K.Y. (2009). Evolyusiya predstavleniya o lyubvi v istorii filosofii // Nauchniye vedomosti. № 16 (71) – S. 38-51.
16. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato // International Journal of Recent Technology and Engineering. Vol. 8, Issue-2S6, July, – P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
17. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.
18. Rakhimdjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot’s philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 28, No. 16. (2019), pp. 1560-1564. ISSN: 2005-4238 IJAST.
19. Ruzmatova, G. (2014). Ruhiyat tahlili falsafasi. –Toshkent: Nishon-noshir, - 240 b.
20. Ruzmatova, G.M. (2023). Konfutsiychilik axloqiy negizlarida olamiy tartibot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. – 2023. 11-12-sonlar. – B. 916-923. / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.
21. Ruzmatova, G.M. (2024). Comparative studies of the Oriental and Western anthropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13>

PLATONNING IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLARIDAGI ERKINLIK TUSHUNCHASIGA SALBIY YONDASHUV TAHLILI

RAXIMDJANOVA Dilnavoz Sunnat qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

katta o‘qituvchisi, PhD, Toshkent, O‘zbekiston

ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

+998 90 805 71 80

ANNOTATSIYA

Maqolada antik davr faylasuflaridan biri Platonning erkinlik tushunchasi haqidagi tasavvurlari o‘rganilgan. Qadimgi yunon jamiyatidagi erkinlik dinamikasi ko‘rib chiqilgan. Erkinlikning qonun va davlat bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Erkinlikning salbiy holatlari talqin etilgan. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkinlik tushunchasini bir yoqlamali tariflashning iloji mavjud emas, uning ilk talqinlari ildizi antik davrga borib taqalib, ularni barcha nuqtayi nazarlarning asosi sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu maqolada ko‘rsatilgan tadqiqot ishida esa Platonning ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi ideal davlat safiga kirmaydigan jamiyatlar birma bir ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijasida uning ushbu jamiyatida erkinlik illat sifatida qoralanganligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *erkinlik, davlat, qonun, tobelik, jamiyat, ideal jamiyat va davlat, tiraniya, aristokratiya, oligarxiya, demoratiya, timokratiya, xalq, adolat.*

ABSTRACT

The article examines the ideas of one of the ancient philosophers, Plato, about the concept of freedom. The dynamics of freedom in ancient Greek society is considered. It is shown that freedom is related to the law and the state. The negative aspects of freedom are interpreted. Many studies show that it is not possible to define the concept of freedom in one way, its first interpretations go back to antiquity and can be taken as the basis of all points of view. In the research presented in this article, the societies that do not belong to the ideal state in Plato's socio-political views were considered one by one. As a result of the analysis, it was learned that freedom is condemned as a vice in this society.

Key words: *freedom, state, law, subjection, society, ideal society and state, tyranny, aristocracy, oligarchy, democracy, timocracy, people, justice.*

KIRISH

Erkinlik masalasi doimiy gap boradigan mavzu sanaladi. U xuddi insonlarning tabiiy ehtiyojlari kabi hayoti davomida paydo bo‘lib turuvchi fenomendir. Uni kerakliligi esa erkni yo‘qotgan paytda seziladi. Shunday ekan erkinlik davrlar mobaynida o‘ziga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmasdan yangicha yondashuvlarni zamonasiga qarab o‘zgartirib boraveradi. Endi ushbu paragrafda shu mavzudan yana chetlashmagan holda Platon va Farobiy falsafasidagi erkinlik atamalari qanday o‘rin egallaganligi haqida tahlil etiladi. Ularning qarashlari qiyosiy analizdan o‘tkaziladi. Platonning qarashlari yuqoridagi paragraflarda ko‘rib chiqildi.

Dunyoga mashhur Sokratning shogirdi Platon, o‘z navbatida, u ham rahnamosi fikrlaridan uzoqlashmagan. Inson olamida erkinlik mavjud deya ta’kidlagan holda, o‘z-o‘zini anglab, o‘z yo‘lini erkin tanlashida aks etishini aytib o‘tadi. Ammo uning Sokrat fikrlaridan farqli tomoni «Davlat» asarida keltirib o‘tilgan, qalbgina o‘zga olamda kelgusidagi mavjudligini, faoliyatini o‘zi aniqlaydi, kabi mulohazalarida ko‘rinadi. Platon inson qalbi, ruhi hayotini qay tariqa miskin yoki boy-badavlat o‘tkazishini, ijtimoiy darajasini, ya’ni shoh yoki gado sifatida umr kechirishini, hatto, inson bo‘lib emas, biron-bir hayvon jismida tug‘ilishini ham tanlash imkoniyatiga egaligini ta’kidlaydi. Bu tanlovni amalga oshirganlaridan so‘ng hech qanday kuch ular qarorlarini o‘zgartira olmaydi. Bu jarayondan keyin qalb unutish daryosidan suv ichadi va o‘zi tanlovini unutadi. Inson esa shu qalb tanlagan tanlov bo‘yicha hayoti davomida belgilangan yo‘ldan yuradi [14, 413]. Bulardan aynan shu ko‘rinishdagi tanlovda inson erkinligi, ammo bunga qarama-qarshi ma’noda keluvchi taqdir tushunchalarini Platon o‘z qarashlarida ochib berishga harakat qilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Antik davr falsafasining yirik namoyandasi, yunon faylasufi Aflotunning ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos uslubda, o‘z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to‘liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Aflotunning ijodini har tomonlama yorituvchi A.F.Losev [10], G.V.Drach [9], V.S.Solovyev [15], L.I.Shestov [16], E.Braun [1], G.Murray [2], R.N.Parxomenko [11] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Platon o'z ta'limotlarida «polis» tushunchasi bo'yicha keltirilgan mazmun chegarasidan chiqmay, unga ezgulik borlig'i sifatida munosabat bildirgan. Ezgulik mukammal tushuncha sanaladi, shu bilan birga, u borliqni ham mukammallashtiradi. Avtarkiya (mustaqillik) atamasi polis tili bilan aytganda, erkinlikning asosiy belgisi hisoblanadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: faoliyati ezgulikka yetishishga qaratilgan inson erkinlik egasi bo'la oladi. Chunki ezgulik o'zining avtarkiyasi, ya'ni mustaqil harakatining ichida erkinlik mujassam. Inson qalbi o'z-o'zini nazorat qilish va mulohazakorlik orqali tartibga kelgani kabi polis ham xalq anjumani va birligi orqali joy-joyiga tushadi. Bunda bir shaxs erkinligi jamiyatdan alohida mustaqilligida emas, balki o'zining o'zi ustidan hukmronlik qilish va ezgulikka intilish demakdir. Bu yerda uning fikrlari Sokratning qarashlari bilan o'xshashligi isbotlanmoqda. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Platon o'zining dialoglarida erkinlikning eng oliy toifasi sifatida do'stona erkinlikni ta'riflagan. Bu esa aynan polisning mukammal jamiyatida amalga oshadi. Xuddi «do'stlik» tushunchasining o'z-o'ziga iroda beruvchi ezgulik avtarkiyasining mukammal aksi sanalishini har bir fuqaro o'z-o'zini sevishni shakllantirilishiga o'xshatish mumkin [11]. Bu yondashuvda ichki va tashqi erkinlik fenomenining sintezlashgani hamda u ko'proq polis foydasiga og'ayotganini ko'rishimiz mumkin.

Hayoti davomida u erkinlik fenomenini bir taraflama ko'rinishda o'rganib, to'xtatib qo'ymagan. Aksincha, bu mavzuni rivojlantirgan. Platon o'z oldiga jamiyatda yashayotgan insonga erkinlikning zarurligi yoki zaruriyati yo'qligi, insonga uning kerakligi sababi, uni jamiyat hayotidagi ahamiyati kabi masalalarning yechimini berishni maqsad qilib qo'ygan. Bu muammolarni o'rganish jarayonida unda ikki xil dialektik yondashuv shakllangan. Platon erkinlikni pozitiv hamda negativ jihatlarini talqin qilgan. Ijobiy jihatlariga to'xtalar ekan, u shaxs o'zining mohiyatan asl qudratini amalga oshirishga, ijodiy kashfiyotchilikka, shu bilan birga, ma'lum bir oliy maqsadga erishishga erkinlikning yordami beqiyosligini tasniflab o'tadi. Shuningdek, faylasuf erkinlikning salbiy ta'sirini ham ta'kidlashni unutmagan. U o'z kuzatishlari orqali quyidagi xulosalarga kelgan:

- qonun chegarasidan chiqadigan erk polis fuqarolari uchun xavfli hamda unga zarar yetkazishi mumkin;

- inson tabiatiga erkinlikni suiste'mol qilish xosligi tufayli erkinlik ularning qo'lida vayronkor oqibatlarga olib kelishi ehtimoli mavjud;

- erkinlikni inson qo'lga tutqazish to'g'ri yo'l emas;

- erkinlik davlat imtiyozi sifatida qabul qilinsa, maqbul ish bo'ladi.

Yuqoridagi mulohazalarda, bir tomondan, absolyut bo'lmasada erkinlik qalb orqali amalga oshirilishi isbotlansa, boshqa tomondan, «ideal davlat» qurish uchun erkinlikning ortiqchaligi, u jamiyat qulashi ko'rinishidagi salbiy natijalarga olib kelishi ta'kidlandi. Erkinlikni inson hayotidan chiqarib tashlash o'rinli ekanligi aytiladi. Mutafakkir uchun inson hayotining asosiy maqsadi erkinlikka erishishni tashkil etmaydi. Platonning «Davlat»ida fuqarolarning asosiy vazifasi unga sobitlik bilan xizmat qilish, taraqqiy etishiga hissa qo'shish sanaladi. Platon jamiyati hayotidan uni ulug'lamaydigan, unga bo'lgan sadoqatni so'ndiradigan, uning ustidan shikoyat ruhidagi she'rlar yozgan shoirlar quvg'in qilingan.

Platon erkinlikni siyosiy ijtimoiy tusda ko'rar ekan uning davlat tuzumlaridagi erkinlikni rolini eslatib o'tish lozim. Davlat turlarini u beshga ajratadi. Shuningdek, ular qayerdandir yerlardan, yoki yo'q joydan, yoki biror bir narsalardan emas, balki insoniy tabiatdan kelib chiqqanligini aytib o'tadi. Bu tuzumlar insonning xarakteri nimaga moyilroq bo'lsa, o'sha davlat turlarning birida istiqomat qiladi. Endi e'tiborni ushbu dialogga qaratsak:

“— Demak, beshta davlat turi mavjud bo'lganligi sababli, turli odamlar qalbning beshta turli xil qurilmalarga ega bo'lishlari kerak.

— Nimalarga?

— Eng yaxshi sanalgan aristokratik hokimiyatga mos keladigan insonni allaqachon ko'rib chiqdik va uni yaxshi va adolatli deb tan oldik.

— Ha, biz uni allaqachon o'rgandik.

— Endi esa biz eng yomon, boshqacha qilib aytganda, Lakedemon tuzumiga ko'ra bir-biri bilan raqobatlashadigan va shuhratparast odamlarni, keyin oligarxik, demokratik va zolim odamni tasvirlashimiz kerak, eng adolatsizlarni ko'rsatgan haolda uni eng adolatli bilan taqqoslash, shuningdek, sof adolat bilan sof adolatsizlik uning egasi uchun baxt yoki baxtsizlik nuqtai nazaridan unga qanday bog'liqligi masalasini ko'rib chiqishimizni yakunlash lozim. Va keyin biz yoki Fraximaxga ishonamiz va adolatsizlikka intilamiz yoki endi aniq bo'layotgan xulosaga kelamiz va adolatni saqlaymiz.

— Albatta, shunday qilish kerak.

— Biz alohida shaxslarni emas, balki davlat axloqini ko'rib chiqishni boshlaganimiz sababli, chunki ular u yerda yanada aniqroq, endi biz birinchi navbatda shuhratparastlikka asoslangan davlat tizimini olamiz (boshqa iborani

qo'llay olmayman, uni "timokratiya" yoki "timarxiya" deb ataymizmi baribir, farqi yo'q) va shunga mos ravishda shunga o'xshash odamlarni ko'rib chiqamiz; keyin - oligarxiya va oligarxik shaxs; keyin demokratiyaga nazar tashlaymiz va demokratik odamni kuzatamiz; nihoyat, tiraniya bilan boshqariladigan davlatga boramiz va u yerda nima qilinayotganini kuzatamiz, yana qalbning zolim qatlamiga e'tibor qaratamiz. Shunday qilib, biz rejalashtirgan masalalarda yetarlicha bilimdon hakam bo'lishga harakat qilamiz.

— Bunday ko'rib chiqish izchil va puxta bo'lar edi" [13, 910-911].

Ko'rinib turibdiki, Platon nuqtai nazarida davlat aristokratiya, timokratiya, oligarxiya, demokratiya va tiraniyaga ajralgan. Faylasuf bu tuzilmalarni alohida qarab o'tgan. U aristokratiyani eng oliy va yaxshi boshqaruv turi sifatida baholaydi. Unda aql bilan ish yurituvchilar faoliyat olib borishi haqidagi qarashlarni ilgari suradi. Ular tana istaklari va ehtiyojlariga tobe bo'lmaydilar. Agar Plattoni ideal davlati g'oyasiga e'tibor qaratilsa, unda jamiyatni tabaqalanishini kuzatish mumkin. Har bir turkum fuqarolarni u oltin, kumush, temir va mis kabi metallar bilan belgilanadi. Hokimyatning qanday tusda bo'lishi aynan shu turkumdagi odamlarning tabiatiga bog'liq. Va uning ideal jamiyatini boshqaruvchilari aynan aristokratiya hikimiyati bilan bog'liqligi ayon bo'ladi. Tabaqalarni aralashib ketishi uning kelajak avlodlarning sifatiga ta'sir etishi va bu mukammal davlatga putur yetkazishi haqidagi qarashlar orqali ifodalanadi.

Platon birinchi navbatda nomukammal va yaxshi bo'lmagan hokimyat sifatida timokratiyani ko'rib chiqadi. Timokratiya aynan askar va harbiylarning boshqaruvi sifatida tasvirlanadi. Unda aynan shuhratparastlikka yog'rilgan hokimyat aks etadi. U buni boshqaruvni aristokratiya va oligarxiyani o'rtasida paydo bo'lgan tuzum deb ataydi. Bu tuzumda boshqaruvchilar turkumlarni aralashib ketishi oqibatida qandaydir o'rtacha xususiyatga ega bo'lganlar boshqaruvda bo'lishini aytib o'tadi. Timokratiyada hususiy mulkchilik paydo bo'lib, ular yuqori tabaqadagi insonlarda mavjud bo'lgan holda qolgan fuqarolar tobe xizmatchilar sifatida jamiyatda o'rin egallaydi. Bunday boshqaruvdagi davlat boshiga donolar emas, harbiy ruhiyatga ega shaxslar qo'yiladi. Bunday jamiyat tinchlikka emas, nizo va urushlarga intiladi. O'zaro musobaqalashish kuchayadi. Bu yerda yaxshilik va yomonlikni aralashib ketishi kuzatiladi. Tuzumning qattiq va qat'iy qoidalari uni buzishga bo'lgan harakatlarni keltirib chiqaradi. Chunki bu yerda ularni anglatish emas, balki ko'r-ko'rona rioya etish va majburlash talab etiladi. Bu hokimyatda yashovchi fuqarolar qanday xususiyatlarga ega bo'lishini quyidagicha tasvirlaydi:

"U qattiqqo'lroq, kam ma'lumotli, lekin u bilimdonlikni qadrlaydi va boshqalarni bajonidil tinglaydi, ammo o'zi mustaqil biron bir so'z umuman bilmaydi.

Bunday odam qullarga nisbatan shafqatsiz, biroq u ularni mensimaslikdan yiroq, chunki u yetarli darajada tarbiyalangan; erkin odamlarga nisbatan muomala qilishda u xushmuomala va boshqaruvchilarga juda itoatkor; hokimiyatni sevuvchi va shuhratparast bo‘lgan holda, u hokimiyatning asosi gapirish qobiliyati yoki shunga o‘xshash narsalar emas, balki harbiy qahramonliklar va umuman barcha harbiy narsalar bo‘lishi kerak deb hisoblaydi: shuning uchun u gimnastika va ovni yaxshi ko‘radi” [13, 913].

Uning navbatdagi tuzumi bu oligarxiya sanaladi. Bu hokimiyatdagi davlat boshida boy kimsalar turadi va jamiyat boy va kambag‘al ko‘rinishdagi tabaqaga ajraladi. Platon bu yerda oligarxiyani boshlanishi timokratiyadagi ayrim xususiyatlarning rivojlanib ketishidan vujudga keladi deb tushuntiradi. Ya’ni timokratiyadagi shuxratparatslik va hokimiyatsevarlik boylik to‘plashga sabab bo‘ladi. Boylik esa aynan boshqaruvchilar qo‘lida to‘planadi tobe yoki boshqariluvchilarda emas. Yana u yerdagi ayrim asosiy qadriyatlar ham yo‘qolib, uning oqibatida hokimiyatning yangicha tuzumi oligarxiya yangi qadriyatlar bilan yuzaga keladi. Insonlarga boyligiga qarab munosabat qilinadi. Davlat boshqaruvida ham badavlat shaxslarni ko‘proq qadrlab, ularga yaxshi mavqe va lavozimlarda faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadilar.

Oligarxiyadagi hukumatda insonlarning tabiati o‘ziga xos ko‘rinishga keladi. Ular boylikka qaramlik bilan ajralib turadilar. Uni xasislik orqali to‘plashga va iloji boricha sarflamay, qo‘l ostilarida saqlashga va uni ko‘paytirishga bo‘lgan intilishlarini boshqalarning hisobidan amalga oshiradilar. Ular juda ham tejamkor va kamxarj bo‘lishga harakat qiladilar. Bunday turdagi odamlarni XIX-XX asrlarda ijod qilgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani qahramoni Ra’noning otasi timsolida juda yaxshi ochib berilganini ko‘rish mumkin. Platon ham oligarxiya boshqaruvidagi fuqarolar va rahbarlar ham shunday hislatlarga ega bo‘lishi haqida yetarlicha fikrlar keltirgan.

“Darhaqiqat, oligarxiya davrida boy bo‘lib hokimiyat tepasida turgan hukmdorlar yoshlarning axloqsizligini qonun bilan cheklashni va ularning boyliklarini isrof qilish va yo‘q qilishlarini taqiqlashni xohlamaydilar; aksincha, hukmdorlar bundan foydalanib, ularning mol-mulklarini sotib olishadi yoki o‘zlarini yanada boy va qudratli qilish uchun ularga foiz qarz berishadi” [13, 918].

Demak, bunday hokimiyat tepasida ziqna va dardi xayoli boylik orttirish bo‘lgan boshqaruvchilargina mavjud bo‘la oladi. Endi esa Platon sekingina demokratiya haqida o‘z mulohazalarini yoritishga o‘tadi. Oligarxiyadagi boylar va kambag‘allar tabaqalariga ajralishi aynan kambag‘allarning norozigarchiligiga sabab bo‘ladi.

Bunday adolatsizlik va ularning haq-huquqlarini cheklanishi hokimiyatda qo'zg'alonlarni keltirib chiqarilishiga sabab bo'ladi.

Воспроизводят себя как систему. Благодаря этому животные ведут активный образ жизни, не столь привязаны к своей среде обитания, как растения, могут передвигаться менять среду своего обитания, мигрировать. Однако животные только приспосабливаются к среде своего обитания, они не могут её изменить, напротив они могут видоизменить свои органы, чтобы приспособить их к меняющейся среде обитания. Человек по сравнению с животными и растениями устроен эксцентрично, то есть он постоянно выходит за границы своего обитания. Эксцентричная позициональность человека проявляется в том, что он не приспосабливается к условиям своей среды обитания, но меняет её, создавая искусственную среду, он изменяет также и свой духовный мир, самосовершенствуется, формируется как личность, создаёт социальную среду обитания, нравственные и духовные ценности, искусство и культуру и, в конце концов, цивилизацию.

Известный российский антрополог Марков указывал на три антропологических закона, которые были сформулированы Г. Плеснером: «Анализ эксцентричности человека приводит к формулировке «трех антропологических законов»: «естественной искусственности», «опосредованной непосредственности» и «утопического местоположения». В соответствии с ними, мир открывается для человека как внешний мир, внутренний мир и «средний» (сопредельный) мир (Mitwelt), который разделяется на культуру, историю и общество. В работе «Власть и человеческая природа» Плеснер формулирует четвертый закон: «безданность человека». По Плеснеру, человек «поставлен на ничто». В силу этого частные науки неспособны ухватить ускользающую суть человека, к этой задаче может подойти лишь философия, которая и есть мысль, стремящаяся размышлять о «ничто». Сама философия является беспочвенной, открытой, она представляет собой дерзание, риск». Конечно, Плеснер не идёт в своих попытках так далеко, как гениальный Макс Шеллер, однако в своей известной работе «Смех и плач» он пытается рассмотреть и проанализировать эмоциональную сферу человеческого бытия с позиций рационального психологического подхода.

Плеснер в своих антропологических взглядах уделяет внимание также эмоциональной сфере человеческого бытия. Как известно ещё выдающийся основоположник философской антропологии Макс Шеллер обратил внимание на априорный характер эмоциональной сферы человеческого бытия, особенно на градацию человеческих чувств. В первую очередь Шеллер анализирует такое

чувство как духовная любовь и её разновидности. Именно в этом пункте учение Шеллера пересекается с философскими идеями раннего христианства, в частности с учением Аврелия Августина о духовном сердце человека. Пытаясь определить внутреннюю природу человека, Макс Шеллер объединяет научный, философский и религиозный подходы к проблеме человека, это попытка Шеллера была первой и гениальной по своей сути попыткой в западно-европейской философии, особенно в начале 20 века, когда научно-технический прогресс полностью вытеснил из общественной сферы жизни религиозное влияние и само учение о происхождении человека ставилось под глубокое сомнение большинством учёных антропологов.

Смех, плач, жесты и мимика являются феноменами человеческого бытия, способными передавать эмоциональную сферу жизни человека. Б. В. Маокль так пишет об этом обстоятельстве: «Смех и плач - варианты пограничных реакций, в них человек переходит границу в сторону телесности, в отличие от мимики и жестов как рациональных реакций, несущих определенное сообщение»¹⁹.

Таким образом, мы в данной статье провели анализ взглядов Г. Плеснера о своеобразии и особенностях живых организмов, об их отличии от неживых предметов, а также об отличии человека от всех других живых существ. На основании вышесказанного мы можем сделать следующие выводы:

1. Для характеристики всего живого Плеснер вводит термин позициональность, который указывает на границы живых существ, в которых разворачивается вся их жизнь.

2. Плеснер указывает на то, что живые организмы в этих границах развиваются и переходят на качественно более высокий уровень существования.

3. Ни одно живое существо, за исключением человека не осознаёт границ своего существования и своей конечности. 4. Один лишь человек из всего ряда живых существ осознаёт своё отличие от среды своего обитания и отличает себя от неё. Только человек может обладать качеством саморефлексии, осознавать себя как отдельное от своей среды существо, у него формируется осознание своей личности, вместе с этим человек начинает создавать социальную среду обитания, культуру и цивилизацию.

Таким образом, мы видим, что у Плеснера важнейшей особенностью человека является его способность мыслить и осознавать своё место в мире. От обыденного осознания своего места в мире человек переходит к

¹⁹ Б.В. Марков. Философская антропология. Санкт-Петербург, 1997. - 37 с.

мифологическому, религиозному, научному и философскому осознанию своего места в мире, а это и есть мировоззрение человека. По мнению Плеснера для понимания природы человека, необходим синтез научного и философского мировоззрения. Если ограничиваться лишь научным мировоззрением, от внимания исследователя ускользнёт духовная природа человека, без понимания которой человек становится лишь разумным животным. В то время как Плеснер, будучи философом идеалистом не может рассматривать человека лишь как разумное животное, ибо в человеке скрыт также его дух, который обуславливает стремление человека к своей идеальной форме, заложенной в его ядре, как физическом, так и духовном. Именно поэтому Плеснер продолжил своё исследование человека, не ограничиваясь лишь его рациональными сторонами, свидетельством чего являются его другие работы, в частности его произведение «Смех и плач», в котором он пытается исследовать эмоциональную природу человека. Без исследования чувственно-эмоциональной природы человека невозможно объяснить возникновение искусства во всём его разнообразии и богатой палитре эмоций, без которых жизнь человека становится убогой, подобной существованию робота или машины.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Брюнинг В. Философская антропология. Исторические предпосылки и современное состояние // Западная философия: итоги тысячелетия. – Бишкек, 1997.
2. Гуревич П. С. Философская антропология: учебное пособие для вузов. – М.: «Омега-Л», 2008.
3. Жеребкина И. Субъективность и гендер. Гендерная теория субъекта в современной философской антропологии: учебное пособие для вузов. СПб.: Алетейя, 2007.
4. Б. В. Марков. Философская антропология, Санкт-Петербург, 1997.
5. Ступени органического и человек: Введение в философскую антропологию / Пер. с нем. - М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004.

MOVAROUNNAHR FIQH MANBALARI ASOSIDA AYOL KISHINING QIMMATBAHO TOSHLARDAN FOYDALANISH HUKMLARIGA DOIR HADISLAR TAHLILI

TO‘XTASINOV R.

Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

rozimuhammad4964@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Dorimiy hamda boshqa muhaddislarning hadis bo‘yicha yozilgan asarlarida zikr qilingan ayollarning qimmatbaho toshlardan foydalanishiga doir hadislarning hanafiy mazhabi asosidagi hukmlari o‘rganilgan va mazhablar o‘rtasi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, Movarounnahr fiqh manbalarida zikr etilgan hukmlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Imom Buxoriy, imom Termiziy, sihoi sitta, Movarounnahr fiqh manbalari, qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari, ayollar ziynati.*

ABSTRACT

In this article, the rulings based on the Hanafi madhhab of hadiths regarding the use of precious stones by women mentioned in the works of Imam Bukhari, Imam Tirmidhi, Imam Dorimi and other muhaddiths on the hadith were studied and a comparative analysis was made between the madhabs. Also, special attention is paid to the rulings mentioned in Movarounnahr fiqh sources.

Key words: *Imam Bukhari, Imam Tirmidhi, sihahi sitta, Movarounnahr fiqh sources, rulings on the use of precious stones, women's jewelry.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены постановления, основанные на ханафитском мазхабе хадисов относительно использования драгоценных камней женщинами, упомянутые в произведениях Имама Бухари, Имама Тирмизи, Имама Дорими и других мухаддисах по хадисам, и проведен сравнительный анализ. между мадхабами. Также особое внимание уделяется постановлениям, упомянутым в источниках фикха Моваруннахр.

Ключевые слова: *Имам Бухари, Имам Тирмизи, Сихахи Ситта, источники фикха Моваруннахр, правила использования драгоценных камней, женские украшения.*

KIRISH

Islom shariati ayollarni ziynatlanish, o‘z mahramlariga chiroyli suratda ko‘rinish tabiati bor ekanini e‘tiborga olgan. Shunga ko‘ra yer yuzida ular uchun bezanish, ziynatlanish uchun vositalar bisyor. Lekin bu ziynatning shariat chegarasida bo‘lishini talab etadi. Isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymagan, haddidan oshmagan bo‘lsa, bo‘lgani. Ayollar uchun ziynatlanishdagi chegara albatta islom huquqi, xususan Movarounnahr fiqh manbalarida batafsil bayon etilgan. Quyida ana shu manbalarga suyangan holda ayollar foydalanishi muboh – ixtiyoriy, manhiy – taqiqlangan holatlarni fiqhiy mazhablar ixtilofiga ko‘ra bayon qilinadi. Shuning uchun masalani ikki qismga – ayollar foydalanishi muboh bo‘lgan va ular foydalanishi mumkin bo‘lmagan taqinchoqlar mavzusiga ajratib bayon qilinadi.

Tillo va kumush taqinchoqlardan foydalanish hukmlari

Movarounnahr fiqh manbalaridan “Hidoya”, “Badoeus sanoe”, “Muhit” va boshqa bir qancha manbalarda ayol kishining tillo va kumushdan taqinchoq sifatida foydalanishi joiz ekaniga ittifoq qilingani zikr qilinadi. Balki, ayrimlar bunga ijmo bog‘langanini ham aytib o‘tganlar. [1; 5/346] Shunga ko‘ra, bu borada to‘rt mazhab orasida ixtilof yo‘q ekani tushuniladi. Ammo mutaaxxir (keyinroq yashab o‘tgan) ayrim faqihlar halqali tillo ayollarga harom bo‘ladi degan gapni aytganlar. Ular halqali deganda: “Uzuk, bilaguzuk, braslet, marjon, sirg‘a va boshqa taqinchoqlar kabi halqa shaklida yasalgan tillo mahsulotlarni” nazarda tutganlar.

Albatta ikki tomon ham o‘z mazhabini oyat hadislar bilan dalillagan. Ushbu dalillarni o‘qish orqali qaysi mazhabning qarashi ustunroq ekanini mulohaza qilish mumkin. Jumhur ulamolar o‘zlarining gaplariga dalil sifatida quyidagilarni keltiradilar: Abu Muso r.a. rivoyat qilinadi: “Rosululloh s.a.v.: “Ummatimning ayollariga tillo va ipak halol qilindi. Erkaklariga esa, haromdir”, dedilar” [2; 3\132.]. Bu hadisning ko‘p turuqlari bo‘lib, ayrim ulamolar bu hadisni mutavotir ham deyishgan [3; B.298].

Halqali tilloni harom degan ulamolarning ham keltirgan dalillari bo‘lib ular quyidagilardan iboratdir: Rosululloh s.a.v.: “Ey ayollar jamoasi! Sizlar nimadan yasalgan taqinchoqni taqyapsiz. Ogoh bo‘ling ayol kishi tillo taqib uni oshkor qilar ekan. (Qiyomat kuni) aynan o‘sha (taqinchoq) bilan azoblanadi” [5; 8\15]. Nabiy s.a.v.ning tillo taqqan ayolni qattiq ogohlantirishlari, azobga girifdor bo‘lishi haqida ta’kidlashlari bu taqinchoqning harom ekaniga dalil bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu dalillarni sinchiklab o‘rganib chiqqandan so‘ng ularning ichida sahihlari ham, zaiflari bor ekani guvoh bo‘lish mumkin. Shuning uchun jumhur ulamolar bu hadislariga quyidagicha javob qaytarishadi:

Birinchi, ayollarning tillo taqinchoqdan foydalanishi harom ekaniga dalolat qilayotgan hadislar islomning avvalgi davriga tegishli bo‘lib, keyinchalik nasx qilingan.

Ikkinchi, tilloni haromligi haqida kelgan hadislar erkak va ayolga umumiydir. Ammo ayollarga tilloni mubohligini ifoda etadigan hadislar xos bo‘lib, umumiy hadislarining bir qismini xoslaydi. Shuning uchun imom Nasoiy o‘z kitobida tilloning erkaklarga haromligi borasidagi hadislar bilan ayollarga ziynatni (begonalarga) ko‘rsatish makruhligi to‘g‘risidagi hadislar alohida-alohida bobga jamlaganini ko‘rish mumkin.

Uchinchi, Nabiy s.a.v. tillo uzuk taqishdan qaytargan sahobiy ayollar Oisha, Fotima, Ummu Salama (roziyallohu anhum)larning hadislarini boshqa sahih hadislariga muoriz (zid) emas. Chunki ular Nabiy s.a.v.ning oila a‘zolari bo‘lib, ularga nisbatan bunday bemalol (boylarcha) yashashga ruxsat bermaganlar.

Undan tashqari tillo buyumlarni ayollar turli islom diyorlarida, turli zamonlarda, to hozirgi kungacha muboh sifatida foylanib kelayotgani ma‘lum. Bu esa, uning harom emasligiga ochiq-oydin dalildir. Chunki bu ummat zalolatga birlashmaydi. Shuningdek ayollarga tillodan foydalanishni muboh qiluvchi dalillar maqsadga aniq ravshan dalolat qilgan sahih hadislardir. Harom deb aytuvchilarning dalillari esa, ta‘nadan holi emas. Shuning uchun bu o‘rinda jumhurning dalillarini rojih (quvvatli) deyish mumkin bo‘ladi.

Yoqut, zabarjad, marjon, va boshqa qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlardan foydalanish hukmlari

Ma‘lumki, taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari faqatgina tillo va kumushdan yasalmaydi. Undan tashqari qimmatbaho toshlar ham bisyorki, ulardan bejirim, nafis taqinchoqlar yasash mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, Movarounnahr fiqh manbalarida ayol kishining tillo va kumushdan boshqa qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari ham alohida bahs qilingan. Bu bo‘yicha ham fihiy mavzular ikkiga ajratilgan. Yoqut, javojir, zabarjad kabi ma‘danlardan yasalgan taqinchoqlarning hukmlari alohida, temir, mis, qo‘rg‘oshin kabi ma‘danlardan yasalgan taqinchoqlarning hukmi alohida, bayon qilinadi. Bu taqsimotni “Fatavoyi Qozixon” asarida ham ko‘rish mumkin. Asarda tillo va kumush mahsulotlari, temir, mis, qo‘rg‘oshin mahsulotlari alohida hamda boshqa qimmatbaho toshlardan tayyrolangan mahsulotlar hukmi alohida zikr qilingan [6; 2\234].

Movarounnahr fiqh manbalari, xususan, “Hidoya”, “Badoeus sanoe”, “Muhit” asarlarida javohir, yoqut, zabarjad kabi ma’danlardan yasalgan qimmatbaho toshlardan foydalanish joiz ekani aytilgan [7; 6/519]. Ushbu fikrga boshqa mazhabshilarni ham qo’shilgani manbalarda zikr qilinadi. Ushbu ma’danlardan yasalgan taqinchoqlarning iste’moli joiz ekaniga quyidagicha dalillar keltirilgan:

1. Baqara surasi 29-oyatida yer yuzidagi barcha narsalar insonlar uchun yaratilgani aytilgan: “U shunday zotki, sizlar uchun Yerdagi barcha narsalarni yaratgan” [8; B.5]. Ushbu oyatni imom Qurtubiy o‘z tafsirida “Shuningdek, Alloh taolo javohir marjon va boshqa ma’danlarni ham insoniyat foydalanishi uchun yaratgandir”, deya sharhlaydi [9; 10\86].

Shu va boshqa bir qator dalillarga asoslangan holda to‘rt mazhab sohiblari ayol kishi yoqut, javohir va marjon kabi qimmatbaho toshlardan foydalanishi mumkin ekanini aytganlar.

Temir, mis, qo‘rg‘oshindan yasalgan taqinchoqlardan foydalanish hukmlari

Ayol kishining temir, mis va qo‘rg‘oshindan yasalgan taqinchoqdan foydalanishi borasida esa Movarounnahr fiqh manbalarida ikki xil qarash bor ekani aytib o‘tilgan. “Badoeus sanoe” va “Fatavoyi Qozixon”da zikr qilinishicha hanafiy mazhabi faqihlarining nazdida erkaklarga ham ayollarga ham temir, mis va qo‘rg‘oshindan tayyorlangan uzuk hamda boshqa taqinchoqlarni taqish joiz emas [6; 2\235]. Manbalarda hanbaliylarni ham shunday fikrda ekani kuzatiladi. Ayrim shofeiylar mazhabi olimlari esa bunday taqinchoqlarning iste’moli joiz degan.

Hanafiylarning dalillari quyidagichadir: Burayda ibn Hasib r.a.dan rivoyat qilinadi: Bir kishi Nabiy s.a.v.ning huzuriga keldi. Uning qo‘lida misdan yasalgan uzuk bor edi. U zot: “Men sendan sanamlarning hidini sezyapmanmi?”, dedilar. Shunda haligi kishi uzugini tashlab yubordi va keyingi safar temirdan yasalgan tillo uzuk taqib keldi. Nabiys.a.v.: “Men senda do‘zax ahlining taqinchog‘ini ko‘ryapmanmi?”, dedilar. Kishi bu uzugini ham tashlab yuborib: “Yo Rosulallalloh, unda nimadan yasalgan uzukni taqay”, deb so‘radi. “Kumushdan (uzuk taqgin). Vazni bir misqolga yetmasin”, deb javob berdilar [10; 3\90]. Mana bu hadisda tillo, temir, misdan tayyorlangan uzukni taqishdan qaytaryaptilar. Chunki temir do‘zax ahlining libosidir. Misdan esa, o‘sha vaqtlarda odatda sanamlar yasalgan. Shuning uchun ham hanafiy va hanbaliy mazhabi sohiblari mis, temirdan tayyorlangan uzukni taqish mumkin emas, deb aytganlar. Qo‘rg‘oshinni esa, ularga qiyosan joiz emas, deganlar. Bu cheklov faqat erkaklargagina tegishli emas, balki hadislar umumiy bo‘lgani uchun ayollarga ham oid ekanini aytganlar [11; 9\518]. Ayollarga tillo taqinchoqlarning mubohligi esa alohida boshqa dalillar bilan sobit bo‘lgan.

Shofeiy va ayrim hanbaliylar esa, bunday taqinchoqlarning muboh ekaniga quyidagi dalillarni keltiradi: Sahl ibn Sa'd r.a.dan rivoyat qilinadi: “Bir ayol Payg’ambarimiz s.a.v.ga o‘zini ta’riz qildi. Shunda bir sahobiy: “(xohishingiz bo‘lmasa) uni menga nikohlab bering”, dedi. U zot: “(Uylanish uchun) nimang bor”, dedilar. U esa, menda hech narsa yo‘q, dedi. Nabiy s.a.v. “Bor, garchi temirdan bo‘lsa ham uzuk topib kel”, dedilar [12; 8\175]. Ushbu hadisda Nabiy s.a.v. uylanmoqchi bo‘lgan kishiga kelinga mahr bo‘lishi uchun temirdan yasalgan uzukni bo‘lsa ham topib kelishga buyuryaptilar. Agar temir uzuk taqish makruh bo‘lganda, u zot topib kelishga buyurmagan bo‘lar edilar.

Movarounnahr fiqh manbalar xulosasiga ko‘ra, to‘rt mazhab faqihlarining nazdida tillo va kumushdan hamda yoqut, zabarjad kabi ayrim qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlardan foydalanishi muboh ekan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda amal qilish uchun hadisning sahih kitoblarda mavjud bo‘lishining o‘zi yetarli emas. Hanafiy manbalar asosida ularga qanday hukm berilganiga e’tibor qilish kerak bo‘ladi. Chunki hadis sahih bo‘lib, o‘zidan keyin kelgan boshqa hadis bilan nasx qilingan bo‘lishi, yoki o‘zidan kuchliroq dalilga (oyat yoki hadisga) zid bo‘lishi mumkin. Bunday masalalarning javobi esa fiqhiy manbalardan olinadi. Shuning uchun Movarounnahr olimlari ishni ikki tomoniga ham chuqur e’tibor qilib, sahih hadislarni alohida kitoblarda zikr qilib, uning hukmlarini alohida zikr qilganlar. Bundan maqsad har bir masala uchun uning ahliga murojaat qilinadi. Shunday ekan muhaddislarga hadislarning taxriji uchun murojaat qilinsa, faqihlarga hadislarning hukmini bilish uchun murojaat qilinadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Burhoniddin Mahmud ibn Ahmad Buxoriy. Muhit. Bayrut: “Dorul kutubil ilmiyya”, 2004.
2. Muhammad ibn Abdurahmon Muborakfuriy. Tuhfatul Ahfazy. – Bayrut: “Dorul kutubil ilmiyya”. 2008. 3\132.
3. Abul Fayz Kattoniy. Nazmul mutanosir minal hadisil mutavotir (Mutavotir hadislardan tuzilgan tarqoq (hadis)larning nazmi (shodasi)). – Bayrut: “Dorul kutubil ilmiyya”, 2010. – B. 298.
4. Mulla Jiyvon Siddiqiy. Nurul anvor. Pokiston: “Bushro”, 2021. 1\189.
5. Jaloliddin Suyutiy. Sunani Nasoiy sharhi Suyutiy. Ziynat kitobi. Ayollar ziynatrarini ko‘rsatmog‘i makruhdir bobi. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2011.
6. Faxriddin Qozixon. Fatavoyi Qozixon. – Bayrut: “Dorul kutubil ilmiya”, 2009.

7. Alouddin Kosoniy. Badoeus sanoe. Misr: “Al-Jamoliya”, 1328. 6/519.
8. A.Mansur. Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: TIU, 2018. – 624 b.
9. Muhammad ibn Ahmad Ansoriy Qurtubiy. Jamiu li ahkomil Qur’on. – Qohira: “Dorul kotib arabiy”, 2006. – J. 1-24.
10. Sulaymon ibn Ash’as. Sunani Abu Dovud. Uzuk kitobi. Temir uzuk haqida vorid bo’lgan hadislar bobi. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2009.
11. Ibn Obidin. Raddul Muxtor. – Misr: “Mustafo Bobiy”, 1966.
12. Ibn Hajar. Sahihi Buxoriy bisharhi Fathul boriy. Libos kitobi. Tillo uzuklar bobi. – Misr: “Maktabatus salafiya”, 1390. 10-juz. – B. 317.

INGLIZ TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: TAHLIL VA NATIJALAR

NAZARMATOVA Yorqinoy Maxmudaliyevna

Termiz davlat universiteti

Fakultetlararo chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Tel: +99897 8085583

E-mail: yorqinoy479@gmail.com

Orcid: 0009-0006-3273-8773

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimida foydalaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar, darsning samarali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada innovatsion texnologiyalar va ularni ingliz tili darslarida qo'llash texnologiyalari borasida ilmiy xulosalar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogika, ta'lim-tarbiya, ingliz tili, metodik tavsiyalar.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Назарматова Ёркиной Махмудалиевна

Преподаватель кафедры межфакультетских иностранных языков

Термезского государственного университета

АННОТАЦИЯ:

Известно, что большое значение в эффективности урока имеют инновационные педагогические технологии, используемые сегодня в системе образования. С этой точки зрения в данной статье представлены научные выводы об инновационных технологиях и их применении на уроках английского языка.

***Ключевые слова:** Инновационные образовательные технологии, педагогика, образование, английский язык, методические рекомендации.*

INNOVATIVE TECHNOLOGIES USED IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS: ANALYSIS AND RESULTS

Nazarmatova Yorkinoy Makhmudaliyevna

Teacher of the Department of Interfaculty Foreign Languages of

Termez State University

ABSTRACT

It is known that the innovative pedagogical technologies used in the educational system today are of great importance in the effectiveness of the lesson. From this point of view, this article presents scientific conclusions about innovative technologies and their application in English language classes.

Key words: *Innovative educational technologies, pedagogy, education, English language, methodical recommendations.*

KIRISH

Bugungi kunda inson faoliyatining ko‘plab sohalari, jumladan, ta‘lim tizimiga turli xil innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi hayot sifatining, inson tafakkurining rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Chet tilini o‘qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish nafaqat yangi texnik vositalarni, balki o‘qitishning yangi shakl va usullarini, o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvni ham anglatadi. O‘qituvchining asosiy vazifalari tilni amaliy o‘zlashtirish uchun talabalarga shart-sharoitlar yaratish, har bir o‘quvchiga o‘z faolligi va ijodkorligini ko‘rsatishga imkon beradigan o‘qitish usullarini tanlash, shuningdek, chet tilini o‘rganish jarayonida talabaning kognitiv faolligini oshirishdan iborat.

MATERIAL VA METODLAR.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar o‘quv faoliyatining sifatini oshirish va talabalar o‘rtasida mustaqil ishlash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurati ham o‘quv jarayonida o‘rganilishi va qayta ishlanishi kerak bo‘lgan axborotlar hajmining doimiy ortib borishi bilan bog‘liq. Internet va axborot texnologiyalari butun dunyo hamjamiyatida yagona ta‘lim makonini yaratishga qaratilgan. Chet tilini o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalligi ma‘lumotni uzatishning an‘anaviy og‘zaki usullaridan audiovizual usullarga e‘tiborni o‘tkazishdir. Eng so‘nggi ishlanmalar ko‘pincha Internetda taqdim etiladi va talabalar ularni tanlash imkoniyatiga ega. Axborot texnologiyalari o‘quv materialini ko‘paytirish va tarqatish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qiladi, unga kirishni ta‘lim muassasasida ham, uyda ham, foydalanuvchi uchun qulay vaqtda olish mumkin [1].

Hozirgi vaqtda ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik vazifasi uning mazmunini, o‘qitish usullarini yangilash va shu asosda ta‘limning tubdan yangi sifatiga erishishdan iborat. Zamonaviy jamiyatdagi hayot talabalardan o‘z fikrini rivojlantirish, o‘z fikrini aniq va ishonchli ifoda etish qobiliyati kabi muhim kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi [2].

Zamonaviy ingliz tili darslarini ham innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi va uni samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari jarayonning mantiqiyliги, konseptualligi, samaradorligi, moslashuvchanligi, dinamikligi, takrorlanuvchanligi, yaxlitligi va alohida qismlarning o'zaro bog'liqligi kabi xususiyatlarini o'z ichiga olishi kerak. Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv jarayonini tashkil etish ta'lim sifati va o'quv faoliyatini shakllantirish darajasiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanishni taqozo etadi.

Ingliz tili darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda har bir o'qituvchi kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillari va usullaridan, shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi lozim. Dars jarayonlarida ko'pincha turli darajadagi til tayyorgarligiga ega bo'lgan o'quvchilar mavjudligini hisobga olgan holda, har bir darsda o'qituvchi bir nechta zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan element bo'yicha foydalangani maqsadga muvofiq. Bu jarayonda ta'limning asosiy strategiyasi talabaning shaxsiyati, uning imkoniyatlari va qobiliyatlari, moyilliklari va ehtiyojlarini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadigan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga aylanadi. Bularning barchasini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirish mumkin [4].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar (IPT) quyidagilarni o'z ichiga oladi: dialogli muloqot, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish qobiliyati, olingan bilimlarning o'zaro ta'siri, talabaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish. Ta'limning zamonaviy shakllari yuqori kommunikativ qobiliyat va talabalarni o'quv faoliyatiga faol jalb qilish, nutq va tinglash qobiliyatlarini faollashtirish, talabalarining kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Bu zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradi, chunki jamiyatga zamonaviy dunyoga tezda moslasha oladigan, mustaqil va tashabbuskor, o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishadigan odamlar kerak. Har qanday innovatsion faoliyatning asosi ijodkorlikdir. Ijodiy faoliyat shaxsning hissiy va intellektual xislatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir.

Turli pedagogik texnologiyalar o'quv faoliyatini diversifikatsiya qilishga yordam beradi, shuningdek, o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga ko'maklashadi. Yangi ta'lim paradigmasi ichida o'rganish motivatsiyasi muhim o'rin tutadi. Motivatsiyaning maqsadi talabalarda mavzuga barqaror qiziqishni rivojlantirish, muloqot va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir [5].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar nafaqat o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlaridan foydalanish, balki o'quv jarayonini optimallashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish tamoyillarini aniqlash va usullarini ishlab chiqishdir. Texnologiyani amaliy qo'llash haqida gap ketganda, faqat bitta texnologiyadan foydalanish shart emas. Eng yaxshi xususiyatlarni birlashtirgan bir nechta ta'lim texnologiyalarini birlashtirish eng yaxshi usul hisoblanadi. Talabaning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun chet tilini o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash va bir necha yillar davomida zamonaviy o'qituvchilarning innovatsion g'oyalarini sinchkovlik bilan o'rganish, sinab ko'rish va moslashtirish lozim.

Ingliz tili darslarini o'tkazishda o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun biz talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanamiz: tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, tadqiqot texnologiyasi, intensiv o'qitish, AKT, interfaol yondashuv va o'yin texnologiyasi [3].

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'quv jarayonini tashkil etishda yetakchi innovatsion texnologiyalardan biri bo'lib, darsning turli bosqichlarida AKTdan foydalanish o'quv jarayonini optimallashtirish va vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim faolligini faollashtirish, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari va til ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi [1].

Ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalardan yana biri loyihalash usuli hisoblanadi. Loyihalash usulini talabalarning nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirish va chet tilidan madaniyatlararo muloqot va o'zaro aloqa vositasi sifatida foydalanish qobiliyatini rivojlantirishning yetakchi usullaridan biri deb hisoblash mumkin. BU usulda o'qituvchi nafaqat talabalarga ta'lim beradi, balki o'zi ham ko'plab yangidan-yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

XULOSA.

Xulosa sifatida aytish lozimki, ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini optimallashtirish, darsni yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar har bir o'quvchiga individual yondashuvni qo'llagan holda ularning lingvistik qobiliyatini rivojlantiradi,

shuningdek, har bir talabaning bilim sifatini xolisona baholagan holda, an'anaviy o'qitish usullarini yangi usullar bilan to'ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste'dod, 2010. – 140 b.
2. Барышникова Н.В. Параметры обучения межкультурной коммуникации в средней школе // ИЯШ. – 2002. - №2. С.8-12.
3. Гусева Л.П. Играем, учим, мастерим. – Ростов: Феникс, 2012. 98с.
4. Джужук И.И. Метод проектов в контексте личностно-ориентированного образования. Материалы к дидактическому исследованию. – Ростов., 2005. 182 с.
5. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М., 2008.

A BRIEF OVERVIEW OF THE WORKS OF FAKH AI-DIN AI-RAZI KEPT IN THE EASTERN MANUSCRIPTS CENTER

UMARJONOV Sokhibjon

*Tashkent International University of Financial
Management and Technology (TIFT)*

Senior teacher of the Department of Social Humanities and History

Tashkent, Uzbekistan.

Email: fenomen1993@bk.ru

<https://orcid.org/0000-0001-7799-0426>

ABSTRACT

This article provides a brief description of the works of Muhammad ibn Umar Fakh al-Din al-Razi which stored in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. It is noteworthy that of Fakh al-Din al-Razi's works on philosophy, logic and theology have been little studied in Uzbekistan and some of the works in the manuscript fund have also been little studied by Orientalists in Asia and Europe.

Key words: *manuscript, lithography, Hamid Sulaymon Foundation, nastaliq, naskh, suls, theology, Misril Maktum, "Kashf al-Zunun".*

INTRODUCTION

Central Asia has historically served as a pivotal center of knowledge and enlightenment. This region has produced numerous distinguished scholars whose contributions have significantly shaped various fields of study. Despite the extensive scientific heritage they bequeathed much of it has been lost or appropriated during numerous invasions. Nevertheless, the quantity of works that have endured to the present day alongside those that have been documented is truly remarkable. A notable institution dedicated to the preservation of this intellectual legacy is the Institute of Oriental Studies of the Uzbekistan Academy of Sciences. The manuscript collection housed at the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan ranks among the most extensive and diverse manuscript collections globally encompassing a wide array of scientific disciplines. Consequently, it was inscribed on UNESCO's World Heritage List in 2000 and is safeguarded as part of the world's cultural heritage. Notably within this manuscript collection the oldest item dates back to the 9th century (a copy of the Quran inscribed in Kufic script) while the most recent additions correspond to the mid-20th century [1].

The collection of manuscripts contains works written in Uzbek, Arabic, Persian, Tajik, Urdu, Pashto, Azerbaijani, Turkish, Tatar, Turkmen, Uyghur, and other Eastern peoples' languages. These works are related to various branches of science in the Middle Ages and later periods namely history, literature, philosophy, law, astronomy, chemistry, medicine, geography, pharmacology, linguistics, music, mathematics, mineralogy, and other fields.

The works preserved within this treasury can be categorized into two principal groups. The first group encompasses scriptural works while the second group comprises printed and published texts. At present the manuscript treasury contains a total of 26 382 volumes (main collection – 13 559; duplicate collection – 5 237; Hamid Sulaymon collection – 7 586) whereas the aggregate number of printed and published texts surpasses 40 076 volumes (main collection – 23 569; duplicate collection – 3 243; special collection – 6 389; Hamid Sulaymon collection – 6 875) [1]. These sources hold significant value for the scholarly examination of the history of Central Asia and Eastern nations including the Arab states, Afghanistan, Pakistan, Turkey, China, Iran, and India. Furthermore, the Institute's manuscript collection contains approximately 10 000 historical documents.

LITERATURE REVIEW

Fakhr al-Din al-Razi's philosophical outlook encompasses a comprehensive and logical framework that includes theological philosophical and moral works. His contributions have garnered the attention of researchers not only from Asia but also from Europe primarily due to their relevance to contemporary issues about various dimensions of social life. Specifically, the religious-philosophical perspectives of Fakhr al-Din al-Razi on theological and Quranic interpretation as well as his commentaries on the works of Ibn Sina (Avicenna) have been subjects of extensive study. Notable European scholars such as Ayman Shihadeh [2;3;4], Tariq Jaffer [5], Yasin Seilan [6], Michael

Rapoport [7], Frank Giffel [8], Dmitry Gutas [9], and Goljuk Sherafettin [10] have engaged in research concerning Razi's moral philosophy as highlighted by Sagir Hasan Masumi in his studies [11]. Furthermore, Professor M.N. Boltaev [12] and N. Naimov [13] have conducted thorough analyses of Razi's ontological epistemological, and logical worldview drawing upon primary sources in their scholarly works and dissertations. The Afghan scholar Moyil Kheravi has also provided insights into Razi's life and discussions [14]. In this article, we aim to emphasize the significance of analyzing the works of Fakhr al-Din al-Razi particularly those preserved in the Manuscript Fund of the Institute of Oriental

Studies at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan which distinguishes our research from that of the aforementioned authors.

RESEARCH METHODOLOGY.

The quality and outcomes of scientific research are contingent upon the tools and methodologies employed in the investigation. Consequently, the emphasis placed on the instruments technologies, and methodologies of research within the scientific domain has consistently been substantial. As the complexity of the subject matter increases the inquiry into which instruments foundations or methodologies should be utilized to elucidate its properties and laws evolves into a methodological issue that must be addressed from the outset. Engaging with this issue forms the basis of the methodology representing the tier of methodological knowledge.

The objective of this study is to provide a concise overview of the necessity of writing and the stylistic elements present in the works of Fakhr al-Din al-Razi. In examining the scholarly contributions of prominent European Orientalists on these subject efforts were made to clarify the ambiguities surrounding the topic through the application of comparative analysis synthesis historical context logical reasoning dialectical methods and library research technique.

ANALYSIS AND RESULTS

In this small study, we would like to focus on the manuscripts of Muhammad ibn Umar Fakhr al-Din al-Razi, kept in the fund of the institute. 39 manuscript copies of 14 titles of Razi's works are stored in the main fund of the institute. Among them, *Al-Tafsir al-Kabir* or *Mafatih ul-ghayb* is considered the most numerous - 21 copies. Below is a list of works of Fakhr al-Din al-Razi kept in the manuscript fund, and we will give brief information about them.

1. *Al-Tafsir al-kabir* or *Mafatih ul-ghayb* (تفسير الكبير مفاتيح الغيب) is a work related to the science of tafsir. This great Qur'anic commentary began to be written around 595/1199. But Razi could not finish writing the work. It was later completed by his students [2, p.10]. This work is in the main fund of the Institute of Manuscripts 9237, 9238, 6834, 5109, 9236, 5108, 5106, 5110, 4719, 5107, 9473, 7295, 4776, 2157, 5986, 5326, 2062, 4754, 4755, 3248, 4736 inventory is kept under numbers. These manuscripts were copied in Arabic in Nastaliq, Naskh, and Suls scripts.

2. *Jami ul-ulum* (جامع العلوم). We found that there are 3 copies of the manuscript with inventory numbers 10583/7, 415, 5514. It was copied in Arabic, in Nastaliq script. This work was written at the request of Khorezmshok Takash. The work provides information about 60 sciences and their classification in the Muslim East of the 12th-13th centuries.

3. *Asrar al-tanzil wa-anwar al-tawil* (اسرار التنزيل) is Razi's unfinished work exploring theological themes based on the Qur'anic verses. It seems to have been written after the work "Al-Tafsir al-kabir" and in later sources it is sometimes referred to as a small commentary of the Qur'an (Al-Tafsir al-saghir) [2, p.10]. In 1312/1896, it was copied by Abdul-Wahhab Bukhari (عبد الوهاب بخارى) in the Arabic language, in Nastaliq script. Inventory number is 10691. The work begins with praise to God: حمد بيحدو بينعايت و مدح بيعدد و بى نهايت حضرت جلال آن خدارا كه واجب الوجود

The work ends with the thoughts that God guides to the truth and shows the right path: دران دريا نقصان ظاهر نكردد بلکه بشتتر تبلاطم و امواج درايد و الله يهدى الى الحق و هو يهدى السبيل . In the colophon of the manuscript, there is a sentence in which the scribe praised God for having finished copying the work. تمت الكتاب حامدا لله ... يا اله العالمين و يا [15]. خير الناصرين

4. *Latoif ul-Ghiyasiyya* (لطائف غياثية). We found out that there are 2 copies of the manuscript of the work in the main fund. Inventory 10873 and 2355 are digitized manuscript copies. In our previous scientific research, we conducted research within 10873 digital manuscript copies [16]. The first manuscript copy was copied in 1265/1848. The secretary's (*katib*) name was not given. The secretary asked the people who read this work to pray for the copyist's rights, that is, he demanded a prayer [17, p.120]. The work consists of three major articles:

1. About the virtue of science
2. On the proofs of the existence of the creator of existence and the universe
3. About the qualities of the human condition [18, p.1060].

It was copied in Persian, in the Nastaliq script. It consists of 120 sheets. The name of this work of Razi is not given in *Kashf al-Zunun*. The copy numbered 2355 was copied in the Tajik language, Nastaliq script by Uthman ibn Mir Muhammad in 1060/1650. It consists of 100 sheets (154-55). It is noteworthy that although the manuscript of this work exists, it is not known to the scientific community of the Central Asian region. Western orientalist Frank Griffel notes that manuscript copies of this work are kept in libraries in Tehran, Iran (*Tehran, Sipahsalār Library, no. 1167 and 6310; Tehran, Libray of the Majlisi Shūra no. 5225; Tehran, Melli Library no. 3657*) [8, p.474], while Ayman Shihadeh [18, p.288] dwells in his research on the history and necessity of the creation of the work.

5. There are 2 copies of the manuscript *Hadoiq ul-anwar fi-haqaiq ul-asrar* (حدايق الانوار فى حقايق الاسرار المشهور به جامع العلوم). Stored in the main stock under inventory numbers 2671 and 10287. The digital copy of inventory 2671 was copied in 1113/1701 in Persian, Nastaliq script. The work begins with praise to God: الحمد لله

The manuscript ends with a sentence about the righteous prayers of the stranger being answered:

و دعوات صالحة اين غريب شكسته دل را در حق او مستجاب گردانا و بمنة و كرمه

6. Manuscript of *Risalat taqqiq kalimatu-la ilaha illallah* (رساله في تحقيق كالمه لا (آله الا الله), inventory number: 562/11. It was copied in Arabic in 1583 by Arab Bukhari (عرب البخاري). It consists of 2 pages (400b-402a). In the colophon of the work, information is given that Arab Bukhari finished the letter in 991 AH.

تمت الرسالة الاثنيين 18 شهر ذى الحجة سنة 991 على يد احقر عباد الباري عرب بخاري

7. Manuscript copy of *Risalat al-kamaliya fi haqiq al-ilahiyya* (رساله الكماليه في (حقايق الالهيه) inventory number 2536 was copied in India in 1076/1665 in Persian language, Nastaliq script. Manuscript No. 2687 of the same work was copied by Misril Maktum in Tajik translation in Nastalik script. This work is Razi's work on philosophy and logic.

8. *Risalat Fittawhid* (رسالة فتوحيد) manuscript inventory number 5600, copied in Arabic, Nastaliq script. The size is 4 sheets.

9. *Sharkh al-Isharat wa-l-tanbihat* (شرح الاشارات وتنبيهات) is kept under inventory numbers 4957 I and 4957 III of the main stock. Written around 580/1184. This work is Razi's famous critical commentary on Ibn Sina's "Al-Isharat wa-l-Tanbihat" [3, p.1]. I have not been published until the department of logic [2, p.9]. It was copied in Arabic, in Nastaliq script.

10. *Al-Mabahis al-Mashriqiyyah* (المباحث المشرقية). This manuscript was copied in 665/1267 by Ali ibn Muhammad in Arabic, in Nastaliq script. Main stock, Inventory number 2432. The work is considered to be Razi's early scholarly legacy and includes Ibn Sina (d. 429/1037), Abu l-Barakat al-Baghdadi (d. 560/1164-5), Abu Bakr al-Razi (v. 313/925) the main influence. This work does not represent the maturity of Razi's philosophy, but it contains many views that are sharply different from his key and previous views. In this work, Razi accuses his colleagues in philosophy of obeying the arguments and methods based on ancient and Islamic forces [5, p.21]. In the colophon of the manuscript, it is stated that the book is dedicated to the blessing of God:

كامل هذا الكتاب فتم بحسن توفيق لله الذي اسبغ علينا النعم و عم على رجب سنة خمس و ستين و [19] سبعمائة حامدا لله و شاكرالا له و مصليا على خير خلقه محمد و عترته

11. *Masail fittib* (مسائل في الطب). Number 3135 is a manuscript copied in Arabic, Nastalik script. The manuscript may belong to the pen of Abu Bakr al-Razi [20, p.122].

12. *Nihayat al-uqul* (نهاية العقول) manuscript is numbered copy 10129 of the main stock. It consists of 200 pages, copied by Ali ibn Muhammad ibn Ali Al-Nasafi in

Naskh letter, Arabic script, in 680/1281. This unpublished work on the science of the Word had a great impact on the history of Islamic theology. This represents a decisive short stage between al-Razi's earlier Ash'ari thinking and Key's philosophical theology [2, p.8]. In the colophon of the manuscript, information is given that Ali ibn Ali al-Nasafi copied the first volume of the work.

تم الجلد الاول من كتاب نهاية العقول وقت الصلوة الجمعه من اليوم التاسع من جماد الاخر سنة اثنين وستمائة على يد العبد الضعيف على بن محمدى على النفسى ... دعا

13. *Risalat fi-tanbih alal baadal asrar al-muvadaat fi baadal aswar* (رساله فى) manuscript is manuscript number 2820. In 1099/1688, Muhammad Sadiq ibn Habibullah copied it in Nastaliq letter in Tajik language. It consists of 3 pages (276b-274a).

14. *Vasiyatnomai Razi* (وصيت نامه). Manuscript number 2213, copied in Tajik language. It consists of 4 pages (25b-28b). The testament begins with a sentence about the author's hope for God's goodness.

بنده را اميدوار برحمت كرد كار خود دانايى بى شك بكرم نيكو كارى خداوند

CONCLUSION

In general, we can see the development of sciences in various fields of the peoples of our country from the works of Razi kept in the manuscript fund. Our task is to research them and use them on a large scale to shape our spiritual consciousness.

REFERENCES

1. The history of institute [Internet source]. URL: <https://beruni.uz/en/home11/history-of-the-institute.html>
2. Shihadeh, Ayman. The Teleological ethics of Fahr al-Din al-Razi. Leiden: Brill, 2006. 280 p.
3. Shihadeh, Ayman. (2014). "Fakhr al-Din al-Razi's Response to Sharaf al-Din al-Mas'udi's Critical Commentary on Avicenna's Isharat". The Muslim world, volume 104, 1-60.
4. Shihadeh, Ayman. (2016). Razi's (d. 1210) Commentary on Avicenna's Pointers: The Confluence of Exegesis and Aporetics in The Oxford Handbook of Islamic Philosophy, eds. K. 5. El-Rouayheb and S. Schmidtke Oxford: Oxford University Press, 296-325.
5. Tariq Jaffer. "Razi Master of Qur'anic Interpretation and Theological Reasoning". Oxford University Press, 2015. – 244.
6. Yacin Ceylan. "Theological and Tafsir in the major works of Fakhr al-Din al-Razi". Thesis presented for the degree of Ph.D. in the Faculty of Arts, University of Edinburg.1980. – p 264

7. Rapoport, A.M. “The life and afterlife of the rational soul: Chapter VIII-X of Ibn Sina’s Pointers and Reminders and their commentaries”. A dissertation presented to the faculty of the Graduate school of Yale university in Cand. for the degree of doctor of philosophy, 2018. p 500.
8. Giffel, Frank. Herausgegeben von Ulrich Rudolph, Philosophie in der Islamischen welt, 11. und 12. jahrhundert: Zentrale und Östliche gebiete. Schwabe verlag, 2021. s 471-501. (In German).
9. Gutas, D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. Leiden: Brill, 2014. P 617
10. Gölcük, Şerafettin. Kelam Tarihi, Esra Yayınları, Konya 1992. (In Turkish)
11. Masumi, M. Saghir Hasan, “Imam Razi’s Ilm al-akhlaq”. Kitab Bhavat.: New Delhi, 1992. – p 333.
12. Болтаев, М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн-Сины и его школы (Issues of epistemology and logic in the works of Ibn Sina and his school). Душанбе, 1965. 295 стр.
13. Наимов, Н. Философские и логические воззрения Фахриддин Розидин (Philosophical and logical views of Fakhr al-Din Razi); Дис. канд. фил. наук – Тошкент, 1975. – 203 с.
14. Херавий, Мойл. “Шархи ҳол, зиндаги ва мунозароти Фахриддин Рази”. Тегеран, 1340 г. хиджри, 320 стр. (форс тилида).
15. Description [Internet source]. URL: <http://scam.beruni.uz/scam/items/13065>
16. Umarjonov, S. (2020). Fahriddin Muhammad ar-Roziyning (1149-1209) “Latoif ul-g’iyosiyot” asarining falsafiy-germenevtik tahlili [Philosophical and hermeneutic analysis of Fahriddin Muhammad ar-Razi’s (1149-1209) work “Latoif ul-Ghiyasiyat”, in Uzbek]. Dissertation written for obtaining the academic degree of Master. 121 p.
17. فخر الدين الرازي لطايف الغيسيت ص ١٢٠
18. Umarjonov, S. S., & Safarov, M. K. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g’iyosiyot” qo’lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo’yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili [Fakhr al-Din Razi’s “Latoif ul-Ghiyasiyat” manuscript of the issue of reason and faith and its religious-philosophical hermeneutic analysis, in Uzbek]. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1058-1068.
19. Description [Internet source]. URL: <http://scam.beruni.uz/scam/items/12505>
20. Собрания восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР II [Collections of oriental manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR II, in Russian]. Editor A. A. Semenov. Tashkent, 1954.

THE INFLUENCE OF THE GLOBALIZATION PROCESS ON SHAPING THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE

NOSIROV Rashod

*Doctor of Historical Sciences, Professor,
Tashkent State Transport University*

ABSTRACT

This article focuses and analyzes the issues of prevention of the impact on the worldview of student-youth at a time when globalization processes are gaining momentum.

Keywords: *Student-youth, raising spiritual and moral consciousness, national values, patriotism, spiritual and educational activities, fairness, in the minds of youth, people.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются и анализируются вопросы профилактики влияния на мировоззрение студенческой молодежи в период, когда набирают обороты процессы глобализации.

Ключевые слова: *студенческая молодежь, повышение духовно-нравственного сознания, национальные ценности, патриотизм, духовно-просветительская деятельность, справедливость, в сознании молодежи, народ.*

INTRODUCTION

Today, as we move from the “strategy of action – towards the strategy of development”, it opens the path of broad prospects for the economic and social development, cultural and spiritual renewal of our country. Thanks to the reforms carried out in our country, our society is moving towards economic and spiritual and educational growth. Today, the development of spirituality and enlightenment in the life of our society is recognized as one of the top priorities of state policy, and spiritual updates serve us to achieve effective results in the strategy of reforms carried out in our country. As noted by the head of State Shavkat Mirziyoyev about the relevance of this reform strategy: "strengthening the spiritual foundations of our society, developing the cultural sphere, supporting the activities of scientific and creative organizations and our esteemed intellectuals will also be one of the priorities for us,". Today, a large-scale study of the problems of forming the spiritual and moral consciousness of students and young people is becoming an urgent issue. The publication of monographs, brochures, collections of scientific and theoretical

importance in this regard, the favor of doctoral and candidate dissertations will pay off in the future, of course. Therefore, it is important to research the conceptual foundations of the impact of globalization on the spiritual and moral consciousness of students and young people. Because, in the scientific-theoretical and methodological literature, various aspects of this problem are not comprehensively and perfectly analyzed. In the context of globalization, the changing perception of raising the spiritual and moral consciousness of students-young people creates a variety of controversial opinions about their essence, forms of manifestation. Based on the results of scientific research achieved within the framework of the science of philosophy and ethics, it is necessary to clarify the content of these concepts, work scientifically based definitions.

Today's globalization process has its impact on all aspects of social life, in particular, young people are not without it. This is a general, natural process on the one hand. Because students and young people are also becoming aware of the current informational community environment through various factors. But their level of ideological immunity can vary with respect to values. In the minds of some young people, there is a need for frequent holding of spiritual and educational events, meetings, conversations in order to prevent the appearance of behavior, unhealthy ideas, a tendency to values that do not correspond to national-spiritual values of the people. This is due to the following: firstly, in the process of globalization, the risks to the spiritual life of our society, threats are manifested in a specific form, the power of their influence is increasing day by day. issues of protecting young people from spiritual threats, "mass culture" during the period of llobalization.

"Menace "is derived from the Arabic word for" fear, intimidation", which is used in everyday life to mean"the danger of intimidating, scolding, punishing someone, and of a disaster, of a frightening event" 46. In the philosophical sense, "a threat is a form of security, a concept that expresses a certain stable political - social and historical situation in a specific space and time, due to the aggression of local, territorial, regional and universal negative factors aimed at a specific goal during a certain period in relation to the life and activities of a person, society and the state,"47, the impact on the development of-it is said to the actions.

Depending on the nature of the threats and the degree of influence they exert on the areas of development, one can distinguish between human, individual, citizen, nation, state, society, Region, global, internal and external, large and small, as well as economic, social, political, environmental, demographic, ideological, military, natural-climatic, and from the point of view of space, far and near and other forms.

But regardless of the form in which they occur, in its essence-content, it is considered a force directed against the progress of society.

If we look at the issue with a practical eye, then any prejudice directed against our spirituality refers to the inherent and appropriate features that nationalize our nation, passed down from ancestors to generations for centuries, thousands of years, national pride, national pride, a sense of pride that constantly challenges us to evolutionary progress, freeing us from all the complications and illusions on this path.

RESEARCH METHODOLOGY.

As noted in the decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. 3160 of July 28, 2017 on improving the effectiveness of spiritual and educational work and raising the development of the industry to a new level, today the processes of globalization in the world are gaining momentum and new threats and risks against peace and stability are increasing. Such a complex and threatening situation makes it necessary to critically evaluate the work carried out in the field and improve its activities on the basis of modern requirements. It is also worth noting the activities of the president in the field of ensuring international peace. As an initiative, we propose to establish a special international fund for the support of education in Afghanistan. The main purpose of this is to assist the Afghan side in the training of national personnel in areas in demand in the country, providing scholarships and grants for talented students and young scientists. All this will undoubtedly help protect the growing young generation from the ideology of violence and radicalism. Head of State Sh. As Mirziyoyev noted: it is clear to all of you that at the present time, fiercely competitive, contradictory and contradictions are becoming more and more acute on the Risks such as religious extremism, terrorism, drugs, trafficking, illegal migration, “mass culture” have intensified, undermining beliefs, family values that humanity has practiced for centuries.

Here is such and many other threats that cause serious problems in human life – the same fact, and no one can deny it.

President Of The Republic Of Uzbekistan Sh. As Mirziyoyev touched on the activities of the UN, he proposed to increase the number of Member States of the Security Council for its further sustainable work. Also, the head of our state proposed to adopt the UN Convention “on the rights of youth” at the UN pulpit, taking into account the presence of the largest layer of youth in human history today.

The president of the country attributed this to the need for protection for young people at a time when the number of young people has increased by more than two

billion, international terrorism and extremism are growing rapidly. After all, the means of globalization provide an opportunity for the widespread spread of "mass culture". He is polluting the thinking of the Uzbek people, his music, his dress, his mutual treatment, his family, family relations, even his dreams. The pools of ideology, which are conducting spiritual subversion against us, do not spare anything to achieve their goal, all are employing tools, investing a lot of money, using the most modern methods-techniques, organizing various performances, entertainment shows, musical channels that will bring youth to their senses. Destructive ideas are promoted through such sources, the worst of which is that they are seen, watched by our gullible, impressionable youth, who do not yet differ from white and black. This is due to the fact that the system of "mass culture", its products, a special way of avrashing our youth has been formed, which means that the fight against them is necessary to become the daily practical work of each of us. Therefore, when our student-youth does not rely on national values in their worldview, completely alien values take place from their consciousness and thinking. A free view of its national values is formed. Therefore, in the process of working with the younger generation, it is necessary to take into account these circumstances separately. In particular, a rational study of the current state of the attitude of young people towards national and universal values helps to determine which values are becoming the priority in their practical activities. The main goal of this is to strengthen their trust and belief in national-cultural heritage and values. That is why today the formation of a clear position in the worldview of students and young people, in their attitude to national values, is considered one of the pressing issues.

ANALYSIS OF LITERATURE ON THE SUBJECT.

In the processes of globalization, student-youth are falling into negative information influences that are completely alien to "mass culture", nation and country. To prevent such threats "...culture and enlightenment," the president of Uzbekistan sh.M.Mirziyoyev, - it is necessary to further strengthen the work in the field of educating young people in the spirit of national and universal values. This is a vital task for all of us today. Also, Sh.M.Mirziyoyev, in his speech at the 72nd session of the UN General Assembly, justified the need to develop an International Convention on Youth Rights, saying that "the next day of our planet, the prosperity of which our children will grow up, is connected with what kind of man they are. Our main task was to create the necessary conditions for youth to show their potential, to prevent the spread of the "virus" of the idea of violence. The main task of today is to educate the younger generation on the basis of national and universal values, to form

in their hearts feelings of affection for their people, homeland, to alert and protect them from information attacks by various destructive forces.

ANALYSIS AND RESULTS.

Globalization is a necessary result of the civilization of historical development of mankind, the result of scientific and technical revolutions, great turns in the development of science, inter-civilizational dialogues, the mentality of the peoples of the world on the basis of the commonality of planetary phenomena, information communications that quickly affect the psyche and aspirations of the spiritual world, the phenomenon of "Just as every social phenomenon has its positive and negative side," I remarked. A. Karimov, - the globalization process is no exception. At this moment, its incredibly sharp and comprehensive effect can be seen, felt in almost all areas".

The effects of globalization on different countries are also different. This is due to how the economic, spiritual capacities and policies of the countries of the world are. In order to reduce the negative impact of the violent processes taking place in the world on each country and to strengthen its positive impact, it is necessary to deeper understand the essence of this phenomenon, study its features. It is impossible to adapt to this phenomenon without deep study, to change its direction in the appropriate way, if necessary. Globalization is again such a process that not studying it in depth, not developing strategies, tactics and technology to use it, will be equivalent to turning over the country's economy and culture, morale to an uncontrollable boat to a turbulent river flow descending from the mountain.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS.

In conclusion, the fact that at the moment the acute and comprehensive impact of globalization is manifested in all areas, especially in the strengthening of issues of integration and cooperation between these states and peoples, the rapid penetration of foreign investment, the creation of capital and goods, jobs in which the labor force is formed free facilities, harmonization of various values on a universal basis, an increase in Another peculiarity of the globalization process is that the rapid spread of modern information technology and communication, the achievements of science, is also serving progress, while evil forces can be observed serving the mafia of various political forces and centers, becoming a sharp weapon of favorable ideological influence on the internet in achieving their mercenary goals.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 372 б.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 505 б.
3. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.
4. 4.Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
5. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
6. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
7. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 366-375.
8. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.
9. Xolmirzaev, X. N. (2024). YANGI O 'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA INSONNING INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIIYATI OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 583-589.
10. Xolmirzayev, X. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON SALOHIIYATINI NAMOYON BO 'LISH OMILLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 197-197.
11. Alimovna, E. Y., Alimovna, E. G., & Burievna, M. S. (2020). Historical Stages Of Innovative processes In Higher Education Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 9824-9834.
12. Эргашева, Ю. (1998). Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развитие (50-60-е годы). Автореф. на соиск, доктор канд. истор. наук.–Т.

13. Holmirzaev, H. N. DIALECTIC OF THE ELEMENTS OF THE HUMAN COMPETENCE SYSTEM. *ILMIY XABARNOMA*, 19.
14. Naqibillaevich, H. H. (2022). Philosophical Analysis of Elements of Human Power System. *The Peerian Journal*, 5, 96-101.
15. Холмирзаев, Х. Н. (2022). ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТ-ИНСОН САЛОҲИЯТИНИ ЮЗАГА ЧИҚИШИ ОМИЛИ. *Conferencea*, 353-355.
16. Холмирзаев, Х. (2022). Инсон салоҳияти: тузилиши ва ижтимоий моҳияти. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Холмирзаев, Х. (2020). МАЪНАВИЙ ЯНГИЛАНИШ ДАВРИДА ИНСОН САЛОҲИЯТИНИНГ РОЛИ. *Scienceweb academic papers collection*.

UDK 502.10:159.955.000.93

ABU ALI IBN SINONING BORLIQ VA BILISH HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

MASHARIPOVA Gularam Kamilovna*Alfraganus universiteti professori, falsafa fanlari doktori,**Orcid: 0009-0007-0788-2359.*

ANNOTATSIYA

Maqolada Abu Ali ibn Sinoning borliq va bilish haqidagi falsafiy qarashlari ilmiy jihatdan manbalar asosida asoslab berilgan. Abu Ali ibn Sinoning ontologik qarashlari asosiy e'tibori bilan neoplatonizm ta'sirida shakllanganligiga guvox bo'lamiz. Borliq xaqidagi ta'limotning tayanch kategoriyalari materiya, harakat, makon, vaqt, substansiyadir. Maqolada Abu Ali ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o'z-o'zidan o'zgarmaydi, inson ularni anglab etishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyliigi mumkin emas, degan fikrni ilgari surganligi sharhlar bilan keltirildi.

Kalit so'zlar: *materiya, harakat, makon, vaqt, substansiya, borliq, bilish, kategoriya, o'lim, hayot, rux, jism.*

PHILOSOPHICAL VIEWS OF BEING AND KNOWLEDGE OF ABU ALI IBN SINA

ABSTRACT

The article substantiates Abu Ali ibn Sina's philosophical views on existence and knowledge based on scientific sources. Abu Ali Abu Ali ibn Sina's ontological views were mainly influenced by Neoplatonism. The main categories of the doctrine of existence are matter, motion, space, time, substance. The article mentioned that Abu Ali ibn Sina put forward the opinion that nature is eternal and eternal, its laws do not change by themselves, man is able to understand them, the soul is determined by the activity of the body, and its individual immortality is impossible.

Keywords: *matter, motion, space, time, substance, existence, knowledge, category, death, life, spirit, body.*

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ О БЫТИЕ И ПОЗНАНИЕ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

АННОТАЦИЯ

В статье на научных источниках обоснованы философские взгляды Абу Али ибн Сины на существование и познание. Абу Али На онтологические

взгляды Абу Али ибн Сины главным образом повлиял неоплатонизм. Основными категориями учения о существовании являются материя, движение, пространство, время, субстанция. В статье упоминалось, что Абу Али ибн Сина выдвинул мнение, что природа вечна и вечна, ее законы не изменяются сами по себе, человек способен их понять, душа определяется деятельностью тела, и его индивидуальное бессмертие невозможно.

Ключевые слова: материя, движение, пространство, время, субстанция, существование, знание, категория, смерть, жизнь, дух, тело.

KIRISH

Falsafa fani tarixidan ma'lumki, borliq haqidagi turlicha qarashlar, ta'limotlar mavjud bo'lgan. Borliq tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, moddiylik va ma'naviylikni o'tmish va kelajakni ob'ektiv va sub'ektiv voqeylikni, o'lim va hayotni, rux va jismni o'zida mujassam etuvchi umumfalsafiy tushunchadir. Manbalarda aytilishicha, "tabiatshunoslik fanlarining mustaqil soha bo'lib ajralib chiqishi va shakllanishi aslida Yevropada XVII asrda emas, balki Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tinimsiz izlanishlari orqali IX-XI asrlarda ro'y bergan edi" [1, 30-b.]. O'sha davrda u shug'ullanmagan fanning o'zi bo'lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, falsafa, xususan, bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan. Abu Ali ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning ob'ektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossaligidan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Abu Ali ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi [2, 128-b.].

U neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu – ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu – ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq, ular haqiqatdan yiroqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi», deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir [3, 265-266-b-b.], degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida gapirar ekan, u yoki bu sezgining yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o'z holicha ovozga ega bo'lmaydi. Ovoz ikki jism

to‘qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida yuzaga keladi. Bu to‘lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa etgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi, ular bundan jonni xabardor etadi [4, 260-261-bb.]. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo‘lsa-da, hozirgi tasavvurlarga mos keladi. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino sezgilarni hali ob‘ektiv dunyoning sub‘ektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta‘sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Abu Ali ibn Sino uni mexanik talqin qiladi. Abu Ali ibn Sino ko‘rish haqidagi ta‘limotni ishlab chiqdi. Ko‘rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta‘limoti asossiz ekanligini ko‘rsatadi. Abu Ali ibn Sino yorug‘likni ko‘rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi [6, 224-b.].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alloma sezgilar va tuyg‘ularning barcha shakllarini o‘rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya‘ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, hissiy bilish shaklini miya bilan bog‘ladi, uni idrok etish va sezish asosi [5, 263-b.], deb e‘tirof etdi. Abu Ali ibn Sino ta‘limotiga ko‘ra, in‘ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog‘liq emas. Sezish markazi – miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – miyaning o‘rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. «Kitob un-najot» asarida Abu Ali ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o‘ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a‘zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o‘tkazkich bo‘lib xizmat qiladi [5, 264-b.]. Umumiy ma‘lum tasavvurga ko‘ra, asablar bosh miyadan boshlanadi, ularning tarmoqlari terining yuza tomonida tugaydi [4, 41-b.]. Ko‘rib turganimizdek, Abu Ali ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo‘l bilan tushuntirishga harakat qiladi. Abu Ali ibn Sino O‘rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi tasavvurni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning falsafiy merosini qiyosiy o‘rganish tabiat hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda yagona yondashuvga tayanganini ko‘rsatadi. Uning tasavvurining kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha etib boradi [5, 264-b.], - deb qayd etadi. Donishmand fikriga ko‘ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavdalantiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo‘qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, mohiyat uch tarzda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, narsa sezgilarda ularni kuzatish jarayonida aks etadi. Bu erda narsalarning sezgi organlarida bevosita aks etishi nazarda tutilmoqda. Abu Ali ibn

Sino in'ikos konsepsiyasini bilish jarayoni sifatida qayd etar ekan, bilish darajalari to'g'risidagi masalani ko'taradi. Ma'lumki, bu mo'ljal Yangi davr falsafasida ishlab chiqilgan va nemis klassik falsafasida o'zining tadrijiy yakunini topgan.

Ikkinchidan, ob'ektiv borliqda amalda mavjud bo'lmagan narsaning mohiyati anglanadi [7, 30-b.]. Bu erda formal ahamiyat kasb etuvchi va moddiy borliq bilan bog'lanmaydigan ideallashtirilgan ob'ektlar mohiyatini bilish nazarda tutiladi. Bu mohiyat inson aqlining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi.

Uchinchidan, narsa obrazi muayyan sharoitlarda biluvchining jonida aniq aks etishi mumkin. Bu tamoyilda narsani sezgiga bog'liq bo'lgan aloqalardan mavhumlashtirish imkonini beruvchi abstraksiyaning kuchi qayd etiladi. Bunda narsaning obrazi uning substrati mavjud emasligiga qaramay aks etishi mumkin. SHundan kelib chiqib, Abu Ali ibn Sino oqilona bilishda mavhumlashtirish muhim rol o'ynashini qayd etadi. «Bilish narsa obrazini mavhumlashtirishning ayrim o'zaro bog'langan bosqichlaridan iborat jarayon bo'lib, uning natijasida biluvchining ongida predmetning mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha vujudga keladi. Bunday mavhumlashtirish bosqichlari to'rta» [6, 31-b.].

Abu Ali ibn Sino «umumiy sezgi»ni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, umumiy tuyg'u – miyaning old qismida joylashgan kuch bo'lib, u besh sezgida aks etuvchi barcha shakllarni va ular uzatuvchi kuchni mustaqil qabul qiladi [5, 266-b.]. Binobarin, uning fikriga ko'ra, sezgi organlari yordamida olingan tuyg'ular umumiy sezgi vositasida birlashtiriladi va narsaning hissiy obrazi yaratiladi. Obraz deganda, alloma narsaning tashqi xususiyatlari va xossalari, materiyaning aksidental tomonlari yig'indisini tushunadi. Masalan, inson va uning obrazi haqida so'z yuritir ekan, u shunday yozadi: «Uning obrazi bu uning uzunligi, kengligi, sifati, miqdori va uning holati, ya'ni inson bilan bog'liq barcha narsalardir» [5, 267-b.].

Abu Ali ibn Sino bizga ma'lum bo'lmagan boshqa bir olamning mavjud bo'lishi mumkinligini ta'kidlar ekan, ammo uning insoniyat bilan olamdan farqi masalaga to'xtalib, u olamning bu olamdan boshqacha bo'lishi zarurdir, deydi. Olamning chekli yoki cheksizligi e'tirof etish asnosida ular "bo'shliq" borligini isbot qiladilar. Ma'lumki har qanday jismning harakati makonda sodir bo'ladi. Abu Ali ibn Sinoning javobida bu masala bo'shliq tushunchasi orqali taxlil etiladi va u o'z javobida "na quyiga na yuqoriga borish uchun joyning yo'qligi menga taslim qilinadi", deydi. Boshqa bir-joyda Abu Ali ibn Sino bu masalada o'zining ba'zi fikrlariga suyardik", - deb yozadi. Demokrit ta'limotida borliq bu inson xissiy qabul qila olmaydigan, abadiy, moddiy zarrachalar, ya'ni atomlar majmuidan iboratdir. Ular mavjud bo'lishi uchun harakatda bo'lishi lozim. Harakatda bo'lish uchun bo'shliq bo'lishi zarurdir. Bo'shliq Abu Ali ibn Sinoning javoblaridan ma'lumki, falakda mavjud emas.

Abu Ali ibn Sinoning ontologik qarashlari asos e'tibori bilan neoplatonizm ta'sirida shakllanganiga guvoh bo'lamiz. Borliq haqidagi ta'limotining tayanch kategoriyalari sifatida materiya, harakat, makon, vaqt, substansiya, unsur, jism, falak, kabi tushunchalarni qayd etish mumkin. Abu Rayhon Beruniy fikricha, olamning aylanma harakat qiluvchi qismini "yuqori olam", To'g'ri harakat qiluvchi qismini "quyi olam" deb hisoblaydi. Bunda biz mutafakkirning qadimgi dunyo falsafasi, ayniqsa antik falsafadagi olamning osmon va erga ajratilishi, osmon jismlarining aylanma harakatda, erdagi jismlarning to'g'ri chiziqli harakatda bo'lishi, aylanma harakatning mukammal ekanligi to'g'risidagi fikrlarga tayanganiga guvoh bo'lamiz [8, 30-b.]. Ayni paytda Abu Rayhon Beruniyning olamning tuzilishi to'g'risidagi fikr-mulohazalarini Qadimgi Sharq falsafasidagi borliqning substansiyasini to'rt unsur tashkil etishi to'g'risidagi g'oya bilan bog'lashga, uni o'ziga xos tarzda talqin qilishga urinishini ham ko'rishimiz mumkin. U yozadi: "Bayoniga ehtiyojimiz tushadigan narsa (ya'ni Er) shu (to'rt) navning biri bo'lib, ular olam o'rtasi atrofida bir-birining tepasiga tartibli suratda qo'yilgan va (ularning eng engili) to' efir "tagigacha", ya'ni uning bizga eng yaqin chegarasiga etadi. U navlarning vazni og'iri olam markaziga intilma, engilligi esa, olam markazidan (qochma) harakat qiladi" [9, 31-b.]. Shunga qaramay, O'zbekistonda, mintaqada falsafa tarixi tadqiqotchilari orasida borliq muammosi bo'yicha Berdiqu To'ychiev fikriga ko'ra, quyidagi uchta konseptual yondashish mavjudligini e'tirof etish va himoya qilish ko'zga tashlanadi:

1. Borliq haqidagi islomiy, tasavvufiy ta'limotlarni ob'ektiv yoki sub'ektiv idealizmning u yoki bu ko'rinishi deb talqin etish.

2. Tabiatshunoslar - Xorazmiy, Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek va boshqalarning borliq haqidagi qarashlarini deistik nuqtai nazardan talqin etish (A.Bahouddinov, A.Sagadeyev, E.Ahmedov, A.Sharipov va boshqalar).

3. Sharq mutafakkirlari – faylasuflari Forobiy, Ibn Miskavayh, Abu Ali ibn Sino, ularning maslakdoshlarini, izdoshlarini esa panteist deb e'lon qilish. Xususan, akademik M.M. Xayrullayev, butun o'rta asr mumtoz arab – musulmon falsafasi vakillari u yoki bu darajada panteistik pozitsiyada turganlar, degan xulosani ilgari surgan [10, 179-b.].

O'rta asr musulmon xalqlari falsafasidagi barcha diniy – falsafiy oqimlar orasida mashshoiyyun-peripatetiklar, akademik M.M. Xayrullayev iborasiga ko'ra esa "Sharq arastuchilari" [11, 118-119-bb.] va tabiiyun-demokritchi oqimi etakchi bo'lganligi tarixchilar Ibn an-Nadim, Ashariy, Moturidiy, Shaxrastoni, Bayhaqiy, Shaxrizuriy va boshqalar tomonidan, shuningdek hozirgi zamon xorijiy Sharq va G'arbdagi tadqiqotchilar asarlarida ta'kidlanadi. Mustaqillik davrida bu yo'nalishdagi izlanishlardan yana biri B.O.To'rayevning monografiyasida aks etgan. Unda o'rta asr

musulmon xalqlari falsafasi, fani tarixida borliq, uning mavjudlik shakllari muammosi bo'yicha, garchi birlamchi manbalar yetarli foydalanilmagan bo'lsada, asosiy qarashlar-substansional va relyasion konsepsiyalar mavjud bo'lganligi, ularning mohiyati, funksional farqlari, o'zaro munosabati tadqiq etilib, ba'zi umumlashtiruvchi xulosalar berilgan. Substansional konsepsiya vakillarining asosiy aqidalari quyidagicha: "...fazo materiyaga va moddiy o'zaro ta'sirlarga bog'liq bo'lmagan holda, materiyaning mavjudlik sharti (shakli)dir; u - mutlaq harakterga ega (substansiya). Vaqt esa nomoddiy substansiya bo'lib, o'z-o'zicha, fazo, materiya va harakatga bog'liq bo'lmagan holda (alohida) mavjud; u borliq, fazo va harakatning mavjudligiga hal qiluvchi, asosli ta'sir ko'rsatadi; zamoniy munosabatlar mutlaq harakter kasb etib, har qanday hisob tizimlarida bir xildirlar (Demokrit - Nyuton konsepsiyasi)" [12, 17-b.].

Qadimgi yunon falsafasida Demokrit, Gippokrat, Galen kabi mutafakkirlarning tabiatshunoslik bilan chuqur bog'liq bo'lgan bu naturfalsafiy qarashlari keyinchalik o'rta asrlardagi musulmon falsafasida tabiiyun oqimi an'analari sifatida yuzaga chiqqan. Bu oqimning asosiy vakillari Jobir ibn Xayyon, Muhammad Eronshaxriy [13, 622-630-bb.], Zakariyo ar-Roziy [14, 169-b.; 15], Abu Rayhon, Abu-l-Barakot al-Bag'dodiy [16, 48-52-bb.] va boshqa buyuk tabiatshunos, naturfaylasuflar bo'lishgan. Ikkinchi oqim borliq, uning mavjudlik shakllari haqidagi relyasion konsepsiyadir. Relyasion konsepsiya asoschilari Aristotel va uning maktabi vakillari hisoblanadi. Uning o'rta asr musulmon falsafasidagi izdoshlari, davomchilari - Kindiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom va boshqa mutafakkirlar ham shu konsepsiyani e'tirof etadilar. "Relyasion konsepsiya vakillari fazoni moddiy dunyoning tarkiblangan tizimi deb, narsa, jism tomonidan egallanadigan joy", - deb qarashadi va uni "ham mavjudlik, yoki bir vaqtda mavjud bo'lish tartibi" (tizimi) deb ataydilar. U (ya'ni - fazo) tamomila moddiy tizimlarga ega va ularning harakati bilan bog'liq tarzda mavjud bo'ladi, ya'ni, u - nisbiy, o'zgaruvchandir. Vaqt esa moddiy tizimlar va hodisalarning (narsalar ketma-ketligi, tartibining) o'zaro ta'siri va o'zgarishlari oqibatidir. Fazo va vaqt, relyasion konsepsiyaga ko'ra, nisbiy harakterga ega" [12, 6-b.].

Shunisi diqqatga sazovorki, har ikki konsepsiya vakillari o'rtasida borliq, uning mohiyati, taraqqiyoti, mavjudlik usuli va shakllari yoki atributlari muammolari yuzasidan o'ta qadim zamonlardan boshlab, butun o'rta asrlar-u, Uyg'onish va Yangi davrlarda, to XX asrlargacha qizg'in, keng ko'lamli bahs-munozaralar davom etgan va relyasion konsepsiya faqat relyativistik fizika, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi vujudga kelgan XIX asr oxiri - XX asr davomida ko'proq tan olina boshladi, degan xulosani aytish mumkin. Biroq, bu hali relyasion konsepsiyaning

uzil-kesil g'alabasi degani emas. Zero, substansial konsepsiyaning yana o'zini ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida hozirgi kvant fizikasida, umuman tabiatshunoslikda ishora, gipotezalar anchagina mavjud [17, 22-23-bb.]. Demak, borliq, uning mohiyati, taraqqiyoti, mavjudlik usuli va shakllari yoki atributlari haqidagi ilmiy-falsafiy bahs-munozaralar davom etishi kutilmoqda. Bu esa borliq muammosi bo'yicha yana yangidan-yangi konsepsiya, nazariyalar ilgari surilishi mumkinligidan, bu borliq to'g'risidagi mavjud tasavvurlarning yanada chuqurlashishidan dalolat beradi. Abu Ali ibn Sinoning boy ilmiy merosi muallif tomonidan chuqur o'rganilgan [17, 364b.; 18, 144 b.; 19, 210 b.; 20, 21-25-bb.; 21, 20-2-bb.; 22, 286-291-bb.,].

XULOSA

Xulosa sifatida aytish joizki, biz uchun eng muhim, falsafiy tafakkur taraqqiyoti nuqtai nazaridan favqulodda ahamiyatga ega holat shundaki, Sharq mutafakkirlari, xususan o'rta asr musulmon xalqlari ilm-fani, falsafasining buyuk vakillari Jobir, Eronshaxriy, Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Bag'dodiylar borliq muammosi bo'yicha substansional konsepsiyani, Kindiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom kabi Vatanimiz – Turkistondan, yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz relyatsion konsepsiyani o'z davri fani, falsafasi taraqqiyoti darajasida xulosalab berishda favqulodda o'rin tutganlar, xizmat ko'rsatganlar. Ayniqsa, o'rta asrlar ilm-fani, falsafasi asoschilari, quruvchilari bo'lishgan relyatsion konsepsiya vakili Abu Ali ibn Sino bilan substansional konsepsiya vakili Abu Rayhon Beruniyning yozishma-maktublari vositasida 3 bosqichda, muntazam va uzoq davom etgan qizg'in ilmiy-falsafiy bahs-munozaralari butun o'rta asr ilm-fani, falsafasida borliq, uning mohiyati, taraqqiyoti, mavjudlik usuli va shakllari borasidagi bahs-munozaralarning eng yuksak cho'qqisi – toji bo'lgan edi. Buning ma'nosini faqat XX asr boshiga kelgandagina jahon ilm-fani, falsafasi, madaniyati tadqiqotchilari, tarixchilari, xususan, K.Brokelman, J.Sarton va boshqalar tushunib etdilar va Sharq mutafakkirlarining ilm-fan, falsafa taraqqiyotidagi yutuqlariga yuksak baho berdilar, ularni e'tirof etdilar [23, 24]. Abu Ali ibn Sino Abu Rayhon Beruniyning falakning na yuqoriga va na quyisiga tomon harakati uchun o'rin, ya'ni makonda boshqa bir joy yo'qligi xaqidagi fikriga o'z munosabatini bildirib: "Men ham falakning pastga tomon harakat qilishi mumkin emas, pastda falakni ko'chib borishi uchun tabiiy bir o'rin yo'q deyman", deb yozadi. Darhaqiqat, Abu Rayhon Beruniyni o'rta asrlar fani taraqqiyotida ilmiy bilishning metodlarini, ayniqsa eksperiment metodini kashf etgan mutafakkirlardan biri deyishga yetarlicha ma'lumotlar mavjud [25, 118-b.]. Abu Ali ibn Sino falsafaning nafaqat etuk

bilimdoni, sharqda tabiiyun oqimi etakchisi va asoschilaridan biri, balki falsafaning favqulodda muhim masalasi bo'lgan borliq, substansiya borasida ham o'zining original qarashlarini ilgari surgan, tabiiyuning borliq, uning mavjudlik shakllari bo'lgan makon va zamon muammosiga oid relyativistik fizikagacha bo'lgan fan taraqqiyotida fundamental rol o'ynagan substansional konsepsiyani rivojlantirgan, izchil himoya qilgan mutafakkir bo'lgan edi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Toxir Karim. Beruniy dahosi. – Toshkent, 2007. - B.30.
2. Ибн Сино. Трактат о разделении существующих вещей. - Ташкент: Шарк, 1983. – 128 б.
3. Ибн Сина. Книга исцеления. - Ташкент: Фан, 1967. – Б. 265-266.
4. Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1. - Ташкент: Фан, 1996.
5. Ибн Сино. Донишнома. - Ташкент: Фан, 1976. – 264 б.
6. Ибн Сина. Книга спасения. - Ташкент: Шарк, 1986.
7. Ибн Сино. Избранные философские произведения. - Москва: Наука, 1980. – 30 с.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Ma'sudiy. Tanlangan asarlar. T.IV. 1-5-maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2022 – B. 30.
9. Beruniy. Qonuni Ma'sudiy. Tanlangan asarlar. T.IV. 1-5-maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2022 – B. 30.
10. Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 179.
11. Хайруллаев М.М. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. – Toshkent: O'zbekiston, 1971.
12. Тураев Б.О. Пространство. Время. Развитие. – Ташкент: Фан, 1992.
13. Сартон Г.С. Интрадустион то тще щиторой оф Ссиенсе. Балтиморе. 1927. вол.И. 622-630.
14. Фролова В.А. Проблемы веры и знания в арабской философии. – М.: Наука, 1983. -169с.
15. Каримов У.И. Неизвестное сочинение ар-Рази “Книга тайны тайн” – Ташкент: Фан, 1957.
16. Захидов А. Абу-л-Баракат ал-Багдадий о бытии и материи //Общественные науки в Узбекистане, - 1992,- № 5-6. - Б. 48-52.
17. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2019. - 364 b.

18. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o'rni. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020. – 144 b.
19. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.
20. Masharipova G.K. Abu Ali Ibn Sinoning ontologik ta'limotida neoplatonik unsurlar va axloqiy qarashlar. Tamaddun nuri. – 2021. - № 5-6. - B. 21-25.
21. Masharipova G.K. Classification Of Sciences And Neoplatonic Elements In The Ontological Doctrine Of Abu Ali Ibn Sino. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Malaysia Conference. October 15th 2022, <https://confrencea.org>. - Pp.20-24.
22. Masharipova G.K. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino -ikkinchi ming yillik taqdirini o'zgartirgan daholarning Aristotel qarashlariga munosabati. // Beruniy va Ibn Sino –Ikkinchi ming yillikning taqdirini o'zgartirgan daholar: Ma'mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotida tutgan o'rni mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. - Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2023. - 286-291-bb.
23. Brockelmann C. Geschiehte der arabischen Litteratur. Bd. I-II. -Weimar-Berlin. 1898-1902.
24. Sarton G. Introduction to the History of science.vol. I-III. Baltimore. 1927-1948.
25. Кедров Б.М., Розенфелд Б.А. Абу Райхан Беруни. – Москва, 1973.

JAN POL SARTR EKZISTENSIAL FALSAFASI - GUMANIZM SIFATIDA

DJURAYEV G'olib Abdurasulovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY, katta o'qituvchisi

ORCID 0009-0008-3136-4372

jorayev2144@gmail.com

ANNOTATSIYA

Jahon falsafa tarixida va insoniyatning tafakkur taraqqiyotida o'z ta'siriga ega bo'lgan ekzistensializm, ayniqsa, fransuz ekzistensial falsafasi inson erkinligi, mas'uliyat, tanlov ixtiyori, hayot va o'lim orasidagi mavjudlik, mavjudlikning mohiyatini falsafiy tahlil etishda o'ziga xos yondashuvi bilan ahamiyatlidir. Bunda Jan Pol Sartrning inson va uning mavjudligi muammosini falsafiy konseptual ifodalab berishi nafaqat o'z davrida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy inqirozni bevosita guvohi bo'lgan jamiyat intellektuallari diqqatini jalb etdi, balki zamonaviy ijtimoiy-siyosiy muammolarni falsafiy anglashda dolzarbdir. Maqolada Jan Pol Sartrning ekzistensial falsafasining insonparvarlik jihatlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: *ekzistensializm, erkinlik, mavjudlik, mohiyat, insoniy subyektivizm, Jan Pol Sartr, Albert Kamyu, isyon.*

ABSTRACT

Existentialism, which has had its influence in the history of world philosophy and the development of human thought, especially the French existential philosophy, has a philosophical analysis of human freedom, responsibility, free will, existence between life and death, and the essence of existence. is significant with its unique approach. In this, Jean-Paul Sartre's philosophical conceptual expression of the problem of man and his existence not only attracted the attention of intellectuals of the society who directly witnessed the socio-political crisis that occurred in his time, but is also relevant in the philosophical understanding of modern socio-political problems. The article discusses the humanitarian aspects of Jean-Paul Sartre's existential philosophy.

Key words: *existentialism, freedom, existence, essence, human subjectivism, Jean Paul Sartre, Albert Camus, rebellion.*

KIRISH

Ekzistensializm haqida tadqiqotlarning barchasi albatta Jan Pol Sartr shaxsiyati bilan to'qnash keladi va ushbu ta'limotning mazmuni uning ijodi orqali anglashiladi. Fransuz ekzistensialistlari orasida Jan Pol Sartning falsafiy qarashlarining markazida

inson mavjudligi va mohiyati masalasi yotsada eng avvalo erkinlik va haqiqiylik g'oyalari gumanizmning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan ilmiy-falsafiy qimmatga ega deb bilamiz. Albatta, insoniyat fikriy taraqqiyotida faylasuflarning antropologik qarashlarida mavjudlik va mohiyat kabi ontropologik kategoriyalar bilan ilmiy-nazariy tushuntirish hamda konsepsiyalar turlicha bo'lsa-da o'z hayotiy pozitsiyasi bilan amaliy faoliyatini ochiq ifodalaganlari kamdan-kam uchraydi. Aynan faoliyatga ko'chgan individual dunyoqarash ijtimoiy dunyoqarashga ta'sirini ko'rsatishini bugungi kundagi dunyoning aksiologik manzarasida bot-bot sizib chiqayotgan go'yalarning ifodasi o'laroq ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jan Pol Sartr ilmiy-falsafiy qarashlari G'arbda bugungi kunda ham keng miqiyosda o'rgalishi bilan birga ijtimoiy-siyosiy jarayorlarda insonparvarlik g'oyalarning ijtimoiy anglashinishi davom etayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan X.Lofman, J.Sarokchi, P.Noyen Van Ney, R.Bollenger, S.Grepin, Roming, A.Gayd, F.Maorik, S.Viggem kabi mualliflarning asarlarida ekzistensiyachilikning asosiy tushuncha va tamoyillari bu oqim vakillarining asarlarining falsafiy talqini berilgan. Rossiyada esa Kuznetsov, T.A. Saxarova, S.I. Velikovskiy, YE.P.Kushkin, V.YE.Balaxonov, E. Salovyev, Y.Davvedovo'm va boshqa rus faylasufi va adabiyotshunoslari tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda V.Alimasov, M.Abdullayeva, R.Nosirov, I.Karimov, U.Xaydarov, S. Yo'ldoshev, M.Usmonov, R.Karimov, G.Kabulniyozova, G.Ro'zmatova, Abdulla Sherning o'quv qo'llanmalarida falsafa doirasida taxlil etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, taqqoslash, tarixiylik va vorisiylik tamoyillaridan foydalanildi.

NATIJA VA TAHLILLAR

Fransiyalik faylasuf, yozuvchi va dramaturg Jan Pol Sartr 1905 yil 21 iyunda Parijda dengiz muhandisi oilasida tug'ilgan. Jan Pol Sartr 1 yoshga to'lganida otasi Fransiyaning Hindixitoydagi mustamlakasida yuqturilgan kasallikdan vafot etadi. Shundan keyin onasi o'g'lini olib Parijga, o'z ota onasinikiga ketadi. Jan Pol Sartrning buvasi Charl Shveytser professor, filolog va adabiyotshunos bo'lgan, nevarasini iqtidorli bola deb hisoblardi, shuning uchun uni maktabga yubormay, uyda matematika va nemis tilidan dars beradi.

Jan Pol Sartr o'zining "So'z" degan avtobiografik asarida yozishicha buvasi o'z zamonining yetuk insonlaridan bo'lgan, ya'ni u yaxshigina hurmatga ega bo'lgan va

o‘z navbatida juda qattiqqul inson bo‘lgan. Va shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki Jan Pol Sartr erishgan yutuqlarida buvasining o‘rni juda kattadir. Umuman Jan Pol Sartrni aytishicha uning yoshligi judayam baxtiyor o‘tgan va u yoshligidayoq o‘zini qanchalik iqtidorga egaligini bilgan va tez-tez o‘ziga-o‘zi shunday baho bergan “men yaxshigina iste’dodga egaman, lekin bu kamlik qiladi, men dahol bo‘lishim kerak” [Стретерн, 2005:10] shu shiorni ilgari surib u o‘z maqsadiga erishdi ham.

Shu yillarning birida Jan Pol Sartr hayotida bir kungilsizlik sodir bo‘ladi va bu butun uning hayotida o‘z izini qoldiradi. U ta’til paytida sohil buyiga boradi va shamollab qoladi o‘sha paytlarda shamollash hozirgidek yengil o‘tib ketmagan, meditsinaning hali bugunchalik rivojlanmaganligi sababidan albatta. Shunday qilib shamollash asorati uning ko‘ziga ta’sir o‘tqazadi va bu hattoki uni bir ko‘zining juda past darajadagi (sezuvchan ekzotropiya) ko‘rishiga olib keladi. Shular ta’sirida yosh Jan Pol Sartr xunuk bir bolachaga aylanib qoladi. Lekin undagi solipsizmga (lot. solus - yakka, yagona, ipse - o‘zim, o‘zi, subyektiv idealistik nazariya. Bunga ko‘ra, faqat inson va uning ongi mavjuddir; obyektiv olam faqatgina insonning ongidadagina mavjud) [2, 2004:371] oid dunyoqarash bu kungilsizlikni tushkunlikka tushmasdan yengib o‘tishga yordam beradi va uning baxtiyor yoshligi davom etadi.

Shundan keyin uning hayotida yana bir noxushlik sodir bo‘ladi. Onasi Ann-Mari ikkinchi marta turmushga chiqadi. Va yosh Jan Pol Sartr onasi bilan ugay otasining uyiga, Fransiyaning g‘arbiy qirg‘og‘idagi Roshel shahriga kuchib ketadi. Bu uning hayotidagi birinchi sayohat edi. Uning ugay otasi davlatmand odam edi. Keyinchalik avtobiografiyasida aytishicha onasi ugay otasiga faqatgina pul uchun turmushga chiqqan ekan. Ugay otasi boy bo‘lish bilan birgalikda ziyoli ham edi. U 12 yoshli Jan Pol Sartrga har kuni o‘z qabulxonasida geometriya va algebradan dars berardi. Jan Pol Sartrning aytishicha ugay otasi judayam qattiqqul odam bo‘lgan, agar Jan Pol Sartr darslarni yaxshi o‘zlashtira olmasa juda qattiq kaltaklaganini keyinchalik uni o‘zi 50 yoshida yozgan avtobiografiyasida yozadi.

Umuman u buvasi va ugay otasining ta’sirida yaxshigina bilimga ega bo‘ladi. Buning natijasi ularoq u sinfdoshlari orasida o‘z iqtidori bilan ajralib turardi. Lekin uni tengdoshlari unchalik yoqtirmasdi. Bunig sababi birinchidan uning g‘ilay bo‘lganligi bo‘lsa, ikkinchidan uning solipsizmga asoslangan dunyoqarashi edi.

“Jan Pol Sartr 14 yoshida o‘zining ikkinchi romanini yozadi. Bu tarixiy roman bo‘lib o‘rta asrlarda yashab o‘tgan Germaniyalik tiran haqida edi. Asarning nomi “Gets fon Berlixengen” edi. Asarning kulminatsion nuqtasida halq tiranga qarshi qo‘zg‘olon kutaradi va tiranni o‘limga mahkum etadi. Uning boshini soatning rim raqamidagi 12 dan chiqarib qo‘yadi. Va qachonki soat strelkalari 12 ga kelsa boshini tanasidan judo qilishi kerak bo‘ladi. Tiran umrining oxirgi daqiqalari romanda juda

ta'sirli qilib yoritilgan. Uning boshi juda sekinlik bilan soat strelkalari yordamida tanasidan judo qilinadi. Mana shu lahzalar muallif tomonidan juda ustalik bilan tasvirlanadi" [Сретен, 2005:15]

U qirollik litseyida o'qib yurgan paytlarida uning kundaliklari aforizmlar bilan to'lardi. Ya'ni u tarixiy voqealar va tarixiy romanlar yozishdan, aforizm yozishga qiziqib qoldi. Litseyi bitirgandan so'ng Jan Pol Sartr Ekol Normal oliy maktabiga bakalavr bosqichiga o'qishga qabul qilinadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu maskan boshqa o'quv maskanlaridan o'zining kuchli ta'lim berishi bilan tubdan farq qilardi. Ya'ni bu maskandan o'sha paytda ko'plab buyuk siymolar yetishib chiqdi. Jumladan: Raymon Aron, Moris Mero Ponti, buyuk antropolog Klod Levi Stross, teolog va faylasuf Simona Veyil va Jan Pol Sartrning mashuqasi bo'lmish Simona de Bovaurlardir. Hatto mana shu davrada ham Jan Pol Sartrning iqtidori alohida ko'zga tashlanib turardi. Uni yuqoridagi do'stlari "ko'zoynak talaba" deb atashardi. Va ular Jan Pol Sartr haqidagi o'z taassurotlarini quyidagicha ta'kidlashardi: "Agar u uxlamayotgan bo'lsa, demak u fikrlayapti". Shu so'zlardan ham o'zining davrasida Jan Pol Sartrning qanaqa mavqega egaligini bilib olish unchalik qiyin emas. U judayam ko'p kitob o'qirdi, faqatgina o'qituvchilar tavsiya qilgan kitoblar bundan mustasno edi. Shuning oqibatida u imtihondan muvafaqiyatli o'tolmasdi va qaytadan topshirgan paytlari ham bo'lgan. U odatda bo'sh vaqtini kafeda o'z do'stlari bo'lmish Raymon Aron va Merlo Ponti bilan falsafa doirasidagi bahslar bilan o'tqazardi. Va bir kuni bu bahsga 21 yoshli Simona de Bovaur qo'shiladi. U falsafani juda yaxshi bilgani uchun Jan Pol Sartrni e'tiborini juda tez fursatda qozonadi. Va bu e'tibor bora-bora sevgiga aylanadi. Ularning dunyoqarashi va ruhiy holatlari bir biriga juda ham mos edi. Ular birgalikda ovqatlanishar, turli falsafiy masalalarda bahslar qilishar, sayr qilishar va albatta, kitob o'qishardi. Buning natijasida falsafadan imtihon paytida Jan Pol Sartr birinchi va Simona ikkinchi o'rinni oldi. Albatta, salohiyat jihatdan o'ta kuchli bo'lgan bunaqa guruhda birinchi va ikkinchi o'rinlarni olish juda mushkul edi.

Shu bilan ularning baxtli talabalik davri ham o'z nihoyasiga yetadi. Va ularning yo'li ayro tushadi. Ya'ni Jan Pol Sartr harbiy xizmatga Simona esa pedagogik faoliyatini boshlashgan. Umuman Jan Pol Sartr harbiy xizmatdan keyin Yaponiyada ma'ruza o'qishni rejalashtirib qo'yadi. U o'z ijodkorlik faoliyatini davom ettirish uchun o'z oldiga uchta prinsipni qonun sifatida qabul qiladi. Bular: "sayohat, poligamiya va ochiqlik" dir. Bu prinsiplar uning hayot tarziga aylanadi ya'ni bu faqatgina nazariya emas edi. U o'z hayotini Simona bilan bog'lashni xohlardi, lekin o'z erkini cheklashni xohlamasdi, bu yuqoridagi prinsiplarga xalaqit berishi mumkin edi. Shu sababdan u Simonaga 2 yil birgalikda yashab va 2-3 yil alohida yashashni

taklif qiladi. Uningcha, faqat shu yo‘l bilan ular aloqalarini saqlab qolishi mumkin edi. Ya‘ni bir–birlarini erkini cheklamagan holda. U harbiy xizmatda qo‘liga tushgan barcha falsafiy asarlarni o‘qib chiqadi va ularning birontasidan ko‘ngli to‘lmaydi. Uning aytishicha bironta klassik faylasuflarning ta‘limotlari real hayotga to‘g‘ri kelmaydi. Harbiy xizmatdan keyin u Le Gavr shahri gimnaziyasida o‘qituvchilik qiladi. Kunlardan bir kuni o‘zining falsafadan ko‘ngli tulmaganligi haqida Simona va do‘sti Aronga aytadi. Shunda ular uni nemis faylasufi bo‘lmish Edmund Gusserl fenomenologiyasini o‘rganishini tavsiya etadilar.

Faqat shundan keyingina Jan Pol Sartr o‘zining fikrlari “mavjudlik fasafasi” bo‘lmish “ekzistensializm” ga yaqinligini biladi va butun umri davomida o‘zini shu oqim vakili deb hisoblaydi. Uning ekzistensial qarashlariga shuningdek, nemis faylasufi M.Xaydeggerning qarashlari ham katta ta‘sir o‘tqazgan. Jan Pol Sartr yuqoridagi faylasuflarning qarashlarini o‘rganish uchun Germaniyaga ikki yilga malaka oshirishga boradi. So‘ng u Parijga kelib u yerdagi litseylardan birida o‘qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. 1945 yilda “Yangi davr” jurnaliga asos soladi. Bu jurnal Fransiyada juda katta mavqega ega bo‘ladi. Jurnalda uning marksizm asosida qurilgan ijtimoiy-siyosiy mavzuidagi maqolalari e‘lon qilib turildi. 1950-yillarning boshlarida u falsafa va adabiyotdan uzoqlashib o‘z faoliyatini marksizmni ochiq targ‘ib qilishga qaratadi. Buning natijasida o‘zining izdoshi bo‘lmish A.Kamyu u bilan aloqani uzadi. Jan Pol Sartr marksizm orqali o‘zining ekzistensial g‘oyalarini jamiyat hayotiga tatbiq qilmoqchi bo‘ladi. O‘zining shu g‘oyasini amalga oshirish uchun umrining 20 yilini sarf etadi. U bir muddat marksizm asosiga qurilgan SSSR ga hurmat bilan qaraydi. Keyinchalik esa bu tizimdan ko‘ngli soviy boshlaydi. 1970 yillardan keyin u siyosiy faoliyatdan uzoqlashadi.

Jan Pol Sartr o‘zidan juda ko‘plab romanlar, pyesalar va maqolalar qoldirgan. Jumladan: romanlar “Ozod yo‘llar”, “Muhlat”, “Qalbdagi o‘lim”, “Tangri va Iblis”, “Borliq va hech narsa”, “Ko‘ngil aynishi”, “Gets fon Berlixingen”, “Erkinlik yo‘llari”, “So‘zlar” va boshqalar. Pyesalar: “Pashshalar”, “Berk eshiklar ortida”, “Iflos qo‘llar” va boshqalar. Maqolalar: “Ekzistensializm to‘g‘risida”, “Komunistlar va dunyo” va boshqalar.

Umuman, Jan Pol Sartrning avtobiografiyasi shunisi bilan ahamiyatliligi uning hayoti o‘z falsafiy qarashlari bilan mos keladi. Ya‘ni u o‘z nazariyasi bilan amaliyotini (hayotini) birlashtira olgan buyuk siymodir. Buni biz quydagi misollar yordamida tasdiqlashimiz mumkin. Uning ma‘shuqasi bo‘lmish Simonaga bo‘lgan munosabatini olaylik va yoki Nobel mukofotidan voz kechish hodisasini. Ushbu faoliyatning asosi bir narsaga borib taqaladi, u ham bo‘lsa “erkinlik” fenomenidir. Jan

Pol Sartr falsafiy qarashlari asosini ham mana shu fenomen tashkil etadi. Shu sababdan uni ijodi bilan tanishishdan oldin, uning hayoti va yashash tarzi bilan tanishib chiqsa maqsadga muvofiq bo'lardi bizningcha. Chunki amaliyot bilan bog'liq bo'lmagan bilim, haqiqiy bilim emas.

Jan Pol Sartr 30-yillarning oxirlarida hodisalar tabiati va ongning faoliyati haqida to'rtta falsafiy asar yozadi. Shu bilan birga "Ko'ngil aynishi" nomli romani (1938 yil) va "Devor" novellasi nashr qilindi. Ikkala asar ham Fransiyada yilning eng yaxshi asari deb e'tirof etildi.

"Ko'ngil aynishi" romanining bosh qahramoni Antuan Rokenten XVIII asrda yashagan allomaning biografiyasini o'rgana turib, bu dunyoda mavjudlik – be'manilik, ya'ni absurd, degan fikrga keladi. Biror e'tiqod topolmaganidan, tevarak atrofni o'z irodasiga bo'ysundira olmaganligidan ko'ngli ayniydi.

Rokentenning fikru-zikri faqat quyidagi fikrlar bilan band bo'ladi: "Qalbim tubida yashirin narsa yo'q, men vujudim va undan yengil pufakchalardek paydo bo'ladigan fikrlar doirasi bilan chegaralanganman. Xotiralarimni men hozirdan yarataman. Men hozirga uloqtirilganman, unda qoldirilganman. Behuda o'tmishim ketidan chopaman, o'zimni o'zimdanda, hozirdan xalos qilolmayman." Qahramon ta'kidiga ko'ra, odam ixtiyorida hozir bor, u hozirda yashaydi, hozirda yashash uning qismatidir. O'tmish quruq o'y, undan hayot qurib bo'lmaydi, kelajak esa mavhum, mavhum narsaga intilish o'z o'zini aldashdir [Саптр, 1987:89]. XVIII asrda yashagan Markiz de Rolbon tarixini o'rganishga va uning hayotini tiklashga ahd qilgan Rokenten oldidagi oppoq qog'ozga tikiladi. Keyin nimalarnidir yozgandek bo'ladi, so'zlar siyohi quriydi, ular qog'ozga singib, muallifdan uzoqlashadi. Hatto, so'zlar va qog'oz uyg'un birlikni tashkil etib muallif hayoliga, o'yi va tasavvurlariga qarshi chiqadi. Bir necha daqiqa oldin o'z o'zi uchun mavjud qog'oz va unga bitilgan so'zlar o'tmish qa'riga ko'miladi. Ushbu o'tmishni ushlab bo'ladimi? Umuman, o'z o'tmishini ushlab bo'ladimi? Yo'q. "Qanday qilib, - deydi u, o'z o'tmishini ushlab bo'lmagan men boshqa birovning o'tmishini, tarixini tiklashga umid qilishim mumkin?". U hasratda yon atrofga tikiladi: stol, kalishlar, oynaklar, rasmlar, pardalar shu onda mavjud. "Menga hozirning haqiqati, tabiati ayon bo'ldi, - degan xulosaga keladi Rokenten, - u hozirdagina mavjud, hozirda yo'q narsa mavjud emas.

"O'tmish bor emas. U - yo'q, butunlay yo'q... Endi men angladim, zohiran hozir bor narsa mavjuddir, undan keyin esa... Hech nima". [Стретен, 2005:18]

Bu absurd holat haqida O'zbekiston faylasuflaridan bo'lmish Viktor Alimasov quyidagi fikrlarni aytib o'tadi. "Aslida, bu shaxs fojiasi! Faqat hozirni, shu onni tan olib o'tmishdan ham, kelajakdan ham voz kechish yoki bo'lmasa, ulardan qochish hech kimga najot keltirmagan. Faqat his tuyg'uga tayangan kishi shu ondan

boshqasini anglashga, idrok etishga qodir emas, hozir unga yakkayu yagona borliq, imkon bo‘lib ko‘rinadi. O‘tmish o‘z holicha o‘tmish bo‘lolmaydi, ro‘y bergan voqealar, kechinmalar, ehtiroslar to‘qnashuvi hozirni o‘tmishga aylantiradi va o‘tmish reallik kasb etadi. Vaholanki, qahramonda ushbu uyg‘unlikni his qilish yo‘q. Natijada uning hayoti ham o‘z ma‘nosini yo‘qotadi”. [Alimasov, 2007:106]

Rokenten mulohazalarining oxirida shunday fikrga keladiki, o‘z mavjudligiga ma‘no berish uchun roman yozish kerak ekan. Jan Pol Sartr fikricha, hayot be‘maniligini yengib o‘tishning ijodan boshqa yo‘li yo‘qdir. Bunga boshqalarning irodasi ham, aqli ham yetmaydi. Uning bu fikrga kelishiga bizningcha inson faqatgina yaratish va yoki ijod bilan shug‘ullansagina, boshqa insonlar amal qiluvchi kundalik mexanik xatti harakatlardan qutuladi degan g‘oya sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Jan Pol Sartrning 1943 yilda yozilgan “Pashshalar” nomli pyesasi ham falsafiy mazmunga ega. Unda yunon mifologiyasidagi Orest voqeasini o‘zgartirib, ekzistensializm haqida bahs yuritiladi. Orest Gamlet tipidagi shaxs, otasining qotillari o‘z onasi va uning jazmanini o‘ldiradi, bu gunohi uchun Zevs oldida tavba qilishdan bosh tortadi. Buni u o‘z xatti harakatini erkin tanlash huquqi bilan oqlashga muvaffaq bo‘lib, jazodan qutulib qoladi. Ekzistensializm nazariyasiga binoan “axloq” obyektiv hodisa emas, shuning uchun odamlar tanlash huquqiga, ya’ni “borliq o‘zim uchun” degan huquqqa ega. Orest ana shu huquqni ko‘zda tutadi. Pyesa mutlaq erkinlikni targ‘ib qiladi. Buni tushunib qolgan Germaniya hukumati uni sahnalashtirishga ruhsat bermaydi.

“Berk eshiklar ortida” pyesasi uch persanajning jahannamdagi qilgan suhbatidan iborat. Suhbatning mazmuni yana o‘sha nazariya – ekzistensializmga borib taqaladi. Unga ko‘ra, mavjudlik mohiyatdan oldin sodir bo‘ladi, odamning fe‘l atvori sodir qilingan harakatlarga qarab shakllanadi: botir odam hal qiluvchi daqiqalarda (“ekzistensial ong”da) jur‘atsizlik qilsa, demak u qo‘rqoq. Ko‘pchilik odam o‘zini, atrofdagi odamlar qanday qabul qilishsa, shunday qabul qiladi, deb hisoblaydi Jan Pol Sartr. Xuddi personajlardan birining gapidek: “Do‘zax, bu – boshqa odamlar”.

Shuningdek, Jan Pol Sartrning “Borliq va hech narsa” falsafiy asari fransuz yoshlari uchun o‘ziga xos Injil bo‘lib qoldi. Faylasufning ushbu asarda yozishicha “ong” degan sof “narsa”ning o‘zi yo‘q, faqat tashqi dunyoni, atrofimizdagi narsalarni “anglash” bor. Odamlar o‘z xatti-harakatlari uchun faqat o‘zlari oldida javob beradilar. Chunki har qanday harakat, odam o‘zi uchun hisobot beradimi, yo‘qmi, bundan qat’iy nazar, qandaydir qimmatga ega.

Jan Pol Sartr o‘zining 30-yillarda Ispaniyada ro‘y bergan g‘alayonli voqealarga bag‘ishlab yozgan “Devor” (1939 yil) nomli hikoyasida ham, insonning “chegara” holatidagi, ya’ni o‘lim va hayot o‘rtasidagi holatini tasvirlab berishga harakat qiladi.

Bu hikoya ko'proq inson ruhiyati bilan bog'liq jarayonlarga bag'ishlangan, desak xato bo'lmaydi. Ya'ni hikoyada bosh qahramon Pablo Ibbiyeta va uning ikki sherigini o'lim oldidan o'zini tutishi, ularga qilingan noinsoniy munosabatlar, tiriklik haqidagi tasavvurlari, hayot ma'nosi haqidagi fikrlari, narigi dunyo haqidagi hayollari va oxir oqibat absurd holatiga tushib qolishlari muallif tomonidan juda yuksak mahorat bilan yoritiladi.

Pabloning qamoqxonadagi quyidagi hayollaridan ham uning ruhiy holatini payqash unchalik qiyin emas: "...Bir kecha Granadadagi ko'cha o'rindig'ida yotib uxlaganim yodimga tushdi: uch kundan buyon tuz totmagan edim, alam ichida o'rtanar, sira o'lgim kelmasdi. Shularni eslab, jilmayib qo'ydim. Men Yuho sulloh kabi omad, xotinlar, erk ortidan yugurgandim qanchalar. Nima bo'ldi? Ispaniyaning xaloskori bo'lishni istardim, Pi-i-Margal qoshida sajda qilardim, anarxistlarga borib qo'shildim, odamlar orasida nutqlar aytdim; men bularni xuddi o'lim yo'qday o'ta jiddiy ado etdim. Shu daqiqalarda esa butun hayotim ikki kaftimda yaqqol turganday edi, shunda men, "Bular hammasi qanchalar razil yolg'on!" deb o'yladim. Mening hayotim sariq chaqalik ham emas ekan, zero, u oldindan qurbonlikka keltirilgan edi. O'zimdanda tinmay so'raganim so'ragan edi: mana shunday o'lib ketishimni bilsaydim, ko'chalarda daydib yurarmidim, xotinlar orqasidan sang'irmidim, yo'q unda men hatto jimjilog'imni ham qimirlatib qo'ymasdim...". [Captp, 2004:61-62]

Umuman, Jan Pol Sartr ijodi bevosita inson taqdiri, yashash falsafasi, ruhiy holatlari, hayot ma'nosi, iroda falsafasi, solipsizm, freydizm, individualizm, nigilizm, antik davr mifologiyalari, gumanizm va shu kabi ta'limotlar va yoki dunyoqarashlar majmuasi, desak xato bo'lmaydi. Aynan mana shu jihatlari bilan ham uning asarlari biz uchun qimmatlidir.

1946 yilda nashr etilgan "Ekzistensializm – bu gumanizm" nomli falsafiy essesda Sartr ekzistensializm ta'limotini ilk bor nima ekanligini tushuntiradi. Boshqa barcha ekzistensialistlardan farqli jihati shundaki, Sartr o'zini ochiqchasiga ekzistensialist ekanligini e'tirof etadi va o'zining shaxsiy hayotiy pozitsiyasini ilmiy asoslab beradi. Sartr bu falsafiy esseni 1945-yil 29-oktabrda Parijda o'qigan xuddi shu nomdagi ma'ruzasi asosida yozgan. XX asrning 50-60 yillarida ekzistensializm munozaralarida ta'sirchan va mashhur boshlanish nuqtasi bo'lgan bu asar faylasuflar, jumladan Sartrning o'zi tomonidan keng tanqid qilindi va keyinchalik unda bildirilgan ba'zi fikrlarni rad etdi. Ammo bu asardagi fikr-mulohazalarning bugungi ekzistensialistlarning ham rivojida ta'sirini yaqqol his etish mumkin.

Unda dastlab Sartr ekzistensializm ta'limotini uning sha'niga aytilgan qator ta'nalardan himoya qilish istagidaligini aytadi va Fransiya hamda butun Yevropada ijtimoiy-siyosiy mavqeyga ega bo'lgan harakatlarning e'tirozlariga qarshi

mulohazalarini keltiradi. Umidsizlik falsafasi, burjuacha hashamatparastlik, insonning qabihligi, tubanligini ta'kidlovchi va go'dak tabassumini unutilib qo'ygan oqim, abadiy qadriyatlarni barbod qilib, boshboshdoqlikdan boshqa hech narsani qoldirmaydigan ta'limot sifatida qaralyotgan ekzistensializmni himoya qilib chiqadi.

Ikkita Jahon urushining oqibatlarini o'z tanasida his qilgan Yevropa va uning markaziy hududida joylashgan Fansiya turli balandparvoz ta'limotlardan charchagan edi. Kelajakka yangi umidlarni berishga intilayotgan ilg'or ta'limotlarga ishonchsizlik bilan qarar edi. Turli ta'limotlarning bosimi ostida qolgan inson o'z erkinligini ozod qilishi uchun najot kutayotganligini Sartr va uning tarafdorlari ko'ra bildi. Ekzistensializm ta'limoti orqali insonni erkinlikka intilish uchun isyon qilishga ham undadi. Insonni ozod qilish uchun dinning bosimiga ham qarshi kuch topadi.

“O'z navbatida yana nasroniylar bizga insoniy hatti-harakatlarning realligini hamda ahamiyatini inkor etishimizni ta'na qiladilar, go'yo biz ilohiy aqidalaru abadiy qadriyatlarni barbod qilib, boshboshdoqlikdan boshqa hech narsani qoldirmaymiz: Har kim bilganini qilishga ixtiyor berilgan, boshqalarning qarashlari va qilmishlarini qoralashi mumkin emas.

Har qanday holatda ham, biz, ekzistensiyachilik deganda, eng avvalo, insonga hayot kechirish imkonini beradigan va bundan tashqari, har qanday haqiqat hamda har qanday faoliyat ma'lum muhit va insoniy subyektivlikni taqozo etishini ta'kidlaydigan ta'limotni tushunamiz” [Sartr, 1997:181] – deb yozadi Sartr. Sartr himoya qilgan insoniy subyektivizm ekzistensialistlarning deyarli barchasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ekzistensialistlar keng ma'noda bir falsafiy oqimda bo'lsada, bir-birlarini inkor qilishga urinishlarining o'zi ularning erkinlikka intilishlarini ifodalaydi. Masalan, rus ekzistensialist faylasufi Nikolay Berdiyayevning “Mening falsafamdagi o'ziga xoslik eng avvalo shundaki, men unga borliqni emas, erkinlikni asos qilib oldim” [Бердияев, 1991:56] – degan fikridan ko'p narsani anglab olish mumkin.

Falsafada ekzistensializm ontologik ta'limot sifatida borliq, mavjudlik haqidagi mulohaza yuritsada uning asosiy kategoriyasi hisoblangan ekzistensiya inson borlig'ini ifodalashi bilan insoniy subyektivizmga to'g'ridan to'g'ri murojaat qiladi, ammo Sartrning insoniy subyektivizmi solipsizm emas. U ekzistensialistlarni solipsizmga ayblashlariga ham qarshi chiqib mulohazalarini chuqur tahlil qilib o'tadi. Garchi Sartr subyektivizmi Berkli idealizmidagi subyektivizmining eng keskin ko'rinishidan farqlansada, haqiqatning, ijtimoiy, diniy, axloqiy qadriyatlarining sof subyektivligi, ularning mutloq ahamiyat kasb etishini inkor qilish edi.

Sartr o'zi mansub bo'lgan falsafiy oqimni ikki xil ko'rinishini ajratadi; nasroniy ekzistensiyachilar – Yaspers, Gabriel Marsel, dahriy ekzistensiyachilar – Xaydegger,

fransuz ekzistensiyachilari (“Tan modern” jurnali atrofida yig‘ilgan Sartrning shogirtlari va izdoshlari A.Malro, A.Kamyu, M.Merlo Pontilar). Sartr o‘zini dahriy ekzistensiyachilar qatorida deb bildi [Sartr, 1997:182]. Ammo bu ikki guruhdagilarning deyarli barchasi inkor etdi.

Sartr nasroniy va dahriy ekzistensiyachilarni bir maslak birlashtirib turishini yozadi, ya’ni, “faqat tiriklik(mavjudlik) mohiyatdan avvaldir yoki, istasangiz, masalaga subyektdan kelib chiqib yondoshish” maslagidir. Ba Ekzistensializmning eng asosiy va birinchi tamoyili bo‘lgan “mavjudlikning mohiyatdan oldin” kelishini tushuntiradi.

Dahriy ekzistensializm ta’limotini himoya qilib Sartr quyidagilarni yozadi:

“Ekzistensiyachilik barcha xulosalarni izchil dahriychilikdan chiqarishga urinishdan boshqa narsa emas. U aslo umidsizlikka girifdor qilishga intilmaydi. Biroq, nasroniylar fikrlaganidek, har qanday e’tiqodsizlik umidsizlik deb atalsa, unda aynan to‘ng‘ich umidsizlik – ekzistensiyachilikning ibtido nuqtasidir. Ekzistensiyachilik – o‘zini Xudo yo‘qligini isbotlashga sarflaydigan dahriychilik emas” “... Bu Xudoning borligiga ishonamiz degani emas – masalaning Xudoning bor-yo‘qligida emas. Inson, hech narsa, hatto Xudo bolligining ishonchli isboti ham, uni o‘zidan o‘zini qutqara olmasligiga ishonch hosil qilmog‘i va o‘zini o‘zi topmog‘i zarur. Shu ma’noda ekzistensiyachilik bu hayotbaxshilik, harakar haqidagi ta’limotdir.” [Sartr, 1997:193]

Mavjudlik mohiyatdan avval (fransuzcha: *l’existence précède l’essence*) degan fikr ekzistensializmning markaziy da’vosi bo‘lib, u narsaning mohiyati (tabiati) uning mavjudligidan ko‘ra asosiyroq va o‘zgarmasdir, degan an’anaviy falsafiy qarashni o‘zgartiradi. Ekzistensialistlarga ko‘ra, inson o‘z ongi orqali o‘z qadriyatlarini yaratadi va o‘z hayotining ma’nosini belgilaydi, chunki inson hech qanday o‘ziga xoslik yoki qadriyatga ega emas. Bu o‘ziga xoslik yoki qiymat shaxs tomonidan yaratilishi kerak. Ularni tashkil etuvchi harakatlarni qo‘yish orqali ular o‘zlarining mavjudligini yanada muhimroq qiladi.

Sartr uchun “mavjudlik mohiyatdan avval” g‘oyasi nafaqat o‘zining ekzistensial tafakkurini yoki o‘zining ekzistensializm versiyasini, balki o‘zini ekzistensial deb e’lon qiladigan har bir tafakkur yoki falsafani ham belgilaydi va hal qiladi. Garchi Sartr keyinchalik o‘zini va o‘z tafakkurini ushbu bayonot va uning oqibatlaridan ajratishga harakat qilgan bo‘lsa-da, bu ekzistensializm va har qanday noteistik ekzistensial tafakkurning eng ko‘p iqtibos qilingan, takrorlangan va iqtibos keltiriladigan ta’rifiga aylandi.

“*Ekzistensializm - bu gumanizm*” asarida Sartr -“inson o‘zi yaratgan narsadan boshqa hech narsa emas” va “inson tabiati yo‘q, chunki uni tasavvur qiladigan Xudo

yo'q" ekan, mavjudlik mohiyatdan oldin bo'lishi kerakligini aytadi. Demak, insonlar dunyoda mavjud bo'lgan holda o'z qarorlari, xatti-harakatlari, fikrlari va tanlovlari orqali o'zini belgilaydi, qaror qiladi, shakllantiradi va belgilaydi, ya'ni inson avvalo dunyoda mavjud bo'ladi, keyin esa o'zini o'zi belgilaydi va tanlaydi.

Sartr formulasi kelib chiqishiga sabab Xaydeggerning *"Vaqt va borliq"* asari bo'lib, u yerda Xaydegger "Dazeynning mohiyati uning mavjudligidir" deydi. Shunga qaramay, Xaydegger ham, Sartr ham borliq va mavjudlik deganda nimani nazarda tutayotgani o'rtasida farq bor, chunki *"Gumanizm haqida maktub"*da Xaydegger o'z fikrini Sartrning borliq tushunchasidan, uning ekzistensializmidan va ekzistensializmning o'zidan uzoqlashtiradi. [Хайдеггер, 1993:196-201]

Sartr siyosiy faoliyat bilan ham shug'ullanuvchi faylasuf sifatida o'zining ambitsiyalariga ega edi va aynan shuning uchun "mavjudlik mohiyatdan avval" g'oyasi bu g'oyaning aksini ifodalovchi an'anviy falsafiy qarash bo'lgan essensializmga qarshi chiqdi. Essensializm – obyektlarning o'ziga xosligi uchun zarur bo'lgan atributlar to'plamiga ega bo'lgan qarashdir. Ilk g'arb tafakkurida Platon idealizmi hamma narsa shunday "mohiyat"ga, ya'ni "g'oya" yoki "shakl"ga ega, deb hisoblagan. Essensializm boshidanoq bahsli edi. "Parmenidlar" dialogida Platon Sokratning bu tushunchani shubha ostiga qo'yishini tasvirlab, agar biz har bir go'zal narsa yoki shunchaki harakat bir mohiyatdan iborat degan fikrni go'zal yoki adolatli deb qabul qilsak, "soch, loy uchun alohida mohiyatlarning mavjudligini ham qabul qilishimiz kerak" degan fikrni bildiradi, va shu o'rinda "axloqsizlik"ni ham mohiyati bor deyishlik shubha ostiga olinadi. Aristotel "mohiyat" atamasini kategoriyadagi narsalar umumiy bo'lgan va ularsiz bu toifaga a'zo bo'la olmaydigan narsalarga nisbatan qo'llagan (masalan, ratsionallik insonning mohiyatidir; aqlsiz mavjudot odam bo'lolmaydi). Bertran Rassel Aristotel falsafasini tanqid qilar ekan, uning mohiyat tushunchasi metafizikaga faqat og'zaki qulaylik bo'lgan narsani ko'chirdi va u til xususiyatlarini dunyo xususiyatlari bilan aralashtirib yubordi, [Bertrand Russell, 1991:82] deydi. Darhaqiqat, narsaning "mohiyati" bu belgilovchi xususiyatlardan iborat bo'lib, ularsiz biz uning nomini ishlata olmaymiz. Mohiyat tushunchasi "umidsiz chalkash" bo'lsa-da, u hozirgi zamongacha har bir falsafaning bir qismiga aylandi. Hatto absurdizm ham.

Essensializm, keng ma'noda, mohiyatning ustuvorligini tan oladigan har qanday falsafadir. "Mavjudlik"ni asosiy voqelik deb hisoblaydigan ekzistensializmdan farqli o'laroq, essensial ontologiyaga metafizik nuqtai nazardan yondashish kerak. Empirik bilimlar munosabatlar olam tajribasidan ishlab chiqiladi, uning tarkibiy qismlari va atributlari intellektual qurilgan qonunlar nuqtai nazaridan aniqlanadi va o'lchanadi.

Essensial ontologiyaga qarshi ekzistensial ontologiya bir qator zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning bahsli mavzusida yotadi.

Sartr ateistik pozitsiyada turib “XVIII asr faylasuflarining dahriyligi Xudo tushunchasini yo‘qotdi, lekin mavjudlikdan oldin mohiyat kelishi haqidagi g‘oyani yo‘qqa chiqarmadi.” [Sartr, 1997:183] – deb Didro, Volter va Kantni tanqid qiladi. Uning dahriy ekzistensializmi nuqtai nazari markazida inson tabiati turadi. “...inson avval mavjud bo‘ladi, ko‘zga ko‘rinadi, dunyoga keladi va faqat shundan keyingina muayyanlashadi” deb ta’kidlaydi.

Sartr mansub bo‘lgan dahriy ekzistensializmining gumanistik mazmuni aynan manashu birinchi tamoyildan boshlanadi. Ya’ni, inson narsa-buyummas-ki uning mavjudligi mohiyatidan avval bo‘lsa. Inson avvalo mavjuddir, so‘ngra o‘z ixtiyori bilan o‘zini-o‘zi loyihalaydi. Har bir inson o‘z subyektiv kechinmalari orqali loyihalaydi. Bu uning insoniy subyektivligidir. Inson qandaydir tashqi ijtimoiy loyihaning mahsuli emas.

Sartr o‘zining falsafiy ta’limotining keyingi asosiy tamoyilini erkinlik va mas’uliyat masalasiga qaratadi. Inson o‘z mavjudligi asnosida hayotini loyihalashda mutloq erkinlik. Erkinlik inson tomonidan ixtiyoriy tanlov asosida harakatlanadi. Ammo bu erkinlik haqiqatdan anglangan mavjudlikdan boshlansa unda albatta inson o‘zining borligi uchun mas’uldir.[Sartr, 1997:183] Sartrning ta’kidicha, ekzistensiyachilik birinchi navbatda har qanday insoning hukmiga uning borligini havola qiladi va mavjudligi uchun to‘liq mas’uliyatni uning o‘ziga yuklaydi.

Sartrning so‘zlariga ko‘ra, “inson birinchi navbatda mavjud bo‘ladi, o‘zi bilan uchrashadi, dunyoda o‘zini namoyon qiladi va keyin o‘zini (mohiyatini) belgilaydi”. Shunday qilib, Sartr “deterministik asoslashlar” deb ataydigan narsalarni rad etadi va odamlar o‘zlarining xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi.

Sartr ekzistensializmida insoniy subyektivizm shaxsiy subyektivizmdan farq qiladi. Shaxsiy subyektivizm o‘z-o‘zi uchun mas’ul bo‘lsa, insoniy subyektivizm butun insoniyat uchun mas’uldir. Aynan shu ma’noda inson o‘z erkinligini maksimal tarzda ifoda etishga harakat qilsada uning chegarasi shundaki, u o‘z o‘zini tanlash orqali butun insoniyatni ham tanlaydi va shundan mas’uliyat yuklaydi. Demak, Sartrning erkinlik falsafasi mas’uliyat bilan chegaralanadi. Individ va sotsiumni, shaxs va jamiyatni, inson va insoniyatni aynan anashu mas’uliyat birlashtiradi va har bir inson o‘z o‘zini mavjudligini topar ekan, mavjudligiga ma’no berish yo‘lida o‘z o‘zini erkin loyihalar ekan u hech qachon insoniyatga zid moyiyatni tanlamaydi. Bunga ekzistensial mas’uliyat yo‘l qo‘ymaydi. Chunki o‘z mavjudligini topgan inson hech qachon yovuzlikni tanlamaydi. Agar inson tanlagan mohiyat yovuzlik bo‘lsa

eng avvalo mavjudligini yo‘q qilishga qaratilgan bo‘lar edi. Bu mohiyat o‘z mavjudligini anglamagan insonda yuzaga kelishi mumkin xolos. Buni Sartr bir necha misollar bilan tushuntiradi. [Sartr, 1997:183-184]

Ekzistensial mas‘uliyat ekzistensialist adiblarning adabiy asarlarida “xavotir”, “qo‘rquv”, “umidsizlik”, “o‘z holiga tashlab qo‘yilgan” singari tuyg‘ularni aks ettirish tarzida chaqiriladi. Ko‘pincha ekzistensializm umidsizlik falsafasi deb noto‘g‘ri ifodalanishiga ham aynan shu sabab deb bilamiz. Aslida bu falsafiy metod ko‘rinishidadir.

Agar ekzistensial mas‘uliyat bo‘lmasa ekzistensial erkinlik haqiqiy ekzistensial mavjudlikni topmaydi. Buni Sartr misollar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. Masalan, shunday deb yozadi: “Aldayotgan kishi, hamma ham shunday qiladi-ku, deb o‘zini oqlaydi, - u vijdoniga xilof yo‘l tutadi, chunki sodir bo‘lgan bu yolg‘on yolg‘onga universal qadriyat berayotganligini anglatadi”. [Sartr, 1997:184]

XULOSA

Sartrning erkinlik falsafasiga ko‘ra, har bir inson erkin bo‘lishga majbur, ya‘ni, aslida bu erkinlik katta mas‘uliyatni yuklayotganligini anglashi kerak. Har bir inson boshqalarga namuna bo‘ladigan qilmishlarni amalga oshirishga majbur. Manabu Sartr aytmoqchi bo‘lgan insoniy subyektivizmning ekzistensial mas‘uliyatidir.

Sartr ekzistensializmida erkinlik mavjudlikning zaruriy sharti va uni insondan hech kim hech qachon olib qo‘ya olmaydi. Ba‘zi faylasuflar Sartrning erkinlik falsafasi radikal xarakterga ega deb bilishlariga qarshimiz. Uning falsafasidagi insoniy subyektivizm radikal erkinlik emas, balki mas‘uliyatli erkinlikni e‘tirof etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Стретерн, Пол. Сартр за 90 минут. - Москва: АСТ АСТРЕЛЬ, 2005 -с.10
2. Фалсафа. Қомусий луғат . –Тошкент: Шарқ, 2004. –б.371.
3. Сартр Ж.П. Тошнота. Роман.// Иностранная литература, 1987, №7.
4. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. –б.106.
5. Сартр, Жан Пол. “Девор” хикоя И.Ғофуров таржимаси . “Тафаккур” журнали, 2004/3 сон.
6. Sartr, Jan Pol. Abdulla Sher tarjiması. Ekzistensializm to‘g‘risida. Jahon adabiyoti. 1997. 5-son.
7. Бердияев, Н.А. 1991. Самопознание. Москва. Книга. стр. 56.
8. Хайдеггер, М. Письмо о гуманизме.// Хайдеггер, М. Бытие и время. М., 1993. стр 196-201.

9. Bertrand Russell, (1991). *A History of Western Philosophy*, London: Routledge, 82 p.
10. Эргашева, Ю. (1998). Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развитие (50-60-е годы). *Автореф. на соиск, доктор канд. истор. наук.–Т.*
11. Abdurasulovich, D. G. O. (2023). Ekzistensializmda beshta asosiy mavzu. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 2(1), 973-977.
12. ЭРГАШЕВА, Ю. А. (2017). Формирование национальной модели образования в Узбекистане за годы независимости. *Alma mater (Вестник высшей школы)*, (9), 86-89.
13. Ergasheva, Y. A. (2016, January). The experience of reforming and developing the education system in modern Uzbekistan. In *International Scientific and Practical Conference World Science* (Vol. 5, No. 2, pp. 14-17).
14. Abdurasulovich, D. G. O. (2023). The Question of Moral Selection in French Ecclesialism. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(8), 42-44.

O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA’NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR DINAMIKASI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

RAHMONOVA Sanoat Shuhrat qizi

Toshkent davlat transport universiteti

tayanch doktoranti

+998914073931

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilgan ma’naviy-madaniy islohotlar dinamikasi va asosiy yo‘nalishlari tahlili hamda bugungi kunda, ma’naviy-madaniy islohotlarning rivojlanish yo‘li to‘g‘ri yo‘l sifatida tanlanganligi o‘zining amaliy tasdig‘ini topmoqda. Ma’naviy-madaniy yangilanishlar natijasida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar barqarorligini taminlash asosidagi islohotlar. haqida to‘xtalib ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. *Ma’naviyat, ma’naviy-madaniy islohotlar, ta’lim-tarbiya, shaxs kamoli, vatan ravnaqi, yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi, ma’naviy uyg‘oq jamiyat.*

DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

In this article, the analysis of the dynamics and main directions of spiritual and cultural reforms carried out in Uzbekistan and today, the choice of the path of development of spiritual and cultural reforms as the right path finds its practical confirmation. Reforms based on ensuring the stability of socio-political and economic reforms in society as a result of spiritual and cultural updates. the mention is scientifically revealed.

Key Words: *Spirituality, spiritual and cultural reforms, education, personality perfection, prosperity of the motherland, tranquility of the land, well-being of the people, spiritually awake society.*

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidan sobitqadamlik bilan odimlamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida qayd etganidek, “Biz keyingi yillarda belimizni mahkam bog‘lab, milliy manfaatlarimizni ta’minlash, xalqimizni rozi qilish yo‘lida sidqidildan mehnat qilib, g‘oyat muhim

natijalarni qo‘lga kiritmoqdamiz. Eng asosiy natija – boshlagan islohotlarimiz ortga qaytmaydigan muqarrar tus olganida, bugungi jamiyatimizning ma‘naviy uyg‘onishida namoyon bo‘lmoqda. ni, o‘z oldiga ulkan vazifalar qo‘yib, kelajak sari ishonch bilan borayotgan xalqni hech kim o‘z yo‘lidan to‘xtata olmaydi”.

Zero, insonlarning dogma holatiga kelib qolgan eskicha fikrlash tarzini o‘zgartirish g‘oyat muhimligini, insonlarning qalbi va ongida jamiyatni o‘zgartirish va yangilashga ishonch tug‘dirmasdan turib, harakatlantiruvchi kuchlarni va qadriyatlarga munosabatni daliliy sabablarini o‘zgartirmasdan turib, isloh qilish yo‘lidan amalda olg‘a borish, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etish, tamomila yangi munosabatlarni joriy etish mumkin emasligini alohida qayd etgan edi.

Istiqlolga erishgan O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqillik ma‘naviy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, iqtidodiy islohotlarning keng istiqbolli yo‘llarini ochdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash tufayli jamiyatimiz ma‘naviy-ma‘rifiy iqtisodiy-siyosiy istiqbol sariodimlamoqda. Ma‘naviy-ma‘rifiy sohani tubdan isloh qilish va rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishini tashkil etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ma‘naviy-madaniy islohotlar dinamikasi quyidagi 3 bosqichda amalga oshganligini ta’kidlash joiz:

1. Milliy-ma‘naviy tiklanish bosqichi (1991-2000 yilgacha);
2. Milliy-ma‘naviy tiklanishni rivojlantirish bosqichi (2001-2016 yilgacha);
3. Milliy yuksalish bosqichi (2017 yildan hozirgi kunga qadar)²⁰.

Bugungi tapaqqiyot yo‘li insoniyatning olamni anglashi, o‘rganilgan bilimlarini milliy va umumbashariy manfaatlari yo‘lida foydalana olishi, har bir millatning umuminsoniyat istiqboliga uning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma‘naviy yangilanishning demokratik negizlari shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan oliy maqsad jahon siyosati, jahon iqtisodiyoti, jahon madaniyatida o‘zining mustahkamo‘rniga ega bo‘lishdir. Jamiyatda islohotlarni amalga oshirishda umuminsoniy qadriyat deya baholangan ma‘naviy arkonlar– tenglik, adolat, poklik, halollik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni asrash ularni ajdodlardan avlodlarga munosib tarzda yetkazishda alohida e‘tibor qaratildi. Milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish va ularga yangicha mazmun mohiyat bag‘ishlanib, mamlakatimizda tinchlik, farovonlik, demokratiya, vijdon erkinligi va yurtimizda

²⁰ Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. Монография. –Т.: “Lesson Press” нашриёти, 2023. -Б.64.

yashayotgan har bir insonning kamol topishi uchun barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratildi.

Globalashuv sharoitida zamonning o'zi har bir insondan, ayniqsa ichki ishlar idoralari, milliy xavfsizlik sohasida faoliyat oliborayotgan xodimlaridan bugungi kun talablariga javob berish uchun zamonaviy bilim va yuksak malakani shakllantirish o'z ustida uzluksiz ishlashni kun tartibiga qo'yimoqda. Ichki ishlar idoralari hodimlari zamonaviy bilimlar bilan qurollangan fikrlash doirasi keng, uzoqni ko'ra oladigan o'z kasbiga ma'suliyat bilan yondashadigan bo'lsa, o'sha joyda o'zi ham, o'zgalar ham himoyasini topadi. Ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy: "Idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, jamiyatning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iborat", deb bejizga aytmagan.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy istiqboliga erishgan 1991-yil 31-avgustdan boshlab ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish va takomillashtirishni eng muhim masalalardan biri deb bildi. Madaniy merosni baholash, umuman madaniy siyosatning konseptual asoslarini yaratishda, quyidagi to'rt mezonga tayanadi:

- 1) insonparvarlik;
- 2) taraqqiyparvarlik;
- 3) xalqchilik;
- 4) vatanparvarlik.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

➤ ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

➤ oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

➤ targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

➤ el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

➤ madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

➤ geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish²¹.

Mustaqillikning to'rtinchi yilida mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida jiddiy hodisa ro'y berdi – 1994-yil 23-aprelda Respublika “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi tashkil etildi. Markazning rivojlanish tarixini quyidagi uch bosqichga bo'lish mumkin:

birinchi bosqich (1994-yil 23-aprel – 1999-yil 3-sentabr) – Markazning shakllanish davri;

ikkinchi bosqich (1999-yil 3-sentabr – 2006-yil 25-avgust) – Ma'naviyat va ma'rifat kengashi orqali ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy ishlarning o'zaro muvofiqlashtirilishiga erishish davri;

uchinchi bosqich (2006-yilning 25-avgustidan keyingi davr) – Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligiga erishish davri.

to'rtinchi bosqich (2017-yilning 28-iyuldan keyingi davr) - Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish davri.

Endi shu to'rt bosqich xususiyatlari, shu davrlarda amalga oshirilgan ishlarga to'xtalsak.

1. 1994–1999-yillar Markaz uchun shakllanish yillari bo'ldi. Markazda “Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati”, “Umuminsoniy va milliy qadriyatlar”, “G'oyalar, fikrlar va dasturlar jamg'armasi”, “Sotsiologik tadqiqotlar” bo'limlari tuzildi, ular yetuk kadrlar bilan ta'minlandi, ish faoliyati yo'lga qo'yildi.

1996-yil 9-sentabrda mamlakat Prezidentining “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida”gi farmoni e'lon qilindi. Bu hujjatda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga davlat siyosati darajasida e'tibor berildi. Mazkur hujjatning yana bir muhim jihati shundan iboratki, yosh avlodni buyuk an'analarimiz, yuksak ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida porloq kelajak egalari etib tarbiyalash maqsadida 1997-yildan boshlab 1-oktabr “O'qituvchi va murabbiylar kuni” deb e'lon qilindi.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni//<https://lex.uz/docs/-5841063>

Markaz faoliyatini yanada jonlantirish maqsadida 1998-yil 24-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi va joylarda ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘liq ishlarning ahamiyatiga yetarli darajada e‘tibor berilmayotgani, milliy istiqlol g‘oyalarini keng targ‘ib qilishda mahalliy ziyolilar, adabiyot, san‘at namoyandalari va obro‘-e‘tiborli faollarni jalb etish izchil va tizimli yo‘lga qo‘yilmayotgani ta’kidlandi. Ular o‘z faoliyatlarini “Nuroniy”, “Kamolot”, “Mahalla”, “Navro‘z”, “Oltin meros”, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armalari va ijodiy uyushmalar bilan muvofiqlashtirgan holda olib bormayotganlari qayd etildi.

2. Ma’naviyat va ma’rifat kengashi orqali ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy ishlarning o‘zaro muvofiqlashtirilishiga erishish davri (1999-yil 3-sentabr – 2006-yil 25-avgust). Markaz o‘z faoliyatini har qancha kuchaytirmasin, globallashuv zamonida dunyoda kechayotgan va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan ma’naviy-ma’rifiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, islohotlar va jahonda ro‘y berayotgan turli voqea-hodisalar targ‘ibot-tashviqot ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishni talab etayotgan edi. Ana shunday ijtimoiy zaruratdan kelib chiqqan, qator maqsad va vazifalari ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot bilan bog‘liq davlat va nodavlat tashkilotlari, xususan, “Ma’rifatchilar”, “Faylasuflar”, “Tarixchilar” jamiyatlari, “Sog‘lom avlod uchun”, “Mahalla”, “Kamolot”, “Nuroniy”, “Navro‘z”, “Oltin meros”, ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi, Yozuvchilar, Bastakorlar, “Tasviriy oyina” uyushmalari, Badiiy akademiya, Xotinqizlar qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus, Xalq ta’limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini ta’ sis etdi (1999-yilga qadar).

1999-yil 3-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Bu esa amalda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ikkinchi bosqichini boshllab berdi. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining asosiy shiori “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi bo‘lgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi unga a‘zo tashkilotlar, ya’ni “Ma’rifatchilar”, “Faylasuflar”, “Tarixchilar” jamiyatlari, “Sog‘lom avlod uchun”, “Mahalla”, “Kamolot”, “Nuroniy”, “Navro‘z”, “Oltin meros”, Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, “Ustoz”, “Umid”, “Ulug‘bek”, Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Amir Temur, Bobur, “O‘zbek muzey”, Xalqaro “Ekosan” jamg‘armalari, O‘zbekiston Bolalar jamg‘armasi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Huquqiy ma’rifat targ‘iboti”, Respublika “Oila”, “Ijtimoiy fikr”, Baynalminal madaniy markazlari, Yozuvchilar, Bastakorlar,

“Tasviriy oyina”, “Olima” uyushmalari, Badiiy akademiya, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Oliy va o‘rta maxsus, Xalq ta‘limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari, Din ishlari bo‘yicha, Davlat fan va texnika qo‘mitalari, Matbuot, Milliy teleradiokompaniya, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Mudofaaga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti, “Ma‘naviyat” nashriyoti, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, “Hunarmand” assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, “Jahon adabiyoti”, “Tafakkur” jurnallari, “O‘zbekkino” va “O‘zbekturizm” kompaniyalarining ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot yo‘nalishidagi salohiyatlari va imkoniyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirishni o‘zining asosiy maqsadlaridan biri etib belgiladi.

3. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligiga erishish davri (2006-yil 25-avgustdan 2017 yilgacha).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 2017-yil 28- iyuldagi PQ-3160-son qarori Markaz rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi²².

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi xamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazini qayta tashkil etildi. Markaz faoliyatini tashkil etishda quyidagi asosiy vazifalar belgilanib olindi:

➤ mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning, mazmun va mohiyatini aholining barcha qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo‘lga qo‘yish;

➤ jahonda sodir bo‘layotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

➤ jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga uning istiqboliga g‘ov bo‘layotgan ichki tahdidlar - el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik,

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4071203>

oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida milliy istiqol g'oyasini keng targ'ib etish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish;

➤ aholining hududiy, kasbiy hamda yosh hususiyatlarini inobatga olgan holda targ'ibot-tashviqot ishlarini mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

➤ ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligini muntazam yo'lga qo'yish;

➤ yoshlarda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish kitobxonlik ko'nikmasini, sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, Internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish;

➤ jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda hamkorlikni yo'lga qo'yish;

➤ yoshlarimiz va keng aholi qatlamlari o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'alarini asrab-avaylash, va kelajak avlodga yetkazish va ajdodlarga munosib avlod qilib tarbiyalash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish.

Ma'naviy-madaniy sohalarda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dinamikasi va asosiy yo'nalishlarini kuzatadigan bo'lsak, dastlab ularning kafolatini ta'minlaydigan huquqiy asoslari yaratildi va mustahkamlandi. Jumladan mustaqillikka erishgan dastlabki yillarimizdan boshlab ushbu sohaning huquqiy asoslarini davlatimiz tomonidan qabul qilingan quyidagi hujjatlar ushbu sohaning huquqiy asoslarini o'zida mujassam etdi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari: "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida" (1994-yil 23-aprel); "Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida" (1996-yil 9-sentabr); "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" (1999-yil 3-sentabr).

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” (2006-yil 25-avgustdagi PQ – 451-son).

3). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: «Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” (1994-yil 8-iyun); “Ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida” (1998-yil 24-iyul);

4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” (2017 yil iyuldagi PQ-3160-son) qarori ; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta‘lim tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2018 yil 17 sentyabrdagi 736-son qarori); O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2019 yil -maydagi PQ-4307-son qarori); O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (2022 yil oktyabrdagi 558-son qarori); O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son) qarori.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston demokratik taraqqiyot yo‘lida ma‘naviy-madaniy islohotlar dinamikasi va asosiy yo‘nalishlari amalga oshirilgan ma‘naviy-madaniy islohotlar dinamikasi va asosiy yo‘nalishlari yo‘lini tanladi. Bu boradagi islohotlarni amalga oshirishda mamlakatda ma‘naviy-madaniy islohotlar va ularning yangi ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. Bunda sobiq sovet tuzumi bilan bog‘liq jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oyaviy-mafkuraviy maqsadlar va printsiplardan voz kechildi.

1) Jamiyat rivojlanishida milliy g‘oya negizlariga tayangan holda jamiyat yangicha g‘oyaviy- mafkuraviy asosga tayandi.

2) Natijada, ma‘naviy-madaniy islohotlar va uning asosiy yo‘nalishlari asosida demokratik jamiyat rivojlanishi konsepsiyasi amalga oshirildi;

3) millatning milliy-ma‘naviy tiklanishi va milliy o‘zligini anglashi uchun zarur bo‘lgan islohotlar o‘z vaqtida izchil rejalar asosida amalga oshirildi. O‘zbekiston bu borada boy tajriba va yutuqlarga erishdi.

REFERENCES

1. Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиликлар стратегияси. Монография. –Т.: “Lesson Press” нашриёти, 2023. - Б.64.
2. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
3. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.
4. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA’NAVIYATLI AVLOD-UCHINCHI RENAISSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
5. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
6. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
7. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 366-375.
8. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA’LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.
9. Xolmirzaev, X. N. (2024). YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA INSONNING INTELLEKTUAL VA MA’NAVIY SALOHIIYATI OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 583-589.
10. Xolmirzayev, X. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON SALOHIIYATINI NAMOYON BO‘LISH OMILLARI. *Farg‘ona davlat universiteti*, (1), 197-197.
11. Holmirzaev, H. N. DIALECTIC OF THE ELEMENTS OF THE HUMAN COMPETENCE SYSTEM. *ILMIY XABARNOMA*, 19.
12. Naqibillaevich, H. H. (2022). Philosophical Analysis of Elements of Human Power System. *The Peerian Journal*, 5, 96-101.

13. Холмирзаев, Х. Н. (2022). ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТ-ИНСОН САЛОҲИЯТИНИ ЮЗАГА ЧИҚИШИ ОМИЛИ. *Conferencea*, 353-355.
14. Холмирзаев, Х. (2022). Инсон салоҳияти: тузилиши ва ижтимоий моҳияти. *Scienceweb academic papers collection*.
15. Холмирзаев, Х. (2020). МАЪНАВИЙ ЯНГИЛАНИШ ДАВРИДА ИНСОН САЛОҲИЯТИНИНГ РОЛИ. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Holmirzayev, X. (2020). ИНСОН ПОТЕНЦИАЛИ ИЛМИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Холмирзаев, Х. (2013). Ҳанафия таълимотида инсон эркинлиги масаласи. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Холмирзаев, Х. (2013). Глобаллашув жараёни ва миллий маънавият. *Scienceweb academic papers collection*.

UDK 502.10:159.955.000.93

YOSHLAR TAFAKKUR TARZI HAMDA YOSHLAR BUNYODKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

VAFAYEVA Dilyafroz Artikovna*Buxoro Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Yoshlar tafakkur tarzi hamda yoshlar bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish omillari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bugungi kunda shaxs madaniy saviyasi shakllanishi jarayonining ob'ektiv shart-sharoitlari va sub'ektiv omillari, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini hamda bu boradagi madaniy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishning xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tomondan yaratib berilgan huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, tashkiliy imkoniyatlardan foydalanib, yoshlarimiz ongiga bunyodkorlik g'oyalarini singdirish bugungi kundagi milliy pedagogikamizning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *yoshlar, tafakkur, bunyodkorlik, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, tashkiliy imkoniyatlar, shart-sharoitlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье научно обоснованы факторы, формирующие образ мышления молодежи и творческую активность молодежи. Сегодня актуальное значение приобретает выявление объективных условий и субъективных факторов, социально-философских аспектов процесса формирования культурного уровня личности, особенностей совершенствования культурно-просветительской работы в этом отношении. Использование правовых, социальных, экономических, духовных и организационных возможностей, созданных государством, привитие идей творчества в сознании нашей молодежи является сегодня одной из главных задач нашей отечественной педагогики.

Ключевые слова: *молодежь, мышление, творчество, правовые, социальные, экономические, духовные, организационные возможности, условия.*

ABSTRACT

The article provides scientific evidence of the factors that shape the way of thinking of young people and their creative activity. Today, it is of great importance to identify objective conditions and subjective factors, socio-philosophical aspects of the process of forming the cultural level of an individual, and the specifics of improving cultural and educational work in this regard. The use of legal, social, economic, spiritual and organizational opportunities created by the state, and

instilling creative ideas in the minds of our youth is one of the main tasks of our national pedagogy today.

Keywords: *youth, thinking, creativity, legal, social, economic, spiritual, organizational opportunities, conditions.*

KIRISH

Yoshlar tafakkuri - bu yosh avlodning fikrlash, o‘shirish va rivojlanish jarayonida foydali, innovatsion va ma’naviy axloqiy xususiyatlarni shakllantirish bilan bog‘liq. Ushbu jarayonda ilmiy-texnik bilimlar va ma’naviy taraqqiyotning qonunlari muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning jamiyatdagi erkin fikrlashlari ularning ta’lim va ma’naviy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi. Maydondagi axborotni batafsil o‘rganish zarur, chunki kompyuter o‘yinlari va boshqa omillar yoshlarga ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Jahon XXI asrda kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygani va sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar turli kasbiy va ijtimoiy bilimlar, qadriyatlar, g‘oyalarning shakllanishi jarayonini jadallashtirgani munosabati bilan shaxsning ulardan xabardorligi darajasini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Har bir shaxsni mazkur bilim, qadriyatlar va g‘oyalarni o‘zlashtirishdan “bezdiradigan”, chalg‘itadigan omillar uning ma’naviy qiyofasini salbiy omillar ta’siridan himoyalash yo‘llarini topish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bunyodkorlik faoliyati turmushni yanada obod qilish, haqiqatni chuqur anglab olish, aholi va o‘zini o‘zi boshqarish tizimi, ijtimoiy himoyalash va takomillashtirish, ijtimoiy iqtisodiyotni yanada kuchaytirish; hayotimizni yanada sog‘lom va obod qilish, har bir kishining jamiyatdagi o‘rni va nufuzi, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotinqizlarning turli jabha va yo‘nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash kabilardir. Bugungi kunda mustaqil respublikamizning qay darajada gurkirab rivojlanishi har bir kasb egasining o‘z ishiga mas’uliyat bilan, bunyodkorlik nuqtai nazardan yondashuviga bog‘liq. Renessans davri ijtimoiy kapitali nuqul iqtisodiy o‘zgarishlar va ijtimoiy muhitdagi yangilanishlar ta’sirida kechgani yo‘q. Jamiyatdagi shaxslararo hamkorlik, ijtimoiy normalar va qadriyatlar tabiatiga shu davrdagi gumanizm g‘oyalari rivoji ham iz qoldirdi. Gumanizm – “insonda insoniylik alomatlarining mujassamlashishi jarayonini ifodalovchi tushunchadir” [8, 12-b.].

Shu ma’noda yuqori kasbiy malakali, tashabbuskor va bunyodkor shaxsni tarbiyalash, takomillashtirish respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish o‘quvchi faoliyatida shaxsning barcha ruhiy holatlari va jarayonlari, qo‘yilgan masalani ijobiy

hal qilishga qaratilgan. Bunyodkorlik faoliyatini shakllantirishda o'quvchi tafakkuri, faolligi kabi muhim omillar yuzaga chiqadi. Bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish jarayonida o'qituvchilar hamkorligi va rahbarligida o'quv-tarbiyaviy muammolarni hal qilish, pedagogik natijaga erishish kabilar amalga oshadi. O'quvchilarning ongida bunyodkor faoliyatini tarbiyalash, bunyodkorlik faoliyati tizimini shakllantirish ta'lim-tarbiya sohasida eng dolzarb muammoga aylanmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bunyodkorlikning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi roli va ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, targ'ib-tashviq qilish asosida ularni olijanob ishlarga jalb etish umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biridir. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatning iqtisodiy sohasida yangi tendensiyalar vujudga kelmoqda. Xususan, barcha mamlakatlarda texnologik taraqqiyot, iqtisodiy aloqalarning liberallasuvi, raqamli iqtisodiyot rivoji, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan moliya bozorining vujudga kelishi va shu kabi qator o'zgarishlar tendensiyaviy tus olmoqda. Eng muhimi, bugungi davrda milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi aloqadorlikning kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu hol jahon iqtisodiyotining global tus olayotganidan dalolat beradi.

2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Muroja atnomasida ta'kidlab o'tganlaridek: "Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxtaegallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi" [1].

Respublikamizda bugun hamdaertaning bosqichli jarayonida ayollar, yoshlar va yana asosiy bug'inlardan biri yoshi keksa otaxonlarning o'z o'rnida katta kuch sifatida ishtirokini o'zgacha harakatlari sistemali ravishda vazifasini rejaviy hamda qat'iylik, ilmiy nuqtai nazardan harakatlardao'zaro hurmat, e'tiborni, mehrni kerakli joydao'rinli qo'llay olish zarur. O'zbekistonning kelajagi uchun har soha vakilini o'z vazifasini bajarishida teran natijaning samarasini hisobga olish juda muhim hisoblanadi. Chunki barcha natijalarning hisobga olinishi, bu kelajakda ilg'or samaradorlikka olib kelishi kafolatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha qonunlar va ko'rsatmalar zamirida aynan bugun hamda kelajakni yuksak samaradorligini hisobi natijalaridan ko'rinmoqda. O'zbekistonni dunyo mamlakatlari orasidao'z nufuziga egaligi ilm-fan texnikani rivojlanishi xatti-harakatlari jarayonning mukammaligi barcha davlatlarga o'rnak bo'ladigan darajada samara berishi lozim. Yurtimizning tinchligiyu yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagini hisobga olgan holda har qanday vaziyatda insonlar dunyoning rivojida ilm-fan texnikani takomillashuvini ta'minlash, baxtu-saodati yo'lida tinmay mehnat qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Zeroki, Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Ijtimoiy-siyosiy sohalarda xotin-qizlarga va yoshlarga yaratilgan jarayonlardan biri dunyoga kelgan har bir insonni baxtli yashashini inobatga olinganligi hamda kelajakni asrab qolish, inson qadri, qadriyatlarimizni saqlab qolishga doir insonlarning o'zaro munosabatlari, siyosiy yo'nalishlarda islohotlarda alohida tutgan o'rni hamda sharoitlari, yashash tarzi va baxti uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish imkonigaega bo'lishiga" [3, 105-b.] ko'maklashish, sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Inson qadri, siyosiy yo'nalishlarda jamiyat va davlatning muayyan ijtimoiy-siyosiy maqsadi, qadriyatlarimizni saqlab qolishga doir insonlarning o'zaro munosabatlari, kelajakka ishonch bilan qarash hamdaistiqbolda ulkan zafarlarga erishishga umid uyg'otadi. Shuningdek, insonlarning faoliyatida samarali harakatlarini oshiradi, shu yo'nalishdagi tizim va tuzilmalar ishining maqsadi va mezoni sifatida belgilangan birdamlik, hamjihatlikda inson hayoti mazmunini hamda baxtini boyitishga chorlaydi. Albatta, ushbu qadriyatlar bir tomondan, insonlar va jamiyat hayotida, davlat tashkilotlari faoliyatida kamol topadi hamda hayotga mazmun bag'ishlaydi. Unga turli jarayonlarda munosabatlar tizimini belgilaydi va turli xil tahdidlar va xatarlardan omon saqlab qoladi hamda irodasini mustahkamlaydi. Insonning jamiyat va davlatdagi turli tuzilmalariga, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar, Vatanga, o'z xalqiga, siyosiy hayotga bo'lgan munosabatlarida aniq belgilab berilgan.

Insonlarning shakllanishida oiladagi muhit, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, mahalladagi munosabatlar, jamiyatdagi hamjihatlik va diniy bag‘rikenglikda inson hayoti mazmunini hamda davlatda olib borilayotgan tinchlik-osoyishtalik, adolatparvarlik, insonlarvarlik va hamkorlik tamoyillarining qay darajada olib borilishida mas‘uliyat muhim ahamiyatgaega. Shu bilan birga, mazkur tizimlardajamiyat va davlat manfa atlari, oilalarning birligi, ular bilan bog‘liq jarayonlardao‘zaro munosabatlarda aloqadorlik, bog‘liqlik, uyg‘unlik munosabatlari tizimi barqarorligini ta‘minlaydi.

Ammo biz “Bugungi tez o‘zgaryotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim” [4, 125-b.]. Yoshlarimiz tom ma‘noda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishga qodir bo‘lgan kuch bo‘lib yetishlari ta‘lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilayotgan umummiy dasturlarni mantiqiy yakuniga yetkazish uchun barcha bug‘inlardagi vazifalarni yaxlit tizimga keltirish, ularning natijadorligigae‘tibor qaratish lozim.

Yuqori darajadagi moddiy va ma‘naviy manfa atlarda insonlar baxti uchun mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta‘minlash, ilmni, madaniyatni, fan-texnikani taraqqiyotida, barcha fuqarolarimizni zamonaviy bilimgaega bo‘lishiga keng yo‘l ochish va ular haqidag‘amxo‘rlik qilishga qaratilgan siyosatning eng yuqori ma‘naviy qadriyatlarga asoslangan boshqaruvi umrboqiy qurilma hisoblanadi. Bunday ijtimoiy-siyosiy maqsadlar hayot falsafasini, go‘zal tumushimizni yanada baxtli yashashimizni aniq yo‘llarini belgilab beradi. “G‘azab irodasi kuchli odamga ro‘para kelmaganidek, irodasi kuchsiz odamga ham ro‘para kelolmaydi” [9, 189-b.]. Ayrim muammolarni hal qilishdag‘ayriqonuniy beboshliklarni oldini oladi, eng murakkab munozarali muammolarni ham muzokaralar, tomonlarni kelishuviga asosan hal qilishga yordam beradi. Davlatimizni bu borada amalga oshirayotgan mamlakatlar o‘rtasida yuksak darajadagi tinchlik, barqarorlik, g‘amxo‘rlik, ma‘rifat va madaniyat, ilm-fan, rivojlantirishdagi olib borayotgan ishlari o‘z navbatida, mamlakat oldida turgan turli murakkab muammolarni ma‘rifiy yo‘llar bilan hal etishga imkoniyatlar yaratdi.

2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2022-20226 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” [2] PF-60-son Farmonidagi “Ma‘naviy taraqqiyotni

ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" 5-ustuvor yo'nalishining 71-maqsadida ezgulik va insonvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi" g'oyasini keng jamoatchilikka targ'ib qilish maqsadida jamoatda bunyodkorlik va sog'lom dunyoqarashni umummilliy harakatga aylantirib, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish vazifasi belgilab berilgandi.

Professor U.H.Qoraboyev ta'kidlab o'tganlaridek: "Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va ular kishilarning ishdan bo'sh vaqtida, kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun unga kengroq tushuncha va atama zarur bo'lmoqda. Ularni keng qamrovli "madaniy tadbirlar" deb atasak yaxshi bo'ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, "ommaviy tadbirlar", "badiiy tadbirlar" atamalariga ham murojaat qilish mumkin" [10, 21-b.]. Professor Usmon Qoraboyevning fikriga to'la qo'shilgan holda shuni ham qo'shimcha ta'kidlash joizki, o'tkaziladigan keng qamrovli madaniy tadbirlarning ma'rifiy (aholining dunyoqarashini kengaytirish va bilimdonligini oshirish) funksiyasiga qarab, ushbu tadbirlarni "madaniy-ma'rifiy tadbirlar" deb atash va targ'ib qilish o'rinli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunargao'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas" [5]. Haqiqatan ham, bugungi shiddatli zamonda hayotimizni ommaviy axborot vositalari – matbuot, radio, televideniye, kino, kompyu'ter tizimi, uyali telefonlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Ularning yordamida kishilar ommaviy axborot vositalari yoki buning boshqacha "media mass" deb nom olgan turli axborot uzatishdagi tarmoqlar, kanallar orqali ulkan hajmdagi axborotlarga bo'lmoqdalar. Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar, seriallar, tok-shoular, tinimsiz qo'ng'iroqlar va "SMS" xabarlarini ommaviy madaniyat ta'sirini oshirmoqda.

Farzandlarimiz ongiga "ommaviy madaniyat"ning zararli oqibatlari haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Avvalom bor "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, diniy ekstremizm, missionerlik, giyohvandlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz darkor. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz" [6, 89-b.], - degan ko'rsatmalari muhim bo'lib qolmoqda. Keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlari, ayrim

buzg'unchi asarlar yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, ular insonni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo etishga qaratilganligi bilan o'ta xavflidir.

“Yoshlar - Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari” g'oyasining amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida sotsiokreativ va intellektual boy yangi avlodni tarbiyalash, madaniyat, falsafa, tarix, adabiyot, san'at, musiqa va xalq ijodiyotidagi izlanishlar bilan bog'liq muammolarni echimini topish lozim. O'zbek xalqi o'zini tarixiy madaniy merosi bilan faxrlanadi, aynan unga tayanib, yangi avlodni tarbiyalashgao'zini mas'ul deb biladi. Bu oliyjanob tuyg'u, vorisiylik prinsiplariga sodiqlik ma'naviy-madaniy boyliklardan samarali foydalanishni taqozo etadi [11, 346-355-bb.].

Shavkat Mirziyoyev jadidlarning xizmatlarini yuksak baholaganlaridek: “Albatta, biz xalqimizning ma'naviy kamol topishida madaniyat namoyondalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz. Yuksak ideallar yashash, o'zligimizni anglash, g'urur va iftixor, milliy manfa atlarimizni himoya qilish uchun bel bog'lab maydonga chiqish, siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz” [12, 45-b.].

72-maqsadda belgilab berilganidek, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish, aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish zarur. Achinarli jihati shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilari egallagan zamonaviy bilimlardan, ya'ni kompyu'ter va internetdan ayrimlari foydalana olmaydi. Muallimlar darsga tayyorlanish va uni tashkil etish jarayonida bu bilimlarga muroja at qilmaydilar, darslarini qiziqarli hamda zamon talablari darajasida, o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda tashkil etolmaydilar [12, 45-b.]. Afsuski, maktablarning ko'pchiligida bugun ham zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalar ta'minoti sust. Yoshlarning bunyodkorlik faoliyatida Markaziy osiyolik allomalarning xizmatlari tadqiqotchi G.K.Masharipovaning ilmiy tadqiqotlarida ochib berilgan [3, 364 b.; 14, 144 b.; 15, 210 b].

XULOSA

Xulosa sifatida aytish joizki, yoshlar tarbiyasiga barchamiz mas'ullikni his qilib, jamiyatimizga xos bo'lmagan illatlarga qarshi birgalikda kurashishimiz lozim. Zero, barkamol avlod va yuksak axloqli vatanparvar yoshlar bugunimiz va ertamizning haqiqiy davomchilaridir.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Xalq so‘zi 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda qabul qilingan 2022-20226 - yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063#5842914>.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019. - 105-b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2018, 1-tom. - 125-b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat‘iyat bilan xizmat qilaylik. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 16-iyun.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018, 1-tom, 89-bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 tom. Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018. - 181 b.
8. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Evropa falsafasi - T.: Tafakkur qanoti, 2015 - B. 12.
9. Abu Ali ibn Sino. Sharq donishmandlari hikmatlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 189-b.
10. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. (Madaniy hordiq nazariyasi va amaliyoti fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003. - 21 bet.
11. Islamov K.T. “Yangi O‘zbekistonda Uchinchi renessans poydevorini qurish asoslari. // «Inson, uning e‘tiqodi, jamiyat, koinot: taraqqiyot muammolari va hozirgi zamon» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami. – Samarqand, 2022. – B. 346-355.
12. Muxamedov G.I., Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri: ta‘rif, tasnif, tahlil. – Chirchiq, 2020. - B 45.
13. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2019. - 364 b.
14. Masharipova, G. (2023). UCHINCHI RENESSANS VORISLARI-YOSHLAR TARBIYASIDA XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI ALLOMALARI MEROSINING O‘RNI. *Предпринимательства и педагогика*, 5(1), 35-44.

15. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o`rni. Monografiya. – Toshkent, Navro`z nashriyoti, 2020. – 144 b.
16. Masharipova G.K. O`rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo`shgan hissalarini. Monografiya. - Toshkent: Navro`z nashriyoti, 2021. – 210 b.

YANGI O‘ZBEKISTON UCHINCHI RENESSANS YOSHLARINI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYAT SIFATIDA ALLOMALAR MEROSINING O‘RNI

MAXMITOVA Dilfuza Saydazimovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda milliy qadriyat sifatida allomalar merosining o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy-ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlamay turib, ta‘lim-tarbiya jarayonlarida samarali natijaga erishish qiyin. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlashda avvalo, ularni ma‘naviy qiyofasini, axloqiy tarbiyasini mustahkamlash lozimdir. Bu hamisha faoliyatimizning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Kalit so‘zlar: *Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston, meros, yoshlar, globallashuv, tarbiya, axborotlashgan jamiyat, qadriyatlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье научно обоснована роль наследия учёных как национальной ценности в воспитании молодёжи Третьего Возрождения Нового Узбекистана. В условиях глобализации трудно добиться эффективных результатов в образовательном процессе без укрепления национальных и духовных ценностей в сознании молодежи. Для подготовки нового поколения кадров, способных решать сложные и масштабные задачи модернизации нашей страны и построения современного общества, необходимо, прежде всего, укреплять их моральный облик и нравственное воспитание. Это всегда будет важнейшим направлением нашей деятельности.

Ключевые слова: *Третье Возрождение, Новый Узбекистан, наследие, молодежь, глобализация, образование, информационное общество, ценности.*

ABSTRACT

The article scientifically substantiates the role of the heritage of scientists as a national value in the education of the youth of the Third Renaissance of New Uzbekistan. In the context of globalization, it is difficult to achieve effective results in the educational process without strengthening national and spiritual values in the minds of young people. In order to prepare a new generation of personnel capable of solving complex and large-scale tasks of modernizing our country and building a

modern society, it is necessary, first of all, to strengthen their moral character and moral education. This will always be the most important direction of our activities.

Keywords: *Third Renaissance, New Uzbekistan, heritage, youth, globalization, education, information society, values.*

KIRISH

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallasuv jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar kuchaymoqda. Mamlakatimiz ham bundan yiroqda emas. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarimiz global axborot makonidagi resurslarning qaysi jihatlaridan foydalanish yoki foydalanmaslikni aqlan bilishlari lozim. Qadriyatlarni bir-biridan farqlash, milliy qadriyatlarni yo‘qotmagan holda munosabatda bo‘lishlari muhimdir.

Bugungi kunda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr ibn Iroq, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi olimlar merosini o‘rganish milliy qadriyat sifatida dolzarb vazifa hisoblanmoqda. Hattoki, arab xalifasi Ma‘mun O‘rta Osiyo olimlarini Bag‘dodga olib ketgani va ular «Bayt ul-hikma»ning ko‘rki bo‘lib, ilm uchun xizmat qilganliklarini yuqoridata’kidladik. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu-l-Abbos al-Javhariy, YAhyo ibn Mansur kabi olimlar shular jumlasidan. Markaziy Osiyoning buyuk o‘g‘lonlari nomi dunyo madaniyati sahifasida oltin satrlar bilan yozib qoldirildi. Bu davrda, arab, fors, turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarda muhrlanib, SHarqning turli burchaklarigacha etib bordi.

Uyg‘onish davri avval SHarqda boshlanib, so‘ngra Evropaga ko‘chgan. Tarixda dono shohlar, hokimlar o‘z saroyiga ilmu fozillarni, ziyolilarni to‘plaganlar, ularga sharoit yaratib, kuch-g‘ayratlarini mamlakat rivojlanishiga yo‘naltirganlar. Jumladan, Anushteginiy-Xorazmshohlar davlatining vakillari ham.

Abdulla Avloniy xulqning jamiyat hayotidagi o‘rnini baho berar ekanlar: «Xulq har narsadan murakkabdir. Biri jasad, ikkinchisi nafsdirki. Jasad nafsi ila bor narsalarni ko‘rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondin, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi, yo yomon bo‘ladur. Jasadning surati hammaga ma‘lum bir narsadirki, har vaqt ko‘zga ko‘rinib turadi, ammo nafsning surati ko‘zga ko‘rinmaydigan, aql ila o‘lchanadig‘on bir narsadirki, buni xulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak befoydadir» [1, 11-b.].

SHu ma‘noda, inson amaliy faoliyatida ularga amal qilishi xulq-odobning asosiy mohiyatini tashkil qilish, xulq-odob qadriyatlarining egallanishi, yaxshi xulq-

odobning hayotiyliigi, uning xususiyati va me'yorlari kishilar xatti-harakatida, ijtimoiy faoliyatida belgilanib, davrga muvofiqlashtirib turiladi. Insonda xulq-odobning namoyon bo'lish va shakllanish xususiyatlari, fazilatlarining mohiyat mazmuniga e'tibor beriladigan bo'lsa, muomala va muloqotda namoyon bo'ladigan, ularning bir qismi shaxsning bevosita munosabati deb qarash mumkin. Boshqacha aytganda, inson axloqiy ongining bu fazilatlarini kategoriyalardir. Jumladan, xulq-odob–inson munosabatlarini ichki va tashqi jihatdan xarakterlovchi, muayyan jamiyat a'zolarining turli munosabatlaridagi shakllanganlik darajalarini belgilovchi falsafiy kategoriya ekanligi bilan ham e'tiborga loyiq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun reseptura vazifasini bajaradi. Noevropacha sivilizatsiyalar evolyusiyasi siklliligi va o'ziga xos institut hamda normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avlodlardan avlodga o'tadi.

Ilk o'rta asrlar ilmlari qatorida mexanika ('ilm-al-xiyal), geometriya ilmi Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino asarlarida maxsus tilga olingan bo'lib, ularning ayrim qoidalaridan qurilish arxitekturasida ham keng foydalanganligini ko'ramiz. Masalan, X asrda Abu-l-Vafo al-Bo'zjoni o'zining «Geometriyaviy qoidalarning hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida kitob» asarida bino bezaklari yasash, quruvchi ustalarning tajribalari, turli geometriya usullari yordamida har xil naqshlar, badiiy usullari haqida hikoya qiladi [2, 101-b.]. Ayrim manbalarda o'sha davrdagi tasviriy va musavvirlik san'ati, xususan, odam suratini chizish haqida ma'lumotlar keltirildi. IX-X asrlarda fors tilida yozilgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy qalamiga mansub manbada Xorazmshoh saroyidagi bir voqea tasvirlanadi: «Abu Nasr ibn Iroq musavvir edi. Xorazm shohi Mahmud unga Abu Alining suratini chizishni topshirdi, undan 40 dona surat ko'chirish uchun rassomlarni chaqirtirdi. Uning buyrug'iga ko'ra bu suratlarni barcha o'lkalarga jo'natildi. Ularning hokimlariga topshiriq berildi. Unga ko'ra suratdagi odamning nomi Abu Ali ibn Sinodir. Uni topib bizga yuborilsin» [3, 114-b.].

Bu parchadan ma'lum bo'ladiki, u davrda musavvirlik san'ati rivojlangan va podshohlar o'z saroylarida musavvirlik uchun sharoit yaratib berganlar.

Mashhur mutafakkir Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo» (كتاب الشفا), «Donishnoma» (دانشنامه), «Usul ‘ilm al-handasa» (اصول علم الهندسة) risolalarida musiqaga oid mustaqil bo‘limlar ham berilgan. Ulardan tashqari, maxsus «Risoi fi-l-musiq» asarini ham yozgan. Musiqaga oid atamalar, ma’lumotlar boshqaasarlarda ham keltirilgan. Hozirda xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan «SHashmaqom» kuylarining ayrim boshlang‘ich asoslari o‘sha davrlarda vujudga kelgan.

X-XII asrlarda san‘atning turli sohalari rivojlanishi, kitobga bo‘lgan qiziqishning ortishi, qo‘lyozma fondlari kutubxonalarini shakllanishi O‘rta Osiyo madaniyati tez sur‘atlar bilan rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Tarixdan ma’lumki, 995 yildan 1017 yilgacha Xorazm davlati gullab-yashnadi, Ma’mun akademiyasi olimlari turli fan sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. 1017 yilda ilm-fan, madaniyat ahllari vahunarmandlar G‘aznaviylar poytaxti G‘azna shahriga majburan olib ketildi. Ular orasida Abu Rayhon Beruniy mudarrislik qilgan» Ma’mun akademiyasi» olimlari ham bor edi. SHunday qilib, bu davrda Xorazm G‘aznaviylar, Saljuqiylar asoratida edi. Xalq ommasi, birinchi navbatda, jamiyatning ongli qatlami Vatan mustaqilligi uchun tinmay kurash olib borar edilar. Asli xorazmlik o‘g‘uz turklarining Bekdili urug‘idan bo‘lgan Anushtegin Sulton Malikshoh Saljuqiy saroyida tez kunda mahramlardan biriga aylandi. Uni tashtdor lavozimiga tayinlaydilar. Tadbirkor, epchil Anushtegin Sulton ishonchini qozondi va Xorazm viloyati hokimligiga sazovor bo‘ldi. Keyinchalik, bu lavozimni uning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad egallaydi. 1097 yili unga Xorazmshoh unvoni berildi. 1127 yilda Qutbiddin vafot etgach, Sulton Sanjar uning o‘rniga o‘g‘li Alouddin Muhammad Otsizni taxtga o‘tkazdi. Alouddin hukmronligi davri Xorazmshohlar saltanatining eng yorqin sahifalaridan hisoblanadi. Gurganch va Marv madrasalarida iste’dodli mudarrislar qo‘lida ta’lim olgan Otsiz bilimdon va farosatli kishi bo‘lgan. Gurganchni o‘ziga poytaxt qilib olgan Otsiz Xorazmning qadimgi shon-shuhratini qaytadan tiklashga astoydil kirishdi. Tarqalib ketgan «Ma’mun akademiyasi» ni yanadan tashkil qildi. Davrning mashhur olimlari Gurganch shahriga kela boshlaydilar. Ular orasida Mahmud az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniy, Abdukarim Sam‘oniy Marvaziy, YUsof Sakkokiy, Mavlono Faxriddin ar-Roziy, Rashididdin Vatvot, Adib Sobir Termiziy va boshqa taniqli siymolar bor edi [4, 146 b.]. Xorazmshoh Otsiz davrida vorisiylik tamoyiliga amal qilingan, chunki Otsiz tarqalib ketgan Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari merosini davom ettirib, o‘zi tashkil qilgan ilm maskanida fanning turli sohalarini rivojlantirdi.

Xorazmshohlar davlatida sulton Takash va Alouddin Muhammad davrlarida madaniy hayot ravnaq topgan. Ayniqsa, qasidago‘y va dostonchi shoirlar ijodi gullab-yashnagan. Ulardan biri shoir va olim Rashididdin Muhammad al-Umariy (1115-

1182) edi. Rashididdin Vatvot o‘zining she‘riyat nafosati haqidagi «Xadoyiq us-sehr fi daqoyiqi ash-she‘r» («She‘r san‘atining sehrli bog‘lari») kitobini Xorazmshoh Otsizga bag‘ishladi.

Vatvotning «Rasoi‘il» («Nomalar») to‘plami juda qimmatli bo‘lib, ikki qismdan iborat: 1. Xalifalar, hukmdorlar (podshohlar), sultonlar, vazirlar, amirlar, valiylar, qozilar va muftiylarga bitilgan nomalar. 2. Ulamolar, shayxlar, mashhur kishilar, shoirlar, do‘stlar va boshqalarga yozilgan maktublar. Bu esa davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini o‘rganishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Xorazmshohlar davlatida fan, madaniyat, ijtimoiy va siyosiy hayotda yorqin iz qoldirgan buyuk allomalar yashagani manbalardan ma‘lum. SHulardan biri al-Hakim Ali ibn Muhammad al-Hijoziy al-Qo‘iniy bo‘lib, u atoqli shifokor, tibbiy va barcha ilmlarning bilimdonidir. Uning tib ilmi vaamaliga oid nomalari (rasoi‘il) bor. U «Kitob fil-hikmat» asarini adolatli jahongir Xorazmshoh Otsiz ibn Muhammad sharafiga bitgan [4, 238-b.].

Faylasuf olim Bahovuddin Abu Muhammad Abduljabbor ibn Muhammad Sobit ibn Xorogiy – Marv donishmandlaridan biri, falakiyot va mantiqqa doir asarlar muallifi. Xorazmshoh Otsiz Bahovuddin Xorogiyini qadrlab, Xorazmga chaqirib oladi. Bu olimning tarixga oid kitoblari ham bor.

Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1144) – naxv, ya‘ni grammatika, lug‘at ilmlarida arabu ajam olimlariga ustoz bo‘lgani uchun an-Nahviy vaal-Lug‘aviy laqablarini ham olgan. Ritorika, stilistika, falakiyot va boshqa fanlarga oid juda ko‘p risolalar muallifi [5, 98-b.].

SHahobiddin Nasaviy yozishicha, Sirojiddin YA‘kub Sakkokiy falakiyotni chuqur bilgan. Ilm-fanning barcha sohalarida asarlar yozgan. Sulton Alouddin Muhammad va uning onasi Turkon xotun Sakkokiyga yuksak hurmat ko‘rsatganlar.

Abdul-Karim ibn Muhammad ibn Mansur Abu Sa‘id ibn Abul-Muzaffar al-Marvaziy as-Sam‘oniy (vaf. 1167) – Marvning mashhur ulamolaridan, adib va tarixchi. Ko‘p mamlakatlarni kezgan. «Kitobul-ansab» («Nasablar tarixi») va «Xayli tarixi Bag‘dod» risolalari muallifidir [6, 392-393-b.].

Majididdin Nasaviy Xorazmshoh Alouddin Muhammadga bag‘ishlab, fors tilida «SHahonshohnoma» dostonini yozgan.

SHahobiddin Nasaviy – shoir, tarixchi, davlat arbobi. U Xorazmshoh Sulton Jaloliddin Manguberdi devonida munshiylik vazifasida xizmat qilgan. Ba‘zi vaqtlarda Sulton Jaloliddinning elchisi sifatida boshqa mamlakatlarga davlat ishlarini hal etish uchun borgan. Sultonning podshohlari, maliklarga yuboradigan maktublari va boshqa hujjatlarni tuzgan, «Siyрати sulton Jalod ad-Din» risolasining muallifi.

IX-XII asrlarga oid manbalar asosida respublikamizning taniqli olimi Baxtiyor Karimov ham shug'ullanganlar. Jumladan, ularning ushbu davrlarga oid bo'lgan asarlarini yoshlarga o'rgatish [7-9], shuningdek. ushbu davrga xos asosiy manbalarni G.Masharipova [10-17] asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish joizki, X-XII asrlarda fanning turli sohalari bo'yicha olimlar ijod etdilar. Ushbu davrlar Xorazmda, asosan, filologiya (ilmi adab, ilmi naxv), falsafa, ilohiyot, fiqh, tabiiy fanlar, ilmi ziroat, tibbiyot, riyoziyot va falakiyot, me'morchilik, suv inshootlari (to'g'onlar, chigirlar, koriz-qanotlar), kemasozlik, temirchilik, boshqa hunarmandchilik turlarining (duradgorlik, misgarlik, kulolchilik, kunchilik va h.k.) nazariy asoslari va amaliyoti haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Xorazmshoh Otsiz e'tiborini mamlakat hududlarini kengaytirishga, birinchi navbatda, SHarq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishga qaratdi. Buyuk Ipak yo'li karvonlari xavfsizligi ta'minlanishi xorijiy savdogarlarning Gurganch sari oqimini yanada kengaytirdi, mamlakat bozorlari chet el mollari bilan to'lib ketdi. Xorazm ko'plab xomashyo va qimmatbaho mollarini dunyo bozorlariga jo'natdi. Bularning hammasi mustaqillik tufayli amalga oshirildi. Xorazmshohlar saroyida jahonning turli o'lkalaridan kelgan millat vakillari – turklar, eroniylar, hindu xitoylar va slavyanlar ijod etganlar. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri Xorazmda ilmfan gurkirab rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 11 b.
2. Культура Среднего Востока. Градосоительство и архитектура. - Ташкент: Фан, 1989. – 101 с.
3. Самарканди Низами Арузи. Собрание редкостей или четыре беседы. - Москва, 1963. – 114 с.
4. Buniyotov Z. Anushteginiy xorazmshohlar davlati (1097-1231). - Toshkent: Fan, 1998. – 146 b.
5. Ибн ал-Асир. Т.9. Полный свод всеобщей истории. – Москва, 1940. – Книга 12.
6. Ибн ал-Фувати. Т.4. Ч.2. - С. 1116-1117, Т.4. Ч. 3. - С. 392-393.
7. Каримов Б.Р. Абу Райхан Беруний и современные проблемы развития языков Индостанского полуострова, Евразии и мира // Абу Райхон Беруний мероси ва hozirgi zamon. - Toshkent: Falসাфа ва hukuk instituti, 2011.
8. Karimov B.R. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino merosi va hozirgi zamon sivilizatsiyasi rivoji // “Abu Rayhon Beruniy va o'rta asrlar fani” mavzuidagi

Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 6-noyabr 2014 yil. - Toshkent: O‘zR Fanlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti, 2014.

9. Каримов Б.Р. Место переписки Беруни и Ибн Сины в истории мировой науки и философии // “Абу Райхон Беруний ва ўрта асрлар фани” мавзuidaги Республика илмий конференцияси материаллари. 6-ноябрь 2014 йил. - Toshkent: ЎзР Фанлар Академияси Шарқшunosлик институти, 2014.

10. Masharipova G.K. Xorazm Ma‘mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma‘naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2019. 15,9 b.t.

МАШИНА-ТРАКТОР АГРЕГАТЛАРИ ТИТРАШ МАНБАЛАРИНИ ТАДҚИҚИ ВА УЛАРНИ ИДЕНТИФИКАЦИЯЛАШ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.>

КУРБОНОВ Ш.Х.

Иқтисодиёт педагогика университети доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада машина-трактор агрегатлари титраш манбаларини тадқиқи, уларни магнит қисқич ва виброўлчагич ёрдамида ўлчаши, двигателнинг айланиш частотаси ва трансмиссиясининг шовқин хусусиятлари анализ қилинган.

Калит сўзлар. Шовқин, титраш, овоз, виброизоляция, технологик, конструктив, эксплуатацион, двигател, айланиш частотаси.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОЧНИКОВ ВИБРАЦИИ АВТОМОБИЛЬНО- ТРАКТОРНЫХ АГРЕГАТОВ И ИХ ИДЕНТИФИКАЦИЯ

Курбанов Ш.Х.

Доцент университета педагогической экономики

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведено исследование источников вибрации машинно-тракторных агрегатов, их измерение с помощью магнитного зажима и виброметра, а также анализируются шумовые характеристики частоты вращения двигателя и трансмиссии.

Ключевые слова. Шум, вибрация, звук, виброизоляция, технологическая, конструктивная, эксплуатационная, двигатель, частота вращения.

RESEARCH OF VIBRATION SOURCES OF MACHINE-TRACTOR UNITS AND THEIR IDENTIFICATION

Kurbanov Sh.Kh.

Associate Professor of University of Pedagogical Economics

ABSTRACT

In this article, the study of vibration sources of machine-tractor units, their measurement using a magnetic clamp and a vibrometer, and the noise characteristics of the engine rotation frequency and transmission are analyzed.

Keywords. *Noise, vibration, sound, vibroisolation, technological, structural, operational, engine, rotation frequency.*

КИРИШ

Шовқин ва титрашнинг зарарли таъсирига қарши кураш уч йўналишда амалга оширилиши мумкин: 1) технологик конструктив ва эксплуатацион чоралар орқали мазкур омиллар параметрларини ҳосил бўлиш манбасида пасайтириш; 2) овоз ва виброизоляция ёки овоз ютиш ва титрашни ютиш воситалари ёрдамида шовқин ва титрашлар интенсивлигини тарқалиш йўли бўйлаб пасайтириш; 3) мазкур омилларнинг зарарли таъсирини ишчининг шахсий(индивидуал) ҳимояси ёки иш тартибини ўзгартириш орқали пасайтириш[1; 162 б. 9; 23-27 б.]. Саноат шовқини ва титрашнинг зарарли таъсирига қарши курашишнинг нисбатан фаол усули технологик конструктив ва эксплуатацион тадбирлар орқали мазкур омиллар параметрларини ҳосил бўлиш манбасида пасайтиришдир[2; 50-52 б.]. Техника ривожланишининг замонавий босқичида шовқинни ҳосил бўлиш манбасида пасайтириш йўли билан керакли даражадаги шовқин ва титраш пастлигига эришишнинг ҳар доим ҳам имкони йўқлиги боис шовқин ва титрашлар интенсивлигини тарқалиш йўли: ҳаво (ҳаво шовқини) ва қаттиқ конструкциялар (структур шовқин) бўйлаб пасайтирувчи самарали воситаларни ишлаб чиқаришга алоҳида эътибор қаратиш керак[3; 2386-2391 б.]. Шунингдек, шовқин ва титраш билан курашда машиналарни тўғри эксплуатация қилиш тартиби, уни яхши сақлаш ҳамда ўз вақтида жорий таъмирлаш ҳам муҳим роль ўйнайди[4; 160-169 б.]. Манбадан шовқин фақат ҳаво орқали, титраш эса вибрацияланувчи бўғинга туташган конструкциялар материали орқали тарқалиши мумкин [5; 8-10-б.].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Экспериментал тадқиқотларни амалга ошириш жараёнида учдан бир октава филтрли RFT–00023 овоз ўлчигич аппаратурадан фойдаланилди. Шовқин ва титраш характеристикаларини ўлчаш аппаратураси ЎЗДАВСТАНДАРТ органлари томонидан текширилган ва ГОСТ 17187- 81 (СТСЭВ 1351 –78)га тўлиқ мос келади.

RFT фирмасининг ўлчашларда фойдаланилган виброўлчов аппарати комплекти 1-расмда кўрсатилган.



1-расм. Виброўлчагич аппарати комплекти

Шовқин ва титраш характеристикаларини ўлчаш учун R-F-T (ГДР) ва «Брюль и Кьер» (Дания) фирмаларининг шовқин ўлчагичлари, чизикли филтрлари, анализаторлари, ўлчов микрофонлари, ўзи ёзгичлари қўлланган. Мазкур фирмалар ускуналарининг техник характеристикалари халқаро стандартларга, жумладан ГОСТ 17187-81га тўлиқ мос келади. Ишлатилган барча ускуналар Давлат стандартлар қўмитаси органлари томонидан текширилган бўлиб, давлат текшируви тўғрисидаги амалдаги гувоҳномаларга эга.

Ускуна ўлчов амалга оширилишидан олдин ва кейин калибрланган. Овоз босимини ўлчаш жараёнида $P_0 = 2 \cdot 10^{-5}$ н/м² катталик ноль даража сифатида қабул қилинган.

Вибро-шовқин характеристикаларини тадқиқ қилиш жараёнида тадқиқ қилинувчи машина двигателининг тирсақли вали ва механизмлар валининг айланиш частоталарини ўлчаш ва назорат қилишда ГОСТ 21339-75 бўйича электрик тахометрдан фойдаланилган.

Шамол тезлигини ўлчаш учун ГОСТ 6376-74 бўйича паллали анемометр қўлланилган.

Трактор остови ва кабина таянчларининг турли нуқталари титрашини ўлчашда КД-35 вибродатчикдан фойдаланилди. Датчик ўлчаш нуқталарига 50 граммдан кўп бўлмаган оғирликдаги магнит қисқич ёрдамида ўрнатилган. Ўлчаш учун датчикни маҳкамлаш усули 2 а,б-расмларда берилган.



а) Кабинани олд таянчи (виброизоляторгача).




б) Кабинани орқа таянчи (виброизоляторгача).


2-расм. Титрашни ўлчаш учун магнит қисқич КД 35

Бундан ташқари виброизоляторларни танлашда лаборатор тадқиқотлар ўтказилиб. Турли шаклдаги виброизоляторларнинг қаттиқлик сифатини синовдан ўтказишда юклама қайд қилинган.

Шовқин хусусиятларини ўлчаш ушбу тадқиқот муаллифи томонидан ГОСТ талаблари асосида ишлаб чиқилган хусусий усуллар бўйича берилган, бу ерда ўлчов пунктлари ва ишлатилган техник воситалар, жиҳозларнинг диаграммалари ҳам келтирилган.



Двигателнинг айланиш частотаси, мин⁻¹




Двигателнинг айланиш частотаси, мин⁻¹

3-расм. Асосий (таянч) тракторлар двигателларининг бўш иш ҳолатида ва тўлиқ юкланишида шовқин хусусиятлари (а) ва тирсакли валнинг айланиш частотасига қараб (б): 1–Д-144; 2–Д-240Т.

Пахтачилик МТА асосий тракторлари двигателларининг шовқин характеристикалари натижаларини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики (3-расмга қаранг), тўлиқ юкланганда двигателларнинг товуш даражаси 1,5-2 дБ (А) га ошади. Двигателларнинг товуш босими даражаси (Д-240Т, Д-144) одатда 1000-8000 Гц частоталарда ортади.

Двигателлар шовқининг кенг қамровлиги турли хил таъсирлантирувчи омилларнинг мураккаб полигармоник табиати билан изоҳланади. Двигателнинг шовқин спектрида аниқ тонлар йўқ, шунинг учун двигател ўлчовлари октава частота диапазонларида берилган.

Двигател товуш даражасининг тирсакли вал айланиш частотасига боғлиқлиги 3 б-расмда кўрсатилган. Расмда кўрсатилганидек, двигателнинг минимал айланиш частотаси (15 С⁻¹) дан максимал (36 С⁻¹) гача ўзгарганда, товуш даражаси қиймати 11-13 дБ (А) га ошади. Ушбу ўсиш тахминан ТТЗ серияли кабинасининг овоз изоляцияси самарадорлигига тахминан тенгдир. Олинган боғлиқлик МТА тайёрлашда ишлатилиши мумкин, чунки кўпинча, операциянинг рухсат этилган технологик тезлигига икки йўл билан эришилади: узатмалар қутисининг паст узатмаларида двигателнинг максимал частоталарида ёки узатмалар қутисининг юқори узатмаларида ва двигател айланишининг ўртача тезлигида. Шовқин даражасини пасайтириш нуқтаи назаридан бундай ҳолатларда МТАнинг узатмалар қутисининг юқори узатмалари ва двигатель айланишининг ўрта частоталаридаги иш режимига устунлик бериш, шу билан бирга двигателнинг ёқилғи сарфини камайтириш керак.



4-расм. Пахтачилик МТА асосий трактори трансмиссиясининг шовқин хусусиятлари: а - тортишнинг турли қийматларида шовқин спектри: 1-3,4 кН (25%); 2-6,8 кН (50%); 3-10,2 кН (75%); б - ҳаракатланиш тезлигининг (1) ва тортишиш кучи (2) трансмиссиянинг товуш даражасига) таъсири.

ХУЛОСА

Тадқиқот натижаларига кўра, двигателнинг ўнг ва чап оёқларида титраш тезлигининг умумий даражаси 112-113 дБ, уловчи муфта корпусида эса титраш даражаси 112 дБ эканлиги аниқланди, бу титраш энергияси пасаймаслигини ва трактор рамаси элементлари орқали тарқалишини кўрсатди. 250-4000 Гц гача двигател оёқлари орқали тарқалган структур шовқин, ушбу шовқинни тарқатувчиларининг частота спектрларига тегишлидир.

Вибрацияли изолятордан олдин ва кейин титраш изоляторларининг самарадорлигини баҳолаш учун октава бандларининг ўртача геометрик частотасининг титраш тезлиги даражалари 63 4000 Гц сифатида қабул қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Гигиенические критерии состояния окружающей среды /Совместное издание Программы ООН по окружающей среде и Всемирной организации здравоохранения. - Женева, 1983. - вып.12. - 115 б.
2. Белый И. Ф., Богданова И. А. Шум в кабине гусеничного сельскохозяйственного трактора //Тракторы и сельхозмашины. – 2016. – №. 10. – С. 50-52.
3. Ляшенко М.В., Победин А.В., Шеховцов В.В., Долотов А.А., Искалиев А.И., Соломатин А.В. Формирование воздушного шума в кабине трактора К-700А // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 9-11. – С. 2386-2391;
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 январдаги 21-сон “Республика ҳудудларида пахтачилик ҳосили теримини механизациялаш даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори.
5. “Меҳнат жароҳати ва касб касаллиги билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш йўллари” мавзусидаги ўқув-семинар маърузалар ва норматив ҳужжатлар тўплами, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика тиббий-ижтимоий экспертиза инспекцияси бўлим бошлиғи А.У. Нарзуллаев маърузаси, 2017 йил.
6. Справочник по контролю промышленных шумов: Пер. с англ. /Пре. Л.Б. Скарина, Н.И. Шабанова; Под ред. д-ра техн.наук, проф. Б.В. Ключева. - М.: Машиностроение, 1979. - 447 б.
7. Андреев А. Н., Черненко Я. В., Туманов И. В. Исследование влияния шума в кабине трактора на реакцию тракториста-машиниста //Повышение управленческого, экономического, социального, инновационно-технологического и технического потенциала предприятий и отраслей АПК. – 2017. – С. 132-135.

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИН СУРХОН ВОҲАСИДА ИЛМ-ФАН ВА МАОРИФ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР

НОСИРОВА Диловар Нормаҳаммад қизи

ДТПИ Тарих (фаолият турлари бўйича) йўналиши

2-босқич магистранти

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Сурхон воҳасида муштамлака шароитида иккинчи жаҳон урушидан кейинги даврдаги илм-фан соҳасидаги ўзгаришлар борасида сўз юритилади. Илм-фан ва маориф соҳасидаги ўзгаришлар жараёнида коммунистик мафқурани сингдириш жараёнлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *Илм-фан, маориф соҳасидаги ислохотлар, Сурхон воҳаси, коммунистик мафқура, таълим-тарбия, кадрлар тайёрлаш масаласи.*

ABSTRACT

This article talks about the changes in the field of science after the Second World War under colonial conditions in the Surkhan oasis. In the course of changes in the field of science and education, processes of assimilation of communist ideology were analyzed.

Key words: *Science, reforms in the field of education, Surkhan oasis, communist ideology, education, personnel training.*

КИРИШ

Урушдан кейинги йилларда таълим тизимини тинч шароит талаблари асосида қайта қуриш анча машаққат ва қийинчиликлар билан йўлга қўйилди. Чунки уруш даврида мактаблар тармоғи қисқарган ва ўқувчилар контингенти камайган, кўпгина болалар ўқишни ташлаб халқ хўжалигининг турли соҳаларида ишлашга мажбур бўлган эди. Бутун эътибор фронт эҳтиёжларига сарфланганлиги боис мактаблар қурилиши тўхтаб қолган, мавжуд мактаблар ҳам таъмир талаб бўлиб, уларни ўқув жиҳозлари билан таъминланганлик даражаси энг куйи поғонага тушиб қолди.

МАТЕРИАЛ ВА МЕТОДЛАР

Мактабларда фаолият юритаётган ўқитувчиларнинг аксариятини фронтга сафарбар қилиниши туфайли мактабларда малакали мутахассислар етишмай қолган эди. Бунинг устига уруш йилларида ўқитувчиларнинг бир қисми қисқа муддатли курсларда тайёрланган бўлиб, уларнинг методик тайёргарлик даражаси паст даражада эди. Бу каби камчилик ва етишмовчиликлар таълим тизимини ривожлантиришга жиддий тўсиқ бўлаётган эди. Шунга қарамасдан ўз

касбига фидоий бўлган ўқитувчилар ёшларга билим беришда астойдил меҳнат қилдилар.

Йиллар ўтиши билан халқ хўжалигидаги ўзгаришлар қаторида жанубий ҳудудлар таълим тизимида ҳам анчагина силжишлар юз бера бошлади. Уруш йилларида Сурхондарё областида 142 мактаб фаолият юритган бўлса²³. 1946-47 ўқув йилида областда 280 та мактабда таълим тарбия ишлари олиб борилди²⁴. Областда мактаблар сонининг деярли бир баровар ўсишига уруш туфайли ёпилиб қолган айрим мактаблар фаолиятининг қайта йўлга қўйилиши, шунингдек, янгидан мактабларнинг бунёд қилиниши асосида эришилди. Уруш туфайли ота-онасиз қолган мактаб ёшидаги болаларни ўқишга тортиш борасида ҳам шу йилларда областда анчагина хайрли ишлар йўлга қўйилди. Масалан, биргина Сурхондарё областда 15 та болалар уйида 2000 нафар бола тарбияланди²⁵.

Бу даврда республикада мактабларни малакали ўқитувчилар таркиби билан таъминлаш даражаси ниҳоятда оғир аҳволда эди. Республика миқёсида умуман тўрт минг, жумладан I-IV-синфлар учун 800 ўқитувчи етишмасди. Район халқ таълими бўлимлари мудирлари ва инспекторларининг, мактаб директорлари ва таълим бўйича директор муовинларининг 60 фоиздан кўпроғи тегишли маълумотга эга эмас эди²⁶. Чунончи 1947-48 ўқув йилида Сурхондарё области мактабларида 1890 нафар ўқитувчи ишлаган бўлса, улардан қарийиб 1000 нафари ҳатто ўрта маълумотга ҳам эга бўлмаган²⁷. 1945-46 ўқув йилида Қашқадарёда 460 та мактаб мавжуд бўлиб, унда 79800 нафар ўқувчи таълим олди. Ушбу мактабларда фаолият юритаётган ўқитувчиларнинг 529 нафари махсус педагогик маълумотга эга эди холос²⁸.

1945 йил 1 сентябрида Бухоро бирлашган Педагогика ва ўқитувчилар институтининг Қарши филиалининг очилиши Қашқадарёда олий маълумотли педагог ходимларни тайёрлашдаги дастлабки қадам бўлди. Натижада 1948 йилга келиб Қашқадарё мактабларида фаолият юритаётган ўқитувчилар сони 3 бараварга ўсди. Шунга қарамасдан област халқ таълими тизимининг ўрта ва олий маълумотли педагог ходимларга эҳтиёжи катта эди. 1949 йилда област мактабларида фаолият юритаётган ўқитувчиларнинг 1178 нафари махсус

²³ Сурхондарё вилоят давлат архиви. 58-фонд, 1-рўйхат, 376-иш, 58-59-варақлар.

²⁴ Сурхондарё вилоят давлат архиви. 58-фонд, 1-рўйхат, 452-иш, 36-варақ.

²⁵ Ленин байроғи. 1975, 7 май.

²⁶ Раҳмонов Н.Умаралиев А. Совет Ўзбекистони маданияти тарихи очерклари. – Тошкент: “Ўқитувчи”. 1984. – Б.82-83.

²⁷ Турсунов С.Н. ва бошқалар Сурхондарё тарихи. – Тошкент: “Шарк”. 2004. – Б.419-420.

²⁸ Қувватова Нодира “XX асрнинг 20-80-йилларида Ўзбекистон қишлоқларининг ижтимоий-иқтисодий аҳволи (Жанубий вилоятлар мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасининг олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: 2010. – Б.90.

педагогик маълумотга эга эди. Бироқ мактабларда ўқувчиларга таълим бераётган 1259 нафар ўқитувчи ҳали ўрта маълумотга ҳам эга эмас эди²⁹.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР.

Ўзбекистон Компартиясининг 1949 йил март ойида бўлиб ўтган X съезди қарорларида умумий етти йиллик таълим тўғрисидаги қонунни республикада амалга оширишнинг, умумтаълим мактаблари ишини яхшилашнинг чоратадбирлари белгилаб берилди³⁰. 1949-50 ўқув йилидан бошлаб Ўзбекистонда умумий мажбурий етти йиллик таълимни жорий этиш борасида тадбирлар амалга оширила бошланди. Шу ўқув йилида Сурхондарё областида 59 та бошланғич мактаб етти йилликка, 43 та мактаб филиаллари эса мустақил бошланғич мактабларга айлантирилди³¹.

Мактабларнинг моддий-техник таъминотини яхшилаш борасида ҳам анча ишлар амалга оширилди. Натижада кўпгина таъмир талаб мактаблар таъмирланиб, баҳоли қудрат ўқув жиҳозлари билан таъминлана бошлади. Қолаверса оталиқ ташкилотлар ва колхозларнинг берган ёрдами туфайли бир қанча янги мактаблар ҳам қурилишига эришилди. Халқнинг ташаббуси билан амалга оширилган ҳашар ишлари орқали ҳам мактабларни кенгайтириш ва таъмирлаш борасида анчагина ишлар амалга оширилди.

1949 йилда ЎзССР Маориф Министрлигининг бюджети 1115 миллион рублни ташкил этди. Бу урушдан аввалги даражадан 1,4 баровар кўп эди³². Бу маблағларнинг аксарият қисми янги мактаблар қуриш ва уларнинг моддий техник таъминотини яхшилашга ажратилди. 1948-49 ўқув йилида Қашқадарёда 458 та мактаб фаолият юритган бўлса, 1949-50 ўқув йилида уларнинг сони 468 тага етди. Ўқувчилар сони эса 92639 нафарни ташкил этди. 1950-51 ўқув йилида эса областда 3 та ўрта мактаб янгидан ташкил этилди³³. 1950-51 ўқув йилида Сурхондарёда 47 та бошланғич мактаб етти йиллик мактабга айлантирилди, шунингдек, қишлоқ жойлардаги бошланғич мактаблар имкон қадар кенгайтирилди. Агар 1947 йилда областда 270 та бошланғич ва тўлиқсиз ўрта 10 та ўрта мактаб бўлган бўлса, 1949-1950 ўқув йилига келиб областдаги мактаблар сони 285 тага етди, шундан 11 таси ўрта, 136 таси етти йиллик, 138 таси эса бошланғич мактаблар эди³⁴.

²⁹ Қашқадарё вилояти давлат архиви 1-фонд, 2-рўйхат 156-иш, 36-варақ.

³⁰ Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и постановлениях съездов. Изд. 2-е доп. – Ташкент: «Ўзбекистан». 1968. – С.137.

³¹ Сурхондарё вилояти давлат архиви. 58-фонд, 1-ёзув, 3258-иш, 36-варақ.

³² Раҳмонов Н.Умаралиев А. Совет Ўзбекистони маданияти тарихи очерклари. – Тошкент: “Ўқитувчи”. 1984. – Б.83.

³³ Қашқадарё вилояти давлат архиви. 1-фонд, 2-ёзув, 456-иш, 41-варақ.

³⁴ Турсунов С.Н. ва бошқалар Сурхондарё тарихи. – Тошкент: “Шарқ”. 2004. – Б.420.

Шунингдек, қишлоқлардаги мактаб ёшидаги аҳолини мактабга жалб қилишда ҳам жиддий камчиликлар мавжуд эди. Аҳоли турмуш даражасининг пастлиги, иқтисодий етишмовчиликлар туфайли аксарият ўқувчилар бошланғич маълумот олиш билан чекланишга мажбур эди. Айниқса қизларни мактабга тортиш ниҳоятда паст даражада эди. Бунга қатор район ва қишлоқ советларида мактаб ёшидаги болаларни ҳисобга олиш, уларга туғилганлик ҳақидаги гувоҳномалар бериш ишларининг яхши йўлга қўйилмаганлиги ҳам сабаб бўлаётган эди. Бундан ташқари бу даврда болаларни мактабдан олиб қолиб, уларни хўжалик ишларига жалб қилиш, қизларни эрта турмушга бериб юбориш ҳоллари ҳам кўплаб кузатилди. Айрим тоғли районларда етти йиллик мактаблар аксар ҳолларда бошланғич мактаблардан узоқда жойлашган бўлиб, шунинг учун болаларнинг бир қисми IV-синфни битиргандан кейин ўқишни давом эттириш имкониятига эга эмас эди. Шу билан бирга айрим районларда мактаб ҳузурида интернатлар очишга ва узоқда яшовчи болаларни мактабга машина ва араваларда олиб боришни уюштиришга етарли эътибор берилмаган эди.

Бу даврда таълим тизимидаги энг муҳим муаммолардан бири бу хотин-қизларни ўқишга жалб қилиш масаласи эди. Аксар оилалар қизларини 12-13 ёшга тўлиши билан ўқишга юбормай, турмушга бериб юбориш ҳолатлари тез-тез кузатилиб турарди. Масалан, 1947 йилда Сурхондарёда қизларни мактабга юбормасдан турмушга бориб юбориш ҳолатлари 52 марта қайд этилганлиги область партия комитетида муҳокама қилинди³⁵.

1948-49 ўқув йилида Сурхондарё областидаги мактабларнинг 8-10 синфларида жами 47 нафар қиз бола ўқиган. Област мактабларида таълим олаётган ўқувчи қизларнинг ҳиссаси бошқа областларга нисбатан 5-10 маротоба орқада эди³⁶. Агар 1949-50 ўқув йилида Сурхондарёдаги мавжуд 11 та ўрта мактабни 150 нафар ўқувчи битириб чиққан бўлса, шулардан фақатгина 13 нафари қизлар эди. Бу ҳолат воҳада мактаб ёшидаги қизларни ўрта умумий таълимга тортишни кескин кучайтириш лозимлигини билдирар эди³⁷. Област партия ташкилотининг 1952 йилда бўлиб ўтган IV конференцияси хотин-қизлар билан ишлаш масаласига ҳам эътибор қаратди ва балоғат ёшига етмасдан қизларни турмушга беришни жиддий танқид қилди³⁸. Лекин шунга қарамасдан бундай нохуш ҳолатлар яна давом этаверди. Масалан, 1954-55 ўқув йилида областнинг Ангор районидаги 13-сонли мактабда 10 нафар вояга етмаган

³⁵ Сурхондарё вилояти давлат архиви. 361-фонд, 1-ёзув, 28-иш, 16-варақ.

³⁶ Сурхондарё вилояти давлат архиви. 58-фонд, 1-рўйхат 325-иш, 20-варақ.

³⁷ Турсунов С.Н. ва бошқалар Сурхондарё тарихи. - Тошкент: "Шарқ". 2004. –Б.265.

³⁸ Бердиев Ҳ. Эрматов Ҳ. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. – Тошкент: "Шарқ". 1991. – Б.81.

қизлар ўқишдан олиб қолиниб турмушга бериб юборилган бўлса, шу йили Қашқадарё областининг Яккабоғ районидаги 104-сонли мактабининг VI-VIII синфида ўқийдиган кўпгина қизлар турмушга бериб юборилган³⁹.

1950-51 ўқув йилида Сурхондарё областида кўшимча 16 та бошланғич мактаб очилди, 43 та бошланғич мактаб эса етти йиллик мактабга айлантирилди. Шунингдек 32 та мактабда кўшимча янги ўқув бинолари қурилди. Бу мактаблар асосан оталиқ ташкилотлари ҳамда жамоа ва хўжаликлар кучи билан қурилган бўлиб, уларнинг моддий-техник таъминоти ўта паст даражада эди. Кўпгина мактаблар мослашган биноларда жойлашган эди, қолаверса мактабларда иситиш тизимлари, зарур асбоб-ускуналар ва мебеллар етишмасди⁴⁰.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Раззоқов А. Ўзбекистонда кўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. – Тошкент: Фан, 1984.
2. Рахмонов К. Изменение социальной структуры Узбекского села в условиях развитого социализма. – Ташкент, 1984.
3. Раҳмонқулов Х. Давханов С. Гуллаб-яшнаётган Сурхондарё. – Тошкент: Билим, 1974.
4. Рўзиев А.Н. Сурхондарё области. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996.
5. Рўзиев А.Н. Сурхон-Шеробод қишлоқ хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967.
6. Рўзиев А.Н., Мирзаев Ш.П., Бараталиев У. Сурхондарё сув омборлари ва агросаноат мажмуини ривожлантириш масалалари. – Термиз: Жайхун нашриёти, 1997.
7. Садиков С.С., Зуфаров Х.Х. Развитие народного образования в Узбекистане. – Тошкент: Ўқитувчи. 1988.
8. Саидов М. Ғузур тарихи сарҳадларида. – Қарши: Насаф, 2003.
9. Солиев А. Ўрта Осиё шаҳарларининг ривожланиши. – Тошкент: Фан, 1978.
10. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 58-фонд, 1-ёзув, 3258-иш, 36-варақ.
11. Турсунов С., Қабулов Э., Пардаев Т., Муртозаев Б. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: 2004.

³⁹ Соҳибова М.Т. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: тажриба ва муаммолар. (жанубий вилоятлар мисолида (1946-1985 й)). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: 2008. – Б.64.

⁴⁰ Сурхондарё вилояти давлат архиви 58-фонд, 1-ёзув, 3230-иш, 28-варақ.

UO`K: 376:37.06:316.752.4

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNI BUZG'UNCHI AXBOROTLAR TAJOVUZIDAN HIMOYA QILISH

Xo'janova Tamara Jo'raevna,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.

E-mail: tamaraxujanova7@gmail.com

Tel: (90) 996 06 20

F.f.d., professor G.K.Masharipova taqrizi asosida

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuv sharoitida yoshlarni buzg'unchi axborotlar tajovuzidan himoya qilishning muhim jihatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Globallashuv – bu butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiyalashuv (bir-birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo'shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob'ektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Har qanday axborot xurujlaridan yoshlarni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: axborot, globallashuv, tajovuz, ijtimoiy ong, mafkuraviy jarayonlar, axborot tarqatish, internet tizimi, usul, vositalar.

ЗАЩИТА МОЛОДЕЖИ ОТ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В статье научно обоснованы важные аспекты защиты молодежи от агрессии деструктивной информации в условиях глобализации. Глобализация – это процесс всемирной экономической, политической, культурной интеграции и унификации (конвергенции). Основными чертами являются международное разделение труда, свободное движение капитала, рабочей силы и производственных ресурсов, стандартизация законодательства, экономических и технологических процессов, а также интеграция и сближение культур разных стран. Это объективный процесс, имеющий системный характер, охватывающий все сферы жизни общества. Важно защитить молодежь от любых информационных атак.

Ключевые слова: информация, глобализация, агрессия, общественное сознание, идеологические процессы, распространение информации, система Интернет, сердце и разум человека, метод, средства.

PROTECTING YOUTH FROM DESTRUCTIVE INFORMATION UNDER GLOBALIZATION

ABSTRACT

The article scientifically substantiates important aspects of protecting young people from the aggression of destructive information in the context of globalization. Globalization is a process of worldwide economic, political, cultural integration and unification (convergence). The main features are the international division of labor, free movement of capital, labor and production resources, standardization of legislation, economic and technological processes, as well as integration and rapprochement of cultures of different countries. This is an objective process of a systemic nature, covering all spheres of society. It is important to protect young people from any information attacks.

Keywords: *information, globalization, aggression, public consciousness, ideological processes, dissemination of information, Internet system, human heart and mind, method, means.*

KIRISH

Bugungi kunda axborot xurujlari insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomni tarkib toptirishni ko'zlagan holda, asosan internet vositasida kirib kelmoqda. Hozirgi davr dunyo miqyosida mafkuraviy jarayonlar misli ko'rilmagan darajada globallashib borayotgan davrdir. Axborot tarqatish jarayoni butun Er yuzini qamrab olmoqda. Darhaqiqat, olamning globallashuv sharoitida internet tizimi mafkuraviy ta'sir o'tkazishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa bugungi kunda o'ta jiddiy va xavfli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, internetdan shaxs ongini vayronkor g'oyalar orqali zaharlash maqsadida foydalanish, aniqroq qilib aytganda, shaxsning qalbi va ongini mafkuraviy kurash ob'ektiga aylantirish mafkuraviy kurashning eng ommaviy va tezkor usullaridan biri bo'lib qolmoqda. Uni oldini olish, omillari, usul va vositalari ishlab chiqish eng dolzarb vazifalardan biridir.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Globalashuv jarayoni N.Jo'rayev [1, 221-b.] to'g'ri qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko'proq "hozirgi

davr global muammolari”ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. Ko‘pchilik mutafakkirlar bu davrni xatto global krizis (bo‘hron) davri deb atamoqdalar. “XX asr krizisni kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga etdi”, [2, 132-b.] - deb yozadi mashhur faylasuf S.I.Dudnik. Darhaqiqat, globallashuv zamonaviy jamiyatga ko‘plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani ham o‘zida aks ettiryaptiki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg‘iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilish mumkin.

Globallashuvning salbiy oqibatlari asosan, quyidagi sohalarda namoyon bo‘lmoqda: ekologiya, sog‘liqni saqlash, demografik, resurslar, axloq, oila, ta’lim-tarbiya, ma’naviy, dunyoqarash va boshqalar shular jumlasidandir. Ayni shu ma’noda bugungi kunda eng yangi fan sinergetika ham shu krizis holatini ifodalash uchun “global bifurkatsiya nuqtasi” degan maxsus yangi tushunchani kiritgani, “katastrofalar nazariyasi”ni ishlab chiqqani bejiz emas. Chunki S.P.Kapitsa, S.P.Kurdyumov, G.G.Malinetskiy ta’kidlaganlaridek, “Olimlar siyosatchilarning qo‘liga butun Planetadagi hayotni bir emas, birnecha necha bor yo‘q qilish quvvatiga ega bo‘la oladigan qurollarni tutqazdilar, vaholanki, kelajakda ularni qanday yo‘qotish va nima qilish mumkinligini aniqlashga harakat qilmadilar.., ular energiyaning yangi manba’larini kashf etdilar va etmoqdalar, shuning bilan birga radioaktiv chiqindilar va yadroviy terrorizmdan qutulishday juda jiddiy muammolarini ham vujudga keltirdilar.., ular odamlarga antibiotiklarni sovg‘a qildilar, ayni paytda, zararli mikroorganizmlarning tabiiy tanlanish jarayonini kuchaytirdilar” [3, 3-5-bb.].

Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatlari haqida o‘ylab ko‘rilmayotgani haqida shunday deydi: “Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o‘z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan bo‘lishining ehtimoli katta. Insoniyatga yaxshi tanish bo‘lib qolgan yadroviy xavf-u xatar yoniga endilikda nanotizimlar va mashina intellekti kabi sohalarning jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari misli ko‘rilmagan o‘z imkoniyatlari va xatarlari bilan qo‘shilmoqda [4, 6-10-bb.].

Bizning kelajagimiz, agar u bor bo‘lsa, bizning ana shu jarayonlarga munosabatimizga bog‘liq. Hamon biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog‘liq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan “post-insoniyat” (keyingi insoniyat) jamiyatiga o‘tish dinamikasini yaxshi anglab etishimiz kerak. Ayniqsa tuzoq qayerda joylashganini, muqarrar o‘limga olib borishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni payqay bilishimiz zarur” [5].

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.Chumakov “Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, ma’naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo‘nalishlarini universallashtirishga olib kelishi bilan birga, an’anaviylik, o‘ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi” [6, 259-b.], - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishga majburdir. Inson yashayotgan zaminining, tinch va barqaror kechirayotgan hayotining mohiyatini to‘la anglashi, qadrlashi, ya’ni ijtimoiy muhitning ob’ekti sifatida namoyon bo‘lishi kerak.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqolani yoshich jarayonida dialektik, retrospektiv, qiyosiy tahlil va tizimli yondoshuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – ta’lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni ma’naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog‘liq. Davlatning bugungi va istiqbolidagi barqaror iqtisodiy o‘rnatilishini ta’minlovchi omillar aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Shu sababli Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh qilish jarayonida ta’lim sohasida jahonda munosib o‘rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Bu borada alohida ahamiyat kasb etadigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o‘rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi va oxir-oqibat, ularning unifikatsiyalashuviga olib keladi. Bunda o‘ziga xos siyosiy munosabatlar ko‘lamiga ko‘ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bir tarmoqqa ulanib ketishi kuzatiladi [7, 521-524-bb.].

Globallashuv fenomeni ob’ektiv va ochiq ekanligini hisobga olinsa uning turli muqobillarda namoyon bo‘lishi tabiiy tus oladi. SHunday ekan globallashuv jarayonining biror-bir aspektini mutlaqlashtirib, unga mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy jarayon sifatida qarash nojoizdir. O‘z navbatida nemis sotsiolog olimi U.Bek “SHubhasiz, globalizatsiya eng ko‘p qo‘llaniluvchi va eng ko‘p suiste’mol qilinuvchi va eng kam o‘rganilgan, ehtimol tushunarsiz mavhum, siyosiy jihatdan samarali so‘zdir (bahs-munozarada kuchli qurol, shior)” [8, 40-b.], - deb yozadi.

Globallashuv jarayonida axborot olishning tezlashuvi, shuningdek, internet orqali uzatiladigan turli yangiliklarni ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish masalalarini e’tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Masalan, globallashuv haqida 1998 yilda Nobel mukofotini olgan Portugaliyalik yozuvchi J.Saramagu:

“Men antiglobalistik harakatlar tarafdoriman. CHunki menga hozir sayyoramizda keskin tezlikda shakllanayotgan tartib, nizom yoqmaydi” - degan bo‘lsa, J.Soros “globallashuvning shuncha kamchiliklariga qaramay, men uning rashkchi tarafdoriman. Men uni qo‘llab-quvvatlashim sababi nafaqat u beradigan qo‘shimcha boyliklar, balki u odamlarga berishi mumkin bo‘lgan erkinlik sababli hamdir” [9, 176-b.], - deb yozadi.

Umuman olganda, globallashuv murakkab va serqirra jarayon bo‘lib, uni turli mamlakatlar hayotiga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish, davlatlar kelajagini belgilab beruvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda [10, 37-41-bb.].

Globallashuvning asosiy ko‘rinishlari, tendensiyalari va oqibatlari tevaragidagi munozaralar so‘ngi yillarda nafaqat jonlandi, balki qizg‘in tus olmoqda. Bugun nafaqat bir davlatda, balki butun dunyoda bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "anti globalistlar"ga ajraldi. Ayrim olimlar globalizatsiyani farovon turmush, tanlash huquqi va yanada ko‘prok erkinlik, ya’ni ko‘chib yurish, to‘liq axborot olish, ko‘proq xaq to‘lanadigan joyda ishlash, eng yaxshi universitetlarda ta’lim olish erkinligi bilan bog‘lasalar, boshqalar uchun esa globallashuv insoniyatga taxdid soluvchi, global isish, atrof muhitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya omillarining vujudga kelishi, ishsizlarning ko‘payishi, an’anaviy qadriyatlarga putur etishi kabi muammolarni tug‘diruvchi jarayon sifatida baholamoqdalar [11, 169-173-bb.]. Bizning nazarimizda, globallashuv, eng avvalo, taraqqiyot sur‘atlarining tezlashuvi orqali butun insoniyat yalpi Er shari taqdirini birlashtirayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy-ruhiy hodisa sifatida o‘zini namoyon etayotgan bir paytda, uning yaxlit mohiyatining ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayni shu nuqtai-nazardan qaraganda, globallashuv odamlar orasida ma’lum bir universal va umumhajmli aloqani o‘rnatishni nazarda tutadi [12, 256-b.].

XXI asr insoniyat tarixiga sivilizatsiyalararo muloqot asri, texnika texnologiya va axborot kommunikatsiyalar tizimi misli ko‘rinmagan darajada takomillashib boruvchi asr sifatida kirib keldi. Ayni paytda dunyodagi hodisa va jarayonlarni globallashuv tendensiyasi, mamlakatlar, xalqlar o‘rtasidagi sivilizatsiyalararo o‘zaro ta’sirni yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda insoniyat tarixini sivilizatsiyaviy jarayonlar, ularning turli ko‘rinishlari va bosqichlari sifatida qarash ilmda etakchi o‘rinni egallaydi. Buning asosiy sabablari:

Birinchiidan, uning fan tarixida 250 yildan beri davom etib kelayotgan jiddiy an'analari mavjud;

Ikkinchiidan, davrimizning barcha murakkabliklarini asosiy jixatlariga ko'ra sivilizatsiyaviylik yondashuv bilan xiyla keng tushuntirish mumkin;

Uchinchiidan, tafakkurimizga, dunyoqarashimizga yillar davomida singdirilgan taraqqiyotni farmatsion bosqichdan iborat ekanligi haqidagi markscha-lenincha dogmaning ijtimoiy-gnoseologik jihatdan asossizligini ochib berish uchun ham taraqqiyot jarayoniga sivilizatsiyali yondashuv muhim o'rin tutadi [13, 339-340-bb.].

O'zgarishlarga qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, ular bari bir hayotimizga kirib kelaveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonidan o'zining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanuvchi kuchlar bor ekan, bu o'zgarishlardagi salbiy jihatlar ham kuchayib boradi. Binobarin, globallashuv jarayonining asosiy sub'ekti va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga hizmat qiladigan bunday sa'iy-harakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o'rnatishidan iborat. Bunday sa'y-harakatlarning hatarli jixati shundaki, uning boshqa tamaddunlar, xalqlar va davlatlar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi, masalan, yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning milliy manfaatlari, an'ana va qadriyatlariga qay tarzda ta'sir etishi mumkinligi global hukmronlikka intilayotgan kuchlarni u qadar tashvishlantirmaydi [14, 16-b.].

Ana shunday global ta'sirlar xalqaro telekommunikatsiyalar, internet tizimi orqali yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotganligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan xaqiqatdir. Kishilar ongli faoliyati tabiiy tarixiy jarayon, u kundalik a'nanaviy turmush faoliyatidan tarkib topmaydi, balki ongi shuuriga ta'sir qiluvchi vosita va omillarning mantiqan izchil va shaqlan xilma-xil hodisalari in'ikosi kishilar qalbini junbushga keltiruvchi vokeliklarning tafakkurida namoyon bo'lishidir.

Voqean inson har doim o'z qalbiga quloq tutishi, uning unsiz sadosini tinglay bilishi hayotiy zaruratga aylanadi. Kishilar ongli faoliyatining ganjinasi sifatida ma'naviyat jamiyat hayotida nakadar muhim o'rin tutishini yaqqol his qila boradi. Eng achinarlisi shundaki, intellektual aql va qobiliyat egalari bo'lgan ziyolilarni moddiy turmush sharoitlarini yaxshilash hamda ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalasiga ham panja orasidan qaraldi. Ma'lumki, hech kim murabbiy va o'qituvchidek o'sib kelayotgan avlod qalbi va shuuriga kuchli ta'sir ko'rsata olmaydi. Ammo, uni avlod tarbiyasini yo'lga qo'yishda muammo bo'lgan ko'plab ob'ektiv sabablar qiynaydi. Avvalo, deyarli isitilmaydigan eski, talabga javob bermaydigan binolarda dars o'tish qolaversa, oylik maoshidan kelgusi oylik maoshigacha amal-

takal qilib yashash, uch-to‘rt yil davomida o‘ngib- o‘chib ketgan kostyumda har kuni ishga kelish kabi holatlar unga ma’naviy-ruhiy jihatdan ta’sir etibgina qolmasdan, uni obro‘-e’tiboriga, el orasidagi nufuziga, ijtimoiy madaniyatiga ham ta’sir etadi [15, 180-b.].

Bugun internetni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo‘lmasligi barchamizga ayon. Shunday ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma’naviy olami daxlsizligini asrash oldimizda turgan eng muhim masalalardan biridir [16, 54-55-bb.].

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Axborot makonidagi real voqelikdan kelib chiqib, keng jamoatchilikning manfaatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida yoshlarimizni nosog‘lom axborotlardan himoyalash masalasini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, turli ma’naviy buzg‘unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma’naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratish, ta’limning barcha bosqichlari uchun o‘quv va amaliy dasturlar ishlab chiqish va ularni joriy etish, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko‘tarishni talab etadi. Internet orqali berilayotgan tahlillar kim tomonidan va qanday manfaatlarni ko‘zlashi, mediamatnlardagi targ‘ibot-tashviqotni, bir - yoqlamalikni va buning sabablarini, ma’lumot tarqatuvchining niyatlarini bilish uchun keng dunyoqarash, ma’lum bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. SHuning uchun yoshlarning internet tarmog‘iga ko‘p tashrif buyurishini e’tiborga olib, tarmoqda milliy axborot tizimi va manbalarini yanada boyitish, ma’rifiy saytlarga ko‘proq e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Jurayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.221.
2. Дудник С. И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. - СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001. - Б.132.
3. Капица С.П., Курдюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика и прогнозы будущего Изд. 2-ое. - Москва: Эдиториал УРСС, 2001. - Б. 3-5.
4. Masharipova G.K. Development of scientific creativity in the era of renaissance // International conference bridge to science. - San Francisco, California, USA conference proceedings. Research work april, 15, 2019. - Pp. 6-10.

5. Ник Бостром - Ph.D., is Director of Oxford University's new Future of Humanity Institute. Угрозы существованию человечества. Анализ сценариев вымирания. <http://www.nickbostrom.com>.
6. Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры целостного мира. – Москва: Проспект, 2005. - С.259.
7. Masharipova G.K. Globallashuv jarayoni to'g'risida zamonaviy yondashuvlar va madaniyatlararo integratsiya masalasi // «Mustaqillik sharoitida xalqimizning g'oyaviy tarbiyalanishining dolzarb masalalari» mavzusida onlayn respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman. 2020-yil 5 may. - B.521-524.
8. Бек У. Что такое глобализация? - Москва, 2001. - Б.40.
9. Сарамату Ж. Почему я поддерживаю антиглобалистов//Россия в глобальной политике. 2003. - №1. - С.176.
10. Masharipova G.K. Globallashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. // “Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviyatning o'рни” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2014. - 37-41-bb.
11. Xo'janova T. Axborotlashgan jamiyat va uning mafkuraviy texnologiyalarini OAV tizimidagi to'g'ri foydalanishning yosh avlodni g'oyaviy himoyalashdagi ma'no-mazmuni va ahamiyati. - O'zMU xabarlar. 2022 1/8. – 169-173-bb.
12. Xo'janova T. Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Monografiya. – Toshkent, «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – 256 b.
13. Masharipova G.K. Globallashuv va XXI asr yoshlari // “Globallashuv va milliy-ma'naviy taraqqiyot tendentsiyalari” Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi mavzusidagi ma'ruzalar to'plami. (2015 yil 23 may) – Toshkent, 2015. - 339-340-bb.
14. Umarov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari. - “Tafakkur” jurnali, 2/2007 yil, 16-bet.
15. Жумаев Р.З. Политический система Республики Узбекистан: постановление и развития. - Тошкент: Фан, 1996, стр. 180.
16. Qosimova N. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. - Toshkent, 2012. 54-55 betlar.

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF POSTMODERN SOCIETY AND DEFORMATION PROCESSES IN IT.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.>

MAMASALIEV Mirzoulug Mirsaidovich

Associate Professor at Karshi Engineering Economics Institute.

ABSTRACT

This article analyzes the main features of postmodern society, including its emergence, the nature of changes, as well as the social, economic, cultural and political aspects of these changes. Attention is paid to the following main characteristics of postmodern society: information society, individualism, diversity, fragmentation, acceptance of the relativity of reality, rejection of traditional systems and devices. Comments are also given on the impact of these changes on modern society and their future prospects.

Key words: *postmodernism, postmodern society, informed society, individualism, social change, cultural transformations.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОСТМОДЕРНИСТСКОГО ОБЩЕСТВА И ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В НЕМ

Мамасалиев Мирзоулуг Мирsaidovich

Доцент Каршинского инженерно - экономического института.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются основные черты постмодернистского общества, включая его возникновение, характер изменений, а также социальные, экономические, культурные и политические аспекты этих изменений. Уделено внимание следующим основным характеристикам постмодернистского общества: информационное общество, индивидуализм, многообразие, фрагментация, принятие относительности реальности, неприятие традиционных систем и устройств. Также даются комментарии о влиянии этих изменений на современное общество и их дальнейших перспективах.

Ключевые слова: *постмодернизм, постмодернистское общество, информированное общество, индивидуализм, социальные изменения, культурные трансформации.*

INTRODUCTION

It is accepted to call the current society a postmodern society. According to some scientists, Postmodern society was established at the end of the 80s of the 20th century (some scientists take the appearance of the Internet in 1989 as a formal date)⁴¹. The socio-economic, industrial-technological, socio-cultural changes that began in the 70s of the last century indicated that the human society has entered a new stage of its development. Researchers use the concept of "postmodern society" to express the characteristics and tendencies of this stage.

In postmodern society, new technologies, mass culture, the relativization of the boundaries between real and virtual reality, some trends in interpersonal relations endanger the essence of a person as a biosocial being. has become one of the most urgent and fundamental issues of science. The development of science and technology, information technology, communication system, mass media, and the trend of globalization are rapidly accelerating, influencing and changing the traditional way of life, relations, value system, worldview.

ANALYSIS OF LITERATURE ON THE TOPIC:

In this sense, it can be understood that the conceptual interpretations of the postmodern society are just a coincidence. Their authors strive not only to reveal the essence of postmodern society, to determine its main features, but also to find internal and external reasons that change these features. For example, J. Lyotard states that for the first time the human society has begun to step into the postmodern state. J. Baudryar draws attention to the logic of the consumption process, which is its most important feature. F. Jamison uses postmodern society as a concept that represents the state of culture in modern capitalism. Z. Bauman compares it with a specific state of mentality, i.e. the way of thinking, mental capabilities and spiritual image of people. E. Giddens admits that the postmodern society entered its new stage at the end of the last century and calls it "the era of high modernity"⁴².

According to the analysis of these conceptual interpretations, the ideological foundations of postmodern society are as follows: a) denial of the values of modern society (regularity of development directed to a bright future, progress of science and technology, economic growth); b) non-recognition of the meaning and positive content of history, denial of socio-economic opportunities for development, deontologizing of existence and reality; v) absolutization of the principle of nominalism in knowledge, non-recognition of the content of the system of concepts

⁴¹ Liotar J-F. Sostoyanie postmoderna. M., Spb., 1998. 160 s.

⁴² Румянцев М. Экономика общества Постмодерна: критический анализ // Христианское чтение, 2012, № 6. - 167-с.

and concepts; g) loss of moral restrictions, opening the way to unethical economic practices; d) recognition of signs separated from the subject as reality, not reality⁴³.

Research methodology: Postmodern or postmodernist society refers to the globalized world formed at the end of the 20th century, which requires a revision of traditional values and constructions. This article analyzes the change of tolerance to others in postmodern society. This process is primarily related to globalization, cultural multiculturalism and changes in social structures.

Analysis and results: The main characteristics of postmodern society are as follows: 1. Globalization: The disappearance of borders between different nations and cultures through cultural exchange and technological development. 2. Multiculturalism: Interaction and integration of different cultures in society. 3. Social Equality: Struggle for equal rights across gender, race and ethnicity. 4. Unsanitization: Decrease of traditional religious and ethical values.

Changes in the social essence of the individual in postmodern society are not only negative in nature. Social processes have developed a person's knowledge and ideas about scientific and technical achievements, the ability to quickly assimilate scientific achievements and innovations, enriched his ideas about various national and universal values, lifestyles and activity norms of other peoples, democracy and expanded his views on social justice. However, by the beginning of the new century, under the influence of the trends of postmodern society, disturbing transformational processes began to take place in the social essence of the individual. This can be seen, first of all, in the transformation of his life goals. In the 70s of the 20th century, goals such as serving the spiritual and ideological interests of society, achieving professional success, and gaining one's own place in society were prioritized among the life goals of an individual, but at the beginning of the new century, his main goal was to improve his and his family's financial support and health. As a result of the fragmentation of the individual's thinking, his knowledge, skills and abilities became shallow, his faith became weak and unstable, and his attitude to various events and processes became temporary. Under the influence of modern trends, a person turned away from the values of modern society, the primacy of materiality began to appear in his system of values. If in modern society there was proportionality between the material and spiritual needs of a person, in postmodern society this proportionality was broken. A person has a mood to satisfy his material needs irrationally. In the conditions of postmodern society, the deformation of the social roles of the individual took place, and his formation as an independent person was also damaged. These transformational processes, on the one hand, had a serious

⁴³ Костина. А.В. Массовая культура как феномен постиндустриального общества. М., 2011. - 233-с.

impact on the composition of personal qualities, and on the other hand, caused the spread of a number of social ills.

Urbanism (worship of the city), technologism (worship of industry), primitivism (worship of undeveloped models of imitation), eroticism, dehumanization and other principles were at the basis of postmodernism as a worldview. For example, Corbusier's architectural structures, urban ensembles in Indian Chandigarh reveal the inner meaning of urbanism related to new technologism, eroticism and dehumanization.

The tendency that has arisen in the information society is the alienation of people from each other, entering into their artificial virtual narrow world and beginning to lose the two main signs of humanity, such as individuality and collectivity. Another trend is that people are becoming part and parcel of the machine, computer and television⁴⁴. The fact that people are increasingly losing their sense of identity and individuality creates a number of other problems. Paul Virilo, one of the researchers of postmodern society, admits that the human personality is divided into two. On the one hand, a person lives in a life with real coordinates ("here and now"), that is, in a real society and time. It has various district real needs necessary for living. He is forced to work, communicate with people and society. But on the other hand, it exists in a life within the matrix where time ("now") prevails over space ("here"). That is, he lives in a virtual artificially created hyperreality. The passage of human life is superior to artificial virtual space, in the world of fantasy. As a result, human personality, human "I" remains disconnected and divided between them - between real life and artificial virtual life, real time and virtual reality⁴⁵.

According to some scientists, this situation creates a new link in the chain of problems. It can be called delegitimization. Delegitimization means the loss of legitimacy, legitimacy, rights. In the context we are considering, it means that a person is separated from the essence of existence, ontological foundations, he is deprived of an objective understanding of his place in it and the environment surrounding him, and of actualization (legitimization). People are unable to distinguish reality from fantasy. J. Lyotard, one of the postmodern scientists, puts the matter in this order and comes to the above conclusions.

By the age of postmodernism, some philosophers believe that the person is not able to fulfill the social role that he is performing, because the necessary conditions for the formation and development of the person are no longer there. they called limi" [5]. The social functions of the socialization of a person are as follows: 1) it is formed

⁴⁴ Postmodernizm. Ensiklopediya, Minsk, 2001. –B. 120.

⁴⁵ Фромм Э.Бегство от свободы, - М., АСТ, 2011.

as a subject of a socio-historical process; 2) is the successor in the development of culture and civilization; 3) by adapting to the social environment, it creates the basis for the development of society without conflicts. For this, it is necessary to strengthen social education, which has a positive effect on the socialization of a person. Social education is the process of formation and development of the thinking of the individual, the spiritual and educational world in harmony with the goals and tasks of the society, all the noble influences and factors that encourage people to actively participate in social, economic and cultural life. is a set.

In general, in postmodern society, a person is a product of socio-historical development, socio-historical activity, a subject of social relations. A person is a product of history and society, a result of education and training. Its essence is formed by the wealth of social relations, the scope of social activities and the size of the acquired culture. Today, when socio-economic, political and spiritual-cultural reforms are being carried out, it is especially important to clearly imagine the structure of the person, to analyze the scope of issues related to his development. In the postmodern society, the danger of a person becoming a robot, even a part of a machine, computer, or an application has increased. A person who has become a prisoner and a slave of the computer (the number of such people is increasing rapidly from year to year), who spends his free time mainly in the artificial, virtual space created by the computer, has his individual, unique characteristics, his personal reality. is losing more and more. In a situation where scientific and technical development has accelerated, where materiality prevails, neglecting the problems related to the formation of a person leads to the emergence and rooting of factors that have a negative effect on his spiritual image, which E. Fromm In other words, turning a person into a robot is out of the question⁴⁶.

Therefore, a detailed analysis of the objective conditions and subjective factors that affect the spiritual image of a person in the situation that has arisen, and the search for ways to reduce their negative impact on a person is becoming one of the urgent fundamental problems of philosophy.

Summary: In conclusion, the modern trends of the postmodern society caused the transformation of the moral essence of the individual. Its main aspects are related to the transformation of personal life goals, fragmentation of thinking, deformation of the system of values and needs, new character of social roles, change of personal life principles.

It is important that socialist modernism, that is, ideas about science prevail as an image of the world in the formation of ideas and values about a person. It determined

⁴⁶ Fromm E. The Sane Society. - Toronto, 1960. -B. 263.

the moral foundations of society. In fact, during the Enlightenment, the idea of knowledge was formed as a way to achieve happiness.

REFERENCES:

1. Liotar J-F. Sostoyanie postmoderna. M., Spb., 1998. 160 s.
2. Румянцев М. Экономика общества Постмодерна: критический анализ // Христианское чтение, 2012, № 6. - 167-с.
3. Костина. А.В. Массовая культура как феномен постиндустриального общества. М., 2011.-233-с.
4. Postmodernizm. Ensiklopediya, Minsk, 2001. –В. 120.
5. Фромм Э. Бегство от свободы, - М., АСТ, 2011.
6. Fromm E. The Sane Society. - Toronto, 1960. –В. 263.
7. Мамасалиев, М. М. (2023). ТОЛЕРАНТНОСТЬ И ИНТОЛЕРАНТНОСТЬ: ПРОБЛЕМА МИРА ИЛИ НОРМА?. *Miasto Przyszłości*, 38, 176-181.
8. Mirsaidovich, M. M. (2023). DEFORMATION OF TOLERANCE TOWARDS OTHERS IN POSTMODERN SOCIETY. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(6), 230-232.
9. Эргашева, Ю. А. (2017). Формирование национальной модели образования в Узбекистане за годы независимости. *Alma mater (Вестник высшей школы)*, (9), 86-89.
10. Ergasheva, Y. A. (2016, January). The experience of reforming and developing the education system in modern Uzbekistan. In *International Scientific and Practical Conference World Science* (Vol. 5, No. 2, pp. 14-17).
11. Эргашева, Ю. А. (2020). Развитие женского предпринимательства в Узбекистане. In *Феномен рыночного хозяйства: от истоков до наших дней. Партнерство в условиях риска и неопределенности* (pp. 254-262).
12. Мамасалиев, М. М. (2023). ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ТЕРПИМОСТИ В ОБЩЕСТВЕ ПОСТМОДЕРНА. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 144-148.
13. Mamasaliev, M. M. (2023). A CHANGE IN THE PRINCIPLES OF TOLERANCE IN POSTMODERN SOCIETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 1071-1076. Делез Ж. Различие и повторение. СПб., 1998. С. 182.

SURXON VOHASINING QADIMIY GAZARAK QISHLOG'I ZIYORATGOHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ E'TIQODIY QARASHLAR XUSUSIDA

BOBOMURODOV Foziljon Komiljon o'g'li,

Termiz Davlat Universitetining Magistratura bo'limi,

Etnografiya, Etnologiya va Antropologiya yo'nalishi

II-bosqich magistranti.

[Tel: +998993799164](tel:+998993799164)

foziljon2020y@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Shimoliy Surxon vohasidagi, xususan Sariosiyo tumani Gazarak qishlog'idagi ziyoratgohlar va ular bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar, hamda qishloq tarixiga bevosita aloqador bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: *Sariosiyo tumani, Gazarak qishlog'i, Shohusan eshon, Shofozil eshon, ziyorat, G'oyib bo'lgan azizlar, Chilon azizlar, Begijonni shahidi, Sulton Parranda, tuyatosh, sallatosh, Qal'a tepa, Kuloltepa, Murodtepa, Hoshtepa, Hisortepa.*

ABSTRACT

The article presents the shrines and beliefs related to them in the village of Sariosia in the Northern Surkhan oasis, Gazarak district, as well as other information directly related to the history of the village.

Key words: *Sariasia district, Gazarak village, Shohusan Eshon, Shofozil Eshon, pilgrimage, G'oyib bo'lgan azizlar, Chilon azizlar, Begijonni shahidi, Sultan Parranda, tuyatash, sallatash, Kala tepa, Kuloltepa, Muradtepa, Hoshtepa, Hisartepa.*

KIRISH

Jannatmakon yurtimizning har bir go'shasiga qadam bosgan kishi uning go'zalligi-yu tarovatidan o'zgacha surur va hayrat hissini tuyadi. Shu bilan birga bu go'shalrning sof havosi va beqiyos manzaralari har qanday insonga ma'naviy xordiq baxsh etadi.

O'zbekistonning janubiy gavhari hisoblangan Surxon vohasida bu kabi manzil-makonlarni talaygina uchratish mumkin. Ularning har birida qanchadan – qancha moddiy va nomoddiy madaniyatlarni, gavjum ziyoratgohlarga aylangan avliyolarning qadamjoylari-yu qabrlarini, hamda, asrlar davomida ko'hna tarixdan guvohlik berib turuvchi qal'a yoki saroy qoldiqlarini topish mumkin.

Biz soʻz yurutmoqchi boʻlgan ziyoratgohlar joylashgan Gazarak qishlogʻi ham ana shunday sir-sinoatlarga boy manzillardandir. Sariosiyo tumanidagi qishloqlardan boʻlgan Gazarak juda qadimiy manzillardan biri boʻlib, u haqida koʻplab rivoyatlar va afsonalar ogʻzaki tarix sifatida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bundan tashqari Neʼmatulla Xoksorov (1947 - 2024-yil 14-fevral) oʻz qoʻli bilan yozgan oʻnga yaqin kitoblarida bu qishloq tarixi, tarixiy geografiyasi, qadimiy joylari va aholisining etnik tarixiga oid koʻplab maʼlumotlarni topish mumkin.

Gazarak nomining kelib chiqishi haqida turli manbalarda turlicha maʼnolarda keltirilgan:

- gaza togʻ qirrasini, Gazarak esa “gaza-rah” – togʻ qirrasidan oʻtadigan yoʻl boʻlishi mumkin⁴⁷.

-GAZARAK Sariosiyo t. qishloq. Oʻzbek xalqi tarkibidagi hazora (hazara/gazara) urugʻi vakillarining qishlogʻi. Hazorak (-k mavjudlik, kichiklik qoʻshimchasi) kichik Hazora qishlogʻi⁴⁸.

-«Joy nomlari» kitobida yozilishicha, gazarak soʻzi "guzar", yaʼni "Oʻtish joyi" maʼnosidan kelib chiqqan boʻlib, "karvon toʻxtab oʻtadigan joy", yaʼni manzil maʼnosini bildirar ekan. Keksalarimizning rivoyat qilishlariga qaraganda, to Oktyabr toʻntarishigacha Afgʻoniston, Baljuvon va Hisor orqali Samarqandga qat-novchi karvonlar Gazarak qishlogʻida toʻxtab oʻtar ekan⁴⁹.

Mashhur rus etnografi B.X.Karmisheva oʻz tadqiqotlarida davomida bu qishloqni oʻrgangan va quyidagi maʼlumotlarni yozib qoldirgan: Hisor tizmasining janubiy etaklaridagi adirlar orasida, kichik togʻ soyi boʻyida joylashgan va uzumzorlari bilan mashhur boʻlgan Gʻazarak qishlogʻi. Bu yerda oʻzbekzabon chagʻatoylar yashagan. Ilgari 400 ta xonadon bor edi. Gʻazarak besh kvartalga boʻlingan: Kalʼaguzar, Yuqori guzar, Oʻrtaguzar, Yangiqishloq va Qalliqguzar. Uning aholisining asosiy qismi oʻzlarini chigʻatoylar, bundan 400 yil avval toʻqaylar orasida qoʻnim topgan qirgʻa jasur oʻgʻrining (qirgʻa gazar) avlodlari deb hisoblardi⁵⁰.

Gazarak qishlogʻida “Gʻoyib boʻlgan azizlar”, “Chilon azizlar”, “Begijonning shayiti” kabi bir qancha ziyoratgohlarmavjud boʻlib, ular turli davrlarga oid hisoblanadi⁵¹. Bundan tashqari Gazarak zamini oʻtmishda yashab oʻtgan

⁴⁷ Suyun Qorayev. Oʻzbekiston viloyatlari toponimlari.-T: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2005.-B.127.

⁴⁸ Toʻra Nafasov, Vazira Nafasova. Oʻzbek tili toponimlarining izohli lugʻati.- T: Yangi asr avlodi, 2007.-B.23.

⁴⁹ Neʼmatulla Xoksorov. Gazaragim-gavharim.-T:Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.-B.5.

⁵⁰ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: НАУКА, 1976.-С.126.

⁵¹ Dala tadqiqoti yozuvlari. Sariosiyo tumani Gazarak qishlogʻi, 21.06. 2024 yil

sohibkaromat avliyolari, Shayx Said Amir Hamadoniy avlodlaridan bo'lgan aka-uka Shohusan va Shofozil eshonlar bilan ham Hisor vodiysida mahhur bo'lgan.

Aytishlaricha, Shohusan To'ra tug'ilgan kuni g'oyibdan bir beshik paydo bo'ladi. U kishi mana shu muqaddas beshikda ulg'aygan ekan.

Keksalarimizning guvohlik berishicha, Shohusan to'ra kecha qorong'usida ko'chadan ketayotgan bo'lsa, oldidan ikki saf, orqasidan ikki saf farishtalar qo'riqlab yurar ekan. Bu kishi ana shunday yaratganning nazari tushgan kishi bo'lgan.

Bir kuni o'n ikki nafar qishloq yigitlari tanasiga quloch yetmas katta bir terakni kesib, bog'dan qishloqqa olib kelmoqchi bo'ladilar. Uzunligi o'n qadamdan ortiq ho'l yog'ochni olti joyidan shatak bog'lab yarim yo'lgacha olib kelishadi. Dam olib o'tirishganlarida, Shohusan to'ra kelib qoladi.

- Hormanglar, bolalarim, og'ir yog'och qurg'ur sizlarni ancha qiynab qo'yibdi-ku. Yigitlik paytim bo'lganida sizlarga yordam bergan bo'lardim, — deydi tabbasum bilan.

-Eshonbobojon, undan ko'ra karomatingizni bir ko'rsating. Bu yog'ochni qiynalmay qishloqqa olib boraylik, — deydi yigitlardan biri hazillashib. Eshonbobo ichida bir kalimani o'qib, yog'ochga dam soladi-da, qo'lidagi hassa bilan uning ikki uchi va o'rtasiga sekin-sekin uradi. Ikki baquvvat yigitga qarab:- Qani, polvonlar, yog'ochning ikki tomonidan ko'tariglarchi, kuchlaring yetarmikan, — deydi. Ikki yigit hayron bo'lganlaricha ishonar-ishonmas o'n ikki kishi bazo'r ko'tarib kelayotgan yog'ochni dast ko'tarib yelkalariga oladilar, hech qiynalmay qishloqqa ravona bo'ladilar. Bu mo'jizani ko'rgan boshqa yigitlar hayron-u lol bo'lib qolishadi.

Shohusan to'raning ajoyib xislatlaridan yana biri shu edik, ba'zi kunlari bomdod nomozidan keyin xizmatkor va shogirdlarini to'plab: hammalaringiz hovli-haramlarni tartibga keltirib, Supurib-sidiringlar. Hovuz bo'yidagi supalar ustiga suvlarni qalin sepib, joy hozirlanglar. Bugun ziyoratimizga uzoqdan mehmonlar kelyapti. Qo'shni qassobni ham aytib qo'yinglar, uzoqqa ketib qolmasin. Mehmonlar keltirayotgan jallig'lar (qo'y-echkilar)ni so'yib, ularning hurmatlarini joyiga qo'yishimiz lozim, — deb keluvchilarning nechtasi otliq, nechtasi eshakda, nechtasi erkagu-nechtasi ayol ekanligigacha va hatto keltirayotgan «nazr»larigacha barchasini bexato aytib berar ekanlar. Keltirilgan barcha nazru-niyozlarni esa qishloqdagi yetimu-esir, bevayu-bechoralarga va kambag'al oilalarga tarqatib berar ekanlar. - Bizning rizqimizni Allohning o'zi beradi, — deb biror narsani ham olib qolmagan. O'zi ekib, parvarishlagan bog'laridan kelgan daromad hisobidan tirikchiliklarini o'tkazar ekan.

1927 yili 80 yoshida oqsuyak saidlar avlodidan bo'lgan Shohusan to'ra yoniga kuyovi Eshonjonni hamroh qilib olib, muqaddas haj safariga jo'naydi. Safar oldidan

butun qishloq ahlini to‘plab, ziyofat beradi. Ulardan oq fotiha olib, ularga ham duo beradi va qishloq ahli bilan xayrlashadi. Xalq ham ko‘zlarida yosh bilan u kishini kuzatib qoladi. Necha oylar davomida ne-ne mashaqqatlar bilan muqaddas Makkai mukarrama shahriga yetib keladilar. Bir necha kun ziyoratga kelgan hojilar bilan haj ahkomlarini bajarib, hamma uyga qaytish taraddudini ko‘rayotganda, Shohusan to‘ra vafot etadi.

Shohusan to‘raning ukasi bo‘lgan Shofozil eshon tabiatan ochiq ko‘ngil va xoksor, qalbi keng va pokdil, dunyoning hoyu havaslaridan parhez qilib, haq yo‘lini tanlab, faqirona yashashni ixtiyor qilgan mashrabnamo bir kishi bo‘lgan. Bu kishining karomatlari, hayotidagi ba‘zi latifanoma qiziqarli voqealar hanuzgacha xalqimiz orasida gapirib yuriladi.

Bir kuni qishloqning hazilkash yigitlaridan biri eshonni sinash uchun kechasi bog‘ hovlisida bog‘log‘li turgan otining egar- abzallarini yechib oladi-da, xashak ostiga yashirib qo‘yadi. Ertalab Shofozil eshon yigitning darvozasini taqillatib chaqirib kelib, hazillashaman desang boshqa kishi qurib qolganmi, nega kechasi otimning egar-abzallarini olib kelding? – deydi.

Otingizning abzallarini men olganim yo‘q, - deydi ko‘zlarini uqalab uydan chiqib kelgan yigit kulimsirab. Shundan so‘ng egar- abzallar berkitilgan hovli chetidagi xashak to‘dasini ko‘rsatadi eshonbobo. Yigit qancha tavba – tazarrular bilan egar-abzallarni eshonning uyiga olib borib beradi.

O‘ttizinchi yillardagi qatag‘onchilik siyosati Shofozil eshonni ham chetda qolmaydi. Uni ham «xalq dushmani»san deb, qo‘llariga kishan solib, tuman markazidagi NKVD (ichki ishlar xalq komissarligi)ning qamoqxonasiga haydab ketadi.

To‘lib qolgan turmani bo‘shatish uchun har xaftada bir marta mahbuslar «etap» qilinib, poezd bilan viloyat markazi Termiz shahriga jo‘natilar edi. Jo‘nashga tayyor turgan poezdning bir vagonida mahbuslar bilan birga Shofozil to‘ra ham bir burchakda o‘tirardi. Zang chalinib, poezdning jo‘nashiga ruxsat berildi. Lekin poezd o‘rnidan bir qadam ham jilmadi.

Shunda kimdir mahbuslar orasida ulug‘ eshon borligini, poyezd yurmayotganligiga shu kishi sabab bo‘lishi mumkinligini aytib qoladi. Darhol vagonidan Shofozil to‘rani tushirishgan edi, poezd ravon yurib ketdi. Qaytarib chiqarishganda, yana to‘xtab qoldi. Bu hol uch marta takrorlandi. Uch marta ham poyezd o‘rnidan qo‘zg‘almadi. Noiloj qolgan NKVD xodimlari hazratni yana qaytarib Sariosiyo turmasiga keltirishdi.

Keyinchalik turma boshlig'ini ikki yildan beri oyoq-qo'li ishlaymay yotgan xotinini davolagani uchun eshonboboni ozod qilib yuboradi⁵².

Gazarak nafaqat ilmi va ma'rifatli ko'plab kishilar yashab o'tgan makon, shu bilan bir qatorda Qal'a tepaligi, Kuloltepa, Murodtepa, Hoshtepa, Hisortepa kabi tarixiy joylari mavjud ko'hna qishloqlardan sanaladi. Bu tarixiy manzillar haqida bir qancha rivoyatlar bor. Ularning birida Hisortepa qadimda hukmdorning qo'rg'oni bo'lganligi, uning yaqinida joylashgan Hoshtepa bilan bog'lovchi yer osti yo'li xususida gap ketadi⁵³.

Once all the requirements imposed are met, the teacher can start broadcasting the audio material by placing it on the learners. The broadcast is done at least twice-otherwise language learners may not understand the subject and be unable to properly perform the exercises performed once the audio ma-thermal is heard. It is also a very

effective way to show Video Films, rollers to students and discuss it, using multimedia in the course of classes using technology, both in spoken and written learning. It is possible to use a dictionary familiar to learners, to comment on words if new and complex words are involved, to demonstrate video material if exercises related to new words are performed. It is also important to carry out this process, of course, in a calm, non-noise environment, a comfortable and clean classroom, the availability of the possibility of tamosha for everyone, to check whether the loudspeakers are working. Before releasing a video, the learner must talk about the subject of the video to be displayed, conduct Q & A, and indeed release the video material when the learner is convinced that they are interested in the subject. When the Video is over, the teacher will have to be interested in the students' thoughts about the video-film, perform exercises. Once this round of skirts is implemented, these lessons will definitely contribute a lot to the increase in the interests and knowledge of the learners. It follows from this that the role of modern technologies in the further enrichment of our lessons, the ability to interest learners, the enrichment of their knowledge is incomparable. And being able to apply them correctly and appropriately is the main guarantee of our achievements.

REFERENCES

1. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
2. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.
3. Муҳаммаджон Ходжаев, Мавлуда Қаҳҳорова. Чет тили ўқитиш методикаси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 148 бет
4. Komilova, V. (2022). O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILİYATI. Scientific progress, 3(4), 1150-1155
5. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
6. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLİ AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARİ. Наука и технология в современном мире, 2(3), 76-79.

7. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
8. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
9. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.
10. Xolmirzaev, X. N. (2024). YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA INSONNING INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIYATI OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 583-589.
11. Xolmirzayev, X. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON SALOHIYATINI NAMOYON BO'LISH OMILLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 197-197.

КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН МУАММОЛАР

ХУДОЙНАЗАРОВ Фахритдин Хаитович

Термиз иқтисодиёт сервис университети

2-босқич магистранти

+998972441967

faxriolam@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада жаҳонда ва Ўзбекистонда кичик бизнес фаолиятини рақамли технологиялар асосида ривожлантириш масалалари таҳлил қилинган. Халқаро ташкилотларнинг ҳисоботлари асосида рақамли савдонинг ривожланиш тенденциялари ўрганилган. Ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда кичик бизнесни рақамлаштириш борасидаги муаммолар аниқланган. Ўзбекистонда кичик бизнесни қўллаб қувватлаш бўйича амалга оширилаётган ислохотлар таҳлил этилган. Соҳани янада ривожлантириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

***Калит сўзлар:** Кичик бизнес, рақамли технологиялар, рақамли савдо, рақамлаштириш муаммолари, рақамли инфратузилма, электрон тижорат, киберхавфсизлик, рақамли кўникмалар.*

ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С РАЗВИТИЕМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Худайназаров Фахритдин Хайтович

Термезский университет экономики и сервиса

магистрант 2-го курса

+998972441967

faxriolam@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вопросы развития малого бизнеса на основе цифровых технологий в мире и Узбекистане. На основе отчетов международных организаций изучены тенденции развития цифровой торговли. Выявлены проблемы цифровизации малого бизнеса в развитых и развивающихся странах. Проанализированы реформы, проводимые в Узбекистане по

поддержке малого бизнеса. Разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: Малый бизнес, цифровые технологии, цифровая торговля, проблемы цифровизации, цифровая инфраструктура, электронная коммерция, кибербезопасность, цифровые навыки.

PROBLEMS RELATED TO THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

KHUDAYNAZAROV Fakhritdin Khaitovich

Termez University of Economics and Service

2 st year master's student

+998972441967

faxriolam@gmail.com

ABSTRACT

The article analyzes the development of small business based on digital technologies globally and in Uzbekistan. Based on reports from international organizations, trends in digital trade development are studied. Problems of small business digitalization in developed and developing countries are identified. Reforms implemented in Uzbekistan to support small business are analyzed. Proposals and recommendations for further development of the sector have been developed.

Keywords: *Small business, digital technologies, digital trade, digitalization challenges, digital infrastructure, e-commerce, cybersecurity, digital skills.*

КИРИШ

Ҳозирги даврда жаҳон иқтисодиётида рақамли технологиялар етакчи ўрин тутмоқда. Бу жараён савдо муносабатларини тубдан ўзгартириб, янги имкониятлар яратмоқда. Айниқса, кичик бизнес соҳасида рақамли технологияларни жорий этиш орқали самарадорликни ошириш, янги бозорларни ўзлаштириш ва рақобатбардошликни кучайтириш мумкин.

Ўзбекистон ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўлида фаол қадамлар қўймоқда. Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш жараёни, халқаро ҳамкорликни кенгайтириш, кичик бизнесни қўллаб қувватлаш борасида муҳим ислохотлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Рақамлаштириш соҳасида малакали мутахассислар тайёрлаш фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” қарори қабул қилинди. Қарор ИТ соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, ёшларни ИТ соҳасига жалб қилиш ва ИТ-хизматлар экспортини ривожлантиришга қаратилган

комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олади. Бу эса ўз навбатида рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга хизмат қилади. [1]

Бироқ бу йўлда ҳал этилиши лозим бўлган қатор муаммолар мавжуд. Ўзбекистонда кичик бизнесни рақамлаштириш борасида қандай муаммолар мавжуд ва уларни бартараф этиш учун қандай чоралар кўрилмоқда?

Ушбу мақолада жаҳонда ва Ўзбекистонда кичик бизнесни рақамлаштириш жараёнлари, бу борадаги муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари ўрганилган. Шунингдек, мамлакатимизда кичик бизнесни рақамли технологиялар асосида ривожлантириш истиқболлари ёритиб берилган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мавзуни илмий тадқиқ қилишда таҳлил ва синтез, статистик таҳлил ва илмий абстраксия каби ёндашувлар қўлланилган. Мақолада мамлакат миллий иқтисодиётидаги аҳамияти кўриб чиқилади. Кичик бизнес субъектлари фаолиятини рақамли технологиялар асосида ривожлантириш билан боғлиқ бўлган муаммолар мавзусини ўрганиш турли хил ёндашувлар, жумладан қиёсий таҳлил, иқтисодий таққослаш ва таҳлил қилиш, назарий умумлаштиришни ўз ичига олади. Мазкур методологик ёндашувлар асосида, муаммоларнинг моҳияти очиқ берилди.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Кичик бизнесда рақамли технологияларни жорий этиш самарадорликни ошириш ва глобал бозорларга кириш имкониятларини кўпроқ талаб қилади. Бироқ, бу жараён кўплаб иқтисодий ва ижтимоий муаммолар билан юзма-юз келмоқда. Осиё ва Европа олимлари бу борада кўплаб тадқиқотлар олиб боришган.

Хорижий тадқиқотчилардан М. Скаре ва Д. Р. Сориано кичик бизнесда рақамли технологияларни жорий этиш самарадорлигини ўрганиб, бу жараён корхона фаолиятини оптималлаштиришга олиб келишини, бироқ молиявий тўсиқлар мавжудлигини аниқлаганлар [2]. Бу фикрни маҳаллий олим Л.Т. Рахматжанов ҳам қўллаб-қувватлайди, у ўз тадқиқотида Ўзбекистон шароитида рақамли технологияларни жорий этиш орқали кичик бизнеснинг глобал бозорларга чиқиш имкониятлари кенгайишини исботлаган [5].

Я. Дабровска, А. Алмпанопулу ва А. Брем томонидан олиб борилган тадқиқотларда рақамли трансформациянинг кичик бизнес учун ижобий ва салбий оқибатлари комплекс ўрганилган [3]. Маҳаллий олимлардан З.А. Ашуров, Г.А. Махмудова, Б.С. Разаковалар бу йўналишни давом эттириб,

Ўзбекистонда рақамли экотизимни ривожлантириш ва рақамли платформаларни шакллантириш бўйича таклифлар ишлаб чиққанлар [7].

Индонезиялик олимлар М. Алфаризи, Т. Видиястути ва Нгатиндриатун саноатни рақамлаштиришда молиявий ресурсларнинг ролини тадқиқ этганлар [4]. Ўзбекистонлик тадқиқотчи Д.Таджибаева эса маҳаллий шароитда кичик бизнесни молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиққан [6].

Б.Т. Салимов ва ҳаммуаллифлар кичик бизнеснинг минтақавий ривожланишида рақамли технологияларнинг ролини ўрганиб, уларни интеграциялаш стратегияларини таклиф этганлар [8]. Бу тадқиқот М. Скарре ва Д. Р. Сориано томонидан илгари сурилган ғояларни минтақавий даражада ривожлантирган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Жаҳон савдо ташкилоти – давлатлар ўртасида кўп томонлама савдо тизимини мувофиқлаштирувчи муҳим халқаро ташкилот ҳисобланади.

Ўзбекистонда 2020-йил натижаларига кўра, тўқимачилик маҳсулотлари экспорти 3,3 миллиард долларни ташкил этди. 2021 йилда Ўзбекистон GSP+ тизимига қўшилгани ортидан Европа бозорига тайёр маҳсулот экспорти 1,5 баробар кўпайди.

Ўзбекистон 2019 йилдан Жаҳон савдо ташкилотига аъзолик жараёнини янгилаган. Бу борада бир қатор муҳим қадамлар қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев, Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш зарурлигини таъкидлаб, унинг иқтисодий аҳамияти ҳақида:

– Биз келгуси уч йилда тайёр маҳсулот экспортини 2 баробар оширишни режалаштирганмиз. Бунга эришишнинг ягона йўли – Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлишдир. Бу бизга 164 давлат билан адолатли савдо тизимини йўлга қўйиш ва барқарор бозорлар яратиш имконини беради, – деди. [9]


Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш, Ўзбекистоннинг Европа бозоридаги рақобатбардошлигининг ошганидан далолат беради. Умуман олганда, Ўзбекистон экспортида юз бераётган ижобий ўзгаришлар мамлакатнинг иқтисодиётини ривожлантириш ва жаҳон бозорларида самарали иштирок этиши учун қулай шароит яратмоқда.

Халқаро валюта фонди (ХВФ), ИХТТ, ЮНКТАД, Жаҳон банки ва ЖСТнинг 2023-йилда тақдим этган қўшма ҳисоботга асосан, ривожланаётган

мамлакатлар учун рақамли савдонинг имкониятлари ва муаммоларини енгиб ўтишда халқаро ҳамкорликнинг ролининг аҳамиятига урғу беришган. [10]

Жаҳон иқтисодиёти ва савдосининг тез суръатларда рақамлаштирилиши долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Ривожланган мамлакатлар рақамли савдода устунлик қилади. (экспортнинг 82%), ривожланаётган мамлакатлар эса орқада қолмоқда.

2005-2022 йилларда жаҳон экспортининг таркибий ўзгариши (ўртача йиллик ўсиш суръати, фоизда). 1-жадвал



Манба: Халқаро валюта фонди (ХВФ), ИХТТ, ЮНКТАД, Жаҳон банки ва ЖСТнинг 2023 йилдаги қўшма ҳисоботи маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Юқоридаги 1-жадвал орқали қуйидагиларни кўришингиз мумкин. 2005–2022 йиллар оралиғида рақамли хизматлар экспортининг ўртача йиллик 8.1% ўсиш суръати билан жадал ривожланганини, товарлар экспорти (5.6%) ва бошқа хизматлар экспорти (4.2%) билан таққослаганда юқори бўлганини кўрсатади. 2022 йилда рақамли хизматлар экспорти 3.82 трлн долларни ташкил этган.

Рақамли хизматлардаги ушбу ўсиш ривожланган мамлакатларнинг рақамли савдодаги устунлик мавқейини мустаҳкамлайди, чунки улар жаҳон бўйича рақамли хизматлар экспортнинг 82% ни амалга оширганлар.

Ривожланаётган мамлакатларда, рақамли инфратузилмаларнинг етарли миқдорда эмаслиги, рақамли кўникмалар етишмовчилиги, тартибга солиш муҳитининг номукамаллиги, интернетга чиқиш чеклангани (2.6 млрд одам кира олмайди). асосий муаммога айланган.

Ҳисоботда, ҳар бир давлат ўзининг рақамли инфратузилмаларига инвестициялар ажратиши, рақамли кўникмаларни ривожлантириши, тартибга солишни такомиллаштириши, электрон тўловларни қўллаб-қувватлашини тавсия қилинади. Халқаро даражада эса, тартибга солиш соҳасида ҳамкорликни кучайтириш, маълумотларнинг трансчегаравий оқими қоидаларини уйғунлаштириш, истеъмолчиларни ҳимоя қилиш механизмларини ривожлантириши, рақобат сиёсатини мувофиқлаштиришини таъкидлаган.

Жаҳонда кичик бизнеслар учун рақамли технологияларни жорий этиш аҳамият касб этмоқда. Бироқ, ривожланишнинг кўплаб муаммолари сақланиб қолмоқда ва улар турли мамлакатларда турлича кўринишда намоён бўлади.

Кичик бизнеслар рақамли технологияларга сармоя киритишда қийинчиликларга дуч келмоқда. Масалан, Осиё ва Африкада кичик бизнеслар молиявий танқислик туфайли тўлиқ рақамли трансформацияни амалга оширишда қийналади.[11] Кичик бизнес эгалари ва ходимлари кўпинча замонавий технологияларни ўзлаштиришда билим етишмаслигидан азият чекишади. Бу муаммо кўпинча Жанубий Америка ва Осиё мамлакатларида учрайди.[12] Кўпгина мамлакатларда рақамли савдо ва технологияларни ривожлантириш учун ҳуқуқий меъёрий базанинг камчилиги сезилмоқда, бу эса бизнеслар учун муайян муаммоларни келтириб чиқаради. [13]

Кичик бизнесни рақамлаштиришдаги асосий муаммолар ва уларнинг кўринишлари. 2-жадвал

Кичик Бизнесларнинг Рақамлаштириш Муаммолари

Асосий муаммолар	Муаммонинг кўринишлари
Молиявий Маҳдудиятлар	<ul style="list-style-type: none">• Сармоя етишмаслиги• Молиявий танқислик
Техник Билим ва Кадрлар Етишмаслиги	<ul style="list-style-type: none">• Замонавий технологияларни ўзлаштириш қийинчилиги• Малакали кадрлар етишмаслиги
Киберхавфсизлик Таҳдидлари	<ul style="list-style-type: none">• Кибер ҳужумларга тайёр эмаслик
Инфратузилма Етишмаслиги	<ul style="list-style-type: none">• Интернет сифати пастилиги• Дастурий таъминот етишмовчилиги
Ҳуқуқий Регуляция Мушкилликлари	<ul style="list-style-type: none">• Ҳуқуқий база камчилиги

Манба: Муаллиф томонидан илмий адабиётлар таҳлили асосида тузилган.

Юқоридаги 2-жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, муаммолар тизимли характерга эга, аммо ҳар бир асосий муаммо ўзининг аниқ кўринишларига эга. Муаммолар бир-бири билан боғлиқ ва комплекс ёндашувни талаб қилади. Ечимлар давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини талаб этади. Бу муаммоларни ҳал этиш учун, давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларини кучайтириш, кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, киберхавфсизлик инфратузилмасини яхшилаш, ҳуқуқий базани такомиллаштириш зарур.

Ўзбекистонда кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш мақсадида, 2024 йил 20 январдаги 37-сонли ҳукумат қарори асосида Кичик бизнесни узлуксиз қўллаб-қувватлаш дастурига оид Низом қабул қилинди. Ушбу низом, Президентнинг 2023 йил сентябр ойидаги қарорига мувофиқ, кичик бизнес субъектларини молиявий ва институционал ёрдам билан таъминлашга йўналтирилган.

Дастур иштирокчиларига 7 йилгача бўлган муддатда 1,5 миллиард сўм миқдорда имтиёзли кредитлар, асосий воситаларни бўлиб тўлаш орқали харид қилиш имконияти берилган. Шунингдек, бўш ер майдонлари ва давлат объектларидан фойдаланиш учун шароитлар яратилмоқда. Лойиҳаларга маслаҳат хизматлари, лицензия ва рухсатномалар олишда ёрдам, шунингдек, сертификат олиш учун ўқув курсларидан ўтиш имконияти берилган.[14] Мазкур дастур кичик бизнесни ривожлантириш ва барқарорлаштиришга қаратилган қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларининг бир қисмидир.

Ўзбекистонда кичик бизнес субъектларини рақамли технологиялар асосида ривожлантириш билан боғлиқ қатор муаммолар мавжуд бўлиб, бу соҳада турли таҳлиллар олиб борилмоқда. Рақамли иқтисодиёт ва кичик бизнеслар учун технологияларнинг жорий қилиниши Ўзбекистоннинг иқтисодий ўсишига ижобий таъсир кўрсатишда, иш ўринларини яратишда муҳим аҳамиятга эга. Бироқ, мамлакатдаги кичик бизнеслар турли технологик, инфратузилмавий, молиявий ва кадрлар етишмаслиги билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқда.

Бугунги кунда, кўпгина кичик бизнеслар рақамли технологияларни тўлиқ қўллаб-қувватлайдиган инфратузилманинг чекка ва қишлоқ ҳудудларида етишмаслиги билан боғлиқ муаммога дуч келмоқда, [15] Кичик бизнеслар учун рақамли қурилмалар ва интернет хизматларини жорий қилиш харажатлари кўп ҳолатларда юқори ҳисобланади, бу эса молиявий муаммоларни келтириб чиқаради.[16] Рақамли технологияларни бошқариш ва улардан самарали фойдаланиш учун мутахассисларнинг етишмаслиги кичик бизнеслар учун катта муаммо ҳисобланади.[17] Киберхавфсизлик ва маълумотларни муҳофаза қилиш масалалари. Рақамли иқтисодиётда фаолият юритувчи кичик бизнеслар маълумотлар хавфсизлиги ва киберхужумларга дуч келиши мумкин.[18]

Ўзбекистонда кичик бизнеслар рақамли технологияларни жорий қилиш орқали самарадорликни ошириш, янги бозорларга чиқиш ва фойдаланувчилар билан ўзаро алоқани яхшилаш имкониятига эга. Масалан, онлайн савдо платформалари ва электрон тўлов тизимлари кичик корхоналарга мижозлар базасини кенгайтириш имконини беради.[19]

Ҳукумат томонидан кичик бизнеслар учун инфратузилмани яхшилаш ва молиявий ёрдам кўрсатиш бўйича дастурлар амалга оширилмоқда. Бу эса бизнеслар рақамли иқтисодиётда рақобатбардош бўлишини таъминлайди. Ахборот технологиялари соҳасидаги билимларни оширишга қаратилган ўқув дастурларининг жорий қилиниши кичик бизнеслар рақамли технологияларни самарали қўллаш имкониятини яратади.[20]

Хорижий давлатларнинг рақамли иқтисодиётда кичик бизнесларни қўллаб-қувватлашга оид тажрибасини ўрганиш ва уни миллий иқтисодиётга татбиқ қилиш орқали Ўзбекистонда кичик бизнеслар учун янги имкониятлар яратилади. [21]

Кичик бизнесни рақамлаштириш йўлидаги муаммоларни ҳал этиш учун, замонавий ускуналар учун маблағ ажратиш, малакали кадрлар тайёрлаш, хавфсизлик тизимларини яхшилаш, қонунчиликни такомиллаштириш, хорижий тажрибаларни ўрганиш тавсия этилади.

Бунинг натижасида, келгусида иш унумдорлиги ошиши, янги бозорлар очилиши, рақобатбардошлик кучайиши, электрон тижорат ривожланиши кутилмоқда. Мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун давлат томонидан зарур чоралар кўрилмоқда. Бу эса ўз навбатида соҳанинг жадал ривожланишига замин яратмоқда.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Жаҳон миқёсида рақамли хизматлар соҳаси шиддат билан ривожланиб, Ўзбекистонда кичик бизнесни қўллаб-қувватлашга оид дастурлар амалга оширилмоқда. Тадқиқот натижаларига асосланиб, қуйидаги таклифлар ва уларни амалга ошириш механизмлари ишлаб чиқилди:

1. Давлат идоралари даражасида, кичик бизнесни янги технологиялар асосида ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш.

- 2024-2026 йилларга мўлжалланган "Рақамли кичик бизнес" дастурини ишлаб чиқиш;

- Худудларда рақамли инфратузилмани яхшилаш учун мақсадли инвестиция дастурларини жорий этиш;

- Кичик бизнес субъектларига рақамли технологияларни харид қилиш учун солиқ имтиёзларини тақдим этиш;

- Рақамли технологияларни жорий этган корхоналар учун имтиёзли кредит ставкаларини белгилаш;

2. Таълим тизими доирасида, янги технологияларни ўргатиш дастурларини такомиллаштириш.

- Олий таълим муассасаларида "Рақамли тадбиркорлик" йўналишини очиш;

- Ҳар бир туманда "Рақамли кўникмалар" ўқув марказларини ташкил этиш;

- Онлайн таълим платформасини яратиш ва бепул курсларни жорий этиш;

- Хорижий мутахассисларни жалб қилган ҳолда махсус тренинглар ўтказиш;

3. Тадбиркорлар учун, ходимларнинг малакасини ошириш ва замонавий дастурларни жорий этиш.

- Ходимлар учун йиллик малака ошириш режасини ишлаб чиқиш;

- Корхонада рақамли технологиялар бўйича масъул шахсни тайинлаш;

- Киберхавфсизлик тизимларини жорий этиш бўйича чора-тадбирлар режасини тузиш;

- Электрон хужжат айланиши тизимида босқичма-босқич ўтиш графигини ишлаб чиқиш;

4. Банк тизими доирасида, тўлов тизимларини такомиллаштириш ва масофавий хизматларни кенгайтириш.

- Кичик бизнес учун махсус мобил иловаларни ишлаб чиқиш;
- Онлайн кредит бериш тизимини такомиллаштириш;
- Электрон тижорат учун махсус тўлов шлюзларини яратиш;
- Трансчегаравий тўловлар учун янги технологик ечимларни жорий этиш;

Бу таклифларнинг амалга оширилиши Ўзбекистонда кичик бизнеснинг рақамли технологиялар асосида барқарор ривожланишини таъминлайди ва мамлакат иқтисодиётининг рақобатбардошлигини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 01.02.2024 йилдаги ПҚ-51-сон Рақамлаштириш соҳасида малакали мутахассислар тайёрлаш фаолиятини кўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида <https://lex.uz/docs/6786586>
2. *Marinko Skare, Domingo Riberio Soriano*, How globalization is changing digital technology adoption: An international perspective, *Journal of Innovation & Knowledge*, Volume 6, Issue 4, 2021, Pages 222-233, ISSN2444-569X, <https://doi.org/10.1016/j.jik.2021.04.001>.
3. *Dąbrowska, J., Almpantopoulou, A., Brem, A., Chesbrough, H., Cucino, V., Di Minin, A., Giones, F., Hakala, H., Marullo, C., Mention, A.-L., Mortara, L., Nørskov, S., Nylund, P.A., Oddo, C.M., Radziwon, A. and Ritala, P.* (2022), Digital transformation, for better or worse: a critical multi-level research agenda. *R&D Management*, 52: 930-954. <https://doi.org/10.1111/radm.12531>
4. *Muhammad Alfarizi* (*Department of Management, Binus Online Learning, Bina Nusantara University, Jakarta 11480, Indonesia), *Tika Widiastuti* (†Department of Sharia Economics, Faculty of Economic and Business Airlangga University, Surabaya 60115, Indonesia), and *Ngatindriatun* (*Department of Management, Binus Online Learning, Bina Nusantara University, Jakarta 11480, Indonesia) *Journal of Industrial Integration and Management* 2024 09:01, 65-96
5. *Rakhmatjanov Lazizkhon Turabaevich*. (2024). THE IMPACT OF DIGITALIZATION OF THE ECONOMY ON THE GLOBALIZATION OF SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178356>
6. *Tadjibaeva, Dildora* (2019): Small and medium-sized enterprise finance in Uzbekistan: Challenges and opportunities, ADBI Working Paper Series, No. 997, Asian Development Bank Institute (ADBI), Tokyo <https://www.econstor.eu>

7. *Ashurov, Zufar and Makhmudova, Guljakhon and Razakova, B.*, Development of Digital Ecosystem and Formation of Digital Platforms in Uzbekistan (February 2022). *π-Economy*. 2022, Vol. 15. No.2. pp. 7-21., Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4187764>
8. *Bakhtiyor Salimov, Rukhsora Kholikova, Shoh-Jakhon Khamdamov, Abdurakhim Turaev, Jamshid Tukhtabaev, Nargiza Nosirova, and Dilrabo Akhmedova*. 2024. Strategies for Integrating Digitalization in Leveraging Regional Economic and Scientific Expertise for the Innovative Growth of Small and Medium Enterprises. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (ICFNDS '23). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 483–490. <https://doi.org/10.1145/3644713.3644784>
9. Ўзбекистон Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлади. <https://president.uz/uz/lists/view/6157>
10. Digital Trade for Development https://www.wto.org/english/res_e/reser_e/reser_e.htm#research_data
11. *Akpan, I. J., Udoh, E. A. P., & Adebisi, B.* (2020). Small business awareness and adoption of state-of-the-art technologies in emerging and developing markets, and lessons from the COVID-19 pandemic. *Journal of Small Business & Entrepreneurship*, 34(2), 123–140. <https://doi.org/10.1080/08276331.2020.1820185>
12. *Ritz, W., Wolf, M. and McQuitty, S.* (2019), "Digital marketing adoption and success for small businesses: The application of the do-it-yourself and technology acceptance models", *Journal of Research in Interactive Marketing*, Vol. 13 No. 2, pp. 179-203. <https://doi.org/10.1108/JRIM-04-2018-0062>
13. *Eze SC, Chinedu-Eze VC, Awa HO, Alharthi RHE* (2021) Factors stimulating value micro-businesses attribute to digital marketing technology (DMT) adoption. *PLoS ONE* 16(12): e0260145. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0260145>
14. Қандай қилиб кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш дастури аъзоси бўлиш мумкин. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/qanday_qilib_kichik_biznesni_qullab-quvvatlash_dasturi_azosi_bulish_mumkin.
15. *Khamdamov, SJ.* "The Role of Technology and Innovation in Driving Economic Growth in Uzbekistan." *American Journal of Modern World Sciences*, 2024
16. *Tadjibaeva, D.* "Small and medium-sized enterprise finance in Uzbekistan: challenges and opportunities." Econstor, 2019. PDF.
17. *Abdurakhmanov, K va Zokirova, N.* "Directions of innovative development of Uzbekistan." Kharkiv Polytechnic Institute, 2018. PDF.

18. *Kuldosheva, G.* "Challenges and Opportunities for Digital Transformation in the Public Sector." SEA-VET, 2022. PDF.
19. *Khushmurodova, M va Komil, U.* "Trends and Problems of Development of Electronic Commerce in Uzbekistan." Journal of Law and Sustainable Development, 2023. PDF.
20. *Khakimova, N va Mukhammedov, E.* "Uzbekistan Case Study." Academia, 2023. PDF.
21. *Davlatova, Z.* "Using Foreign Experience in the Development of Digital Technologies in Uzbekistan." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2022. PDF.
22. *Худойназаров, Фахритдин.* (2024). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4. 10.47390/SPR1342V4I3Y2024N16.

DUG‘LATLARNING ETNIK SHAKLLANISH JARAYONIDAGI YONDOSHUVLAR

BEKMURADOV Sandjar Tursunmamatovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti,

Tarix kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: stb.uz.com@gmail.com

MUXTOROVA Gulhayo Alisher qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix kafedrası talabasi

ERKINOV Suhrobbek Tuyg‘unboy o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix kafedrası talabasi

ANNOTATSIYA

Dug‘latlarning etnik shakllanish jarayoni haqida manbalardagi ma‘lumotlarning ozligi bois dug‘lat amirligining nafaqat etnik shakllanish tarixi balki, XIV-XV asrlardagi ichtimoiy siyosiy tarixining yoritilishi ham tadqiqotchi olimlarning oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, ushbu maqolada Dug‘latlarning etnik tarixi haqidagi ba‘zi yondoshuvlar ko‘rib chiqildi.

***Kalit so‘zlar.** Dug‘lat, Dulu, Rashid ad-Din, Yettisuv, G‘arbiy turk xoqonligi, Chig‘atoy ulusi, Manglay Suba, Budanjar Duklan.*

АННОТАЦИЯ

Ввиду скудности сведений в источниках о процессе этнического формирования дуглатов, не только история этнического формирования дуглатских эмиров, но и социально-политическая история XIV-XV веков является одним из вопросов, стоящих перед исследователями. Поэтому в данной статье были рассмотрены некоторые подходы к этнической истории дуглатов.

***Ключевые слова:** Дуглат, Дулу, Рашид ад-Дин, йеттисув, Запдно Туркское ханство, Чигатайский улус, Манглай Суба, Буданжар Дуклан.*

ABSTRACT

Due to the paucity of information in the sources about the process of ethnic formation of Dughlats, not only the history of ethnic formation of Dughlat emirs, but also the social and political history of the XIV-XV centuries is one the issues facing researchers. Therefore, in this article, some arguments about the ethnic history of Dughlats were considered.

***Keywords:** Duglat, Dulu, Rashid ad-Din, Yettisuv, West Turkic Khanate, Chigatai Ulus, Budanjar Duklan.*

KIRISH

Dug'latlar XIII-XVI asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan sulolalarning ijtimoiy, siyosiy tizimida o'z mavqeiga ega bo'lgan davlatdir. Shuning bilan birga Dug'lat etnonimining shakllanish jarayoni nafaqat chet el balki, mahalliy tadqiqotchilarimiz tomonidan ham munozaralidir. Mazkur etnonimning Dug'latlarning asli turkiy qabilalar negizida yoki mo'g'ul urug'lari asosida shakllangani haqida turli qarashlar mavjud. Shu boisdan dastlab Chig'atoy ulusi tarkibida, keyinchalik Temuriylar saltanatida o'z mavqelariga ega bo'lib kelgan dug'latlar asli qaysi xalqlardan kelib chiqqanligini aniqlash mazkur maqolaning bosh mavzusi etib belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dug'latlar⁸⁷ XIII asrlardan Chig'atoy ulusining sharqiy mintaqalarida yashovchi yetakchi urug' vakillaridan biri hisoblangan. Bu qabilaning etnik shakllanish jarayonlari haqida manbalar mavjud, ammo ulardagi ma'lumotlar juda qisqa. Shu boisdan, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan *Dug'latlar* asli turkiy yoki mo'g'ul bo'lgani haqida aniq xulosalar yo'q. *Dulu* va *dug'lat* urug'lari bir xalq negizida shakllanganmi degan munozarali g'oyalar ham mavjud. Dug'lat amirligi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan Rashid ad-Din⁸⁸, Mirzo Muhammad Haydar⁸⁹, Mirzo Ulug'bek⁹⁰, Zahridin Muhammad Bobur⁹¹, Abulg'oz Bahodirxon⁹², va zamonaviy tadqiqotchilardan V.V.Bartold⁹³, N.A.Aristov⁹⁴, N.I.Berezin⁹⁵, L.P.Potapov⁹⁶, M.M.Butt⁹⁷, O.Q.Qorayev⁹⁸ shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan

⁸⁷ Dug'lat – duklat, doglat, dulat mo'g'ullarning nirun bo'limi tarkibiga kirgan qabilalardan biridir. Dug'lat urug'i (qoz. Dulat, Dulat, ma'nosi "shafqatsiz yoki vahshiy jangchi"; mo'g'ulcha: Dolud/yettilik, Dolo/yetti; protomo'g'ulcha: Doluga, Dolugad; Dulg'at; xitoycha: 杜格拉特 [Dù gé lā tè]) mo'g'ul (keyinchalik turk-mo'g'ul) 14-16-asrlarda g'arbiy Tarim havzasidagi, hozirgi Shinjondagi bir qancha shaharlarning merosxo'r vassal hukmdorlari sifatida Chag'atoy xonlariga xizmat qilgan urug'.

⁸⁸ Рашид ад-дин. Сборник летописей / перевод с персидского О.И.Смирновой, примечания Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. I-III. М., Л.: Наука, 1956-1963.

⁸⁹ Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – 726 с.

⁹⁰ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. (Б.Ахмедовнинг кириш сўзи изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Ахмедов ва бошқ. Тарж./ – Т.: Чўлпон, 1993. – 352 б.

⁹¹ Бобурнома. Заҳридин Мухаммад Бобур. Таҳрир ҳайъати А.Қаюмов, Х.Султанов, Б. Алимов ва бошқ.; Халқаро Бобур фонди. – Т.: "O'qituvchi" НМИУ, 2008. – 288 б.

⁹² Баҳодирхон А. Шажарайи турк: Ўрта ва катта мактаб ёшидаги болалар учун /Масъуд муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А.Ахмедов/; – Т.: Чўлпон. 1990. – 192 б.

⁹³ Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии; Карлуки; Дуглат; Образование империи Чингиз-хана; История турецко-монгольских народов; Тюрки. Соч. Т. V. – М., 1968. –752 с.

⁹⁴ Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // "Живая старина", вып. III-IV. – СПб., 1896. – с. 291-300

⁹⁵ Березин И. Очерк внутреннего устройства улуса Джучиева // Труды восточного отделения Императорского археологического общества. № 8. – СПб., 1864.

⁹⁶ Потапов Л.П. Этнический состав и происхождение алтайцев. Историко-этнографический очерк. / Отв. ред. А.П.Окладников. – Л.: Наука, 1969. – 196 с.

K.Shoniyozov⁹⁹, A.Asqarov¹⁰⁰, R.R.Alimova¹⁰¹, S.Ulashova¹⁰² va shu kabilarning tadqiqotlaridan o‘rin olgan katta-kichik hajmdagi ma‘lumotlardan keng foydalanildi.

Dug‘latlarning etnik shakllanish jarayonlari haqidagi ilk ma‘lumotlar Rashid ad-Dinda uchraydi. Unda mahalliy mo‘g‘ul qabilalari ikki guruhga ajratilib ularning bir guruhi Arabiston, Hindiston, Xitoy hududlariga tarqalgani haqida aytib, ikkinchi guruhni bir qator qabilalar misolida tasniflaydi¹⁰³. Jumladan, *Katakin, Xartakan, Tayjiut, Chinos, u ba‘zi manbalarda Nukuz deb ataladi, Nuyakin, Urut, Mangut, Durban, Baarin, Barulas, Xadarkin, Juryat, Budat, Duklat, Insut, Sukan va Kingiyat*. Shu bilan birga Chingizxon *Tayjiut* qabilasi bilan jang qilgan paytda dug‘latlar Chingizxon va uning qo‘shini bilan ittifoqdosh bo‘lganligini aytib o‘tgan. hamda ularning birorta yo‘lboshchisi hokimiyat yoki shon-shuhratga ega bo‘lmaganligini ham qo‘shimcha qilib o‘tgan¹⁰⁴

Shu o‘rinda, Rashid-ad-Din *Tayjiutlar* tatarlar bilan amakivachcha urug‘ vakillari ekanligi aytilgan¹⁰⁵. Jumladan, T.D.Skrinnikova¹⁰⁶ ham Rashid ad-Dinga suyanib quyidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. U Mo‘g‘ullar va tayjiutlar umumiy shajaraga ko‘ra bir avlod tarkibidan bo‘lganligini aytadi. T.D.Skrinnikova mo‘g‘ul nomi *Xobulxonning* taxtga o‘tirishi (ya‘ni, Bodonchardan sakkizinchi avlod) haqida gapirilganda paydo bo‘lsa, Tayjiutning tarixiy maydonda paydo bo‘lishi ikkinchi o‘g‘il (yettinchi avlod) *Qayduning* avlodlari deb keltiradi¹⁰⁷.

Dug‘lat amirlaridan hisoblangan Mirzo Muhammad Haydar (1464/65-1480)¹⁰⁸ ham dug‘latlarni *Alanquva* (Alan Goa)¹⁰⁹ nasabidan tarqagan mo‘g‘ullarga taqaydi. U

⁹⁷ Murad Butt. *The Tarikh-i-rashidj*. Edited by N. Elias & Translated by E. Denison Ross. – Karakoram Books. – P. 440.

⁹⁸ Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. – Бишкек, 1995. – 160 с.

⁹⁹ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. – 463 с.

¹⁰⁰ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т., 2007. – 339 б.

¹⁰¹ Alimova R.R. *Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (O‘rta asrlar)*. – Toshkent: TOSHDSHI, 2013. – B. 29.

¹⁰² Улашова С. XIII-XV асрларда Мовароуннахрдаги этник жараёнлар. Монография. – Тошкент: “Firdavs-Shoh” нашриёти, 2023. – 205 б.

¹⁰³ Рашид ад-Дин. *Сборник летописей / перевод с персидского Л.А.Хетагурова*. Редакция и примечание проф. А.А.Семёнова. Т. I. К.1. – М.,-Л.: Наука, 1952. – С. 78.

¹⁰⁴ O‘sha asar. – B. 193.

¹⁰⁵ Мирза Мухаммад Хайдар. *Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой*. – Т.: Фан, 1996. – 611 с.; Рашид ад-Дин. *Сборник летописей*. Т. I. К.1. – М.,-Л.: Наука, 1952. – С. 175.

¹⁰⁶ Монгольская империя и кочевой мир. Кн. 2: Сб. ст. – Улан-Удэ: Изд-во БНЦ СО РАН, 2005. – с.115.

¹⁰⁷ O‘sha yerda.

¹⁰⁸ *Тарих-и Рашиди*. – С. 217.

¹⁰⁹ *Alanquva* – Mo‘g‘ullarning afsonaviy ajdodi. Rashid-ad-Dinning yozishicha barcha mo‘g‘ul qabilalari Dobunbayon va uning xotini Alanquvadan tarqagan. Alanquva oqila ayol bo‘lib quralas qabilasidan bo‘lgan. Ularning Belgunutoy va Bugunutoy ismli o‘g‘illari bo‘lgan. Dobunbayon yoshlik paytida vafot etgan. Beva qolgan Alanquva rivoyatlarga ko‘ra, tushida tuynukdan nurga burkangan malla sochli, ko‘k ko‘zli kishi unga asta-sekin yaqinlashib so‘ng qaytib ketganini ko‘rgan. Alanquva ilohiy mo‘jiza bilan homilador bo‘lib qolgan va uch o‘g‘il farzand tuqqan. Katta o‘g‘li – Bukun qatag‘andan qatag‘an qabilasi o‘rtanchasi – Saljidan saljiut qabilasi tarqagan, kenjasi – Bodonjarqoon (Budanjir Munqaq) bo‘lib, Chingizxon nasabi unga borib taqalgan. Bu uch o‘g‘ildan tarqalgan barcha urug‘ qabilalar nirun deb atalgan.

o'zining Tug'luq Temurxongacha bo'lgan tarixiy asarida mo'g'ullar shajarasi xususida alohida bayon etadi. Unga ko'ra, *Tug'luq Temurxon – Esan Bug'axonning shajarasi, Esan Bug'axon ibn Suvojixon ibn Baroqxon ibn Qaro Isu ibn Motukan ibn Chig'atoy ibn Chingizxon ibn Yasukoy ibn Birton ibn Kobil ibn Tumana ibn Boysung'ar ibn Qaydu ibn Dumanin ibn Buqo ibn Buzarjinxon ibn Alanquva Ko'rklukxonning o'g'li bo'lgan*¹¹⁰.

Manbalarda dug'latlarning kelib chiqishi mo'g'ullardan ekanligi haqida ishoralar bo'lsada, tadqiqotchilar o'rtasida ular turk yoki mo'g'ul degan turli qarashlar hali ham mavjud. Ular turkiy urug'lardan hisoblangan *dulu* (tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlanish holatlari mavjud – *dulo, tulu, tele*) qabilasi bilan bir xalq degan fikrlar ham bor. Jumladan, V.V.Bartold biz yuqorida keltirgan Rashid ad-Dinning manbasiga suyangan holda dug'latlarni mo'g'ul ekanligini ta'kidlaydi. Ularning avlodini esa Chingizxon bobosining ukasi, *Budanjor Duklan* bilan bog'lagan¹¹¹. N.A.Aristov¹¹² esa *dulular* Bulg'or knyazligining nomiga ko'ra, *Dulo* urug'iga mansubligini aytgan. U Tulu urug'ining V asrda *Gaogyu* urug'lari orasida mavjudligi haqida mulohaza qilib, VII asrda g'arbiy turk xoqonligining beshta viloyati *Dudu* deb nomlanishi, keyinchalik viloyat nomiga asosan urug' nomi ham *dulu* deb nomlanganligini tahlil qilgan. Xulosa etib, N.A.Aristov dug'latlarni dulularning avlodi deb ta'kidlab, ularning har ikkisini turkiy urug'lari negizida shakllangan bir xalq deb keltirgan.

Asosan Xitoy manbalariga tayanib tadqiqotlar olib borgan L.P.Potapovning qayd etishicha, Turk xoqonligi tarkibida shakllangan *tele* qabilalarini qadimgi va o'rta asrlar toponomikasiga muvofiq izohlaydi¹¹³. Unga ko'ra, VII asr oxiridan VIII asr oxirigacha bo'lgan Xitoy yozma manbalarida yozilishicha, ushbu qabilalar *Gobining*¹¹⁴ shimoliy tomonida *Xenteydan* sharqiy Tyanshangacha bo'lgan keng hududlarda yashagan va hozirgi Mo'g'uliston, Tuva va Oltoy tog'lari hududlari bu qabilalar uchun ko'chmanchilik yerlarining bir qismi hisoblangan. L.P.Potapov aniq qaysi manbadan bu ma'lumotlarni olgani haqida ma'lumot bermagan. Uning qayd etishicha Alashan¹¹⁵ cho'lida joylashgan *tele* tog'lari, *Te-de-shan 特的山* ya'ni

¹¹⁰ Тарих-и Рашиди. – С. 219.

¹¹¹ Бартольд В.В. Дуглат. Соч. Том V. – М., 1968. – С. 529.

¹¹² Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // “Живая старина”, вып. III-IV. – СПб., 1896. – С. 298.

¹¹³ Потапов Л.П. Этнический состав и происхождение алтайцев. Историко-этнографический очерк. / Отв. ред. А.П.Окладников. – Л.: Наука, 1969. – С. 147-149.

¹¹⁴ *Gobi cho'li* – Mo'g'ulchada Goubi, Xitoycha 戈壁沙漠 *Gēbì shāmò* – Gobi cho'li, shimoliy Xitoy va Mo'g'ulistonning janubida joylashgan katta sovuq cho'l va o'tloqli hudud. Bu dunyodagi oltinchi eng katta cho'ldir. Cho'lining nomi mo'g'ulcha *Gobi* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, mo'g'ul platosidagi barcha suvsiz hududlarga nisbatan ishlatilgan.

¹¹⁵ *Alashan cho'li* – Xitoyning shimolida Nanshan va Gobi Oltoy o'rtasidagi pasttikisliklarda joylashgan.

zamonaviy xaritada Alashan¹¹⁶ tizmasini qayd etib o'tgan. L.P.Potapov G'arbdan bu tog'larga Irtishning yuqori qismidan o'tib Mo'g'uliston Oltoy tog'lariga olib borgani haqida aytadi. So'ng Rashid ad-Dinning yilnomalarida *tula* atamasi *Bargudjin To'qum* ya'ni, Mo'g'ulistonda yashovchi turkiy o'rmon qabilalaridan birining etnonimini bildiradi deb izohlab o'tgan¹¹⁷. Fikrimizcha, L.P.Potapov Xitoy yilnomalariga asoslanib *Tele* yoki *Tula* nomi bilan keltirayotgan bu urug' dulularning Xitoycha talqiniga suyangan holda o'z tadqiqotlarida *tele* atamasini ilgari surgan.

Shu o'rinda, mahalliy tadqiqotchilarimizning ham dug'latlarning etnik shakllanish jarayoni haqidagi fikrlari mavjud. Jumladan, K.Shoniyozov *dulu* Xitoycha *tulu* qabilalari bilan bir xalq bo'lganligi hamda *dulu* etnonimini uning ilk ajdodlari Uyg'urlar bo'lganligi haqida aytgan. Uyg'urlarni esa xunlarga taqagan¹¹⁸. Aksariyat adabiyotlarda *dulu* etnonimi, *dug'lat (dulat)* atamasi bilan tenglashtirilib kelinmoqda. K.Shoniyozov asosan N.A.Aristovning fikrini to'g'ri deb hisoblagan va dug'latlarni dulularning avlodi deya ta'kidlagan. U bu fikrini aynan Turk Xoqonligi yemirilgandan so'ng dulular o'z nomlarini dug'lat nomiga o'zgartirgan degan yondoshuv bilan isbotlashga harakat qilgan. Chig'atoy ulusi hududiga aynan Ili vodiysi Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Movarounnahr hududlarida dastlab dulular keyinchalik dug'latlar yashagan deb ta'kidlagan¹¹⁹.

A.Asqarov dug'latlarni XIV-XV asrlarda Movarounnahrda yashagan yirik qabilalardan biri bo'lgan deb yozadi. U V.V.Bartold va N.A.Aristovning fikriga qisqacha to'xtalib, N.A.Aristovning xulosalariga javoban agar dulular turkiy qabila bo'lsa u holda dug'latlar ham kelib chiqish jihatidan turkiy bo'lib chiqishini aytadi. A.Asqarovning fikricha, dulular Turk hoqonligi yemirilgach ikki qismga bo'linib ketganligi va ularning bir qismi Ili, boshqasi Yettisuvda qolganligini aytadi. Bu hududlarda XIII asrning ikkinchi choragidan Chig'atoy ulusi tashkil topgach ulusning sharqiy hududlarida *Manglay Suba* ("*Quyosh tomonga qaragan yer*") mulki tashkil topganligi, keyinchalik esa Yettisuvdan Qashg'argacha bo'lgan hududlarni boshqarishni dug'latlarga topshirganligini aytadi. U bu hududlarda istoqomat qilib kelayotgan turkiy dulular, hudud boshqaruvini o'z qo'lga olgan mo'g'ul dug'latlariga singib ketganligini aytib o'tadi¹²⁰. Yana qo'shimcha sifatida, dug'latlarning ayrim guruhleri XIV-XV asrlarda Farg'ona vodiysida, Samarqand va Xisorda Qorategin va boshqa joylarda yashaganliklarini ta'kidlaydi. Shu o'rinda

¹¹⁶ Потопов Л.П. Этнический состав и происхождение алтайцев. Историко-этнографический очерк. – 147 с.

¹¹⁷ O'sha asar. – B. 148-151.

¹¹⁸ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. – С. 152-153.

¹¹⁹ O'sha joyda.

¹²⁰ Аскарлов А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т, 2007. – Б. 262.

Xisor dugʻlatlari sultonlari bilan *Zaxriddin Muhammad Bobur 1483-1530* oʻrtasidagi bogʻliqlik haqida ham qisqacha toʻxtalib oʻtgan¹²¹.

Aynan Zaxriddin Muhammad Bobur ona tomonidan Dugʻlatlarning avlodi edi. Onasi Qutlugʻ Nigorxonim Tugʻluq Temurxonning oltinchi avlodi boʻlib, yaʼni Xizr Xoʻjaxon, Muhammadxon, Sheralixon, undan soʻng Uvaysxon, Yunusxon uning qizi Qutlugʻ Nigorxonim Zaxriddin Muhammad Bobur yettinchi avlod hisoblanadi. Shu boisdan mahalliy tadqiqotchilar tomonidan Dugʻlat amirlari va Zaxriddin Muhammad Bobur oʻrtasidagi siyosiy ijtimoiy munosabatlari haqida ijobiy fikrlar bildiriladi¹²².

S.Ulashovning fikriga koʻra dugʻlatlar ilk bor XIII asr birinchi choragidan forsiy manbalarda tilga olingan. Sababi, moʻgʻul istilosi natijasida mintaqaga boshqa etnoslar qatori dugʻlatlarning kirib kelgan edi¹²³. Yana qoʻshimcha sifatida Tarixi Rashidiydan quyidagi maʼlumotlarni keltiradi. Yaʼni, Qashgʻar va Xoʻtan aholisini toʻrt qismga boʻladi. Birinchisi “*Tuman*” – ular xonga tobe boʻlib, har yili xonga soliq toʻlagan. Ikkinchisi “*Qavchin*”, uchinchisi “*Aymoq*”, toʻrtinchisi esa shariat mansabdorlari masjid madrasa, vaqf yerlarining mutasaddilari boʻlganligini aytib aynan ularning ikkinchi va toʻrtinchi urugʻlarini Dugʻlatlarning ota bobolari boshqarganligini keltiradi. Shu bilan birga Dugʻlatlar moʻgʻullarning *ulusbegilari*¹²⁴ boʻlganligini ham aytib, xarbiy qoʻshinlar toʻgʻridan toʻgʻri ularga boʻy sungan¹²⁵ degan maʼlumotlarni keltiradi.

Shu oʻrinda Movarounnahrda dugʻlatlar Fargʻona, Toshkent, Samarqand va Xisorda yashaganligi va sharqiy Turkiston Issiqkoʻlning janubi hamda Fargʻona vodiysining shimoliy qismida koʻchib yurgan deb aytadi. Aynan XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrdan Chigʻatoy ulusida ularning mavqeyi oshib borganligini taʼkidlab oʻtadi¹²⁶.

Dugʻlatlarning aynan XIII asrdan boshlab Markaziy Osiyoning ichki boshqaruv tizimida koʻzga tashlana boshlaganligining oʻzi ularning Turkiy dulu emas balki, moʻgʻul dugʻlatlari deyishga oʻz davri manbalariga suyangan holda asosimiz bor.

XULOSA

Dugʻlatlar asli moʻgʻul urugʻlarining negizi asosida shakllangan. Dulular esa turkiy urugʻlardan biri boʻlgan va bu ikki urugʻ vakillarining davriy bosqichlarida ham tafovutlar katta. Shu boisdan dulular va dugʻlatlarning etnik shakllanishi davriy

¹²¹ Oʻsha joyda.

¹²² Бобур. Бобурнома. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 39-40 б.; Шониёзов К.Ш. – Б. 312.

¹²³ Улашова С. XIII–XV асрларда Мовароуннахрдаги этник жараёнлар. – Тошкент: “Firdavs-Shoh”, 2023. – б. 106.

¹²⁴ Oʻsha joyda.

¹²⁵ Oʻsha joyda.

¹²⁶ Oʻsha joyda.

farqliligi bilan ajralib turadi. Dug'latlar Mo'g'ullarning davlatida doimo o'zlarining strategik tasir doirasiga ega bo'lgan. Chingizxon davrida ham Chig'atoy va undan keyingi davrlarda ham ma'lum hududlarni boshqarib kelganlar. Dug'latlar Mo'g'ul bo'lsada, turkiy musulmon madaniyatini o'zlariga singdira olgan urug' vakillari sifatida ajralib turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmadali Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: “Universitet”, 2007. – 340 b.
2. Bekmuradov S.T. “Al-Mulhakat Bi-S-Surah” and Translations with Notes of the Chapter about History of Mongols // International Journal of Central Asian Studies. Volume 22. 2018. – P. 171-192.
3. Bekmuradov S.T. History of the Chigatay Nation in Arabic Sources // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). – P. 56-59.
4. The Tarikh-i-Rashidi: of Mirza Muhammad Haidar, dughlat: a history of the Moghuls of Central Asia / an English version edited, with commentary, notes, and map by N. Elias; the translation by E. Denison Ross.: Sampson Low, Marston, and Company, 1895. – 535 c.
5. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // “Живая старина”, вып. III-IV. – СПб, 1896. – С. 291-300.
6. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии; Карлуки; Дуглат; Образование империи Чингиз-хана; История турецко-монгольских народов; Тюрки. Соч. Т. V. – М, 1968. – С. 753.
7. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. I. – М, 1963. – С. 760.
8. Баходирхон А. Шажарайи турк: Ўрта ва катта мактаб ёшидаги болалар учун / Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А.Аҳмедов. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 192 б.
9. Бобур. Бобурнома. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 287 б.
10. История Рашиди / Мирза Мухаммад Хайдар; [введение, пер. с перс. А.Урунбаева, Р.Джалиловой, Л.Епифановой; примеч. и указ. Р.Джалиловой и Л.Епифановой; отв. ред. В. Рахманов]; Акад. наук Узбекистана, Центр восточных рукописей им. Абу Райхана Бируни, Междунар. общественный фонд им. Бабура. - Изд. 4-е, полная версия. – Ташкент: Sharq, 2016. – 783 с.

11. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введ, пер. с перс. А. Урунбаева, Р. Джалиловой, Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – 727 с.
12. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – 726 с.
13. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (*Британия музейи (Англия) қўлёзмаси. инв. № ADD 26190*: Тарих-и арбаъ улус). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.
14. Монгольская империя и кочевой мир. Кн. 2: Сб. ст. – Улан-Удэ: Изд-во БНЦ СО РАН, 2005. – 298 с.
15. Потапов Л.П. Этнический состав и происхождение алтайцев. Историко-этнографический очерк. / Отв. ред. А.П. Окладников. – Л.: Наука, 1969. – 196 с.
16. Рашид ад-Дин Фазлаллāх. Джāми ат-таварих Т. I. Ч. 1. / Критический текст А.А. Ромаскевича, А.А. Хетагурова, А.А. Ализаде. – М.: Наука, 1968. – 588 с.
17. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / перевод с персидского Л.А.Хетагурова. Редакция и примечание проф. А.А.Семёнова. Т. I. К.1. – М.,-Л.: Наука, 1952. – **220 с.**
18. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / перевод с персидского О.И.Смирновой, примечание Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Редакция и примечание проф. А.А.Семёнова. Т. I. К.2. – М.,-Л.: Наука, 1952. – **316 с.**
19. Тарих-и Рашиди (Рашидова История): Перевод с персидского язкка, 2-е изд. дополненное. – Алматы: «Санат», 1999. – 656 с.
20. Улашова С. XIII-XV асрларда Мовароуннаҳрдаги этник жараёнлар. Монография. – Тошкент: “Firdavs-Shoh” нашриёти, 2023. – 205 б.
21. Шониёзов Карим. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни /Тахрир ҳайъати: Д.А.Алимова, Э.Х.Арифханова, У.С.Абдуллаев ва бошқ, – Т.: «Шарк», 2001.– 464 б.

UDK:801.361

BUGUNGI KUNDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ASSOTSIATIV MAYDONNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

XIDIROVA Gulzoda

Toshkent davlat agrar universiteti o'qituvchisi, PhD

E-mail: gulzoda@yandex.ru

tel: 90933 63 78

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda assotsiativ maydonni o'rganishning ahamiyati yoritilgan. Ma'lumki, inson borliqni til orqali angelaydi, tushunadi va his etadi. So'zlar ongimizda muayyan guruhlarni tashkil qiladi. Ularning ma'nosini anglash uchun har bir guruh mohiyat, undagi so'zlar voqelik, ma'nolar orqali ifodalangan bilim ekanligini tushunish lozim. Tilshunoslikda bu kabi til birliklarning shakliy yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuviga assotsiatsiya deb qaraladi. Predmet hamda so'z haqidagi tasavvurni bir-biridan ayro tushunish mumkin emas.

***Kalit so'zlar:** assotsiativ, lisoniy assotsiatsiya, assotsiativ ma'no, o'zbek leksemasi assotsiatsiyalari, zamonaviy tilshunoslik.*

ABSTRACT

This article highlights the importance of studying the associative field in modern linguistics today. It is known that a person perceives, understands and feels being through language. Words form certain groups in our minds. To understand their meaning, it is necessary to understand that each group is essence, the words in it are knowledge expressed through reality, meanings. In linguistics, a language like this is seen as an association to the Union of units according to their formative or logical-semantic sign. The idea of the subject and the word cannot be understood separately from each other.

***Key words:** associative, linguistic association, associative meaning, Uzbek lexeme associations, modern linguistics.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon tilshunosligida so'z birikmasini tadqiq qilish masalasi azaldan keng muhokamalarga sabab bo'lgan. Bugungi kun tilshunosligida til sohiblarining ongida olamni konseptuallashtirish va lisoniy voqelantirishning o'ziga xos tadqiqi doirasida ma'lum tematik maydonga tegishli birliklarni struktur-semantik,

kommunikativ-pragmatik, qiyosiy-tipologik yoʻnalishlarda izchil izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, sintaktik konstruksiyalar tizimidan oʻrin egallagan predlogli soʻz birikmalarining tabiati, kategorial belgilari va lisoniy xususiyatlari haqida hozirgacha bildirilgan fikrlar turli-tuman, baʼzan oʻta ziddiyatli boʻlganligi sababli fanda soʻz birikmasi nazariyasi yaxlit va tugallik kasb etgan emas.

Maʼlumki, inson borliqni til orqali anglaydi, tushunadi va his etadi. Soʻzlar ongimizda muayyan guruhlarni tashkil qiladi. Ularning maʼnosini anglash uchun har bir guruh mohiyat, undagi soʻzlar voqelik, maʼnolar orqali ifodalangan bilim ekanligini tushunish lozim. Tilshunoslikda bu kabi til birliklarning shakliy yoki mantiqiy-semantik belgisiga koʻra oʻzaro birlashuviga assotsiatsiya deb qaraladi. Predmet hamda soʻz haqidagi tasavvurni bir-biridan ayro tushunish mumkin emas. Ularning oʻzaro muvofiqligi assotsiatsiya qonuniyatlariga boʻysunadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Tilshunoslikda til elementlari orasidagi tizimli munosabatlarni tushunish XX asr boshlarida shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur tomonidan til tavsifiga asos boʻldi. F. de Sossyurning fikricha, til – belgilar tizimidir: Til tizim boʻlib, uning barcha elementlari bir butunlikni tashkil etadi va bir elementning ahamiyati faqat bir vaqtning oʻzida boshqalarning mavjudligidan kelib chiqadi.. *Assotsiativ maydon* atamasi esa ilmiy adabiyotlarda ilk marotaba Sh.Balli tomonidan qoʻllanilib, assotsiativ guruh va qatorlar maʼnosini anglatgan.

Oʻrganilayotgan obʼekttni tizimli modellashtirish koʻplab fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida bilishning eng samarali usuli hisoblanadi. Tabiat va jamiyatning turli sohalarida izchillikni oʻrnatish XX asr fanining eng muhim yutuqlaridan biridir.

Tizimning quyidagi taʼrifini umumeʼtirof etilgan deb hisoblash mumkin: tizim – bu tarkibiy qismlar (komponent) va elementlar (tuzilma) oʻrtasidagi aloqalar yoki munosabatlar sxemasini ajratib koʻrsatish mumkin boʻlgan har qanday murakkab birlik.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature review).

Til tizimining dastlabki modellaridan biri tabiiy fanlar taʼsirida vujudga kelgan daraja modelidir. Bu modelda til tizimi ierarxik munosabatlarda boʻlgan darajalar yigʻindisi – tizimlar tomonidan shakllantiriladi. Birinchi darajali modellar I.A. Boduen de Kurtene va fransuz tilshunosi E. Benvenist asarlarida paydo boʻlgan. Tilning darajali modelining oʻziga xos xususiyati uni simmetrik va ideal tartiblangan tizim sifatida taqdim etish istagidir. E. Benvenistning fikricha, “sathlar bir xil

tuzilishga ega, ya'ni ular bir-biriga izomorfdir. Darajali kontseptsiya vositasida tilning tuzilishi talqin qilinarkan, uning juda oddiy ekanligi aniqlandi"¹²⁷.

Til tizimini modellashtirishning yana bir turi maydon hisoblanadi. Maydon yondashuvi XX asrning 30-yillarida semasiologiyada paydo bo'lib, keyinchalik til hodisalari va umuman tilning keng doirasiga tarqaldi. Mashhur nemis olimi J. Trier maydon nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Tilning global tizimi, J.Trierning fikriga ko'ra, bir-biriga parallel bo'lgan ikki turdagi sohalarga bo'linadi: kontseptual va og'zaki sohalari. "Har bir soha o'z navbatida elementar birliklarga – tushunchalar yoki so'zlarga bo'linadi, shu bilan birga og'zaki (belgi) maydonning tarkibiy qismlari, xuddi mozaik toshlar kabi, tegishli kontseptual sohani to'liq qamrab oladi"¹²⁸.

Maydonlar nazariyasining keyingi rivojlanishida ikkita asosiy yo'l belgilandi. Ayrim olimlar (L.Vaysgerber, K.Reyuning va boshqalar) paradigmatic sohalarni, boshqalari (masalan, V.Portsig) sintagmatik munosabatlarni, ya'ni sintagmatik sohalarni o'rgandilar. Ham paradigmatic, ham sintagmatik munosabatlar orqali bog'langan so'z turkumlarini, ya'ni qo'shma (yoki murakkab) sohalarni o'rgangan olimlar ham talaygina.

Ba'zi manbalarda assotsiativ maydon atamasi mazmuniy maydon tushunchasining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Masalan, "Yu.S. Stepanov mazmuniy maydonlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi: Pakrovskiy maydoni, Trir maydoni, Portsig maydoni. U assotsiativ maydonni ham mazmuniy maydon turlaridan biri sifatida to'rtinchi turga kiritadi"¹²⁹, ya'ni olim assotsiativ maydon va mazmuniy maydon tushunchalarini o'zaro farqlamaydi, ularni o'zaro sinonim deb hisoblaydi.

Y.N. Karaulov esa o'z tadqiqotida assotsiativ maydon va mazmuniy maydon tushunchalarini farqlaydi va ikki alohida hodisa sifatida ajratadi. U assotsiativ maydonni reallikni anglaydigan individual shaxsning ta'rif-tasviri ekanligini asoslab beradi. Yu.N. Karaulov firkriga ko'ra, "assotsiativ maydon va mazmuniy maydon o'zaro farqlanadi. Assotsiativ guruhlar tuzilishida ongda shakllangan bilim va munosabatlar har bir shaxsda individual bo'lishi, assotsiativ maydon elastik tarzda belgilanishi, ya'ni turli shaxslar tomonidan tuzilgan assotsiativ guruhlarining hajmi har hil bo'lishi mumkinligi, ya'ni assotiativ guruhlar tuzilishi jarayonida individual erkinlikka va ixtiyoriylikka yo'l qo'yilishini kuzatish mumkin"¹³⁰.

¹²⁷ Звегинцев В.А. Очерки по общему языкознанию/ В. А. Звегинцев. – М. : Изд-во МГУ, 1962. – 384 с.

¹²⁸ Трир Й. Немецкий словарь в смысловой области разума. История языкового поля. От истоков до начала 13-го века / Й. Трир. – Берлин, 1934. – С. 177.

¹²⁹ Степанов Ю.С. Основы общего языкознания.-М.:Просвещение, 1975. – С. 52.

¹³⁰ Караулов Ю.Н. Общая и русская идиография,-М.Наука, 1976. – С. 176.

“Mazmuniy maydon esa ko‘pincha aniq ma‘lumotlarga asoslanib, komponent tahlil yordamida, izohli lug‘atlar yoki umumiy me‘yorlardan foydalanib tuziladi. Ba‘zi hollarda individual va tasodifiy assotsiatsiyalarga ham asoslanishi mumkin. Ushbu individuallik va tasodifiylik mazmuniy maydonda komponent tahlil bilan almashtiriladi. Assotsiativ maydon chegaralanmaganligi bois assotsiativ guruhlarining qanday tuzilishi shaxsning borliq, olam haqidagi tushunchalariga bog‘liq bo‘ladi”¹³¹.

Keltirilgan maydon tushunchalarining farqini aniqlashda, aytish mumkinki, mazmuniy maydon tilning kognitiv xarakteristikasini anglatadi, assotsiativ maydon esa shaxsning fikrlash jarayonini, ong darajasini ta‘riflaydi. “Mazmuniy maydon til vositasi, assotsiativ maydon esa shaxs tafakkurini tadqiq etish vositasi hisoblanadi. Assotsiatsiyalar esa shaxs ongida va ong ostida to‘plangan tushunchalarni aks ettiradi hamda ichki – ongosti aloqalarni yuzaga chiqishini ta‘minlaydi”¹³².

Leksemalarni yaqin periferiyaga kiritish mezonlari quyidagilardan iborat: yadro til birliklariga nisbatan kamroq chastotalilik, bir ma‘nolilik, yetarlicha umumlashgan, stilistik neytral ma‘no, kontekstga minimal bog‘liqlik.

Uzoq periferiyaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: past chastotalilik, noaniqlik, uzoq periferiya zonasidagi asosiy ma‘nolar polisemantik leksemalarning bosh ma‘nolariga tegishli emas; boshqa leksik-semantik guruhlar va leksik-semantik sohalarga mansub chegaralovchi emotsional, stilistik sema, kontekstga semantik qaramlikning mavjudligi.

Ekstremal periferiya birliklari juda past chastotali, periferik seme-temporal, funktsional, tasodifiy, stilistik odatiylikning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Til birliklarining leksik-semantik sohaning o‘ta chetiga mansubligining eng muhim ko‘rsatkichi, masalan, “Chastotalar lug‘ati”da ularning yo‘qligidir.

“Maydon tuzilishi” nomli monografiyada I.A.Sternin maydonning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtiradi: Maydon – bu strukturaviy munosabatlar bilan bog‘langan elementlarning inventarizatsiyasi”. Maydonni tashkil etuvchi elementlar semantik umumiylikka ega va tilda yagona vazifani bajaradi. Maydon bir xil va geterogen elementlarni birlashtirishi mumkin. Maydon tuzilishida mikromaydonlar ajralib turadi. Maydonning bir qismi sifatida yadro va periferik tarkibiy qismlar ajralib turadi. Yadro dominant komponent atrofida birlashtirilgan. Periferiya esaqatlam tashkil etish xususiyatiga ega Yadro tarkibiy qismlari soha funktsiyalarini bajarish uchun eng ixtisoslashgan, tizimli ravishda qo‘llaniladi, soha funktsiyasini eng aniq bajaradi, boshqa tarkibiy qismlarga nisbatan eng ko‘p uchraydi

¹³¹ Yuqorida keltirilgan manbaa.

¹³² Абрамов В.П. Теория ассоциативного поле как самоорганизующаяся система. Вестник Башкирского университета. № 3, Том 14-Наука, 1976.

va soha uchun majburiydir. “Maydon va periferiya o‘rtasida maydon tomonidan bajariladigan funktsiyalarni taqsimlash amalga oshiriladi, funktsiyalarning bir qismi yadroga, ba’zilari esa periferiyaga o‘tkaziladi. Maydon tarkibiy qismlari bir maydonning yadrosiga va boshqa maydonning periferiyasiga tegishli bo‘lishi mumkin va aksincha. Turli maydonlar qisman bir-birining ustiga o‘rnatiladi va asta-sekin o‘tish zonalarini hosil qiladi.

Lug‘atga xos tizimli tabiatning namoyon bo‘lishi – bu turli xil semantik assotsiatsiyalarni ajratib ko‘rsatish orqali uni tavsiflashning asosiy qobiliyatidir, masalan: sinonimik qatorlar, leksik-semantik guruhlar, leksik-semantik sathlar, leksik-frazeologik sathlar, shuningdek, assotsiativ guruhlar.

Leksik mikrotizimlarni farqlash mezonini quyidagi xususiyatlardir:

- 1) leksemalar orasidagi bog‘lanishlarning lisoniy/nolisoniy shartliliigi;
- 2) mikrotizim ichidagi strukturaviy munosabatlar turi;
- 3) guruhlash identifikatorining (nomining) joylashuvi va turi.

Quyida guruhlashning asosiy turlarini ko‘rib chiqamiz.

Sinonimik qator – bitta asosiy so‘z, ya‘ni dominant so‘z atrofida birlashgan sinonimlar guruhi. Dominant so‘z eng umumiy ma‘noga ega bo‘lib, u odatda ma‘lum kontekstlarda boshqa sinonimlarni almashtirish qobiliyatini o‘zida mujassam etgan stilistik jihatdan uslublararo qo‘llanadigan birlikdir.

“Sinonimik qator, boshqa til shakllanishlari singari tizimli xususiyatga ega”ligi birinchi marta Yu.D. Apresyan tomonidan qayd etilgan. Sinonimik qator markaz (yadro) va periferiyadan iborat. Yu.N. Denisovning fikricha, sinonimik birikmalarga leksik-semantik guruhlardagi so‘zlarning leksik-semantik bog‘lanishlarining alohida turi sifatida qaraladi.

Leksik-semantik guruh – bu “nutqning bir qismiga oid so‘zlarning katta guruhi bo‘lib, unda nafaqat umumiy grammatik sema, balki kamida bitta umumiy toifali leksik sema ham mavjud. Bu sema guruhning semantik asosini tashkil qiladi va har bir alohida so‘zda differensial semalar yordamida sayqallanadi. Ular tarkibidagi birliklarning korrelyatsiyasining asosiy turi semantik qarama-qarshiliklardir.

Leksik-semantik guruhni tanlash tilning leksik tarkibining tizimli xususiyatini aniqlash usullaridan biridir. Leksik-semantik maydon – umumiy tushuncha (sema) bilan birlashtirilgan bir yoki bir nechta nutq qismlarining ko‘p sonli so‘zlari yig‘indisi. Maydon nomi, qoida tariqasida, sun‘iy xarakterdagi (ya‘ni barqaror bo‘lmagan) ibora bo‘lib, bir tushuncha atrofida birlashtirilgan ma‘lum bir tushunchani nomlaydi. Masalan, avtomobil, trolleybus, velosiped, paroxod, kema, taksi, tramvay, poezd va boshqalar - “transport vositalari”; yil, soat, daqiqqa, soniya, oy, hafta, lahza, yoz, qish, asr va boshqalar - “vaqt o‘lchovlari nomlari”.

Bu murakkab leksik mikrotizim bo‘lib, so‘zlarni semantik printsiplga ko‘ra birlashtiradi va o‘ziga xos maydon tuzilishini shakllantiradi. Leksik-semantik maydon mikromaydonlardan iborat. Leksik-semantik maydon quyidagi strukturaviy xususiyatlarga ega: elementlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning tartiblilik va ierarxiyasi. Bundan tashqari, leksik-semantik maydonni boshqa bir qator til tizimlaridan ajratib turadigan bir qator xususiyatlar mavjud va ular quyidagicha: Aniq chegaralarning yo‘qligi, uzluksizligi, ochiqligi, boshqa sohalar bilan o‘zaro ta’siri, bo‘shliqlarning mavjudligi, assimetrik qurilish, avtonomiya, mustaqillik, semantik tizim”.

Leksik-semantik sathning identifikatori har doim maydondan tashqarida bo‘ladi va qoida tariqasida, umumiy tushunchani bildiruvchi ibora bo‘lib, unga nisbatan sohaning barcha a’zolari tur tushunchalari hisoblanadi. Leksik-semantik sath bir qator zamonaviy ilmiy ishlarda, xususan A.A.Edalina, Kurenkova, Moiseeva, Nikulshina, Polyakova va Tilloevalar tadqiqotlarida o‘rganish ob’ekti hisoblanadi.

Leksik-frazeologik maydon leksik-semantik sathga tegishlidir. Lingvistik asarlarda leksik va frazeologik tizimlar o‘rtasidagi munosabatlar masalasi noaniqligicha qolmoqda. E.A. Nojin leksik va frazeologik birliklar bir sathga tegishli bo‘lishi mumkin degan fikrni ilgari suradi. U leksik-frazeologik semantik maydonlarni yaratish faoliyatini real deb hisoblaydi, chunki leksika va frazeologiyaning semantik guruhlar bitta, ya’ni umumiy tushunchalarning aksariyati lug‘at va frazeologiyaning ma’lum doiralarga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, umumiy sema orqali birlashgan leksik va frazeologik birliklar turli gap bo‘laklari leksemalari va turli tipdagi frazeologik birliklarni o‘z ichiga olgan leksik-frazeologik sathni tashkil qiladi. Sath doirasida leksik-semantik va leksik-frazeologik mikromaydonlar ajralib turadi, ular o‘z navbatida sinonimik qatorlar va antonimik juftlarni o‘z ichiga oladi.

Tematik maydon – bu bir xil voqelikka aloqador ko‘p sonli so‘zlar, iboralar va frazeologik birliklar, nutqning turli qismlari birliklarini o‘z ichiga oladi. Masalan, tematik guruhlar, jumladan sport, qishloq xo‘jaligi, sanoat, hayot, san’at va boshqalar. F.P.Filin “tematik guruh doirasida bir leksemaning boshqasiga almashtirilishi butun guruhning leksik ma’nosining o‘zgarishiga yoki yo‘qolishiga olib kelmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Bu esa ushbu assotsiatsiyadagi leksemalar o‘rtasida semantik bog‘lanishlar yo‘qligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Bugungi kunga qadar o‘zbek tilshunosligi miqyosida milliy psixolingvistika maktabi shakllanmaganligi bu sohada olib borilajak ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar ochishi barobarida soha rivoji uchun fundamental tadqiqotlarni jahon

andozalari darajasiga yuksaltirishdek ustuvor vazifani qo'ydi. Ta'kidlab o'tish joiz, psixolingvistika sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan o'zbek olimlari asosan rus psixolingvistik maktabining nazariy qarashlariga tayanadilar, bu esa begona madaniyat va unga xos til xususiyatlari negizida rivojlangan psixolingvistik nazariyalarni moslashtirish va takomillashtirish, xususan o'zbek tilida so'zning psixolingvistik ma'nolarini aniqlashning psixolingvistik qoliplarini yaratish, til jarayonlari hamda ularning tafakkur mexanizmlariga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam berishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar uchun istiqbolli soha ekanligidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: O'ME, 2002. – B. 19.
2. Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – Казань, 1883,-С. 67.
3. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию / Ф. де Соссюр. – М., 1977. – 696 с
4. Балли Ш. Общая Лингвистика и вопросы французского языка,-М., 1955
5. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
6. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
7. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 366-375.

ХАЙБАР АДАБИЙ МАКТАБИ ВАКИЛЛАРИ ИЖОДИДА АДАБИЙ АНЪАНА ВА БАДИИЙ МАҲОРАТ МАСАЛАЛАРИ

С. Қорабоев

филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида вазн (шеърий тизим), адабий анъана ва бадий маҳорат масалалари таҳлилга тортилган бўлиб, таҳлил жараёнида асосий эътибор анъанавий шеърий санъатларнинг бадииятига қаратилган.

Калит сўзлар: вазн (шеърий тизим), анъанавий шеърий санъатлар, адабий анъана ва шеърлардаги бадий маҳорат масаласи.

ABSTRACT

In this article, the issues of weight (poetic system), literary tradition and artistic skill in the work of representatives of the Khyber literary school are analyzed.

Key words: weight (poetic system), traditional poetic arts, literary tradition and the question of artistic skill in poems.

КИРИШ

XX аср пушту адабиётида янги мактаб сифатида вужудга келган Хайбар адабий мактаби афғон адабиётига етказиб берган ижодкорларнинг аксарияти анъанавий шеъриятда ижод қилганликлари сабабли улар ижодидаги ғоявий-бадий хусусиятларни таҳлил қилишда вазн масаласига ҳам аниқлик киритиш зарур бўлади.

Таъкидлаб ўтиш керакки, “вазн” атамаси тор маънода бирон-бир шеърнинг ўқилиш ритмини ифодаласа, кенг маънода шеърий тизимга синоним бўлиб кела олади. Шеърий тизим шеърнинг ёзилиш усули, таркибидаги унсурлари ва қонуниятларига кўра шаклланади. Шеърий тизимларнинг хилма-хиллиги жаҳон миллатлари тилларининг табиатига боғлиқ. Ушбу тил табиатлари ва хусусиятларидан келиб чиқиб жаҳон халқлари поэзияси метрик, силлабик ва тоник каби шеърий тизимларга бўлинади.¹³³

Агар метрик шеър тизими бўғинларнинг чўзиқ қисқалигига асосланса (аруз вазни), силлабик шеър тизими бўғинлар миқдорига асосланади (бармоқ вазни). Тоник шеър тизими эса урғунинг сўзнинг қайси бўғинига тушиши ёки гапдаги мантикий урғу қайси сўзга тушишига асосланади. Баъзи халқлар шеъриятида

¹³³ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т., 2002.

охирги икки шеърий тизим ўзаро уйғун бириккан ҳолда учрайди. Унда шеър бўғинлар миқдори ва урғуга асосланиб, силлабо-тоник тизимни ташкил этади.

Вазн (шеърий тизим) масаласи пушту адабиётида қизғин баҳсларга сабаб бўлган. пушту адабиётидаги вази ҳақида афғон олимлари Абдулҳай Хабиби¹³⁴, Абдурауф Бенаво¹³⁵ ва ўзбек олими А.Маннонов¹³⁶ бир қанча тадқиқот олиб борганлар. А.Маннонов юқоридаги олимларнинг фикрларини таҳлил қилиб қуйидаги хулосага келади: “Пушту шеъриятида шеър тузилиши ва вазни муаммосига бағишланган ушбу ишларнинг қисқача обзоридан қуйидагича хулоса қилиш мумкин:

1. Фольклор ёки китобий бўлишидан қатъи назар пушту шеърияти тўлалигича силлабик шеър тизимига асосланади;

2. Пушту тилида ёзилган шеърлар силлабо-тоник шеър тизимида ўқилиши керак;

3. Пушту шеъриятида унча кўп бўлмаган миқдорда аруз вазнида ёзилган шеърлар ҳам мавжуд. Бунга қўшимча равишда айтиш мумкинки, ўтмишдаги баъзи шоирларнинг бир миқдор шеърларининг аруз вазнида ўқилиш имконияти мавжудлиги рад этилмайди.”¹³⁷

Буни пушту поэзиясидаги шеърий тизимларни таҳлили бўйича қилинган мукамал хулоса, дейиш мумкин. Чунки унда муаллиф мумтоз Пушту шеъриятида аруз вазнига мансуб шеърларнинг ҳам мавжудлигини инкор этмайди. Бунинг сабабларини кўрсатди. Унинг фикрича, таркиби асосан арабий-форсий сўзлардан ташкил топган ғазалларнинг баъзиларини аруз вазнига солиб ўқиш мумкин.

Худди шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, Амир Ҳамза Шинворий ва унинг издошларининг таркибида арабий-форсий сўз қатлами кўп бўлган баъзи ғазалларини таҳлил қилиб кўрамиз.

سادہ تعريف به د تقدير غوارم	په آينه كښي د تدبير غوارم
د سحر مسته غځوونه د يار	زه د ټول عمر په شېگير غوارم
ستا د اوردو زلفو بلا واخلم	زه ليونى يمه ځنځير غوارم
زه نه تقدير او نه تدبير غوارم	د حسن او عشق درنه تفسير غوارم
خوب مى ليدو چې دوه جهانه دى خوب	زه ددى خوب درنه تعبير غوارم
زړه مى راتنگ په خاموشيو كښي شو	ځكه آشنا درنه تصوير غوارم
زما نظر د ښكليو اوگى نه دى	زه په هر يو كښي ستا نظر غوارم
ما وى د زړونو په تخريب كښي څه دى	وى چې ته ژاره زه تعمير غوارم

¹³⁴ عبدالحى حبيبي ، د پښتو ادب تاريخ ، ټوك – ١ ، كابل – ١٣٢٥ هـ

¹³⁵ عبد الروف بينوا ، ادبى فنون ، كابل – ١٣٣٢ هـ

¹³⁶ Маннонов А. М. Рошанийская литература. – Т., 2006.

¹³⁷ Ўша манба. – Б. 255.

لږ په جواب كښي به تاخير غواړم
زه د هندوانو نه كشمير غواړم
په اراده كښي دي تاثير غواړم¹³⁸

نن دي ناڅاپه زما حال اوپښته
خپړ دي يم زولفو ته د مخ په طمع
حمزه په خوله كښي دي تاثير څه پكار

Талаффузи:

[сода таъриф ба да тақдир гворим] [пә ойина ке да тадбир гворим]

[да саҳар маста гадзавъна да ёр] [зә да тўл умр да шабгир гворим]

[сто да уждў зулфў бало вохлим] [зә леванай йәма дзандзир гворим]

[зә на тақдир ав на тадбир гворим] [да ҳусн ав ишқ дәрна тафсир гворим]

[хўб ми лидў че два жаҳона дей хўб] [зә даде хўб дәрна таъбир гворим]

[зр̄ь ми ротанг пә хомушийў ке шу] [дзка ошно дәрна тасвир гворим]

[змо назар да шклийў угей на дей] [зә пә ҳар яв ке сто тасвир гворим]

[мо ве да зарунў пә тахзиб ке ца дей] [вий че тә жорь зә таъмир гворим]

[нън ди ноҷона змо ҳол вупуштә] [лиж пә жавоб ке ба тохир гворим]

[дзеир ди йәм зулфу та да мих пә таъма] [зә да ҳиндувону на Кашир гворим]

[Ҳамза, пә хула ке дей тотир ца пә кор] [пә ирода ке дей тосир гворим]

Кўриб турганимиздек, ғазалда арабий-форсий сўзлар кўп бўлса-да, шеър оҳанги арузга тушмайди. У бўғинлар миқдори ва урғули, урғусиз бўғинларнинг сони ва жойлашиш тартибига асосланади. Бундан Хайбар адабий мактаби вакиллари шеърятти ҳам умумпушту шеърятти каби шеър тизимларининг силлабо-тоник тизимига мансуб эканлигини кўриш мумкин.

Хайбар адабий мактаби вакиллари шеърятти ривожига ҳақида сўз борганда рус олими М.Л. Рейснернинг форс адабиётида ғазалнинг ривожига тўғрисида берган таърифини эслаб ўтиш мақсадга мувофиқ: “Форс тилидаги ғазал трансформацияси асосида ўзига хос марказга интилувчи айлана тамойили ётади. Зеро, ҳар бир навбатдаги босқич ғазалнинг мазмуний ва шаклий характердаги элементларини ўзига қабул қилиши ўзидан олдингини рад қилмасди, балки ўзига қўшиб оларди ва уни ўзлаштирарди.”¹³⁹ Пушту тилида ғазал жанрининг ривожига борасида ҳам худди шу фикрларни билдириш мумкин. Хайбар адабий мактаби вакиллари шеъряттидаги ғазал ўзидан олдинги адабий мактаб вакиллари ёзган ғазаллардаги бадиият ва ғояни ўзига сингдирган ҳолда уни замон талаби асосида қайта ишлади, такомиллаштирди. Унда рўшонийлар ва Раҳмон Бобо ижодидаги каби тасаввуфий ғоя

¹³⁸ حمزه شنوارى، غزونه، پشاور، ۱۹۵۶، ۵۲ مخ

¹³⁹ Рейснер М. Л. Эволюция классической газели на фарси (X-XIV века). – М., 1989. – С. 210.

ва рамзлардан тортиб, Хушқолхон Хаттак ғазалларидаги юксак бадиий малоҳатгача ўз аксини топган.

Пушту шеърлятида мумтоз адабиёт вакиллари ижодида адабий анъана даражасига кўтарилган юксак ғазилатлар, туйғулар, ғоялар ва баъзи шеърлий санъатлар Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида ҳам янада бойиди, кенг миқёсда қўлланди. Шу билан бирга улар ижодида куйланган айрим умумбашарий қадриятлар, юксак инсоний ғазилатлар янги анъаналар тизимини шаклланишига олиб келди.

Ғоя ҳар қандай санъат асарининг асосини ташкил этади. Бироқ турли санъат асарлари ғояни турли йўсинда ифодалайди. Шеърнинг ўзига хослиги шундаки, у ғояни мусиқий йўл билан шакллантиради. Хайбар адабий мактаби вакиллари ижоди ғоявий жиҳатдан бой бўлиб, умумий ҳажмда миллий-ватанпарварлик руҳидаги шеърлятдан XXI асрга келиб умуминсоний қадриятлар асосий мавзуларга айлана бошлади. Унда ишқ-муҳаббат, меҳр-оқибат, бағрикенглик, садоқат билан бирга эзгу ном қолдириш ҳам алоҳида таъкидланади. Баъзи ғазалларда эса миллий ва умуминсоний қадриятлар чегараси йўқолгандек, улар ўзаро қоришиб кетгандек туйилади.

Умуман олганда, умуминсоний қадриятларга миллийлик тусини бериш деярли барча халқларда учрайди. Фақат турли халқлар ўзларининг миллий характери, менталитетидан келиб чиққан ҳолда ўзларига мос қадриятга урғу берадилар. Масалан, ўзбек халқи кўпроқ тинчликсеварлик, инсонпарварлик, бағрикенглик ғазилатларини миллий қадриятнинг бир қисмига айлантиришга интиляётган бўлса, паштун халқида жасурлик, садоқат, вафога кўпроқ эътибор қаратиляётгани аҳамиятли. Бу афғон халқининг тарихида рўй берган воқеа-ҳодисалар билан ҳам боғлиқ. Чунки ўзбек олими Қ. Назаров таъкидлаганидек: “Миллий қадриятлар миллий маконда шаклланади, ранг-баранг тарзда намоён бўлади, миллатга мансуб кишиларнинг онгига таъсир қилади, улар учун маънавий мезонлар ролини ўтайди, ижтимоий ривожланиш жараёнида доимо янгиляниб, авлоддан-авлодга ўтиб боради.”¹⁴⁰

Хайбар шоирлари янги авлод вакилларида жасорат туйғусини миллий қадрият талқин қилган шоирлардан бири Мунтазир Афридийнинг қуйидаги мисраларида жасурлик билан бирга миллатга, миллатнинг озодликка интилиш табиатига садоқат руҳи ҳам уфуриб турибди.

ژوند د آزادی لرم پښتون یمه
توره د سیالی لرم پښتون یمه¹⁴¹

¹⁴⁰ Назаров Қ.Н. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси. – Т., 1996. – Б. 139.

¹⁴¹ مراد شنواری ، د خیبر ادب ، پیښور - ۱۹۵۸ ، ۱۱۰ مخ

Таржима: “Эркин-озод яшайман, паштунман
Жасурлик қиличи кўлимда, паштунман”.

Шоир фикрича, миллий қадриятларга содиқлик билан бирга мардлик, жасурлик каби фазилатлар ҳам афғонларнинг миллий сифатларидан бири.

Аслида бу каби миллий ва умуминсоний қадриятлар ҳамоханлиги Ҳамза Шинворий байтларида ҳам кенг учрайди. Жумладан, унинг куйидаги байтида ҳам лафз ва ваъдасига вафо каби фазилатларни талқинини кўришимиз мумкин.

دا ځنگه بې وفا شوى پښتې پس له وعدي
پيغور هم نېټه نه كړى انگرېزى سترگى ستا¹⁴²

Таржима: “Қандай қилиб паштунлар ваъдасига бевафо бўлдилар,
Сенинг инглиз кўзларинг таънани камайтирмади”.

Ҳамза ваъдага вафо, лафз, садоқат каби умуминсоний қадриятларни ҳам паштунларнинг миллий қадриятлари қаторида санайди. Бу афғон жамиятида шаклланган ижтимоий фикр билан боғлиқ. Умуман олганда, Хайбар адабий мактаби вакиллари афғонларнинг аҳқоқлари ҳақида сўз борганда поэтик образлар тизимига тўхталиб ўтиш лозим. Чунки поэтик образ сўз маъно доирасидан чиқиб, бирон-бир ёки бир неча тушунчани янги мазмун билан ҳиссиётларга ўраб бера олади. Ўзбек адабиётшуноси С. Мамажонов поэтик образга куйидагича таъриф беради: “Поэтик образ ғоят серқирра ва мазмундор бадиий қурилма бўлиб, шеърнинг ғоявий ва руҳий қудратини ўзида мужассамлаштирган эстетик марказдир. Шоир айтмоқчи бўлган бадиий фикр, у қўллаган сўзлар сеҳри ҳам ана шу поэтик образ бағрига яширингандир. Чунки поэтик образнинг ёрқинлиги, ҳаётийлиги, реалистиклиги ва оригиналлиги ҳам шоир дунёқарашининг чуқурлигига, эстетик идеалининг мукамал шаклланишига боғлиқ.”¹⁴³

Бадиий образлар моҳиятига кўра бир неча турларга бўлинади. Адабиётшунос Ё. Исҳоқов поэтик образларни шартли равишда икки турга ажратади:

1. Жамият ҳаёти билан боғлиқ поэтик образлар;
2. Табиат ҳодисалари билан боғлиқ поэтик образлар.¹⁴⁴

Хайбар шоирлари табиат ва жамият ҳодисаларини янги бадиий талқин қилишга интилиши пушту шеърларида янги поэтик образлар системасини шаклланишига олиб келди. Шоир табиатдан жамиятга хос бўлган хусусиятларни қидиради, ўз кечинмаларини табиат ҳодисалари билан

¹⁴² حمزه شنوارى ، غزونه ، پښاور ، ۱۹۵۶ مخ ۳۶

¹⁴³ Мамажонов С.М. Лирик олам, эпик кўлам. – Т., 1979. – Б. 28.

¹⁴⁴ Исҳоқов Ё. Поэтик афғон ва индивидуал услуб. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1978. I-сон. – Б. 36.

ифодалашга интилади. Хайбар шоирлари табиат манзараларини шунчаки тасвирламадилар. Бу тасвирлар асосида тор миқёсда ҳар бир шоирнинг, кенг миқёсда паштун халқининг муайян фалсафий-эстетик қарашлари ётади. Бундай образларнинг айримлари бутун шарқ халқлари адабиётида умумий мазмун-моҳият касб этади. Масалан, گل – гул, بلبل – булбул, ورمه – насим, سپورمى – ой, پتنگ – парвона, ازغو – тикан каби образлар. Булардан гул, ой ёрни ифодаласа, булбул ва парвона ошиқ сифатида талқин қилинади. Тикан, инглиз (фаранги), зоҳид рақиб, душманни ифодаласа, насим ва соқий сирдош дўст сифатида қабул қилинади.

حمزه چه مي الفت د گلرخانو و ، فطرت
بلبل غوندى له خايه غزلخوان راغلى يم¹⁴⁵

Таржима: “Ҳамза, менга гулруҳлар улфат бўлганда табиий,
Ўз-ўзидан булбул каби ғазалхон бўлиб кетдим”.

Ҳамзанинг мазкур байтидаги булбул, ғазалхон билан ифодаланган ошиқ образи Хайбар адабий мактаби вакиллари шеърлятида девона (леванай), гадо, парвона, бемор (норуғ), маъшуқа образи эса ёр, гул, Юсуф, подшоҳ (пачо), шам, ой (спўжмай), табиб сўзлари билан берилади. Қуйидаги мисрада эса деярли ҳар бир мустақил сўз рамзий маънода келганини кўрамиз.

بلبل كرى د گل وصف كه بهار دى كه خزان¹⁴⁶

Таржима: “Булбул гулнинг васфини куйлайди, баҳор бўлса ҳам,
куз бўлса ҳам”

Шоир ҳар бир сўзни ўринли қўллаган. Бу ҳам ўз ўрнида катта аҳамиятга эга. Адабиётшунос Н. Каримов ҳақли таъкидлаганидек: “Шеър ўзига хос организм бўлса, сўз унинг хужайрасидир. Организм тирик бўлиши учун унинг ҳар хужайраси соғлом бўлиши ва нафас олиб туриши лозим бўлганидек, ҳар бир сўз ҳам шеърга унинг қалби бўлган образга ўз қонини бериб туриши ва уни ҳаракатга келтириши керак”.¹⁴⁷

Бу мисрадаги баҳор ва куз сўзлари ҳам фасл маъно қобиғини ёриб чиқа олган ва инсон умрининг маълум даврларига тўғри келади. Хайбар адабий мактаби вакиллари шеърлятида шу каби рамзий маънога эга образлар ранглар билан моҳирона ифодаланган.

Шарқ адабиётида асрлар оша барҳаёт образлар бўлиб, ўз хусусиятлари билан рамзга айланиб кетган тарихий ва афсонавий шахслар ҳам Хайбар шоирлари эътиборидан четда қолмади. Масалан, Айюб – сабр,

¹⁴⁵ حمزه شنوارى ، غزونه ، پيشاور ، ۱۹۵۶ ، ۴۹

¹⁴⁶ مراد شنوارى ، د خير ادب ، پيښور – ۱۹۵۸ ، ۲۷۰ مخ

¹⁴⁷ Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Т., 1964. – Б. 72.

Юсуф – гўзаллик, Сулаймон ва Искандар – ҳукмронлик, Мажнун – ошиқлик, Қорун – бойлик ва Хушқолхон – миллий бирлик рамзи сифатида кенг ифодаланди. Бундай анъанавий образлар Хайбар адабий мактаби вакиллари ҳаётни теран англаш, бадиий тасвирлар учун бой фикрлар ва оригинал ғоялар манбаи бўлиб хизмат қилди.

Адабиётшунос олим С.Мамажонов таъкидлаганидек, “Илҳом уфқининг кенглиги, тематик ранг-баранглик, ҳозиржавобликнинг ўзи, яъни мавзунини қуруқ кўтариб чиқишнинг ўзи шоир талантининг юксаклигидан далолат бера олмайди. Илҳом уфқи маҳорат уфқи билан чамбарчас қўшилиб, олинган янги мавзунинг моҳияти чуқур ва ҳаққоний очилган тақдирдагина шоирнинг юксак истеъдоди ҳақида сўз бориши мумкин.”¹⁴⁸

Шеърнинг оҳангдорлигини таъминлашда лафзий санъатларнинг ўрни катта. Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида лафзий санъатлардан “такрир” санъатининг кўп ишлатилганини кўришимиз мумкин. Унда шоирлар бир сўзни кетма-кет ёки байтнинг турли ўринларида қайтариш билан ўқувчи диққатини ўша сўз остидаги маънога қаратмоқчи бўладилар.

Такрир санъатининг ажойиб намунасини эса Ҳамза Шинворий ижодида кўрамыз. Унинг қуйидаги икки байтида қайтаришнинг бир неча турлари жамланган.

که د هر چا ئي ته ، خوستا يمه زه
خکه دی ستا يمه چه ستا يمه زه
ستا په نظر کيني چه برېښنا ښکاری
ستا په ککو کيني په خدا يمه زه¹⁴⁹

[ка дэ ҳар чо йе тэ, хў сто йэма зэ]

[дзка дей сто йэма че сто йэма зэ]

[сто пэ назар ке че брешино шэкори]

[сто пэ какў ке пэ хандо йэма зэ]

Биринчи мисранинг охиридаги “сто йэма зэ” – “сеникиман” сўз бирикмаси иккинчи мисранинг ўртасида келиши – “радд ул-аруз ил-ал-ҳашв” дейилса, биринчи мисра охиридаги бирикманинг байт охирида такрорланиши “радд ул-аруз ил-ал-ажуз” деб аталади. Иккинчи байтда эса байт бошидаги “сто” – “сен” сўзининг шу байтнинг иккинчи мисраси бошида такрорланиши “радд ул-садр ил-ал-ибтидо” санъатини вужудга келтирган. Бундан ташқари “сто йэма зэ” бирикмаси иккинчи байтнинг иккинчи мисрасида “сеникиман” маъносини ифодаламаса ҳам, ажратилган ҳолда байт боши ва охирида қайтарилган.

¹⁴⁸ Мамажонов С. Шоир ва замонавийлик. – Т., 1963. – Б. 76.

¹⁴⁹ حمزه شنوارى ، غزونه ، پښاور ، ۱۹۵۶ ، ۶۴ مخ

Хайбар адабий мактабининг анъанавий шеърий жанрларда ижод қилган вакиллари пушту адабиётидаги мумтоз жанрларини замон руҳи билан бойитиб, уларнинг нафақат сақланиб қолишига, балки янада кенг тарқалишига сабабчи бўлдилар.

Инсон тафаккури, унинг ғоявий-эстетик қарашлари ва бадиий диди вақт ўтиши билан ўзгариб боради. Инсон бадиий тафаккурдаги янгиланишлар адабиётдаги янгиланиш ҳаракатини келтириб чиқариши туйин. Чунки ижодкор ўзбек тадқиқотчиси Хуршид Дўсмұхаммедов айтганидек: “Қадриятлар, тушунчалар, дунёқараш ўзгараётган экан, бадиий тафаккур янгиланиши табиий, бунинг шарофати билан адабиёт ўзгариши, ўзгаришга интилиши муқаррар!”¹⁵⁰

Хулоса ўрнида айтиб ўтиш керакки, ижтимоий-сиёсий ҳаётда содир бўлган ўзгаришлар жамият қадриятлар тизимида ҳам ўзгаришларга олиб келди. Бу адабий жараёнларда ўз аксини топади.

XX асрнинг охирида Покистон ҳудудидаги пушту адабиёти ана шундай ўзгаришларни бошидан кечирди. Бунинг натижасида олдин пушту адабиётида учрамаган янги услуб, ноанъанавий шеърий шаклларда ижод қилиш кенг тус олди. Лекин бу жараён Хайбар адабий мактабининг қанотида, унинг ғоявий давоми сифатида юзага келди.

¹⁵⁰ Досмұхаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми – 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида). – Т., 1995. – Б. 4.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

ОЧИЛОВА Нигора Рузимуратовна

*Иқтисодиёт ва педагогика университети
“Тарих ва Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти*

АННОТАЦИЯ

Ёшлар маънавий қиёфасида содир бўлган ўзгаришлар мамлакат ичидаги сиёсий вазият барқарорлигини таъминлаш, миллий ва миллатларaro тотувликни сақлаш, инсон ҳуқуқлари ва эркинлигини ҳимоя қилиш, янги жамият барпо этишида глобаллашув жараёнининг ютуқларига таянишга қаратилган кўп қиррали фаолиятда, яқин ўтмишда камситилган миллий муаммоларни ҳал қилишда, хусусан миллий тилни, маданий-маънавий меросни, тарихий хотирани тиклашда ҳам яққол намоён бўлмоқда.

Калит сўзлар: *жаҳон тартиботи, ёшларнинг дахлдорлиги ва фаоллиги, миллий гуруҳ, миллий ўзўзини англаш, урф-одат, диний-ахлоқий, маданий, миллий ва умуминсоний қадриятлар.*

ABSTRACT

The changes in the spiritual image of young people are clearly manifested in the multifaceted activities aimed at ensuring the stability of the political situation within the country, maintaining national and interethnic harmony, protecting human rights and freedoms, building a new society, relying on the achievements of the globalization process, solving national problems that were neglected in the recent past, in particular, in restoring the national language, cultural and spiritual heritage, and historical memory.

Keywords: *world order, youth involvement and activity, national pride, national self-awareness, customs, religious and moral, cultural, national and universal values*

КИРИШ

Фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишнинг йўллари, усуллари, омиллари кўп. Бизнингча, илҳом ва маънавиятнинг моҳиятини англаб, ўзлигини халқ розилиги ва фаравонлигини оширишга бағишлаган инсонларнинг ибрати ҳам таъкидланган усуллардан биридир. Дарвоқе, ҳаёт ва инсон бор жойда илҳом ҳам бор. Унга умри давомида ҳамма ҳам билиб ё билмай дуч келади. Дуч келганида, борлиқни тамоман унутиб, шундай завққа тўладики, бу завқдан жуда осонлик билан фақат янгилик туғилади, кашф этилади.

Бундан эса илҳом эгаси шундай ҳузур, шундай роҳат топадики, у энди шу ҳолатлар ва туйғуларнинг шайдосига айланади. Илҳомни умрнинг мазмунига тенглаштиради, шундангина оромини, тинчини, шодлиги ва бахтини топади. Фақат уни англаш, барча сирларини эгаллаш ва илҳомни ўзига бўйсундириш ҳаммага ҳам насиб қилавермайди. Шу сабаб, илҳомдек Аллоҳ неъматининг кудратини эгаллаганлар, унинг “ҳукмдори”га айланганлар умри – серҳосил, баракали, соф, гўзал, кашфга бой бўлади. Умуминсоний ва умумжаҳоний эзгулик ривожига хисса қўшадиган бўлади. Айни пайтда, чарчашга, узоқ муддат ором топишга имконият бермайди, умрни бесамар ишларга совуришга йўл қўймайди. Бу гапларнинг исботини келтириш учун ҳаммамиз биладиган, барчамиз тан олган ҳаётий бир ибратли мисолни келтирмоқчиман: Халқ билан мулоқот қилиб, инсон манфаатларини ёқлашга киришганимизга 2 йил тўлди. Ана шу йилларда Истиқлолнинг нури туфайли Ўзбекистон ва унинг халқи янги даврга кутлуғ қадам қўйди¹⁵¹.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Истиқлолнинг эртаси – яхшилик бўлишига барча ишонди.¹⁵² “Адли эҳсон билан жаҳон гулшани обод бўлади” (Амир Темур) ҳақиқатини халқимиз ўз танасида синаб кўрди. Буларга минглаб далиллар келтириш мумкин ўн йилликлар давомида эришмаган ютуқларга бир йилда эришдик. Бир йилда Ўзбекистонда сиёсат ўзгарди. Ижтимоий иқтисодиёт, маънавият ва маърифат, давлат ҳокимияти вакиллик органларининг янги тизимлари ишга тушди. Буларнинг барчаси мамлакат ва халқни бошқаришнинг санъатини мукаммал эгаллаган, доимо илҳом билан ҳамкорликда бунёдкорлик ишларини амалга ошираётган Президентимиз Шавкат Мирзиёев билан мусатаҳкам боғлиқдир.

Унинг барча сарҳисоб қилувчи нутқларида маънавиятнинг яратувчи нури уфуриб туради. Чунки, “Маънавият – инсонни руҳан покланиш, қалбан улғайишига чорлайдиган, одамнинг ички дунёси, иродасини бақувват, иймон-этиқодини бутун қиладиган, виждонини уйғотадиган беқиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир”¹⁵³.

Қуёш барча нарсага нурини сочганидек, истиқлол маънавияти ҳам барча ғоявий, иқтисодий, маърифий ҳаракатларимизга ижодий қувват беради, ҳалол ва адолатли ҳаёт кечиришимизга, комилликка эришишимизга нурли имкониятлар яратади. Қалбимизни ҳаракатга солиб, меҳрга, муҳаббатга бой

¹⁵¹ Таълим технологиялари журнали. 2011 /3 сон

¹⁵³ Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017

қилади, ҳурмат-иззатни, ҳалолу покликни, руҳан юксалиш ва ҳаётдан, турмушдан қониқишни барқарорлайди. Бу ҳақиқатлар ундаги илҳомнинг ядросидир. У барчанинг қалбини истиқлол маънавияти нури билан оловлантираётган ва ривож томон, инсонийлик томон, эзгулик томон йўналтираётган раҳнамодир. Ҳар қандай муаммони ҳар томонлама сарҳисоб қилиш илмини эгаллаган, уни адолатли ҳал қилишнинг устувор йўллари кўрсатиб берадиган раҳбари одилдир. Барча ишларнинг чора-тадбирини кўнгил билан топиб ҳал қиладиган раҳбари донишдир. Бугунгача тиним билмасдан, яратишдан чарчамасдан фаолият кўрсатаётган бу инсон ҳаммамизни ҳайратга солмоқда, унингдек ишлашга кўпчилигимиз ожизлик қилмоқдамиз. Чунки Президентимиз илҳомнинг асосини халқимиз ҳаётидан, унинг маънавиятидан топган. Унинг кўнгидаги зарур, керакли ҳақиқатларни англаб етган, Ўзбекистон ва Ўзбекистонликларнинг дардини тўлиқ ўзлаштира ва қалбан ўзлигига айлантира олган. Халқ билан бу масалаларни илмий-амалий эҳтироси билан куюниб, ёниб баҳам кўрадиган шахсга айланган. Бизнингча, бу ҳислатларнинг барчаси – Илҳомнинг сирларини эгаллаб, унга “қўмондонлик” қилаётгани сабаблидир¹⁵⁴.

Шундагина комил инсонлар сафи кўпаяди, кўпайгани сари Ўзбекистон ва халқимизнинг ҳаёт қувватини ошириб, баркамолликка эришаверади; жаҳон машъалига айланади!¹⁵⁵ Бундай намунавий ибратнинг қудратини ёшлар ҳам қалбларига сингдирсалар, улардаги фаоллик, ишонч, садоқат янада кучаяди, яхшиликка ўчлик ортади, жаҳоний таъсирга, демакки, инсоний комилликка томон йўл солади. Улуғворликни, илмга асосланган доноликни, буюкликни, барҳаётликни воқе қилади.¹⁵⁶

Ҳеч муболағасиз айтиш мумкинки, бугун бутун юртимиз, шу жумладан Агентликнинг ҳам кучи айнан ёшлар, салоҳиятли ва илғор фикрлайдиган, ўз устида тинимсиз ишлайдиган йигит ва қизлардир.

Ислохотлар ва ўзгаришлар даврида – ёшларга, уларнинг ўзини намоён қилишига катта имкониятлар яратиб берилмоқда. Лекин, бу имконият – қачон улкан салоҳиятга, мислсиз қудратга айланади – қачонки бизнинг ёшлар қатъият билан ҳаракат қилганда, қунт билан ўқиб-ўрганганда, Она ватан ва халқи олдидаги масъулиятни юракдан ҳис қилиб, шунга муносиб бўлишга интилганда.

¹⁵⁴ Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017

¹⁵⁵ Қодиров П. Ўйлар. Тошкент, 1971, – Б.107

¹⁵⁶ Умурув Х. Илҳом. – Тошкент: “Наврўз”, 2018. – Б.64

Бугунги кунда Агентлик тизимида жами 875 та ходимдан 223 тасини ёшлар ташкил этади (25,5 фоиз). Уларнинг 16 таси ёки 9 фоизи хотин-қизлардир.

30 ёшгача бўлган жами 21 нафар ёшлар турли раҳбар лавозимларда ишламоқда, бундан ташқари Агентликда масъул лавозимларнинг деярли барчасида 30-40 ёшлардаги ҳамкасбларимиз меҳнат қилмоқда. Шунга қарамай, биз ёшларни ушбу йўналишда кўпроқ ўз устида ишлашининг, ўз қобилият ва имкониятларини намоён этишининг ва сафимизда кўпроқ ёш раҳбарлар бўлишининг тарафдоримиз. Бунинг учун барча имконият ва шароитларни таъминлаб беришга тайёрмиз.

Марказий аппаратда ёш ходимларимизнинг (39 тадан 14 таси) 36 фоизи 2 тадан чет тилини, 58 фоизи эса рус тилини билиши ижобий ҳолат албатта.

Агентлик тизимида ёш ходимларнинг тажрибасини ошириш мақсадида доимий хизмат сафарларига жалб этилмоқда, ўтган йили 9 нафар ходим хорижий мамлакатларга малака оширишга ва хизмат сафарларига юборилди;

25 нафар ходим Давлат бошқаруви академиясининг малака ошириш курсларида иштирок этмоқда, қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларига юборилмоқда, тез кунларда 200 нафардан ортиқ ходимнинг Корпоратив бошқарув илмий марказида ўқиши учун шароитлар яратилади, уларнинг аксарияти ёшларимиздир.

Ёшлар вакили сифатида Ёшлар иттифоқи бошланғич ташкилоти етакчиси барча ижтимоий тадбирларга фаол жалб қилинмоқда. Агентлик тизимида тузилаётган барча комиссиялар фаолиятида иштироки таъминланмоқда¹⁵⁷.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017
2. Таълим технологиялари журнали. 2011 /3 сон
3. Қодиров П. Ўйлар. Тошкент, 1971, – Б.107
4. Умунов Х. Илҳом. – Тошкент: “Наврўз”, 2018. – Б.64

¹⁵⁷ Ш. Мирзиёев. Ёшлар-қучимиз келажакимиз. 2020 й. 30 июн.

O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARINING KO‘RINISHI

PARDAYEV Abdurahim Chori o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti

Falsafa kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

e-mail: choriyevich94@mail.ru

tel: 97 140 06 00

ANNOTATSIYA

Butun yer yuzida diniy bag‘rikenglik, diniy konfessiyalararo o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyati ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirishga qaratilgan. Globallashuv hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob‘yektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emasdir.

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, diniy erkinlik, bag‘rikenglik, tolerant- tolerare, e‘tiqod, vijdon, xavfsizlik, baynalmilal, do‘stlik, qadriyatlar, ma‘naviyat, dinlararo totuvlik, milliy g‘oya.*

ABSTRACT

Religious tolerance, inter-religious respect, and mutual respect have become vital conditions all over the world. The regenerating state implemented in our country will also help to further strengthen its international prestige, which is aimed at conducting policies in an international, beneficial and practical spirit. The main factor and reason for its rapid and deep penetration into our global life should be objectively recognized when talking about the movement - the development and level of any country today is a natural close and close relationship with its near and far neighbors, but also with other favorable and close ties on a global scale. the country is being left out of the process.

Key words: *Globalization, religious freedom, tolerance, tolerance, faith, conscience, situation, international, friendship, values, spirituality, interreligious harmony, national idea.*

АННОТАЦИЯ

Религиозная толерантность, межрелигиозное уважение и взаимное уважение стали жизненно важными условиями во всем мире. Возрождающееся государство, реализованное в нашей стране, также будет способствовать дальнейшему укреплению ее международного престижа, который направлен на проведение политики в международном, полезном и практическом духе. Говоря о движении, объективно следует признать главный фактор и причину его быстрого и глубокого проникновения в нашу глобальную жизнь - развитие и уровень любой страны сегодня - это естественная тесная и тесная связь со своими ближними и дальними соседями, но и с другие благоприятные и тесные связи в мировом масштабе остаются за рамками этого процесса.

Ключевые слова: *Глобализация, свобода вероисповедания, толерантность, толерантность, вера, совесть, ситуация, интернационализм, дружба, ценности, духовность, межрелигиозное согласие, национальная идея.*

KIRISH

Bugungi ma'naviy uyg'onishimizning manbai bo'lib xizmat qilayotgan o'zbekona bag'rikenglik, xalqimizga xos etnik, madaniy va diniy sabrbardoshlilikning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagoyalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini emin-erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir¹⁵⁸.

Umuman olganda, turli millatlardan tashkil topgan xalqimiz tarixning eng murakkab, og'ir damlarini yengib o'tar ekan, o'zaro hamjihatlik aloqalari mustahkamlanib borgan. Og'ir damlarda bir-biriga yordam bergan xalqlar, bir-birlarining e'tiqodlariga ham hurmat bilan yondashganlar.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabrbardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi... Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan"¹⁵⁹. Darhaqiqat, turli konfessiyalarga mansub

¹⁵⁸ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 61 б.

¹⁵⁹ Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [PF-50-46-son. 19.05.2017.]gi Farmoni

fuqarolarning O‘zbekiston zaminida birgalikda hamnafas va hamjihat bo‘lib yashashi diniy-ma’naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag‘rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishga asoslidir. Mamlakatimiz aholisining 80 foizini o‘zbek, 4,9 foizini tojik, 3,8 foizini rus, 3,6 foizini esa qozoq millatiga mansub kishilar tashkil etgan. Jami 130 dan ziyod millat va elat vakillari orasida islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik va buddaviylik dinlariga e‘tiqod qiluvchilar ham bor¹⁶⁰.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat ishlaridan ajratilgan holda bizning mustaqil, hur, ko‘pmillatli mamlakatimizda islom dini bilan barobar pravoslavlik, yahudiylik, baptistlik, adventistlik, katoliklik singari o‘ndan ortiq boshqa konfessiyalar mutlaqo erkin faoliyat ko‘rsatmoqda. Qaysi din yoki mazhabga mansubligidan qat’i nazar, bu konfessiyalarning vakillari o‘zaro yelkama-yelka turib, O‘zbekiston xalqlarining farovonligi va ravnaqi uchun astoydil mehnat qilmoqdalar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “Men sizlarning e‘tiboringizni bizning xalqimiz misolidagi noyob voqelikka, qimmatli tajribaga qaratmoqchi edim. YUNESKO yordamida bu ibratli tajribani butun dunyoga namoyish etsa arziydi. Bu turli dinga mansub xalqlarning ko‘p millatli davlat sharoitida ham tinchlik va totuvlikda yashay olishi tajribasidir...Ayni vaqtda insoniyat tarixi turli millat va diniy e‘tiqodlarga mansub odamlar yuz yillar mobaynida bir oila kabi inoqlikda yashaganlari borasidagi misollarni ham biladi. Ming yillar davomida turli-tuman din, madaniyat va turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarning birgalikda yashashi va hamkorligi markazi bo‘lgan O‘zbekiston buning inkor etib bo‘lmaydigan tasdig‘idir”¹⁶¹.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining yuqoridagi fikri global ahamiyatga molik bo‘lib, dunyo hamjamiyati tomonidan turli mintaqalardagi millatlararo, diniy va etnik mojarolarni bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nemis olimi T.Nagelning: “O‘zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag‘rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma’rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e‘tiqodi va dunyoqarashlaridan qat’i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning

¹⁶⁰ Каримов Н. Бебаҳо хазина // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент,2006 йил,10 ноябрь.

¹⁶¹ Каримов И.А. Аҳмад ал-Фарғоний ҳайкалининг очилишига бағишланган маросимда (24.10.1998 й.) сўзланган нутқдан// Ислom зиёси ўзбегим сиймосида. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 240.

teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi”¹⁶², – deb ta’kidlashi ham bunga isbot bo’la oladi.

O’rta Osiyo, xususan O’zbekiston hududi qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo’lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi bir-biriga o’xshash bo’lmagan bir necha xalqlar yashagan o’lkadir. O’zbekistonning jo’g’rofiy nuqtai nazardan muhim savdo yo’llari chorrahasida joylashgani, ko’plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani yerli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko’rsatgan va o’z navbatida bizning madaniyatimiz aks ta’sir o’tkazgani o’ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo’lib xizmat qilgan. Millati va diniy qarashidan qat’i nazar insonni ardoqlash va o’zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg’ular O’rta Osiyo xalqlarining yuksak sifatlaridir. Aynan shu omillar xalqimizning nafaqat mafnaviy-ma’rifiy, balki diniy bag’rikeng (tolerant)ligining ma’naviy asosini tashkil qiladi.

VII asrda Movarounnahrning arablar tomonidan zabt etilishi natijasida mintaqani islomlashtirish bu yerda asta - sekin, bir tekis bo’lmagan holda yuz berdi¹⁶³. Aholining bir qismi o’zlarining qadimgi dinlariga e’tiqod qilishda davom etdi. Shubhasiz, bu yerda islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishishi yuz berdi. Movarounnahr xalqlari islom diniga mahalliy diniy-axloq g’oyalari, huquqiy normalari va urf-odatlarini olib kirdilar. Movarounnahrda bu holat islomning o’ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo’ldi. O’sha vaqtga kelib mintaqada shakllanib ulgurgan qulay tolerantlik (bag’rikenglik) muhitida bu tasodifiy hodisa emas edi.

X asrda hozirgi O’zbekiston mintaqasida o’z bag’rikenglik xususiyati bilan ajralib turuvchi hanafiy mazhabi uzil-kesil qaror topdi.

Ilgarigi davrlarning eng yaxshi yutuqlarini o’zida mujassamlashtirgan O’zbekiston hududidagi madaniyat, o’z navbatida, nafaqat islom madaniyatining keyingi rivojiga, balki g’arb renessansiga, umumjahon miqyosidagi tolerantlik tamoyillari rivojiga ham sezilarli tafsir ko’rsatdi. Demak, yurtimiz xalqlarining madaniy yutuqlari nafaqat musulmon, balki jahon madaniyatining ajralmas qismidir. Ana shu davrda yaratilgan Imom al-Buxoriyning «al-Jomi’ as-sahih» hadislar to’plami (9 asr) zamondoshlari tomonidan an’anaviy sunniy to’plamlarning eng yaxshisi deb tan olingan va hozirda ham butun dunyo musulmonlarining eng asosiy kitoblaridan bo’lib qolmoqda. Bu kitobda diniy mutaassiblik, aqidaparastlik uchun asos bo’ladigan g’oyalar targ’ib qilinmaganligi ham yurtimiz tarixida ijtimoiy

¹⁶² Нагель Т. Лотин Европасида дунёвий-маърифий давлат ривожини // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат. – Т.: 2003. –Б. 25.

¹⁶³ Бартольд В.В. Сочинения. 6-т. - М.,1996.Б.105.

bag'rikenglik tamoyillari ustivor bo'lishiga xizmat qilgan. O'zbekistonda tarqalgan islom, xristianlik, ularning oqimlari, yahudiy dini hamda Bahoiy jamoasi va Xalqaro Krishnani anglash jamiyati, ularning mintaqada paydo bo'lish tarixi, hozirgi vaqtdagi faoliyatini o'rganmasdan turib mamlakatimizda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash to'g'risida fikr yuritish qiyin.

XX asr boshlariga kelib Turkistonda 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan, yoki 5340 masjidga - 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari 10,1 ming pravoslavga mansub bo'lgan «staroobyardchi»lar, 8,2 ming lyuterchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansublar tashkil etgan¹⁶⁴.

Yurtimiz xalqlarining tarixi bag'rikenglik, hamjihatlik va tinchliksevarlik namunalarini namoyish qilib, turli millat va din vakillari hamkorlik va osoyishtalikda yashaydigan o'lka ekanini ko'rsatadi. Diniy tolerantlik to'la ijtimoiy teng huquqlik, millati va kelib chiqishidan qat'i nazar inson erkinligiga nisbatan zo'rlikni qoralovchi qarashlar va munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tarixiy manbalarda o'tmishda O'zbekistonda diniy munosabatlar asosida biror marta ham nizo chiqmaganini qayd qilinadi. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin. Bunday do'stona munosabatlardan xulosa qilib aytganda musulmonlar va xristianlarning O'zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo'lib yashashi diniy-ma'naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigulikdir desak mubolog'a bo'lmaydi.

Mamlakatimiz tarixan ko'p millatli o'lka bo'lgani hamda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik tufayli bu zaminda turli-tuman din vakillari emin-erkin yashab kelmoqdalar. Diniy jamoalar, arboblarning jamiyat hayotida tobora faol ishtirok etib, mafnaviyatimiz, qadriyatlarimiz tiklanishida, o'zligimizni tanishda, eng asosiysi - mustaqilligimizning mustahkam va boqiy bo'lishida fidoyilik ko'rsatmoqdalar. Diniy mojarolar har qanday urush kabi nihoyatda xavflidir. Odamlar ertangi kunga ishonch hosil qilib yashashni xohlaydilar. Har bir xalqning bunday orzu-umidlari ro'yobga chiqishida boshqa omillar qatori din ham nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Din arboblardan xalqlar o'rtasida o'zaro totuvlik va o'zaro hurmat o'rnatilishida katta ma'suliyat talab etiladi¹⁶⁵.

¹⁶⁴ Нуритдинов Х. Ўзбекистондаги диний ташкилотлар: Маълумотнома. Т.1997. Б.9.

¹⁶⁵ O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xristianlikning uch yirik yo‘nalishi pravoslavlik, katoliklik, protestantliklar mavjuddir. Shuningdek, xristianlikda o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lgan arman-grigorian (apostol) cherkovi ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

1995 yilning oktyabrida bizning mintaqamizda birinchi bor Toshkent shahrida «Yagona osmon ostida birga yashaylik» shiori ostida o‘tkazilgan xalqaro musulmon - nasroniy konferensiyasi fikrimiz dalilidir. 1996 yilning noyabrida shu yerda Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasi 125-yilligi tantanalarining birinchi qismi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti taklifiga binoan tantanalarda O‘rta Osiyoga ilk bor tashrif buyurgan Moskva va Butun Rus Patriarxi Aleksey II ishtirok etdi. U, jumladan, shunday dedi: «O‘ylaymanki, O‘zbekistondagi davlat idoralari va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi xayrli hamkorlik va sermahsul aloqalar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining boshqa respublikalariga ham yaxshi namuna bo‘la oladi»¹⁶⁶. O‘sha yilning dekabr oyida esa poytaxtimizda Yevangel-lyuteran kirkasining 100-yilligi nishonlandi. Yaqin o‘tmishda bu kabi tadbirlarning o‘tkazilishi haqida o‘ylash ham mumkin emas edi. Qolaversa, AQSH senatori Xillari Klinton, AQSH sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya Qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ham yurtimizdagi diniy bag‘rikenglik yuqori ekanini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to‘siqlarsiz o‘z dinlariga e‘tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Respublikadagi diniy tashkilotlar mustaqil huquqiy shaxs sifatida yer maydoni va uy-joyiga ega bo‘lishlari, diniy adabiyotlarni nashr etishlari, diniy mutaxassislar tayyorlashlari, turli tadbirlar o‘tkazishlari, muqaddas joylarga ziyorat tashkil etishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega. Mustaqillik yillarida respublikada yuqorida qayd qilingan qator xalqaro diniy anjumanlar o‘tkazildi:

- Harakatlar strategiyasi (2017-2021): Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan ushbu strategiyaning beshinchi yo‘nalishi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, bu sohalarda izchil islohotlar amalga oshirildi;

- Bag‘rikenglik haftaligi: 2019-yildan boshlab har yili 16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan O‘zbekistonda "Bag‘rikenglik haftaligi" o‘tkazilib, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalar tashkil etilmoqda;

- "Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik" rezolyutsiyasi: 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan ushbu rezolyutsiya O‘zbekiston

¹⁶⁶ «Халқ сўзи» газетаси, 1996 йил 29 ноябрь, №243, Б -1.

tashabbusi bilan ishlab chiqilib, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilish va savodsizlikka barham berishga qaratilgan;

- "Buxoro deklaratsiyasi": 2019-yilda Buxoroda o‘tkazilgan "Deklaratsiyalar muloqoti" xalqaro forumida qabul qilingan ushbu deklaratsiya diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Shuningdek jahon ommasiga yaxshi tanish bo‘lgan yirik islom ulamolarining yubileylari uyushtirildi:

-1993 yilning sentyabr oyida Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi, 1994 yilning noyabr oyida Xoja Ahror Valiyning 590 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazildi;

-1998 yilning oktyabr oyida Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi va Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligi keng miqyosda nishonlandi;

-2000 yilda Imom Moturidiy 1130 yilligi va Burhoniddin Marg‘inoniyning 910 yilligi tadbirlari ko‘plab xorijiy mehmonlar bilan hamkorlikda o‘tkazildi;

-2001 yilda esa «Avesto»ning 2700 yilligini nishonlandi;

Mintaqaning butun tarixi mobaynida musulmon va nasroniy, shuningdek, boshqa din vakillari bilan ham hech qanday nizolar bo‘lmaganligi O‘zbekiston xalqi tinchliksevar, bag‘rikeng ekanligining yorqin dalilidir.

Davlatimizning diniy sohadagi maqsad va vazifalari, birinchi navbatda, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish, halqimiz farovonligini yuksaltirishga ko‘maklashishga qaratilgan. Bu faoliyat asosan O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va hukumat qarorlariga binoan amalga oshirilmoqda.

Yurtimiz asrlar mobaynida turli madaniyatlar, milliy an‘analar va diniy e‘tiqodlar uchrashgan tabarruk zamin bo‘lib kelgan. Milliy va diniy bag‘rikenglik xalqimiz madaniyati va mentalitetining ajralmas qismiga aylangan. Buni boshqa dinlar vakillari ham e‘tirof etishadi.

Xususan, yahudiylar jamoasining vakillaridan biri R.Beneman shu haqda to‘xtalar ekan, Buxoroda dastlabki sinagoga VIII asrdayoq qurilganini, boshqa din vakillari bilan bir qatorda o‘z dinlariga erkin e‘tiqod qilish uchun o‘sha paytdayoq yetarli shart–sharoit yaratib berilganini ta‘kidlab “O‘rta asr Yevropasi va Vizantiya imperiyasida quvg‘in qilingan yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan bir xil huquqqa ega edi”, – deb yozadi¹⁶⁷. XIX asrda Rossiyaning markaziy

¹⁶⁷ Бенеман Р. Деятельность религиозных организаций по укреплению межрелигиозного согласия. “Межрелигиозное согласие – важное условие углубления демократических процессов в странах Центральной Азии (на примере Республики Узбекистан)”. Материалы международной конференции. –Тошкент: 2002.–С. 125–126.

mintaqalaridan majburlab ko‘chirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganda musulmon aholi ularga har tomonlama yordam ko‘rsatgan. O‘sha davr voqealarini ko‘rgan isromonax Xariton “mahalliy aholi nochor ko‘chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo‘ldilar, busiz ularning ko‘pchiligi ochlik va muhtojlikdan o‘lib ketgan bo‘lar edilar¹⁶⁸”, – deb guvoxlik bergan.

Bunday misollarni tariximizning keyingi davrlaridan ham topish mumkin. Ma’lumki, bolsheviklarning ommaviy qatog‘onlaridan ruhoniylar ham chetda qolmadi. Xususan, arxiyepiskop Vladimir ta’kidicha, birgina Toshkent shahrida 3000dan ortiq ruhoniylar va monaxlar surgunda bo‘lishgan. Ularga yordam ko‘rsatganlari uchun o‘zlari ham qatog‘on qilinishini bilgan holda o‘zbeklar ularga iloji boricha ko‘maklashishga harakat qilishgan. O‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa ham qatog‘on qilinayotgan ruhoniylarni yashirishgan. Masalan, Toshkentdagi Svyato–Nikolay ayollar monastirining so‘nggi boshlig‘i, otishga hukm qilib qo‘yilgan Igumenya Lidiya (Nagornova)ning qamoqqa olinishidan oldin qochib ketishiga Jo‘ra ismli o‘zbek yigiti ko‘maklashgan¹⁶⁹.

Davlat tashkilotlari boshqa jamoat muassasalari singari, rasmiy diniy tashkilotlarni, ularning ichki, ya’ni bevosita ibodat bilan bog‘liq ishlariga aralashmagan holda konstitutsiyaviy huquqlarni ta’minlaydi. Ammo siyosiy tus olishi mumkin bo‘lgan hamda fuqarolar xavfsizligiga putur yetkazadigan ekstremistik va fundamentalistik oqimlar paydo bo‘lgan taqdirda ularni nazorat ostiga olib, tegishli choralar ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasiga sifatida o‘rnatilishi mumkin emas, deyilgan. Shunga binoan har bir diniy konfessiya o‘z mafkurasiga ega bo‘lishi mumkin. Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyatining ustivor yo‘nalishlari xalqimizda milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga safarbar etishiga qaratilgan¹⁷⁰.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari bir qator jihatlarga ega. Avvalo, davlat va dinning bir-biridan ajratilganligi, diniy tashkilotlarning ta’lim-tarbiyaning rasmiy tizimiga kirmasligi bilan belgilanadi. Lekin bu aslo davlatning dinga mutlaq befarqligini yoxud dinning ma’naviy hayotdan butunlay ajratib qo‘yilganligini anglatmaydi.

¹⁶⁸ Архиепископ Владимир. ...А друзей искать на Востоке. –Тошкент: 2000. –С. 45.

¹⁶⁹ Архиепископ Владимир. ...А друзей искать на Востоке. –Тошкент: 2000. –С. 44.

¹⁷⁰ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: Ўзбекистон, 2000.Б.43-47,60-61.

Davlat va din tashkilotlari jamiyat hayotining ikki uzviy aloqador sohasida faoliyat ko'rsatadilar, jamiyatdagi hamjihatlik, tinchlik, bag'rikenglikni ta'minlashga o'z vakolatlari va imkoniyatlari darajasida hissa qo'shadilar. Yosh avlodni vatanparvarlik, fidokorlik, xalqqa sodiqlik kabi ulug' tuyg'u va shuurlar asosida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband singari allomalar hayoti, ijodi, bebaho durdona asarlarini o'rganish, mavjud boy diniy, milliy va ma'naviy tadqiq va targ'ib etish, undan istiqlolni mustahkamlash yo'lida samarali foydalanish umummilliy vazifasiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'grisidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017.
2. Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” [PF–50-46-son. 19.05.2017.]gi Farmoni
3. N. Alimova, Sh. Asqarov, R. Haydarov, Sh. Amirjo'jaye'v “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”. 2014. – B. 222
4. Очилдиев А. Бағрикенглик — барқарорлик ва таракқиёт омили. Т.:Тошкент ислом университети, 2007. Б.121
5. Геогенезис: философия и методология геоэкономики и геофинансов. Научный альманах высоких гуманитарных технологий. \ Под. ред. Ивановой Г.М. М.: НАВИГУТ, 2003. С. 250
6. Практическая демография \ Под. ред. Л.Л.Рыбаковского. М.: ЦСП, 2005. С. 164.; Рыбаковский Л.Л. Миграция населения. Три стадии миграционного процесса. (Очерки теории и методов исследования). М.: УФН, 2000. С. 164.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. Б. 111.
8. By Rebecca S. May A Biblical Perspective on Tolerance. Distributed by www.relationalconcepts.org

KECHA VA KUNDUZ ASARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING STILISTIK XUSUSIYATLARINI KRISTOFOR FORT TARJIMASIDA AKS ETTISHI

ARIPOVA Kamola Yusupovna

International Islamic Academy of Uzbekistan

Senior teacher of the Department of Uzbek and Foreign Languages

+998 90 981-46-15

e-mail: kamolakind@mail.ru

ANNOTATSIYA

Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida turli stilistik vositalar, ibora(frazeologik birlik)lar, tasviriy vositalar va boshqa badiiy unsurlardan juda keng foydalanilgan bo'lib, ularni tarjima qilishda Kristofor Fort qanday tarjima usullaridan, strategiyalardan foydalanganini o'rganib chiqib, ba'zi o'rinlarda o'z tomonimizdan qilingan tarjima variantlarini ham taklif etilgan.

Kalit sozlar: *leksik-stilistik birliklar, konnotativ ma'nolar, estetik ifoda vositalari, frazeologik birliklarni, leksik-sintaktik birliklar.*

ABSTRACT

In the novel "Night and Day" by Abdulhamid Cholpon, various stylistic devices, phrases (phraseological units), visual devices and other artistic elements are widely used. In some places, we also offer translation options.

Key words: *lexical-stylistic units, connotative meanings, means of aesthetic expression, phraseological units, lexical-syntactic units.*

АННОТАЦИЯ

В романе Абдулхамида Чолпона «Ночь и день» широко используются различные стилистические приемы, словосочетания (фразеологические единицы), изобразительные приемы и другие художественные элементы. В некоторых местах мы также предлагаем варианты перевода.

Ключевые слова: *лексико-стилистические единицы, коннотативные значения, средства эстетической выразительности, фразеологизмы, лексико-синтаксические единицы.*

KIRISH

Tarjimashunoslikda eng murakkab va e'tibor talab qiluvchi tarjima turi bu badiiy asarlar tarjimasi hisoblanadi. Buning sababi sifatida badiiy adabiyotda keng qo'llanadigan leksik-stilistik birliklar, ular anglatadigan konnotativ ma'nolar, estetik ifoda vositalari, frazeologik birliklarni boshqa tilga o'girishda yuzaga keladigan

qiyinchiliklarni aytishimiz mumkin. Tildagi leksik-sintaktik birliklarning ko'chma ma'noda qo'llanishi har bir tilda o'ziga xos qonuniyat asosida ro'y beradi, shu tufayli ularning so'zma-so'z tarjimasi boshqa tillarda kerakli ma'noni anglatmasligi mumkin. Bunda tarjimonning oldida asliyat matnidagi frazeologik birikmalarning ma'nosini, ifoda xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjima matnida ularga ekvivalent bo'lgan boshqa frazeologik birliklarni topish, shakl hamda ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni saqlab qolish kabi bir qator qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Frazeologik birliklar birdan ortiq komponentni o'z ichiga olib, ularni umumlashtirgan holda yaxlit bir ma'no anglatuvchi o'zgarmas(turg'un) birikmalar hisoblanib, ular yana iboralar deb ham yuritiladi. Frazeologizm(frazeologik birikma)lar har bir tilda turlicha shaklga ega bo'lib, ularni tarjima qilishda, asosan, ularning ma'no jihatiga ustunlik beriladi. Masalan, ingliz tilida *break a leg* ("omad tilamoq"); *to cost an arm and a leg* ("nihoyatda qimmat turmoq"; "narxi juda baland bo'lmoq"), *to call a spade a spade* ("yoqimsiz bo'lishiga qaramay, haqiqatni gapirmoq"); *to rob Peter to pay Paul* ("bir insondan olingan qarzni to'lash uchun yana boshqa birovdan qarz olmoq") kabi frazeologik birikmalar aynan ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lib, boshqa tillarda mavjud bo'lmagan o'ziga xos birliklardir. Mashhur rus filolog-ensiklopedist olimi V.V.Vinogradov, frazeologizmlarni tadqiq etib, ularning uchta asosiy turini farqlab bergan:

1. Frazeologik chatishmalar. Bu turdagi frazeologizmlar tarkibida qatnashgan so'zlar o'zining leksik ma'nosini butunlay yo'qotgan bo'ladi. Undagi har bir so'z umumiy ko'chma ma'noga ega bo'lib, birikmada nazarda tutilayotgan yaxlit ma'noni ifodalab berish uchun birlashib ketgan bo'ladi, semantik tahlilda ham qismlarga ajralmaydi. Ingliz tilidagi *to bite the bullet* iborasi frazeologik chatishmaga yaxshi misol bo'la oladi. Ushbu ibora "qiyin yoki yoqimsiz narsani qilishga majbur bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi, unda qatnashgan so'zlar esa leksik jihatdan "o'qni tishlamoq" tarzida tarjima qilinadi.

2. Frazeologik birliklar. Bu guruhga kiruvchi iboralar ham to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topadi va yaxlit ma'no anglatadi. Frazeologik chatishmalardan ularni farqlab turuvchi narsa shuki, bunday iboralarning umumiy ma'nosi bilan uning tarkibidagi so'zlar o'rtasida ma'lum darajada bog'liqlik bor bo'ladi. Masalan, *to cost an arm and a leg* iborasi ingliz tilida "juda qimmat" degan ma'noda ishlatiladi. Ya'ni, biron narsa shu darajada qimmatki, uni sotib olish uchun inson o'zining oyoq va qo'llarini ham sotishi kerak, qabilidagi mubolag'ali tasvirdan ibora tarkibidagi so'zlarning umumiy mazmun bilan bog'liqligi kelib chiqadi.

3. Frazeologik birikmalar. Ushbu guruhga kiruvchi iboralar ko'chma ma'noga ega bo'lsa-da, ularning tarkibida qatnashgan so'zlar o'z lug'aviy ma'nosini butunlay

yo'qotmaydi. Bunday iboralarni sintaktik jihatdan tarkibiy qismlarga ajratib, unda qatnashgan so'zlarni turli sinonimlar bilan almashtirishimiz mumkin. . Ingliz tilidagi *go(get) off the topic* hamda *go(get) off the track* ("mavzuga aloqador bo'lmagan narsani gapirmoq", "asosiy fikrdan chetlashmoq") frazeologik birikmalarini bu guruhga kirgizish mumkin. Bundan tashqari, ingliz xalq maqollari, idiomalar, hikmatli so'zlari ham ushbu tasnifga kiruvchi stilistik vositalar sanaladi.

Frazeologik birliklar o'z tarkibida ko'plab til belgilari: grammatik, leksik, stilistik xususiyatlarni mujassam eta olishi bilan xarakterlidir. Bunday birliklarning ko'chma ma'noda kelayotganini ilg'ab olish, ularning badiiy-uslubiy jihatlarini chuqur tadqiq etib, tarjimada ularni aks ettira olish tarjimondan nihoyatda katta mahorat va ziyraklikni talab etadi. Ushbu tadqiqot ishimizda biz badiiy asarlarda qo'llangan uslubiy vositalarning tarjima matnida ifodalanishi masalalariga doir izlanishlar olib borishni maqsad qilgan edik. Shu sababli ilmiy ishimizning ushbu bo'limida iboralar, ya'ni frazeologik birliklarga oid uslubiy xususiyatlarni tarjima jarayonida aks ettirish muammolarini yoritishga harakat qildik.

Ibora(frazeologik birlik)larni chet tiliga o'g'irishda tarjimon oldida bir qator muammolar yuzaga keladi va tarjima jarayonining qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Bu kabi muammolarning paydo bo'lishiga turtki beruvchi bir qancha omillar mavjud bo'lib, quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- frazeologik birliklar, asosan, ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi va ularning barchasini umumlashtirgan holda yaxlit ko'chma ma'no anglatadi. Masalan: *podadan oldin chang chiqardi*;

- aksar holatlarda frazeologik birliklar tilning madaniy, milliy xususiyatini mujassamlashtirgan bo'ladi, masalan: *Qordan qochib, yomg'irga tutildimoq – Go out of the frying pan into the fire*;

- ba'zi bir frazeologik birliklar bir paytning o'zida ham o'z ma'nosini saqlab qoladi, ham majoziy ma'no ifodalaydi, masalan: *ko'zi qinidan chiqib ketmoq* (mubolag'a).

Yuqorida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra, shuningdek, yana bir nechta holatlarda frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima vilish qiyinlashadi. Bunday vaziyatda asarning sofligini saqlab qolish, to'g'ri tarjima usullarini qo'llay olish uchun ning tarjimonda lingvistik va ekstralingvistik bilimlar yetarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim.

Frazeologik birliklarni ingliz hamda o'zbek tillari o'rtasida o'zaro tarjima qilish borasida E.Aznaurova boshchiligidagi tarjimon-olimlar guruhi bir qancha ishlarni amalga oshirganlar. Ular ingliz hamda o'zbek tillarida qo'llanadigan frazeologik birliklarni tadqiq etib, ularni turli jihatlariga ko'ra ma'lum guruhlariga tasniflashni

taklif etadilar. Ularning fikriga ko‘ra, uchta holat frazeologik birliklarni tasniflashimizga asos bo‘ladi. Ular quyidagilar: frazeologik birliklarning to‘liq moslashuvi, qisman moslashuvi yoki moslashuvning umuman yo‘qligi. Dastlabki holat – to‘liq moslashuvga ko‘ra, frazeologik birliklar shakl jihatdan ham, ma’no jihatdan ham yaxlitlikka ega bo‘ladi, masalan: *hard to swallow – hazm qilish qiyin*. Bir tildagi frazeologik birliklarni ikkinchi tilga qisman moslashtirish deganda bu birliklar o‘rtasidagi leksik, grammatik yoki leksik-grammatik jihatdan moslashuv tushuniladi. Ko‘chma ma’no ifodalash xususiyati ularning barchasi uchun umumiy bo‘lsa-da, bunday birliklarga oid so‘zlarning sintaktik tuzilishi, leksik-morfologik birliklarning tarkibi turlicha bo‘ladi. Masalan: *at the drop of a hat – ko‘z ochib yumguncha*. Frazeologik birliklarning har bir tilda turlicha shakllanishi, ularning bir-biriga aynan mos kelmasligining asosiy sababi sifatida milliy, madaniy, tarixiy omillarning frazeologizmlarga ko‘rsatgan ta’siri ko‘rsatiladi. Aynan shu sababli bir tilda yaratilgan ibora - frazeologik birlik boshqa bir tilda biz istayotgan ma’noni anglatmasligi mumkin. Tillardagi milliy-madaniy farqlar tufayli yuzaga keluvchi bunday holatlarda frazeologik birliklarni to‘g‘ri tarjima qila olish uchun mualliflar bir necha tarjima usullarini ishlab chiqqanlar:

- **so‘zma-so‘z tarjima.** Bu usulda frazeologik birlikning tarkibidagi har bir so‘zni tarjima qilish tushuniladi: *a drop in the ocean – dengizdan bir tomchi*.

- **analog tarjima.** Bunda bir tildagi iboraning o‘rnida boshqa tildagi shu ma’noda ishlatiluvchi iborani qo‘llash nazarda tutiladi: *to call a spade a spade – oqni oq, qorani qora demoq*

- **tasviriy tarjima.** Bu holatda bir tilda ko‘chma ma’no anglatuvchi frazeologik birlikning boshqa tilda ekvivalenti bo‘lmaydi. Masalan: *To have Van Gogh's ear for music – “qo‘shiq aytishda qobiliyatsiz bo‘lmoq”, “ohanglarni ajrata olmaslik”*.

Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani o‘zbek xalqining milliy madaniyatini, tarixi hamda qadriyatlarini aks ettiribgina qolmay, o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini, undagi rang-barang uslubiy vositalar, frazeologik birliklarni ham yorqin tarzda aks ettirganligi tufayli o‘zbek adabiyotida alohida o‘ringa ega asar hisoblanadi.

Asliyat matni: *Sanamasdan sakkiz demay turing hali! Otam osonlik bilan ma’qul gapga ko‘nadigan odam emas. Jim turib qolishini ko‘ring: hali ham churq etmaydi.*

Xristofor Fort tarjimasini: *“Don’t count your chickens before they’re hatched! My father is not a person to so easily agree to anything. Look at how silent he is: he still hasn’t said a word”*.

Ushbu parchadagi “*Sanamasdan sakkiz demay turing hali*” jumlasini frazeologik birlik orqali ifodalaniib, “shosholib, xulosa chiqarmay turmoq” mazmunida qo‘llanmoqda. “*Sanamay sakkiz demoq*” o‘zbek tilida keng qo‘llanuvchi ibora bo‘lib, ingliz tilida bu birikmaga so‘zma-so‘z mos keluvchi ibora mavjud emas. Shu sababli tarjima jarayonida uni to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa tilga olib o‘tish kerakli natijani bermaydi.

Xristofor Fort tarjimasida esa ushbu birikma “*“Don’t count your chickens before they’re hatched!?” – “Jo‘jalar tuxumdan chiqquncha ularni sanamay turing!?”*” tarzida berilgan. Tarjimon bu yerda asliyat matnidagi tarjima matniga frazeologik birliklarni olib o‘tishda analog tarjima usulidan foydalangan. O‘zbek tilidagi “*Sanamay sakkiz demoq*” iborasining ma‘nosi saqlab qolinib, unga mos keluvchi boshqa ibora ingliz tilidagi matnda qo‘llangan.

Asliyat matni: *Maslahat natijasida qaynona bilan kelin uyda qoladigan bo‘lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko‘z-quloq qilib berilgan edi.*

Xristofor Fort tarjimasi: *Their conversation resulted in both women staying home. They sent Savribibi, an old woman who had been living near them for about two or three months, in their place, to be their eyes and ears.*

Ushbu parchada *ko‘z-quloq qilib berilgan* birikmasi frazeologik birlik bo‘lib, sinekdoxa usulida ma‘no ko‘chishiga asoslangan. O‘zbek tilida *ko‘z-quloq bo‘lmoq* iborasi aslida *diqqat bilan kuzatmoq, nazorat qilmoq, qo‘riqlamoq* ma‘nolarini ifodalashda qo‘llaniladi. Bu yerda ko‘z hamda quloq so‘zlari orqali insonning butun diqqat-e‘tibori nazarda tutilmoqda. Bu yerda tarjimon asliyat matnidagi frazeologik birlikni so‘zma-so‘z tarjima qilgan. Shuningdek, asliyat matnidagi bir nechta so‘zlar tarjima matnida tushirib qoldirilgan. Jumladan, asarda Savribibi obrazining boshqa qahramonlar bilan qarindosh ekanligi haqida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa-da, ingliz tilidagi matnda bu ma‘lumotni ko‘rmaymiz: *ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir – Savribibi, an old woman who had been living near them for about two or three months.* Bizningcha, tarjimada bu so‘zni kiritib ketish quyidagicha bo‘lishi mumkin edi: *their relative Savribibi, an old woman who had been living near them for about two or three months, in their place, to be their eyes and ears.* Albatta, X.Fort tomonidan qilingan tarjimada qarindoshlari so‘zining tushirib qoldirilishi asarning asl g‘oyasiga ham, kontekst mazmuniga ham jiddiy zarar bermagan. Biroq, asarning asliyatini saqlab qolish uchun bor imkoniyatdan foydalanib, harakat qilish tarjimonning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bizningcha, Xristofor Fort ushbu so‘zni tushirib qoldirishda Savribibi

qahramonining asarda muhim o‘rin tutmaganligini ham sabab qilib olgan bo‘lishi mumkin.

Asliyat matni: *Kishi degan o‘z tomiriga bolta chopadimi? — dedi . — Kechasi bilan uxlayolmasdan, shuni o‘ylab chiqdim ...*

Xristofor Fort tarjimasida: *“Can a person really take an axe to the branch on which she’s sitting like that?” she said. “I couldn’t sleep last night and left the house this morning thinking about you.”*

Yuqoridagi parchada keltirilgan *Kishi degan o‘z tomiriga bolta chopadimi* gapi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, frazeologik birlik (ibora) hisoblanadi. *O‘z tomiriga bolta chopmoq* iborasi Shavkat Rahmatullaev boshchiligida tuzilgan “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” da “yo‘q qilib yuboradigan zarba bermoq”¹⁷¹ tarzida izohlangan. Biron shaxs tomonidan uning o‘ziga ko‘proq zarar keltiradigan ish-harakat bajarilsa, ushbu ibora qo‘llaniladi.

Xristofor Fort tarjimasida ushbu birikma *“take an axe to the branch on which she’s sitting like that?”* deb tarjima kilgan. Tarjimonlar ushbu birikmani ingliz tiliga o‘girishda to‘g‘ri usulni qo‘llaganlar. Chunki ingliz tilida *“take an axe to the branch on which she’s sitting - to do something unwise and cause harm to yourself or your situation* birikmasi mavjud bulib, aynan o‘zbek tilidagi *o‘z tomiriga bolta chopmoq* frazeologik birligiga ekvivalent bo‘la oladi. Demak, tarjimon ushbu matnni analog tarjimadan to‘g‘ri foydalangan holda ingliz tiliga o‘giran.

Asliyat matni: *Xudodan tilab turing, «noumid shayton», degan gap bor...*

Xristofor Fort tarjimasida: *Pray to God because you know they say, ‘He who has no hope is lost.’”*

Ushbu matnda *noumid shayton* frazeologik birligi o‘zbek tiliga xos til ifodasi bo‘lib, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da ungi berilgan ta’rif quyidagicha: *“har qanday sharoitda ham umidni uzmaslik kerak.* Ushbu ibora bilan bir xil ma’noda qo‘llanuvchi maqol ingliz tilida mavjud bo‘lib, Xristofor Fort undan tarjimada foydalangan. *“He who has no hope is lost”* ingliz tilida maqol ko‘rinishidagi ifoda hisoblanib, u ma’noviy jihatdan asliyat matnida qo‘llangan “noumid shayton” frazeologik birligiga ekvivalent bo‘la oladi. Natijada, analog tarjima usuli badiiy matnning uslubiy jihatlarini tarjimada ham aks ettirishga yo‘l ochgan.

Asliyat matni: *Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no‘q talab oldi .*

... To‘ra bu kulishni Miryoqubning xursand va rozi ekaniga yo‘ydi va ko‘ngli o‘rniga tushdi.

¹⁷¹ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I. O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 198-bet.

Xristofor Fort tarjimasida: *Miryoqub smiled, revealing his irritation and injured pride, while the engineer, a moment ago smiling, suddenly scowled. ... The nobleman took Miryoqub's smile as a sign that he was satisfied and had calmed down.*

Ushbu parchada bir nechta stilistik vositalar mavjud. Ulardan birinchisi, “g‘ururining kaltaklanishi” birikmasi bo‘lib, unda metafora usulida ma’no ko‘chishi yuz bergan. “G‘ururi toptalmoq” ma’nosini anglatuvchi ushbu metaforik birlik Xristofor Fort tarjimasida *injured pride* tarzida ifodalangan. *Burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi* gapida esa *no‘qtalab olmoq* birikmasi insonning yuziga nisbatan ishlatilganligi metaforik ko‘chimga asos bo‘lgan. Tarjima matnida esa ushbu ibora *a moment ago smiling, suddenly scowled* tarzida keltirilgan. Bu yerda avvalgi boblarda tilga olingan demetaforizatsiya jarayoni yuz berib, O‘zbek tilidagi ko‘chma ma’noli birlik ingliz tilida oddiy so‘zlarga almashtirilgan. Shuningdek, asliyat matnidagi “to‘ra” so‘zining tarjima matnida qanday ifoda etilganiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu atama gapda “*nobleman*” so‘zi orqali ifodalangan. Bu orqali ingliz kitobxoniga kerakli ma’no yetarli darajada yetkazib berilgan, deb o‘ylaymiz. Biroq, butun asar davomida “to‘ra” atamasi qatnashgan o‘rinlarga diqqat qilsak, bu so‘zning ba’zan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima matniga olib o‘tilganiga guvoh bshlamiz. Bu tufayli romanning ravon o‘qilishi birmuncha qiyinlashadi. To‘g‘ri, ingliz tiliga bu so‘zni “*to‘ra*” shaklida to‘g‘ridan to‘g‘ri olib o‘tish ham, uni “*nobleman*” tarzida tarjima qilish ham tarjimonning xohishiga bog‘liq bo‘lib, asar ma’nosini ochib bera oladi. Bu yerda kuzatilayotgan holat esa, badiiy matnda ularning har ikkalasini ham qo‘llash bilan bog‘liq. Ya’ni, tarjima asarni o‘qiyotgan kitobxon kontekstning umumiy qiyofasida ikki xil shaklda bo‘lgan bu so‘zning aynan bir ma’no ifodalashini bilmasligi mumkin. Demak, Tarjimon bu holatda ikki usuldan birini tanlashi, ya’ni “to‘ra” so‘zini tarjimada aynan qo‘llab, uning izohini keltirib o‘tishi, yoki bu so‘zning ingliz tilidagi ekvivalentini qabul qilishi kerak.

Asliyat matni: — *Ahmoq! — dedi u. — Ularing allaqaylardan daromad qilib kelib, zo‘rg‘a ipning uchini chiqardi-yu, men «yo‘q!» deb tomdan tarasha tushganday javob beramanmi?*¹⁷²

Xristofor Fort tarjimasida: *“Idiot!” he said. “They only hinted at it, just barely tossing a thread out to start a deal, and I am supposed to say ‘no’ suddenly like a chip falling from the roof?”*¹⁷³

Mazkur matnda *zo‘rg‘a ipning uchini chiqardi-yu*, gapi frazeologik birlik hisoblanib, ifodalanayotgan fikrning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. *Uchini*

¹⁷² A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz. -Тошкент: “Sharq”, 2000. - 76. 78 A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz. -Тошкент: “Sharq”, 2000. - 76 6.

¹⁷³ Christopher Fort, *Night and Day*. –Central Asian Literatures in Translation. Boston, 2020. - 104 p

chiqarmoq frazeologik birligi lug‘atda¹⁷⁴ “biron fikrni boshlab qo‘ymoq”, “noma’lum fikrning bir qisminigina aytmoq” ma’nolarida kelgan. Bu ibora ingliz tiliga tarjima matnida ham o‘z shaklini yo‘qotmagan holda ifodalangan. Matndagi ikkinchi ibora *tomdan tarasha tushganday* frazeologik birligi bo‘lib, biror voqeaning kutilmaganda sodir bo‘lishi, so‘zlovchini qo‘rqitib yuborishi kabi holatlarni ifodalashda ishlatiladi. Mazkur iborani X.Fort tarjima matniga to‘g‘ridan to‘g‘ri olib o‘tadi: *like a chip falling from the roof*. Biroq bu orqali iboraning ma’nosi tarjima matnida to‘liq ifodalanmay qolgan. Bu iboraga ma’nosi aynan mos keladigan ekvivalent ham ingliz tilida mavjud emas. Bu holatda, bizningcha, frazeologik iboralarni tarjima qilishning uchinchi usuli, ya’ni tasviriy tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu holatda birikmaning uslubiy-frazeologik ma’nosi yo‘qolsa-da, uning ma’nosi saqlab qolinadi. Bu esa tarjima asarning o‘qishli bo‘lishi uchun muhim omildir.

Asliyat matni: «*To‘rt oy endi bo‘ldi-ya!..» Og‘zingizning bir chekasidan chiqadi!*. *Yo‘q, aravakashligi qursin!*¹⁷⁵

Xristofor Fort tarjimasida: *‘It’s only been four months’. That’s easy to say! No, damn that cart.*¹⁷⁶

Ushbu gapda qo‘llanilgan *og‘zingizning bir chekasidan chiqadi* gapi frazeologik birlik bo‘lib, bu iboradan biror narsani aytish, u haqida gapirish juda oson ekanligi tushuniladi.

Xristofor Fort tarjimasida ushbu gap so‘zma-so‘z tarzda ingliz tiliga o‘girilgan. *That’s easy to say!* – “bu narsa aytishga oson” degan gapni iboraning o‘rnida qo‘llash orqali adib tasviriy tarjima usulini qo‘llagan va matnning ma’no xususiyatini saqlab qolishga ko‘proq urg‘u bergan.

Asliyat matni: *Ona bo‘sh kelmadi:*

— *Bermadi, deb yotaverasizmi? — dedi yana . — «Olma pish, og‘zimga tush!» bilan bo‘ladimi? Axtargan topadi!*¹⁷⁷

Xristofor Fort tarjimasida: *“You’ll just sit there and say, “God’s will”, then? God’s favored can just say, “Ripen, apple, and come to my mouth”, while the rest of us have to suffer?”*¹⁷⁸

¹⁷⁴ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn]: lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I. O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 528-bet.

¹⁷⁵ A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz. -Тошкент: “Sharq”, 2000. - 7 б. 78 A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz. -Тошкент: “Sharq”, 2000. - 79 б.

¹⁷⁶ Christopher Fort, Night and Day. –Central Asian Literatures in Translation. Boston, 2020. -106 p

¹⁷⁷ A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz. -Тошкент: “Sharq”, 2000. - 7 б. 78 A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz. -Тошкент: “Sharq”, 2000. - 78 б.

¹⁷⁸ Christopher Fort, Night and Day. –Central Asian Literatures in Translation. Boston, 2020. - 107 p

Yuqoridagi parchada «*Olma pish, og‘zimga tush!*» frazeologik birligi qo‘llangan bo‘lib, bu ibora o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi. Sh.Rahmatullaevning lug‘atida¹⁷⁹ keltirilishicha, bu ibora “biron ishning mehnat qilmay, mashaqqatsiz holda ro‘yobga chiqishini kutmoq” ma’noda ishlatiladi.

Xristofor Fort tarjimasida bu ibora “*Ripen, apple, and come to my mouth*” tarzida ifodalangan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima usulidan foydalanilgan. Bizning fikrimizcha, bu yerda so‘zma-so‘z tarjima usuli yetarli darajada samarali emas, negaki ingliz tili va o‘zbek tillarining milliy-madaniy xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Ya’ni, biron ishning oson bajarilishi o‘zbek tilida olma mevasiga erishish orqali tasvirlanayotgan bo‘lsa, boshqa tillarda bunday holat kuzatilmasligi mumkin. Bir tildagi iboraning ikkinchi tilda ekvivalenti bo‘lmagan hollarda uning ma’nosini yetkazib berish uchun tarjimon tasviriy tarjimini qo‘llashi ma’qulroq hisoblanadi. Negaki, tarjimon oldida agar ikkisidan faqat birini saqlab qolish tanlovi bo‘lsa, matnning badiiy-stilistik bo‘yoqdorligidan ko‘ra uning ma’noviy jihatini ifodalash muhimroq hisoblanadi. Biroq yuqoridagi parchada biz har ikkala usulga ham ehtiyoj yo‘q deb hisoblaymiz va matnda analog tarjimini qo‘llashni taklif etamiz. Chunki tarjimon, odatda, iboraning tarjimadagi ekvivalentini topa olmagan taqdirda uni so‘zma-so‘z yoki ma’noviy jihatdan tasvirlash usulini tanlaydi. Qidiruvlarimiz natijasiga ko‘ra, yuqoridagi «*Olma pish, og‘zimga tush!*» bilan bo‘ladimi gapini ingliz tilida ham frazeologik birliklarni qo‘llagan holda ifodalash imkoni mavjud. Bu iboraning ekvivalenti, bizningcha, shunday bo‘ladi: *While all of us have to suffer, do you want to be handed everything on a silver platter?*

XULOSA

Demak, metafora, metonimiya, mubolag‘a stilistik vositalarini hamda ularga asoslangan frazeologik birliklarni boshqa tillarga o‘g‘irishda, birinchidan, qo‘llanilayotgan iboraning milliy-madaniy xususiyatlarini, kelib chiqish sabablarini yaxshi o‘rganish lozim. Ikkinchidan, frazeologik birlikning aynan qanday ko‘chma ma’no anglatishi haqida ham yetarli ma’lumotga ega bo‘lish tarjimon oldiga qo‘yiluvchi talablardan hisoblanadi. Badiiy asarning uslubiy jihatini ham, ma’noviy xususiyatlarini ham tarjima matniga barobar olib o‘tish uchun analog tarjima usuli eng maqbul yo‘l hisoblanadi. Analog tarjima turi, asosan, asliyat matnidagi frazeologik birlikning dominant ma’nosini topish va unga ekvivalent bo‘lgan iboralar ro‘yxatini tarjima tilidan qidirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Muallif tomonidan

¹⁷⁹ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I. O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 338-bet.

ko‘zda tutilgan ma‘noni to‘liq ifodalay oluvchi analog iborani tanlagach, tarjimon uni asarga kiritadi.

REFERENCES

1. Averintsev S.S. Philology. // M.: Russian language. Encyclopedia, 1979.
2. Арипова, К. Ю. (2021). The distinctive features of translation of the novel “night and day”. *Международный журнал искусство слова*, 4(1-2).
3. Alekseytseva T.A. Explication as a way to overcome interlingual and intercultural asymmetries in translation. - abstract, dissertation... candidate of philol.sciences, 02/10/20, St. Petersburg State University - St. Petersburg, 2009.
4. Alisova T.B., Repina T.A., Tariverdieva M.A. Introduction to Romance Philology. - M.: Higher School, 2007. - 453 p.
5. English-Russian and Russian-English dictionary (short). Ed. O. S. Akhmanova and E. A. M. Wilson. M.: Russian language, 1990. - 1056 p.
6. Anichkov I.E. Idiomatics among linguistic sciences. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. P.101 - 145.
7. Antipov G.A., Donskikh O.A., Markovina I.Yu., Sorokin Yu.A. Text as a cultural phenomenon. - Novosibirsk: Science; Sib. department, 1989. - 196 p.
8. Apresyan Yu.D. About the works of I.E. Anichkov on idiomatics. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. pp. 70 - 87.
9. Arakin V.D. Comparative typology of English and Russian languages. -L.: “Enlightenment”, 1979. - 259 p.
10. Arutyunova N.D. Problems of morphology and word formation (based on the Spanish language). - M.: Languages of Slavic cultures, 2007. -288 p.

KO'HITANG TOG' OLDI QISHLOQLARIDA UY-JOYLAR QURILISHINING SHAKLLANISHI VA TURLARI

XURRAMOV Zahiriddin Zokir o'g'li

Termiz davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Surxon vohasining ajoyib maskanlaridan biri bo'lmish Ko'hitang tog' oldi qishloqlari va u yerdagi uy-joylarning qurilish usullari, uy-joylarning turlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Kapa, sariq tol, Chang'arog', o'tov, «kapa cho'p», xaprmach, bo'g'jama, qora uy.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассказывается о горных селениях Кохитанг, одном из чудесных мест Сурханского оазиса, способах строительства там домов и типах домов.

Ключевые слова: *Капа, желтая ива, Чангарог, капа палка, хапрмач, вугчама, черный дом.*

ABSTRACT

The article talks about the mountain villages of Kohitang, one of the wonderful places of the Surkhan oasis, the construction methods of the houses there, and the types of houses.

Keywords: *Shack, yellow osier, Chang'arog', paddock, «kapa cho'p», xaprmach, bo'g'jama, black home.*

KIRISH

O'zbekiston hududida uy-joylar qurilishi bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, xususan, «Jarqo'ton shahar qurilishi yodgorligi bundan uch yarim ming yil muqaddam (hozirgi Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududi) Sherobod daryosining ko'hna o'zani Bo'stonsoy yoqasida joylashgan, maydoni taxminan 100 gektar bo'lgan. Shahar ikki qismdan iborat, ya'ni «Arki a'lo» va «Shahriston» dan iborat. Arki-a'loda shahar xokimining qarorgohi-hukumdon saroyi joylashib, Arki-a'loning umumiy maydoni 3 gektarni tashkil etgan, hamda uning atrofi qalin mudofaa devori bilan o'rab olingan «Arki-a'loga» tutashgan mudofaa devori sharqiy va janubiy qismdan iborat bo'lgan. Bu qadimgi shaharning asosiy aholisi-dehqonlar va hunarmandlar bo'lib ular yashagan joy «shahriston» deb atalgan.

Shu jihatdan ham uy-joylarning qurilishi, tuzilishi va ichki jihozlarida xalqlarning xo'jaligi, moddiy madaniyati hamda xarakterining aks etishi uning o'rganishning ahamiyatini yanada oshiradi. Ajdodlarimiz imorat qurishda uning sifatiga alohida e'tibor berganlar. Tarixga nazar solsak Ko'hitang tog' oldi

qishloqlaridagi masjid, madrasa, xonaqolar o'ta mustahkam xumdonda pishirilgan g'ishtlardan bunyod etilgan. Chupqori usuldagi uylar tumani xalqining azaliy udumi bilan bog'liq. Chunki u zilzilaga bardoshliligi, qishda issiq, yozda salqin bo'lishi bilan ajralib turadi. G'isht qo'yish uchun faqat ariq, quduq suvidan ishlatilib, sho'r suvdan aslo foydalanilmagan. G'isht quyosh issig'ida qurigandan so'ng, xumdonda pishirilgan. O'tin sifatida zardoli, saksovul, sho'ra poyasidan foydalanilgan, chunki ular yonganda yuqori haroratga ega bo'ladi, g'isht sovugandan so'ng ma'lum vaqt suvga tashlab qo'yilib, uning pishiqligi, yaroqliligi chidamliligi aniqlangan. Agar g'ishtda kemtik, mo'rtlik alomatlari ko'rinsa imoratga ishlatilmagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'hitang tog' oldi qishloqlarining yarmi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi chorvador aholisining asosiy turar joylari mavsumiy va vaqtinchalik bo'lib, ularni lochiq, kapa, chum, chayla, chodir, yer tom, to'la, cho'pon to'la, bog' tom, o'tov, qora uy, oq o'tov, qizil o'tov kabilar tashkil etgan. Ko'hitang tog' oldi qishloqlari aholisi mavsumiy va vaqtinchalik turar joylar ichidan eng ko'p tarqalgani qora uy (o'tov) bo'lib, uning vujudga kelish tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi V asrda tarix otasi Gerodot o'zining «Tarix» nomli asarida argiplarni mavsumiy va vaqtinchalik turar joy sifatida qurgan uy joy uchun qurilish anjomini tabiiy o'sib turgan daraxtlardan foydalanganliklari xaqida to'xtalib: «Har bir oila daraxt tagida yashaydi. Qishda daraxt qalin oq qigiz bilan yopiladi, yozda esa kigiz olib tashlanadi,»-deb qayd etgan. Ko'hitang tog' oldi qishloqlari aholisining o'tovlari esa o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ko'hitang tog' oldi qishloqlari aholisining qora uy (o'tov)lari ya'ni yurtlari ikki qismdan; a) tol (sariq tol) novdalaridan qilinib, bu uyning suyagi deb ataluvchi keraga, uvuq va chang'aroqdan; b) uyni ustini yopuvchi jihozlar-to'rliq, uzuk va tuynukdan tashkil topgan. Uyning panjara qismi keraga bo'lib, keragalar 48 boshdan 74 boshgacha bo'ladi. Asosan bitta qora uyda to'rtta keraga bo'lib, bu har bir keraga uyning to'rtidan bir qismini egallagan, hamda bu qanot deb nomlangan. Qanotlarning birlashgan joyini jafsar deb atashgan. Jafsarlarga balandligi olti yarim, sakkiz yarim qarich uzunlikdagi jafsar qoziqlar qoqilgan va keragalar jafsar ip (bov)lar bilan jafsar qoziqlarga maxkamlangan. To'rtala keraga birlashtirilib, qora uyning panjara qismini tashkil etgan. Keragalardan xosil bo'lgan panjara kataklari ko'zanak deb atalgan. Ko'zanaklarning keng ya'ni yel ko'zanak hamda tor ko'zanak kabi turlari bo'lib, Ko'hitang tog' oldi qishloqlarining o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi asosan tor ko'zanak uylar qurishgan. Ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholisi esa yel (keng) ko'zanakli uylar qurishgan. Chunki, yel (keng) ko'zanakli uylar

nisbatan yengil va ixcham bo‘lib, ko‘chish chog‘ida ulov (tuya, ot yoki eshak)ga ixchamgina joy bo‘lgan. Har bir qanotda 12 tadan chinqoq ya‘ni quloq bo‘lsa, qora uy 48 boshli, 16 tadan chinqoq bo‘lsa 64 boshli qora uy deb atalgan. Keraga panjaralari keraga ko‘ki ya‘ni xo‘kiz yoki tuya terisidan mahsus tayyorlangan tasmalar bilan bog‘langan. Shuningdek, keraga ko‘ki qora uyning oshiq- moshig‘i sifatida ham ishlatilgan. Xo‘jamulki, Shaldiraq, Obodon qishloqlarida keragalar yoyilganda 7-8 qarich balandligidagi panjaralarni tashkil etsa, Zarabog‘, Maydon, Poshxo‘rd, Qorabog‘, Sherjon, Vandob, Xatak, Bedak, Oqtosh, G‘urjak, Kampirtepa, Xo‘janqo qishloqlarida esa 6 qarichni tashkil etgan. Yig‘ishtirib olinganda balandligi 12-14 qarichni, eni esa 3-4 qarichni hosil qilgan. Qora uyning eshigi «turdi» ya‘ni ustki, pastki hamda yon bo‘sag‘alardan iborat bo‘lib, keraganing old tomoni uy eshigining yon bo‘sag‘a ya‘ni yon ustuniga berkitilgan. Yon bo‘sag‘alarning ikki uchi turdi (tepa) va pastki bo‘sag‘alarning chuqurchasiga kiydirilgan. Turdi (tepa bo‘sag‘a)ning ustki qismida beshta yetim uvuq uchun chuqurchalar qilingan. Ikki yon bo‘sag‘aning keragalarga kelib birlashtiriladigan joyi uzunasiga o‘yib, ariqcha shaklida qazilgan va keragalar shu chuqurchaga joylashtirilgan.

Besh-olti qarich balandlikda qamishdan chiy to‘qilib, keragalarning tashqi qismiga tutilgan. Bunda ikki yoki uchta chiy yetarli bo‘lgan. Chiy to‘qishda esa qamish po‘stlog‘idan ajratilib, besh yoki olti qarich uzunlikda qirqilgan hamda chiy to‘qish dastgohida echki qilidan yigirilgan shardozi (ip)lar bilan to‘qib chiqilgan. Qora uyning keraga va bo‘sag‘alari o‘rnatilib bo‘lgandan keyin, keraganing qismidan eni 1-1,5 qarich bo‘lgan rangga bo‘yalgan jundan to‘qildan bog‘ish hamda o‘rta qismidan eni yarim qarichdan uzunroq bo‘lgan rangga bo‘yalgan jundan to‘qilgan jafsar bo‘y ya‘ni ayil aylantirilgan va ikki uchi yon bo‘sag‘alariga tortib bog‘langan. Bular keragalarning o‘tirib qolmasligi, qolaversa jafsarlarning ochilib ketmasligi hamda keragalarning orqaga qarab qiyshaymasligi uchun ko‘rilgan choradir.

Ko‘hitang tog‘ oldi qishloqlarida qora uyning uvuqlari tol novdasidan yasilib, Zarabog‘, Maydon, Poshxo‘rd, Qorabog‘, Sherjon, Vandob, Xatak, Bedak, Oqtosh, G‘urjak, Kampirtepa, Xo‘janqo qishloqlarida sakkiz-to‘qqiz qarich uzunlikni tashkil etib, diametri qo‘l o‘rta barmog‘ining bir yarim ikki bo‘g‘in uzunligini tashkil etgan. Uvuqning egilgan joyi keraga chinqoq (quloq)lariga mahkamlangan. Uvuqlarning soni uyning necha boshli bo‘lishligiga bog‘liq bo‘lib, qora uy 52 boshli bo‘lsa, uvuq 52 ta, yoki 74 boshli bo‘lsa uvuq ham 74 ta bo‘lgan. Albatta yetim uvuqlar bunga kirmagan. Yetim uvuq deb ustki bo‘sag‘aga ya‘ni eshik ustiga o‘rnatiladigan beshta uvuqqa aytilgan. Chunki yetim uvuqlarning egilgan joyi qisqaroq bo‘lib, bir qarichdan oshmagan. Uchi esa chang‘aroq teshiklarga kiritilgan. Qora uyning chang‘arog‘i toldan doira shaklida egib qilinib, uning aylanasi 8-9 qarichni, qalinligi esa bir

qarichni tashkil etgan. Bu qasqoq deb atalgan. Chang‘arog‘ qasqog‘ining ustki qismiga toldan tayyorlangan tayoqlar gumbaz shaklida egilib chang‘aroq teparog‘idan o‘yilgan birinchi qator teshiklariga tiqilgan. Tayoqlar xoch shaklida kesishib, o‘rta qismi esa tuya yoki xo‘kkiz ko‘ni (terisi)dan tayyorlangan tasma bilan bog‘langan. Chang‘aroqning asosi bo‘ylab «chang‘aroq solma» deb nomlangan qizil bov (ip) aylantirib tutilgan.

Ko‘hitang tog‘ oldi qishloqlarida qora uy suyagini ko‘tarishda ya‘ni tikka qilishda ikkita uvuqni echki shoxiga o‘xshatib, egilgan joylari bir-biriga qarama-qarshi xolatda bog‘lab, chang‘aroq shuning yordamida balandlikka ko‘tarilgan hamda uch yoki to‘rtta ayol uvuqlarni chang‘aroqning pastki qator teshiklariga kiritib, pastki qismini keraga chinq (quloq)lariga mustahkamlab bog‘lagan. Uvuqlar chang‘aroq teshiklariga kiritilib bo‘lgandan keyin, eni 2-2,5 bo‘g‘in uzunlikda bo‘lgan, jundan guldor qilib to‘qilgan tizmalar bilan mustahkamlangan. Uvuqlarning egilgan joyidan ya‘ni tizmaning tagidan qur uyning butun aylanasiga tutilgan. Qur jundan guldor qilib to‘qilib, eni 1,5-2 qarich uzunlikda bo‘lgan. Qora uyning ichini chiroyli qip-qizil tusda ko‘rsatib turish uchun bir qarich enlikda qizil gulli qilib, jundan to‘rlab, sachoqlari qubbali qilib to‘qilgan guldurovuq qurning tagidan tutilgan. Ko‘hitang tog‘ oldi qishloqlarida o‘tmishdan mavjud bo‘lgan turar joylardan biri kapa bo‘lib, vohada, qolaversa o‘zbeklarda «kapa», «chayla» deb atalsa qozoqlarda esa «kurke» deyiladi. Kapa vaqtinchalik va mavsumiy turar joy bo‘lib tezda yig‘ishtirib olishga qulayligi hamda sodda tuzilganligi bilan ajralib turadi. Vohada kapani yumaloq (gumbazsimon) va tik (konus) shaklida bo‘lib o‘rtacha kattaligi eniga uch-to‘rt quloch, bo‘yiga besh-olti quloch bo‘lgan. Kapani tikish uchun uzunligi uch to‘rt quloch, diametri bir yarim, ikki bo‘g‘in keladigan tol yoki (tut, yulg‘un, archa, zarang) ya‘ni «kapa cho‘p» yerga bir qarich uzunlikda, orasi uch qarich enlikda qoqilgan. Kapa cho‘plar bo‘shamasligi uchun ikki quloch yuqorirog‘idan jundan to‘qilgan tizma bilan bog‘lab chiqilgan. Jundan eni to‘rt quloch, bo‘yi olti sakkiz quloch uzunlikda kigiz qilingan bo‘lib shamol, dovul ko‘tarib yubormasligi uchun to‘r burjiga jundan arqon qilinib, kapa cho‘pga bog‘langan. Pishiq qilib, mustaxkam tayyorlangan bu kigizlardan qor va yomg‘ir o‘tmagan. Shuningdek, kigizdan tashqari qamish yoki ustidan somonli loy bilan loy suvoq qilganlar. Yozgi kapalar esa qamish bilan yopilgan. Ayrmlarining usti somonli loy bilan suvalgan. Eshik og‘ziga qish faslida kigiz, boshqa issiqli kunlarda bo‘yra yoki sholdan to‘qilgan mato to‘shab qo‘yganlar. Ipoq, Qorluq qishloqlarida tepasidan tutun chiqadigan tuynuk qilingan. Yerga chiy (bo‘yra) to‘shalib, ustidan kigiz yoki gilam to‘shaganlar. Kapaning devoriga taqab xaprmach, bo‘g‘jama, ko‘rpa, yostiq hamda boshqa buyumlar qo‘yilgan. Kiraverishda eshikka yaqinroq joyda o‘choq bo‘lib, tutun tuynukdan

chiqib turgan. Shuningdek sandaldan foydalanganlar. Ko‘hitang tog‘ oldi qishloqlarida kapalarning ustuni maxsus qamishdan to‘qilgan bo‘yralar bilan yopganlar. Bu kapani vohani yuz, do‘rmon, qorluq, barlos urug‘iga mansub aholi «xos kapa», qo‘ng‘irotlar esa «chum» deb ataganlar. Xulosa qilib aytganda bulardan ko‘rinib turibdiki ko‘hitang tog‘ oldi qishloqlari aholisi turar joylari o‘ziga xos tarzda rivojlangan bo‘lib, jahon xalqlari moddiy madaniyatida o‘z o‘rniga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Tursunov S. va boshq. Surxondaryo – etnografik makon. –Toshkent: Akademiashr, 2012.
2. Tursunov.S.N va boshqalar.Surxondaryo tarixi.T., “Sharq”.2004.
3. Jabborov I.“O‘zbek xalqi etnografiyasi”T, “O‘qituvchi”. 1994
4. Nazarov N. Laqaylar: etnografiya, lingvistika va folklor. Toshkent-2010

MITRA XUDOSI VA UNING MODDIY MADANIYATDA IFODALANISHI

NORXAMIDOVA Muattar Zavqiddin qizi

Termiz davlat universiteti Magistratura bo'limi

Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qadimgi Markaziy Osiyoda zardushtiylik davrigacha bosh xudo vazifasini bajargan quyosh xudosi Mitraning "Avesto"da, me'morchilik obidalari va moddiy madaniyatda ifodalanishi hamda diniy qarashlardagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Avesto, Mitra, Ahuramazda, "shartnoma", zardushtiylik, eneolit davri, "nur sohib turgan quyosh", Yasht, Videvdat, Ahamoniylar, Miura, Rigveda, Agni.*

ABSTRACT

This article talks about the role of the sun god Mithras, who served as the main god in ancient Central Asia until the Zoroastrian era, in "Avesta", architectural monuments and material culture, and his role in religious views.

Key words: *Avesta, Mitra, Ahuramazda, "agreement", zoroastrianism, eneolithic period, "the shining sun", Yasht, Videvdat, Achaemenids, Miura, Rigveda, Agni.*

KIRISH

O'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr - shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g'oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas "Avesto" olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi. "Avesto" kitobi hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning o'ziga xos turmush tarzi, xo'jalik mashg'uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf – odatlari va marosimlari haqida ma'lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir. Avval boshda «Avesto» 21 kitobdan iborat bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida ta'kidlanishicha, Eron podshohi Doro I davrida «Avesto» to'liq holda 12 ming qoramol terisiga zarhal xarflar bilan bitilgan. Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa istilosi davrida uning buyrug'i bilan zardushtiylik ibodatxonalari vayron qilinib, muqaddas «Avesto»ning katta qismi ham kuydirib yuborilgan. Bizgacha 21 kitobdan iborat "Avesto" ning chorak qismi yetib kelgan va dastlab yevropalik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

M. Is'hoqov Yasht va Videvdatni o'zbek tiliga o'g'irgandan so'ng, Yevropa olimlari tomonidan qilingan, 21 ta naskdan iborat "Avesto" ning tuzilishida (stratigrafiyasi) bir qator juziy kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Jumladan, Yashtda ikkita alqov bevosita quyoshga, quyosh xudosiga bag'ishlangan. Biri Xurshed Yasht (Quyosh alqovi) bo'lsa, ikkinchisi Mitra alqovi (Mehr yasht) dir. Albatta, buni tarjima davomida M. Is'hoqov ham sezgan, chunki Xurshed Yashtdagi quyosh xudosiga bag'ishlangan bir parchani Mitra alqovidan kirib qolgan, deb izoh beradi¹⁸⁰.

Albatta, zardushtiylik dinining bosh xudosi Ahuramazda bo'lgan. Ammo, "Avesto" ning keyingi davrlarida bitilgan nasklarida Mitraga ham Ahuramazdaga xos bo'lgan sifatlar berilgan, ya'ni "Avesto" da Mitra Ahuramazda bilan¹⁸¹ egizak xudolar sifatida ifodalangan. Mitra "Avesto" da *Miura* ko'rinishida ifodalanib, "shartnoma" va "kelishuv" g'oyasi bilan bog'liq afsonaviy shaxs, quyosh xudosi sifatida kuylangan.

Mitra nafaqat ijtimoiy balki tabiat quruvchisidir. U gohida suv xudosi - Apam-Napat bilan birga ifodalansa, ba'zida keng yaylovlar ato etuvchi, suv bilan ta'minlaguvchi, uning marhamati bilan yomg'ir yog'adi va yaylovlar suvga to'ladi, o'simliklar barq urib o'sadi (X. 61), u insonlarga hayot bag'ishlovchi, o'g'lonlar berguvchi, tilaklarini bajo keltiruvchi (X. 65). Mitra uy, ayol, aravalar bilan ta'minlaguvchi (X. 30), boylik, baxt, sog'liq ato etguvchi, ajdodlarni davom ettiruvchi (X. 108). Mitra to'kin-sochinlik xudosi Ardvisura-Anaxita va Rashn-Sraosh bilan birga Chinvat ko'prigida insonlarni sud qiluvchi xudo sifatida ham ifodalanadi.

"Avesto" mifologiyasi bo'yicha Mitraning quyosh xudosi ekanligi ancha yashirin ko'rinishda ifodalangan, ammo samovat dunyosini yaratuvchi, tartibga solib turuvchi ekanligi aniq, shunday bo'lsa-da, uning quyosh singari charaqlab turishi (X. 44), yarqiroqlik sifatleri kuylangan («Yasht» X. 142, 143; «Videvdat» 19. 28). Mitra Mazda yaratgan borliqlarni sergaklik bilan qo'riqlaydi va nazorat qilib boradi (X.95,141).

Zardushtiylikning din sifatida xalqaro nufuzining oshishida ahamoniylar imperiyasi o'rni katta bo'lgan. Imperiya hukmdorlarining Mitraga itoat qilganligi tadqiqotlar davomida aniqlangan¹⁸². Shu sababli G'arbiy Eronda bo'lgani kabi Sharqiy Eronda ham Mitra tasvirining dastlabki ko'rinishi ahamoniylar davridan izlangan. Karter bergan ma'lumotga ko'ra, Oks xazinasidan topilgan to'n kiygan yigitning

¹⁸⁰ "Avesto" Yasht kitobi. M. Is'hoqov tarjimasini. 37 bet.

¹⁸¹ Thieme P., Mitra and Aryaman, New Haven, 1957.

¹⁸² Frye R., Mithra in Iranian history // Mithraic Studies, v. 1—2, Manchester, 1975.

haykalchasi Baqtriya Mitrasining so'nggi ahamoniylar davriga oid ekanligi haqidagi fikrni taklif qiladi.

Gerodot va Strabon skif massagetlari quyoshga o'zining yagona xudosi sifatida sig'inishganini qayd etadi. Ularning quyoshga e'tiqodini Gerodot quyidagicha ta'riflagan: "Xudolardan faqat Quyoshga e'tiqod qilishadi va unga otlarni qurbonlik keltirishadi. Buning ma'nosi shuki, ilohlardan eng teziga hayvonlarning eng tezini baxshida etishadi (Gerodot I,216).

Strabonga ko'ra, ular xudo sifatida faqat yagona Quyoshni tan olishadi va unga qurbonlik uchun otlarni keltirishadi (Strabon XI 8,6 B173).

O'rta Osiyoda, umuman Eronning Sharqiy hududlarida Mitraning dastlabki tasviri bu Kushon Miuro (MIPO) bo'lib, bu tasvir Kanishka tangalarida uchraydi. Mitra Kushon tangalarida uchraydigan eng mashhur xudolardan biri bo'lib, u Rabatak xudolar ro'yxatini yakunlaydi. Uning haykali Rabatakda ziyoratgohda, ehtimol boshqa Kushon - Baqtriya ibodatxonalarida ham saqlangan. Tadqiqodchi Gobl Mitraning barcha tasvirlarini o'n bir turga ajratadi. Oxirgi turi Kushon-Sosoniylar qiroli Ardasher I davri tasviri edi. Kushon numizmatik panteonining ko'pgina boshqa xudolari singari Miuro to'liq ko'rinishda, o'ngga yoki chapga qaragan holda tasvirlangan. Uning atributlarining aksariyati Kushon tangalarida tasvirlangan boshqa xudolar uchun umumiydir: nayza, qush boshi shaklidagi dastasimon qilich, toj.

M.Shenkarga ko'ra, Kanishka yodgorligidan Mitraning g'ayrioddiy surati topilgan bo'lib, suratda Mitra oy xudosi Mao va Kushon shohining yonida turib, Kanishkaga tojni uzatayotganligi, o'zining boshida esa frigiya qalpog'iga o'xshash bosh kiyim kiygan holatda tasvirlangan. Mitraning qalpoq kiygan bu kabi tasvirlari O'rta Osiyoda topilgan tangalarga tushirilgan tasvirlarda umuman uchramaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, sosoniylar Baqtriyani bosib olgandan keyin ham Kushon davrida mavjud bo'lgan tizim, ya'ni tangalarning orqa tomonida xudolarni tasvirlash an'anasidan voz kechilmagan. Balxda zarb qilingan Kushon - sosoniylar shohi Ardasher I ning ikkita tangasida Mitra ilohining taxtda o'tirgancha tojni taqdim etayotgani va qilich ushlagan holati tasvirlangan. U o'ngga qaragan holda o'ng qo'li bilan tojni uzatayotgan, chap qo'li esa tizzalari orasiga qo'yilgan uzun qilich dastasini ushlagan holatda tasvirlangan. Taxtda o'tirgan iloh kompozitsiyasi sosoniylar san'atida hech qachon uchramaydi, aftidan bu tasvirlarda mahalliy Baqtriya an'analari aks ettirilgan.

O'tkazilgan tarixiy tadqiqotlarda ham Mitra Markaziy Osiyo xalqlarida

zardushtiylik davrigacha bosh xudo vazifasini bajarganligi tasdiqlangan¹⁸³. Din tarixi bo'yicha yetuk mutaxassis V. N. Toporov Hind-Eron xalqlarida mil. avv. III ming yillikdan to I ming yillikning o'rtalarigacha Mitra bosh xudo vazifasini bajarib kelgan, deb hisoblaydi¹⁸⁴⁵. E. E. Kuzmina ham o'z asarlarida bu qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi va Mitraning xudo sifatida shakllanishini Yevroosiyo mintaqasida keng tarqalgan Andronovo madaniyati ko'chmanchilari e'tiqodlari bilan bog'laydi¹⁸⁵⁶. Har ikkala tadqiqotchi ham "Mitra" Hind-Yevropacha so'z ekanligini, "mi", "mei" o'zaklaridan kelib chiqqanligini, vositachi, almashtiruvchi (samovot dunyosida quyoshni va oyni), qonuniyat, kelishuvchi ma'nolarini anglatishini e'tirof etishgan.

Me'morchilik obidalari misolida ham Mitraning Markaziy Osiyoda zardushtiylikka bo'lgan davrlarda bosh xudo vazifasini bajarganligi tasdiqlanadi. O'rta Osiyoda Quyosh kulti juda qadimdan, ya'ni eneolit davridan mavjudligi otashkadalar misolida o'z yechimini topgan. Bronza davriga oid Dashtli, Arkaim, ilk temir davriga oid Tallashqon yodgorliklari quyosh ko'rinishida qurilgan. Jarqo'ton ibodatxonasida jami 8 otashkadaning joylashganligi uning quyosh xudosiga atab qurilganligini tasdiqlaydi.

Arxeologik manbalar ham O'rta Osiyo xalqlari diniy qarashlarida Mitra obrazi qadimdan mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Jarqo'ton, Togolok – 21, Gonur, Dashtli ibodatxonalarini qalin devor va yarim doira shaklli burjlarga ega bo'lib, umumiy ko'rinishda "nur sochib turgan quyosh" shaklini eslatadi. Ushbu ibodatxonalarining fortifikatsiyasi jamoaning, dindorlarning qudratini ko'rsatish, quyoshning, quyosh xudosining simvolini me'morchilikda namoyish etish maqsadida qurilgan.

O'rta Osiyo xalqlari tasavvurida Mitra topinishga loyiq, boylik ulashuvchi simvol sifatida tasavvur qilingan. Mitra yerning chekkalari bo'ylab aylanib, osmon va yer o'rtasidagi hamma narsalarni sinchiklab tekshirgan. Unga ta'zim qilib sharaflangan, negaki u o'z topinuvchilarini tashvishdan qutqargan. Yashtda u hushyor va uyqusiz, uni aldab bo'lmaydi, deb ta'riflangan. U shartnoma shartlariga amal qilmaganlarning turarjoylarini vayron qiladi, aksincha o'z majburiyatlarini bajargan shaxslar bunday holatga tushmaydilar. Mitra kechirimli bo'lib, u rahm-shafqatli bo'lishga chaqiradi. Odamlarga shartnomani bajarishda qat'iy bo'lishlariga imkon beradi va mamlakatni

¹⁸³ Сулейманов Р.Х. Дрейний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VII в. н.э. - Самарканд-Ташкент, 2000. – С. 227-234

¹⁸⁴ Топоров В.Н. Митра // МНМЭ. 1988. Т.2. - С. 154.

¹⁸⁵ Кузьмина Е.Е. Образ Митры в искусстве степей Евразии, Индии и Ирана во II – нач. I тыч. до н.э. и лингвистические данные // Культуры Степной Евразии и их взаимодействие с древними цивилизациями (Материалы международной научной конференции, посвященной 110 летию со дня рождения М.П. Грязнова). Книга 1. - СПб, 2012. - С. 127-134.

dushmanlardan himoya qiladi. Bu holat mamlakatda yaxshi odamlar ko'payishida Mitraning xizmati katta deyishga asos bo'ladi.

Avestoda Mitra alqovi Ahura Mazdaning Mitrani yaratganligi va uni o'zi kabi sajda va ibodatga loyiq qilgani haqidagi bayonot bilan boshlanadi. So'ngra ahdnomaga amal qilmagan biror makkor butun mamlakatni vayron qilishi haqida aytiladi. Shundan so'ng darhol yolg'onchi va sodiq din e'tiqodchisi bilan tuzilgan shartnomani buzmaslik haqidagi buyruq keladi. Mitra odamlarga mol-davlat va uni aldamaganlarga nasl-nasab beradi. U ahdnomani buzganlarning qo'l kuchini, oyoqlarining quvvatini, ko'z nurini, quloqlarining eshitish imkonini olib qo'yadi. Mitrani g'azablantirganlarning pichoqlari, nayzalari, o'qlari samarasiz bo'lib qoladi. U jang aravasini boshqarayotgan jangchi bo'lib, uning asosiy quroli to'qmoq, ammo u nayza va pichoqlardan ham foydalanadi. Ahdiga sodiq bo'lganlarga Mitra yomg'ir yog'diradi va o'simliklarni o'stiradi. Mitra tezyurar aravalar, gilamlar, chorva mollari hamda uning ismini muntazam zikr qiluvchi rostgo'ylarga qullar taqdim etadi. Mitra doimo uyg'oq va shuning uchun ham yalqovlarning dushmanidir. Uning ming qulog'i, o'n ming ko'zi (qorong'ida ham ko'ra oladi) va hamma joyda kuzatuvchilari bor. U Xara tog' tizmasidan turib butun oriylar yurtini kuzatadi. Amesha Spentalar Mitrani tirik mavjudotlarning hukmdori (ahu) va hakami (ratu) deb bilishadi. Shunday qilib, u mamlakatlar va odamlar uchun ham yaxshi, ham yovuz bo'lib, urush va tinchlik ustidan hukmronlik qiladi. U qo'shnilari o'rtasidagi nizolarning oldini olgan.

Mitra uchun mayda va yirik qoramollar, qushlar va parrandalar qurbonlik qilingan ko'rinadi. Ammo Gershetevichning so'zlariga ko'ra, Mitraga hayvonlar bilan birgalikda sig'inilgan. Mitrning keng yaylovlarga ega, deya tavsiflanishi eng ko'p uchraydigan ta'rif bo'lib, davlatlar shartnomani buzmasdan nizolarsiz yashashsagina, odamlar tinch yashashi, mollar erkin o'tlashi mumkin va bu tinch hududlarning bari Mitraniki deyilgan.

Rigvedada Mitraning bitta madhiyasi mavjud bo'lib, dastlab u ikkita bo'lgan deb taxmin qilinadi. Mitra xalqlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, ya'ni, ular o'rtasidagi kelishuvni va bir-biri oldidagi bajarishi majbur bo'lgan shartlarni bajarishini qat'iy nazorat qiladi va ular o'rtasida kelib chiqadigan mojaroning oldini oladi. U osmon va yerni, turarjoylarni qat'iy kuzatadi. Kim Mitraga sadoqatli bo'lsa, u qasddan o'ldirilmaydi va hech qanday tashvish unga yetib bormaydi. Mitra xudolarni ham qo'llab-quvvatlagan, odamlar orasida nizolardan qochish va tinchlikni saqlash orqali xalqlar jilovini o'z qo'lida saqladi. Xudolar va odamlar o'rtasida yomg'irlar yaratdi. Mitra o'zini Agni, ya'ni, olovda namoyon qilgan bo'lib, mehmon va ittifoqchi sifatida xudolar va odamlar

o'rtasida vositachilik qiladi. U er va xotin ittifoqini ham mustahkamlab hozirda mazkur marosim o'tkaziladigan xalqlarda nikoh marosimi olov atrofida yetti qadam bosish bilan yakunlanadi. Avestoda Mitra vositachi sifatida tasdiqlanmagan, ammo u pahlaviy manbalarida va Plutarxning "De Iside et Osiride" asarida Xuromazes va Areimanius o'rtasida vositachi sifatida uchraydi.

Zardushtiylikning jamiyat taraqqiyoti, umuminsoniyat oldidagi buyuk xizmati shundaki, u ko'p xudolikka barham berdi, yagona insonparvarlik g'oyalari asosida o'z ta'limotini yaratdi. Bosh xudo Mitra o'rniga Mazdani ko'klarga ko'tardi, ammo Mitrani xalq qalbidan butunlay o'chira olmadi. U zardushtiylikning taqvimlarida, Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, ko'chmanchi-chorvador massaget qabilalarining asosiy e'tiqodi sifatida saqlanib qolavergan. Mitraning xudo sifatida qayta tiklanishida ahamoniy shahanshohlarning, ayniqsa Artakserks II va III ning o'zni katta bo'lgan, ilk marta u o'z bitiklarida Mitrani Ahuramazda va Ardvisura-Anaxita bilan birga ifodalagan. Shu davrdan boshlab Mitra "Avesta"ga kirib kelgan bo'lishi mumkin.

Keltirilgan yozma, arxeologik va gliptik manbalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlari juda qadimdan, eneolit davridan boshlab quyoshni ilohiy bilgan. Unga atab altarlar yasalgan, ibodatxona va istehkomlar quyosh shaklida qurilgan. Quyoshni ilohiy bilishdan tashqari ajdodlar ruhiga ibodat, zoolatrik diniy qarashlar, kosmogoniya, narigi dunyo tushunchasi, olovni e'zozlash kabi e'tiqodlar keng tarqalgan bo'lsa-da, ayrim qavmlarda totemizm kabi ibtidoiy diniy qarashlar saqlanib qolgan¹⁸⁶⁷, ammo bosh xudo vazifasini Mitra bajargan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR.

1. "Avesto" Yasht kitobi. M. Is'hoqov tarjimasini. 37 bet.
2. Thieme P., Mitra and Aryaman, New Haven, 1957.
3. Frye R., Mithra in Iranian history // Mithraic Studies, v. 1—2, Manchester, 1975.
4. Сулейманов Р.Х. Дрейний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VII в. н.э. - Самарканд-Ташкент, 2000.–С.227-234.
5. Топоров В.Н. Митра // МНМЭ. 1988. Т.2. - С. 154.
6. Кузьмина Е.Е. Образ Митры в искусстве степей Евразии, Индии и Ирана во II – нач. I тыч. до н.э. и лингвистические данные // Культуры Степной Евразии и их взаимодействие с древними цивилизациями (Материалы

¹⁸⁶ Шайдуллаев Ш.Б. Этапы возникновения и развития государственности на территории Узбекистана. Автореф. дисс. ... док. ист. наук. - Самарканд, ИА АН РУз. 2009; Сарияниди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. - Ашгабат, 2002. – 279 с.

международной научной конференции, посвященной 110 летию со дня рождения М.П. Грязнова). Книга 1. - СПб, 2012. - С. 127-134.

7. Шайдуллаев Ш.Б. Этапы возникновения и развития государственности на территории Узбекистана. Автореф. дисс. ... док. ист. наук. - Самарканд, ИА АН РУз. 2009; Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. - Ашгабат, 2002. – 279 с.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GASTRONOMIC ATAMALAR TADQIQI

GULYAMOVA Farog'at Erkinovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Xorijiy til va adabiyoti” magistratura bo'limi

2-kurs talabasi

gulyamovafarogat11@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi gastronomic terminologiyaning lingvistik va madaniy xususiyatlarini o'rganadi. Unda oziq-ovqat an'analari, qadriyatlar va hayot tarzi, qanday aks etishini tahlil qilib, gastronomic ifodalarni shakllantirishdagi madaniy kontekstning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot palov va somsa kabi o'zbek taomlarini pie va pudding kabi ingliz taomlari bilan qiyoslaydi hamda lingvistik va madaniy farqlarni ko'rsatadi. Shuningdek, globallashuvning ikki til orasidagi oshxona atamalarining almashinuvida qanday rol o'ynashi o'rganiladi. Topilmalar madaniyatlararo muloqotni tushunishga va oziq – ovqatning o'zaro hurmatni rivojlantirishdagi ahamiyatni ochib beradi.

Kalit so'zlar: *Gastronomic terminologiya, Gastro-tourizm, oshpazlik leksikasi, Taqqoslash tahlili, Ingliz va O'zbek gastronomiyasi, oziq-ovqat madaniyati, oshpazlik merosi, gastronomic tarjima, madaniyatlararo muloqot, oshpazlik lingvistikasi, terminologik taqqoslash, oshpazlik, O'zbek oshpazlik an'analari, Ingliz tilidagi oziq-ovqat bilan bog'liq atamalar, gastronomiyaning etnolingvistikasi.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Гулямова Фарагат Эркиновна

Термезский университет экономика и сервиса

Факультет «Иностранных языков и литературы»

магистр 2-курса

АННОТАЦИЯ

Данное исследование изучает лингвистические и культурные особенности гастрономической терминологии в английском и узбекском языках. Исследуется, как еда отражает традиции, ценности и образ жизни, с акцентом на то, как уникальные культурные контексты формируют гастрономические выражения. Работа сравнивает традиционные узбекские

блюда, такие как плов и сомса, с английскими блюдами, такими как *pie* и *pudding*, подчеркивая языковые и культурные различия. Кроме того, рассматривается влияние глобализации на обмен кулинарными терминами между двумя языками. Результаты исследования способствуют пониманию межкультурной коммуникации и роли еды в укреплении взаимного уважения.

Ключевые слова: Гастрономическая терминология, Гастротуризм, кулинарная лексика, сравнительный анализ, Английская и Узбекская гастрономия, культура еды, кулинарное наследие, гастрономический перевод, межкультурная коммуникация, кулинарная лингвистика, терминологическое сравнение, Узбекские кулинарные традиции, термины, связанные с едой, на английском языке, Этнолингвистика гастрономии.

STUDY OF GASTRONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Gulyamova Farogat Erkinovna

Termez economy and service university

Foreign language and literature of Faculty

Master's department 2nd year of student

[*gulyamovafarogat11@gmail.com*](mailto:gulyamovafarogat11@gmail.com)

ABSTRACT

This research investigates the linguistic and cultural features of gastronomic terminology in English and Uzbek. It explores the ways food reflects traditions, values, and lifestyles, emphasizing how unique cultural contexts shape gastronomic expressions. The study compares traditional Uzbek dishes like palov and somsa with English dishes such as pie and pudding, highlighting linguistic and cultural differences. Additionally, the work examines the impact of globalization on the exchange of culinary terms between the two languages. The findings contribute to the understanding of cross-cultural communication and the role of food in fostering mutual respect.

Key words: *Gastronomic terminology, Gastro-tourism, culinary lexicon, comparative analysis, English and Uzbek gastronomy, food culture, culinary heritage, gastronomic translation, cross-cultural communication, culinary linguistics, Terminological comparison, Uzbek culinary traditions, food related terms in English, Ethnolinguistics of gastronomy.*

INTRODUCTION

Gastronomy, beyond being the art and science of cooking, is a fundamental aspect of cultural identity. It is a mirror reflecting the values, traditions, and history of a society. The terms used to describe food, ingredients, and culinary practices often carry deep cultural significance. Food, as an essential part of everyday life, transcends geographical and linguistic boundaries, becoming a universal language that connects people worldwide. However, the way gastronomy is perceived and discussed can vary widely across different languages, shaped by each culture's unique experiences and environment.

English and Uzbek languages, while both are rich in gastronomic history, offer different perspectives on the world of food. English, as a global lingua franca, has absorbed influences from numerous cultures, leading to a diverse range of culinary terms. In contrast, Uzbek, deeply rooted in Central Asian traditions, offers a distinct vocabulary that reflects the historical, social, and geographical nuances of the region. This study aims to explore the gastronomic terms in both languages and their cultural contexts, providing insights into how language shapes our understanding of food and its place in society.

DISCUSSION

The primary objective of this research is to explore and compare gastronomic terms and cultural practices related to food in English and Uzbek. The specific aims are:

- To identify key gastronomic terminology in both languages, focusing on ingredients, cooking methods, and common dishes.
- To examine the cultural significance of these terms and how they reflect the respective societies.
- To explore how language influences perceptions of food and cooking in both English-speaking and Uzbek-speaking cultures.

RESULTS

English, as a global language with extensive historical influences, has a wide range of culinary terminology. It draws from Latin, French, Italian, and other languages, often incorporating specialized terms for cooking methods, food ingredients and utensils.

- *Ingredients*: Many food-related terms in English come from various languages . For example:

“*Basil*” (from Greek *basilikos*) - a herb commonly used in cooking.

“*Saffron*” (from Arabic *zafaran*) - a spice with rich cultural history.

“Olive” (from Latin *oliva*) – a staple in Mediterranean cuisine.

- *Cooking Methods*: English culinary terminology includes a variety of cooking techniques, often borrowed from French cuisine:

“*Saute*”: Derived from French *sauter*, meaning “to jump” (referring to tossing food in a pan).

“*Braise*”: Also from French *braiser*, meaning to cook slowly in fat and a small amount of liquid.

“*Broil*”: Derived from the Old French *broiler*, meaning to grill or cook over direct heat.

- *Utensils and Equipment*: English culinary vocabulary often reflects specific tools used in cooking:

Whisk, spatula, tongs- simple, everyday tools with direct English names.

Mortar and pestle- used for grinding and mixing, whose names have a shared Latin origin.

- *Dishes*: Many common English dish names are borrowed from other languages, reflecting their place of origin:

“*Pizza*” (from Italian), “*Sushi*” (from Japanese), “*Curry*” (from the Tamil word *kari*).

These terms, especially those borrowed from French, Italian, and Latin, reflect the international nature of English-speaking culinary traditions. The language is rich in synonyms for similar food preparation processes, such as roast vs. grill, or stew vs. simmer, which emphasize different cultural techniques for preparing food.

Uzbek Gastronomic Terms

Uzbek culinary terms are deeply rooted in the history and geography of Central Asia, reflecting both the nomadic and settled agricultural cultures of the region. These terms often reflect the ingredients and cooking methods unique to Uzbekistan and its neighboring countries.

-**Ingredients**: Uzbek gastronomy includes numerous terms for local ingredients that are not only important for cooking but also hold cultural significance:

“*Non*”- a type of bread, a staple in Uzbek cuisine, baked in a tandoor. The word *non* is derived from Persian.

“*Qovurma*” – a term for fried or stir-fried meat, often used in the preparation of traditional dishes.

“*Sumalak*”- a traditional dish made from wheat germ, representing Uzbek folk traditions and often prepared during Nowruz (Persian New Year).

“*Tandir*”- a type of clay oven used for baking bread or cooking meats.

- **Cooking Methods:** Many Uzbek culinary terms describe techniques that are unique to the region, often tied to the use of specific tools and the traditional approach to food preparation:

“*Qovurmoq*”- to fry or sauté meat, a staple technique in Uzbek cooking.

“*Pishirmoq*”- to bake, particularly in the context of breads and meat dishes in a tandoor.

“*Stew*” or “*Shurva*”- a type of meat or vegetable soup, often with a rich broth, and prepared for special occasions.

- **Utensils and Equipment:** In Uzbek cuisine, traditional cooking methods are often associated with specific tools:

“*Kazan*”- a deep, wide pot used for cooking stews, pilaf (plov) and soups, often on an open flame.

“*Lagan*”- a large, shallow bowl used for serving pilaf (plov) and other communal dishes.

- **Dishes:** Traditional Uzbek dishes are often named after ingredients or cooking methods:

“*Plov*”- a rice dish cooked with meat and vegetables, often considered the national dish of Uzbekistan.

“*Somsa*”- a type of pastry filled with meat or vegetables and baked in a tandoor.

The Uzbek language’s gastronomic terms are deeply connected to the region’s agricultural and pastoral lifestyle. Many of the words reflect the use of local ingredients and cooking methods that have been passed down through generations. Unlike English, which borrows heavily from other cultures, Uzbek terms are more homogenous, reflecting the deep connection to the Central Asian and Islamic culinary heritage.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The exploration of gastronomic terms and culture in English and Uzbek languages reveals how food serves as a profound medium for understanding cultural identity, linguistic diversity, and social values. The analysis shows that while English cuisine reflects a history of global interactions and modern innovation, Uzbek cuisine preserves its traditional roots and emphasizes communal values.

From a linguistic perspective, English culinary vocabulary is rich in loanwords and idiomatic expressions, reflecting the influence of trade, migration, and cultural exchange. On the other hand, Uzbek gastronomic terms remain deeply connected to

the region's history, geography, and spiritual beliefs, offering a glimpse into the Central Asian way of life.

Culturally, gastronomy in English-speaking countries often symbolizes individualism and adaptability, evident in the fusion of cuisines and evolving food trends. In contrast, Uzbek cuisine prioritizes hospitality, sacred rituals, and the communal aspect of dining, where food plays a central role in social gathering and celebrations.

This study highlights the importance of gastronomy as both a cultural artifact and a linguistic

phenomenon. By comparing these two distinct cultures, we gain insights into how language and food are intertwined, reflecting the unique identities and shared humanity of different societies.

REFERENCES

1. "Food Tourism Around the World: Development, Management, and Markets" by C. Michael Hall et al. year:2003. Publisher: Butterworth-Heinemann. Chapter 5 (Food and Identity in Tourism)
2. "The Language of Food: A Linguist Reads the Menu" by Dan Jurafsky. 2014. P. W.W. Norton and Company. Chapter 2 (Cross-Cultural Food Terminology)
3. "O'zbekiston oshxonasi: Milliy taomlar tarixi va madaniyati" (Uzbek Cuisine: History and Culture of National Dishes) by Rahmatulla Saidov. 2010. Tashkent Publishing House. Chapter 4
4. "Gastronomic Tourism in Uzbekistan" by Sherzodbek Karimov. 2018. Samarkand University Press. Chapter 6 (Modern Trends in Gastro-Tourism)
5. "O'zbekistonning madaniyati va mehmondo'stligi" (Culture and Hospitality of Uzbekistan) by Nodirbek Abdullaev. 2016. Bukhara Cultural Press. Chapter 2 (The Role of Food in Social Gatherings)

2017-2024- YILLARDA SURXON VOHASI EKOLOGIYASI: QILINGAN ISHLAR VA NATIJALAR

A'ZAMOV Asliddin Akramovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari) yo'nalishi

II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O'zbekistonda Surxondaryo viloyatida ekologik vaziyatni yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, sohada mavjud muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, Surxondaryo viloyati, ekologik vaziyat, iqlim o'zgarishlari, tabiat, ekologik muammolar.*

ABSTRACT

The article analyzes the work carried out in the Surkhandarya region of Western Uzbekistan to improve the ecological situation and their results. It also presents proposals on the existing problems in the field and ways to eliminate them.

Keywords: *Western Uzbekistan, Surkhandarya region, ecological situation, climate change, nature, ecological problems.*

KIRISH

Surxondaryo viloyatida 2017-2024-yillarda ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha bir qancha muhim tashabbuslar amalga oshirilgan. Bu davrda viloyatda ekologik holatni yaxshilash, tabiatni asrash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida bir qator davlat dasturlari va loyihalar bajarilgan.

Surxondaryo viloyati, asosan, dehqonchilik va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, bu sohalarda suv resurslarining samarali boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. 2017-yildan boshlab, suv ta'minoti va meliorativ infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlari jadallashdi. Suvni tejash, sug'orish tizimlarini takomillashtirish va yerlarni melioratsiya qilish orqali viloyatdagi ekinlar uchun zarur bo'lgan suv resurslarining samarali taqsimlanishi ta'minlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Viloyatda ekologik xabardorlikni oshirish maqsadida bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. 2017-yildan boshlab, ekologik ta'lim dasturlari va seminarlar tashkil etilib, aholi va yoshlar ekologiya, tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish masalalarida bilim olishdi. Ochiq maydonlarda

ekologik aksiyalar o'tkazildi. Viloyatda yashil hududlarni yaratish va daraxt ekish bo'yicha tadbirlar davom ettirildi¹⁸⁷. 2021-yilda Surxondaryo viloyatida yashil hududlarni kengaytirish dasturi boshlandi. Bu dastur doirasida har yili minglab daraxtlar ekildi. Ayniqsa, ko'chatlar ekish va yashil hududlarni barpo etishga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Surxondaryo viloyatida chiqindilarni qayta ishlash tizimini yaxshilash maqsadida moddiy resurslarni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. O'tgan davr davomida ko'p xonali uylarda chiqindilarni to'plash va ajratish tizimi joriy etildi. Shu bilan birga, viloyatdagi ayrim hududlarda eko-hududlar yaratish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Biologik xilma-xillikni saqlash va yo'qolib borayotgan turlarni himoya qilish bo'yicha ham muhim ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatining tog'li va o'rmonli hududlarida yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvon turlarini asrash bo'yicha loyihalar amalga oshirildi.

Surxondaryo viloyati go'zal tabiat manzaralari, noyob hayvonot dunyosi, shifobaxsh zilol suv va yer osti boyliklari, tog'u-dashtlardagi musaffo havosi bilan ham mashhur bo'lib kelgan.

Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yonbag'ridagi «Surxon» davlat qo'riqxonasida tog'-o'rmon ekotizimi, o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini, archazor o'rmonlar muhofaza qilinadi.

O'simlik va hayvonot dunyosiga juda serob tabiiy hududning umumiy yer maydoni 23 ming 802 gektar bo'lib, shundan 12 ming 239 gektardan ziyodi yashil boylik bilan burkangan. Dengiz sathidan 850 metrdan 3 ming 137 metrgacha balandlikdagi hududda 900 dan ortiq turdagi o'simlik uchraydi. Bu yerda «Qizil kitob»ga kiritilgan Qo'qon zag'ozasi, Litvinov lolaqizg'aldog'i, Maksimovich ravochi, Grek yong'og'i, achchiq hamda tikanakli bodom, soxta yantoq, dug'bay singari ko'plab o'simlik va dov-daraxtlar o'stirilmoqda. Turkiston laqqachasi balig'i, Hind boygasi, cho'lmiqqiysi qushi, mallabosh lochin, sud emizuvchilardan burama shoxli echki, Buxoro tog' qo'yi, Turkiston silovsini singari kamayib borayotgan turli jonivorlar yashaydi.

Qo'riqxonada O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan 26 turdagi sudralib yuruvchilar, 18 turdagi noyob hayvonlar va 136 turdagi qushlar uchraydi. Jarqo'rg'on tumanidagi «Oqtepa» bog'i ham o'zining noyob o'simlik va hayvonot dunyosi bilan kishini lol etadi. «Sangardak» sharsharasi, Omonxona, Xo'jaipok, Xo'jamayxona singari

¹⁸⁷ K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus, 2020. p.101-103.

shifobaxsh buloq suvlari, Boysun, Sariosiyo, Uzun kabi tumanlardagi oʻrmon xoʻjaliklari ham maftunkorligi bilan koʻzlarga quvonch ulashadi. Surxondaryo viloyatida jami 1ta hayvonot bogʻi mavjud boʻlib, 2023-yilda hayvonot bogʻiga 58,8 ming kishi tashrif buyurgan, shundan 28,7 ming nafari bolalardir. Viloyatimiz hayvonot bogʻidagi oʻsimlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi oʻziga xosligi bilan tashrif buyuruvchilar eʼtiborini tortadi. Bu yerda, xususan, hayvonot dunyosi 127 ta turi, oʻsimlik dunyosining 35 ta turi mavjud. Hayvonot dunyosi namunalari umumiy soni 853 tani va oʻsimlik dunyosi namunalari 2 115 nusxani tashkil etadi¹⁸⁸.

Oʻrni kelganda shuni aytish lozimki, bizning asrimizga kelib, jahondagi koʻplab ekotizimlar zaxiralari deyarli butunlay tugab, ortga qaytarib boʻlmaydigan salbiy jarayonlarga yuz tutmoqda. Bu jarayonga dunyoda aholining oʻsib borishi, iqtisodiy rivojlanish va boshqa omillar ham oʻz taʼsirini oʻtkazayotgani sir emas. Vaholanki, atrof-muhit sogʻlomligi, iqtisodiyot samaradorligi va obod hayotimiz mavjud tabiiy resurslarni oqilona boshqarish hamda ulardan tejab foydalana olishimizga bevosita bogʻliq.

Keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasiga qaratilayotgan yuksak eʼtibor tabiat inʼom etgan noyob tuhfalarni qadrlash, mavjud boy biologik xilma-xillikni asrab-avaylashni yangi bosqichda davom ettirishga qulay muhit, keng imkoniyat yaratdi. Yuzaga kelgan ekologik barqarorlikni taʼminlashning eng samarali yoʻllarini belgilab berdi. Shunga muvofiq mamlakatimizning janubdagi vohasida ham joriy yildan mevali va manzarali daraxtlarni hisobga olish tizimi joriy etilgani bunga yaqqol dalildir. Bunda roʻyxatga olingan dov-daraxtlarga maxsus kodli raqam ilinib, elektron bazaga kiritilayotgani ahamiyatli boʻlmoqda.

Jumladan, birgina 2023-yilning oʻzida 10 millionga yaqin manzarali va mevali daraxt koʻchati oʻtqazilib, sakkiz milliondan ortiq qalamcha qadaldi. Lekin, hozirgacha ularning hisob-kitobi yuritilib, hech kim nazorat qilmagan. Vohada qancha mevali, qancha manzarali daraxt borligini yoki yangi ekilgan koʻchatlardan qanchasi unmay qurib qolganini ham hech kim bilmas edi. Yashil boyliklarga yangicha yondashuv har bir daraxtning hisobini yuritish imkoniyatini yaratdi. Shu asosda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat boʻyicha tuman, shahar inspeksiyalari xodimlari joylardagi mavjud daraxtlarni xatlovga olib, ularning aniq reestrini tuzmoqda. Daraxtlarning nomi, soni va ularga birlashtirilgan masʼul shaxslar haqidagi maʼlumotlarni oʻrnatilmoqda. Endilikda elektron bazaga kiritilgan har bir daraxtning oʻsuvchan va oʻnuchanligi monitoring qilib boriladi. Bu

¹⁸⁸ Ишмуратова Д.К., Жумаева З.Э. Сурхондарё вилояти Термиз ва Денов тумани худудларидаги атмосфера ҳавоси таркибини физик кимёвий усуллар билан ўрганиш // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences. International scientific-online conference. P. 92–96.

tartib odamlarda mavjud daraxtlar davlat nazoratida ekanini his etib, beruxsat kesilishi, qurib qolishi va boshqa holatlarning oldini oladi. Yashil dunyo parvarishi va aholi o'rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirishga mas'uliyatni yanada oshiradi.

Shu bilan bir qatorda aytish lozimki, ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgan, bu sohada targ'ibot va qat'iy nazorat tadbirlari olib borilayotgan bo'lsada, joylarda hamon tabiatga beparvolik bilan munosabatda bo'lish hollari to'liq barham topgani yo'q. Masalan, yilning o'tgan davrida o'tkazilgan reytd tadbirlarida 144 shaxsning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasidagi qonun talablarini buzgani aniqlanib, 158 million 664 ming 500 so'm ma'muriy jarima qo'llanildi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasi bo'yicha davlat inspektorlari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida 344 ta huquqbuzarlik holati aniqlanib, qonunbuzarlarga nisbatan 38 million 467 ming 632 so'm ma'muriy jarima belgilandi. Yer resurslari bo'yicha 213 nafar shaxs, yer osti boyliklari bo'yicha 36 kishi ma'muriy javobgarlikka tortildi. Chiqindilarning belgilanmagan joylarga tashlanishining oldini olish, suv va suvlarni ifloslantirish kabi yo'nalishlar bo'yicha ham tezkor tadbirlar tashkil etilib, qonunbuzarlarga nisbatan tegishli choralar ko'rilmogda. Maishiy chiqindilarni to'plash, tashish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish va ko'mish ishlarining samarali tizimini tashkil qilish ekologik muammolarni bartaraf etish bilan birga mamlakat iqtisodiyotiga ham katta foyda keltiradi. Bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormogda. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida mamlakatimizda, xususan, Surxondaryo viloyatida ham qator loyihalar amalga oshirilmogda. Viloyatimizda jami 12 ta "chiqindi poligoni" bo'lib, aholiga 6 ta sanitar tozalash korxonalari xizmat ko'rsatib keladi. Viloyatda yil davomida jami 380-400 ming tonna chiqindi chiqariladi. Shundan, 120-130 ming tonnasi 15 ta korxonadan qayta ishlanib, yarim tayyor va tayyor mahsulotga aylantiriladi. Bu esa yil davomida umumiy chiqariladigan chiqindining 30% foizini tashkil etadi¹⁸⁹.

Xullas, 2023-yilning o'tgan besh oyida viloyatda 1 ming 518 huquqbuzarga nisbatan ish qo'zg'atilib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga asosan 490 million 525 ming 808 so'm jarima chorasi qo'llanildi. Ma'muriy javobgarlikka tortilganlarning 20 nafari mansabdor shaxslar. Tabiatga yetkazilgan zarar 437 million 661 ming 220 so'mni tashkil etdi.

¹⁸⁹ Эшқараев С.Ч., Тураев Х.Х., Умбаров И.А. Радиометрическое определение активности бета-излучений стронция-90 в почвах Сурхандарьинской области Узбекистана // Сб. науч. трудов по материалам международной науч.-практ.конф. 30 июня 2020. Ч. 1. Тамбов: Консалтинговая компания Юком, 2020. С. 121-124.

Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzayotgan bunday shaxslar aniqlanib, ulardan yetkazilayotgan zarar undirib olingan. Bu vohada keng jamoatchilikni birlashtirib, ona tabiatni avaylab-asrashni, atrof-muhit muhofazasiga e'tiborni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

XULOSA.

Umuman aytganda, Surxondaryo viloyatida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, vohaning flora va fauna dunyosini, ekologik xilma-xillikni saqlab qolish, mintaqada mavjud ekologik muammolarni bartaraf qilish borasida so'nggi yillarda keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, aholi o'rtasida ekologik tarbiyani rivojlantirish bo'yicha turli targ'ibot dasturlari tashkil etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus, 2020. p.101-103.
2. N.J.Embergenov, Kh.Abdunazarov, M.Umarova, Kh.Niyozov. Issues of Development of Industrial Sectors in Surkhandarya Province. Science and education in Karakalpakstan. №3. – Nukus, 2019. p.99-102.
3. Ишмуратова Д.К., Жумаева З.Э. Сурхондарё вилояти Термиз ва Денов тумани худудларидаги атмосфера ҳавоси таркибини физик кимёвий усуллар билан ўрганиш // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences. International scientific-online conference. P. 92–96.
4. Эшкараев С.Ч., Тураев Х.Х., Умбаров И.А. Радиометрическое определение активности бета-излучений стронция-90 в почвах Сурхандарьинской области Узбекистана // Сб. науч. трудов по материалам международной науч.-практ.конф. 30 июня 2020. Ч. 1. Тамбов: Консалтинговая компания Юком, 2020. С. 121–124.
5. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 334-337.
6. Saidov, S. (2022). "TADBIR UL-MANZIL" RISOLASI–OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.
7. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELITIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.

8. Saidov, S. (2023). “TARIXI GARDIZIY” ASARINING TARIXIY QIYMATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 842-847.
9. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
10. Саидов, С. (2022). ЯНГИ МАЪНАВИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИБН МУҚАФФА АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 19-22.

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ТАРИХИ МАНБАЛАРИ ҲАҚИДА ИККИ ОҒИЗ МУЛОҲАЗА

М.Б. АХМЕДОВ

ORIENTAL Университети доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Юртимиз тарихини – юридик ҳужутлар, элчилар ва савдогарларнинг эсдаликлари ва қўлёзма китобларсиз ўрганиб бўлмайди. Улуғ аждодларимиз Амир Темура ва темурийлар даври тарихи манбаларга бой. Уларнинг ичида ўта кимматли ва олий даражадагилари ҳам кўп. Улардан муҳимларига қисқа тарзда тўхталиб ўтамиз.

Асосий масалага ўтишдан аввал тарихий манбаларни ўрганиш билан боғлиқ уч муҳим таъқидни эслатиб ўтмоқчимиз.

Биринчиси. Саройда, харбий юришлар ва жангу-жадал пайтда махсус котиблар (муншийлар, воқеанавислар) тарафидан олиб борилган кундаликлар воқеаларнинг шоҳидлари, ўзидан олдин ёзилган асарларда келтирилган факт ва маълумотларга, шунингдек муаллифнинг шахсий кузатувларига асосланади. Кундаликларда, тарихчи Шарафуддин Али Яздийнинг гувоҳлик беришича, мамлакатда содир бўлиб турган воқеалар, майда-чуйдаларига қолдирмай, кунма-кун, воқеалар қандай содир бўлса шундайлигича, бирон фактни қолдирмай, ёзиб борилган.

Иккинчиси. Ҳар қандай тарихий асар, хусусан подшоҳлар тарихи, китоб ҳолига келтирилгунча, кўп текширувлардан ўтказилган. Бу хусусда “Зафарнома” муаллифининг кўйидаги гаплари диққатга сазовордир. “(Ёзиб олинган) такрор ўқиб, текшириб ва аниқлаб чиқиларди ва бирор арзимас воқеъликда ноаниқлик, шубҳа бўлса, ўша воқеани аниқ биладиган, сўзларига кўпроқ ишониш мумкин бўлган кишилардан сўраб билиб олинарди. Шу йўсинда ҳар бир қиссани аниқлаб, ёзиб олинарди ва бир неча марта қайта ўқиб тузатиларди”.

Учинчиси. Тарихий асарларда озми-кўпми бирёқламалик, ҳукмрон синф вакиллари кўкларга кўтариб мақташ ҳиллари учрайди. Бу табиий ҳол албатта, чунки, синфий жамият шароитида олимлар, шоирлар ва ёзувчилар шундай қилмаслар куни ўтмаган. Ундан ташқари, уларнинг кўпчилиги ортиқча, дабдабали услубда ёзилган, шеърлар ва Қуръони каримдан олинган парчалар ҳам кўп учрайди, уларнинг саҳифаларида аҳли қалам, шулар қатори тарихшунос олимлар, ўзларининг кенг маълумотли эканликларини намоиш

қилиш учун ҳам шундай қилганлар. Шу боис, бундай асарлардан фойдаланганда тадқиқотчи эҳтиёт бўлиши зарур.

Амир Темури ва Темурийлар даврида ёзилган тарихий асарлар орасида оригиналлиги ва қимматли фактларга бойлиги билан Низомиддин Шомий ва Шарофиддин Али яздийларнинг “Зафарнома” асарлари шак-шубҳасиз биринчи ўринда туради.

Низомиддин Шомий (1409 й., атрофида вафот этган), ўз асарини 1402-1404 йиллар орасида Амир Темурнинг топшириғи билан ёзган. Асарда Амир Темурнинг ҳокимият тепасига келишидан, то унинг Ғарбий Эрон, Ироқ ва кичик Осиёга қилган етти йиллик урушидан пойтахт шаҳар Самарқандга қайтганига қадар бўлиб ўтган воқеалар баён этилган. Асар оддий тил ва содда услубда ёзилган. Бу асардан фойдаланишни енгиллаштиради, албатта. Низомиддин Шомийнинг “Зафарномаси” бизгача икки таҳрирда етиб келган, Биринчи таҳрир 1404 йилнинг июнь ойида ҳазрат соҳибқирон Эрондан Мовароуннаҳрига қайтиш пайтида унга тақдим қилинган нусха бўлиб, ҳали унга ном берилмаган эди. Иккинчи таҳрири ўша пайтларида Озарбайжон ва Ироқни идора қилиб турган Мироншоҳнинг ўғли Мирзо Умарга тақдим қилинган нусхадир. Муаллиф уни бир қадар таҳрир қилган, муқаддимага баъзи қўшимчалар киритган, яъни Мирзо Умар шаънига ҳам ҳамду санолар айтилган. Машҳур тарихшунос олим Ҳофизи Абру, Шомийнинг бу асарига қўшимча ёзган ва у “Зайли” “Зафарнома” деб аталади. Унда Амир Темур вафотигача бўлиб ўтган воқеалар баён этилган. Мазкур асарнинг қўл ёзма нусхалари жуда кам, улар Франция, Британия, Туркия ҳамда Арманистон кутубхоналарида сақланади. Асардан кўп парчалар рус тилида “Сборник материалов, относящихся к истории Золотой орды” (Москва, Ленинград, 1941.), “Материалы по истории Туркмен и Туркмении” (Москва, 1919.) деган мажмуаларда эълон қилинган. Низомуддин Шомий “Зафарнома” асарининг матни, зарур изоҳлар ва кўрсаткичлар билан таъминланиб, чех шарқшунос олими Феликс Тауэр тарафидан чоп этилган.

Яна бир “Зафарнома” Шарафуддин Али Яздий (1454 й., вафот этган)нинг қаламига мансуб бўлиб боҳодирлик қиссаси тарзида ёзилган. Асар “Зафарномаи Темурий”, “Тарихи жаҳонқушойи Темурий”, “Фатхномаи Соҳибқироний” номлари билан ҳам аталган ва Низомуддин Шомий асари орасида ёзилган. Лекин, Шарофуддин Али Яздий асарнинг бирмунча афзал тарафлари ҳам бор. Масалан, айрим факт ва ходисалар аниқлаб ёзилган, Ҳалил султон ҳукмронлиги йиллари воқеаларини ҳам ўз ичига олган. Асарнинг яна бир муҳим афзаллиги унда асарнинг катта муқаддима қисми ҳам бўлиб, Жўжи,

Чигатой улуслари ҳамда Элхонийлар давлатининг Амир Темургача бўлган тарихи қисқача баён этилган. Муқаддима “Тарихи Жохонгирий” ва “Муқаддимаи Зафарнома” номлари билан ҳам маълум. Шарофуддин Али Яздий ушбу асарини Форс ҳокими Темурийзода Иброҳим Султоннинг топшириғи билан ёзган (1425). Асарда Амир Темур тарихи унинг таваллуд топиши, 1336 йилдан то Ҳалил Султон ҳукумронлигига чек қўйилиши (1409), гача бўлган даврда Мовароуннаҳр, Эрон, Озарбайжон ва бошқа мамлакатларда бўлиб ўтган воқеалар ҳам яхши ёритилган. Асарнинг қўлёзма нусхаларини Осиё ва Оврупа мамлакатлари кутубхоналарида учратиш мумкин. Шарофуддин Али Яздий “Зафарнома”сининг матни икки жилдда Калькутта (1885-1888) ва Техрон (1836-1957) да чоп этилган. Француз (Пети де Ла Круа; 1722) ва инглиз (Ж.Дарби; 1721) тилларига қисқартма таржималари ҳам бор. Асарнинг Шайбоний хонлардан Кучқунчихон (1510-1529-30) замонида Дарвиш Али Бухорий тарафидан эски ўзбек тилига қилинган дурустгина таржимаси ҳам бизнинг замонамизгача етиб келган. Ва яна XIX асрда Худайберди Хиваки тарафидан шоир ва вазир Муниснинг топшириғи билан қилинган таржимаси ва номаълум таржимон тарафидан қилинган таржималари ҳам бор. Мустафо Раҳим амалга оширган Туркча таржимаси (Истанбул, 1929) ҳам мавжуд. Асарда айрим парчалар француз, инглиз, рус, италян тилларида чоп этилган. Парчалар Олтин ўрта ва Амир Темурнинг 1398-99 й., Ҳиндистон юриши даври тарихига оиддир.

Ҳар иккала “Зафарнома” Мовароуннаҳр, Эрон ва Озарбайжоннинг ижтимоий – сиёсий ва этник тарихини, халқнинг маданий ҳаётини шунингдек Темур ва Темурийлар давлатининг бошқа мамлакатлар билан бўлган сиёсий муносабатини ўрганишда муҳим манбадир.

Мовароуннаҳр ва Ҳуросоннинг 1404-1409 йиллардаги сиёсий тарихини ўрганишда хожа Тожиддин ас-Салмонийнинг “Тарихнома” китоби катта аҳамият касб этади. Асар “Зайли Зафарнома” (“Зафарнома”га қўшимча) номи билан ҳам маълум. Асар муаллифи ҳақида жуда кам маълумотга эгамиз. Фақат унинг моҳир хаттот ва девони иншо (ёзмалар девони)нинг кўзга кўринган ходимни сифатида маълумлиги, Музаффарийлар даврида 1393 йили Самарқандга олиб келинганлиги, 1409 йили Шохрух тарафидан Ҳуросонга олиб кетилганлиги, ва унинг топшириғи билан мазкур асарни ёзишга киришганлиги маълум, халос. Лекин китобини ёзиб тамомлай олмади. Саройда вазир Сайид Фаҳриддинга қарши фитнада иштирок этгани учун қамоққа олиниб, жазога тортилди. Хожа Тожиддин ас-Салмоний Амир Темурнинг сўнги кунлари ва Шохрух Мирзо тарихини ёзишни мўлжалланган эди. Лекин муддаосига

етаолмади. Фақат 5-6 йиллик тарихини ёзиб улгурди, холос. Хуллас, “Тарихнома” 1404 йилнинг кузида Кониғилда бўлган тантана ва тўю томошалар, Амир Темурнинг Хитой устига юришининг бошланиши, унинг вафоти, Ҳалил Султон тарафидан марказий ҳокимиятини тортиб олиниши (1405 йил март ойининг биринчи ярми) ва шу ой охирларида унинг Худойдод бошлиқ бир гуруҳ фитначи амирлар тарафидан асир олиниши тарихидан баҳс юритади. “Тарихнома”нинг учта нусхаси бизнинг давримизгача етиб келган. Улардан бири қусурли ва Англиянинг Британия музейида (тартиб рақ. Оч.159), қолган иккитаси Туркияда Сулаймон Фотих (тартиб рақ. 4305) ва Лола Исмоил афанди кутубхонасида (тартиб рақ. 304) сақланмоқда. Сўнги нусха тўлароқ фойдаланишга яроқли. Асар немис тилига проф. Ганс Роберт Рёмер ва рус тилига академик М.З.Буниётов тарафидан таржима қилинган.

Амир Темур ва Шохрух даври тарихи ҳақида XV асрнинг йирик тарихчиларидан Ҳофиз Абру (асл исми Шохобиддин Абдуллоҳ ибн Лутфуллоҳ ибн Абдурашид Ҳаравий, 1430 йил 25 июнь куни вафот этган) нинг асарларида ҳам қимматли фактик маълумотлар учратамиз. Ҳофиз Абру Амир Темур ва Шохрухга яқин одам эди. Шунинг учун ҳам у келтирган маълумотлар ўта муҳим. Ҳофиз Абру бир неча муҳим тарихий асарлар ёзиб қолдирган. Улардан бири “Мажмуайи Ҳофиз Абру” деб аталади. Унда машҳур арабийнавис тарихчи Табарий (839-923)нинг “Китоби русул вал мулк вал хулафо” (“Пайғамбарлар, подшоҳлар ва халифалар тарихи”). Китобнинг Балъамий қилган форсча таҳририда, аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, халифа Муқтадир замони (908-932)дан то халифи ал-Мустаъсим (1242-1258) давригача бўлган тарих, шунингдек, “Зайли Мужмаъ ат-таворихи Рашидуддин” (Эроннинг 1306-1393 йиллар орасидаги тарихи) ва “Зайли Зафарномомайи Шомий” асарлари ўрин олган. “Мажмуайи Ҳофиз Абру”дан айрим парчалар (матн ва таржимаси) Хонбобо Баёний (1938), Феликс Тауэр ва К.М.Майтра (1934) тарафидан нашр этилган. Ҳофиз Абрунинг иккинчи асари “Зубдат ут-таворихи Бойсунқурий” (“Бойсунқур Мирзонинг сараланган тарихи”) номи билан машҳур ва умумий тарих тилида ёзилган асардир. Унда Оламнинг “яратилиши”дан то 1426-27 йиллар орасида бўлиб ўтган воқеалар баён қилиб ўтилади. Асарнинг тўртинчи қисми оригинал бўлиб, унда Амир Темур тарихи Шомийнинг “Зафарнома”си асосида қисқа тарзда ва Шохрух Мирзо тарихи (1416 йилга қадар) батафсил баён этилади. “Забдат ут-таворихий Бойсунқурий”нинг нусхалари кам, борлари Англия, Франция, Туркия, Эрон, Афғонистон ва Россия кутубхоналарида сақланмоқда.

Амир Темур тарихи Эронлик тарихчи олим Муиниддин Натанзийнинг “Мубтаҳаб ут-таворийхий Муиний” (“Муинийнинг сайланган тарихи”) номи билан машхур бўлган асарида ҳам қисқа тарзда баён этилган. Асар 1411 йили Шерозда Темурий Искандар Мирзо саройида ёзилган. “Мунтаҳаб ут-таворийхи Муиний”нинг иккита тарихи мавжуд. Бири юқорида номи зикр этилган ва Искандар Мирзога бағишланган, иккинчиси Шоҳрух султонга тақдим этилган нусха. Унда Мирзо Искандар ҳақидаги ҳикоялар бир мунча қисқартирилган унинг шаънига айтилган ҳамдусанолар олиб ташланган.

Темурийлар давлатининг тузилиши, армиясининг тузилиши билан боғлиқ масалалар “Темур тузуклари” асарида кенг баён этилган. “Тузуки Темурий” тарихий – ҳуқуқий ҳарактердаги асар бўлиб унда Амир Темурнинг етти яшарлигидан то 1381 йилгача бўлган ҳаётининг воқеалар, бу улуг шахсининг давлат ва армия қурилиши ҳақидаги қарашлари ўз аксини топган. Асарнинг форсча таржимони Мир Абу Толиб ал-Хусайний ат-Турбатий ва шарқ кўлёмаларининг билимдонлари: Ч.Ръе, Г.Эте, Ч.А.Стори ва Н.Д.Микдухо-Маклайларнинг сўзларига қараганда, асарнинг эски ўзбек (Чиғатой) тилида ёзилган нусхаси XVII асрда Яман Ҳокими Жаъфар пошанинг кутубхонасида бўлган. Ат-Турбатий айтадики, у хаж зиёратидан қайтишида Яманда бўлган ва Жаъфар пошанинг кутубхонасини кириб кўрган. Ўшанда китоблар орасида туркий тилда битилган бир кўлёмаси асар унинг кўлига тушган. Танишиш жараёнида асар Амир Темурнинг таржимаи ҳоли бўлиб чиққан. Шундан кейин унинг қимматли бир асар эканлигини тушуниб, уни форс тилига таржима қилган ва юртига қайтишда Ҳиндистонда бўлганда ўз таржимасини Ҳиндистон подшоси Бобурий Шоҳжаҳон (1628-1658)га тақдим қилган. Подшоҳ Мир Абу Толибнинг таржимаси билан танишиб чиқиб, ундан қониқмаган, таржимадан бир қатор камчиликлар топган ва Декан вилоятининг қози Калони Аллома Муҳаммад Ашраф (1652 йил вафот этган) ни чақиртириб, унга Мир Абу Толибнинг таржимасини Темур ва Темурийлар даврида ёзилган бошқа асарлар билан солиштириб чиқишни топширган. Уни хато-камчиликлардан ҳоли этиш ва тушуриб қолдирилган ерлари бўлса, тўлдиришни топширган. Асар муаллифи ҳақида икки оғиз сўз. Бу ҳақида иккита бир-бирига зид фикр мавжуд. Инглиз шарқшунос Э.Г.Браун билан рус академиги В.В.Бартольд ҳеч қандай далил – исботсиз “Тузуклар” Амир Темур тарафидан ёзилганлигини инкор қилибгина қолмай, балки асарнинг оригиналликка ҳам шубҳа билдирганлар. Бахтга қарши оз бўлсада уларга эргашганлар ҳам бор. Ҳайрият, Амир Темурнинг “Тузуклар” муаллифи бўлганлиги ва асарнинг муҳимлигини эътироф этадиган олимлар ҳам бор экан. Улар кўпчиликни ташкил этади. Булар орасида йирик

инглиз шарқшуноси, кўлэзма асарлар билимдони Ч.А.Стори, “Темур Тузуклари”нинг инглизча таржимонлари ва ноширлари Дэвин ва Уайтлар, машҳур Турк қомусий олими Шамсуддин Сомий, йирик кўлэзмалар тадқиқотчиси Н.Д.Миклухо Маклайлар ҳам бор. “Темур Тузуклари” мукамал тарихий китоби, – деб ёзган эдилар Дэвин билан Уайт. Улар “Темур Тузуклари”ни инглизча таржимасига ёзган сўзбошиларида, бу асарни Амир Темур ўз авлодларига атаб ёзган...” деб таъкидлашган. Китобда Темур Ҳокимият тепасига қандай келганлиги сиёсий ва харбий фаолиятининг сиру асрорлари, давлатни бошқариш санъати ва харбий юришларини тушунтириб берган. Чиғатой тилида битилган бу асар форс ва Оврупо тилларига таржима қилинган. Венгер шарқшунос олими Г.Вамберининг манабу сўзлари диққатга сазовордир: (Унинг саройида) турк тили ҳамма вақт расмий мақомни эгаллаб келди. Темурнинг ўзи соф ва жайдари турк шеvasида ёзар эди. “Тузуклар” фикримизнинг далилидир. Хуллас, биз кўп йиллар давомида “Темур Тузуклари”ни ўрганиб ва уни ўша замонларда ёзилган бошқа тарихий асарлар билан, хусусан Низомиддин Шомий ва Шарафуддин Али Яздийларнинг “Зафарнома”си билан солиштириб ўрганиб, “Тузук Темурий” мукамал, оригинал, асл ва қимматли асар эканлигига ҳамда асар Амир Темурнинг ўзи, ёки унинг раҳбарлиги остида ёзилганлигига тўла ишонч ҳосил қилдик.

“Темур Тузуклари” икки қисимдан:

1. Амир Темурнинг етти ёшлиги (1342 й)дан то (1381) йилга қадар бўлган таржимайи ҳоли.

2. Давлат ва қўшинни ташкил қилиш ва бошқариш хусусидаги кўрсатмаларидан иборат.

Асар нафақат давлат ва армиянинг қурилиши ва уни идора қилиш усулини балки Чиғатой улусининг қирқ йиллик тарихини ўрганиш учун ҳам муҳим манбадир.

Ғиёсуддин Али Яздийнинг “Темурнинг Ҳиндистонга юриши кундалиги” асарини ҳам тилга олмай бўлмайди. Асар ўрта асрларга хос кўтаринки услубда ёзилган. Амир Темур, бошлиқлар шаънига айтилган ҳамда саноларга тўлиб-тошиб ётибди. Қисқаси Ғиёсуддин Алининг “кундалиги” ғазоват руҳида ёзилган бир асардир. Шунга қарамай, асар Амир Темурнинг харбий санъатини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади. Асарда амирлар ва баҳодирларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ва хинд халқининг қаҳрамона қураши ҳақида ўта қимматли маълумотлар учрайди.

Амир Темур шахсига бирёқлама қаралишидан қатъий назар, Ибн Арабшоҳнинг “Ажойиб ул-мақдур фи тарихи Таймур” (Темур тарихидан

тақдир ажойиботлари”) асари Амир Темур ва унинг замони тарихини ўрганишда муҳим манбалардан бири бўлиб хизмат қилади. Асар араб тилида, 1436 йили ёзиб тамомланган. Ибн Арабшоҳ ва унинг бу асарини махсус ўрганиб, ўзбек тилида чоп этган ўзбек шарқшунос олими Убайдулла Уватов мазкур асарни тўрт қисимдан:

1 Темурнинг келиб чиқиши, болалиги ва ёшлиги.

2 Амир Темурнинг 1370 йилдан то вафотига қадар бўлган ҳаёти, ижтимоий-сиёсий ва харбий фаолияти.

3 Мовароуннаҳрда 1405-1436 йиллар орасида бўлиб ўтган воқеалар.

4 Амир Темурнинг шахсий фазилатлари ва унинг қиёфаси тафсилоти қисмларидан иборат деб айтади.

“Ажойиб ул-мақдурда”да Амир Темур тарихи ҳақида бошқа манбаларда келтирилган маълум факт ва маълумотлардан ташқари, бошқа жуда кўп қимматли маълумотлар учратамиз. Темурнинг болалиги ва ёшлиги, у туғилган жой, Дашти қипчоқда истиқомат қилиб турган турк-муғул қавмларининг урф-одатлари, Сарой Берканинг ишғол этилиши (1402 йил, май), Самарқанд сарбадорлари, Амир Темурнинг сўнги кунлари, Темур даврида ўтган олимлар, мусиқашунослар, шахматчилар, моҳир ҳунармандлар ҳақидаги маълумотлар шулар жумласидан. “Ажойиб ул-мақдур”нинг қўлёзма нусхалари Франция, Миср, Сурия, Туркия ва Русия кутубхоналарида сақланмоқда. Матни Лейден (Голландия), Коҳира (Миср), Калькутта (Ҳиндистон)да чоп этилган. Ундан кўпгина парчалар лотин (С.Н.Мангер), Француз (П.Ватье), инглиз (И.И.Сандерс) рус (А.Э.Шмидт), ва ўзбек тилларида нашр этилган.

Абдураззоқ Самарқандий (1413-1482)нинг шоҳ асари “Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-Баҳрайн (Икки саодатли юлдузнинг чиқиши жойи ва икки денгизнинг туташган ўрни) асари Абу Саид-Элхоний (1317-1335) ва Темурий Абу Саид (1451-1469) ҳукумронлиги ўртасида Эрон ва Мавароуннаҳрнинг тарихи бўйича муҳим манбалардан биридир. Асар асосан 1470 йили ёзиб тамомлаган лекин муаллиф яна ўн йил 1480 йилгача унинг устида иш олиб борган, қайта-қайта таъриф қилиб тузатган. “Матлаъ ус-саъдайн” икки қисм (дафтар)дан иборат. Биринчисида Эрон қисман Мавароуннаҳрнинг юқорида номи тилга олинган Элхон Абу Саиднинг туғилишидан Темурийзода Ҳалил Султоннинг Самарқанд тахтини тортиб олингача (1405 й. март ойи) кечган тарихини, иккинчи дафтар Шохрух Султоннинг Хуросон тахтига ўлтиргани (1405 й)дан то Султон Ҳусайн Бойқаронинг Ёдгор Мирзо устидан ғалаба қозониб, иккинчи бор Хуросон тахтига минганича бўлган катта тарихий даврни ўз ичига олади. Лекин, 1427 й, гача кечган тарих баёни компиляция бўлиб,

асосан Ҳофизи Абрунинг “Мажмаъ ут-таворих” китобига асосланган. Асарнинг мустақил ёзилган қисми, яъни 1427-1470 йил воқеалари Эрон ва Мавароуннаҳр тарихини, бу мамлакат халқларининг маданий ҳаётини ўрганишда асосий манба бўлиб хизмат қилади. Асарда Темурийлар давлатининг Хиндистон, Хитой ва бошқа мамлакатлар билан бўлган сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқаларига оид маълумотлар ҳам кўп. “Матлаъ ус-саъдайннинг матни Покистонлик шарқшунос олим мавлоно Муҳаммад Шафиф тарафидан 1941 ва 1949 йиллари Лоҳурда чоп этилган. Унда айрим парчалар Немис, Француз, Инглиз, Рус ва бошқа тилларда ҳам эълон қилинган. Асарнинг бир қисми, яъни муаллифининг Хиндистонга қилинган саёҳати Ўзбекистонлик йирик шарқшунос олим А.Ўринбоев тарафидан ўзбек тилига ўгирилиб, нашр қилинган. “Матлаъ ус-саъдайн”нинг 1405-1429 йиллар воқеаларини ўз ичига олган катта қисми яна шу олим тарафидан ўзбек тилида чоп этилган.

Амир Темур ва унинг соҳиби тож фарзандлари тарихи яна бир йирик тарихшунос олим Мирҳонд тарафидан ёзилган. Мирҳонднинг бу асари умумий тарих типига бўлиб, “Равзат ус-сафо фи сийрат ал-анбиё вал мулук вал хулафо” (“Пайғамбарлар, подшолар ва халифаларнинг таржимайи ҳоли ҳақида жаннат боғи”), номи билан машҳур ва етти жилдан иборат. Алишер Навоийнинг топшириғи билан ёзилган асар умумий тарих типигаги асар бўлиб, дунёнинг “яратилиши” дан то 1523 йилга қадар Мовароуннаҳр, Эрон ва мусулмон шарқида бўлиб ўтган воқеалар ҳақида хикоя қилади. Асарнинг I - V жилдлари компиляция, сўнгги икки жилди, аниқроғи VI асрнинг иккинчи ярми тарихини ўрганишда зўр аҳамиятга эга. Унда Темур ва авлодининг тарихи то Султон Бойқаро ва авлоди замониғача, яъни, 1522-23 йилгача баён этилган. “Равзат ус-сафо”нинг кўлёма нусхаларини Англия, Туркия, Хиндистон, Эрон, Русия, Миср, Франция, Татаристон, Арманистон, Тожикистон, Швеция, Қуддуси Шариф, Голландия ва Ўзбекистон кутубхоналарида учратиш мумкин. Асарнинг матни Хиндистон ва Эронда чоп этилган. Ундан айрим парчалар француз, швед, лотин ва бошқа тилларга таржима қилиб, чоп этилган. “Равзат ус-сафо”нинг туркча ва ўзбекча таржималари ҳам бор. Ўзбекча таржимаси Хивада Мунис, Огоҳий ва Муҳаммад Юсуф тарафидан амалга оширилган. “Описание тюркских рукописей института народов Азии” каталоги (Ленинград, 1955).

Хатто, махсус тарихий асарларда ҳам учрамайдиган ўта фойдали материалларни Давлатшоҳ Самарқандий (1435-1495)нинг “Тазкират уш-шуаро” (“Шоирлар зикрида”) асарида (1486 йили ёзилган) учратиш мумкин. Давлатшоҳнинг “Тазкират уш-шуаро” асари муқаддима, хотима ва етти

қисмдан иборат. Темур ва Темурийлар даврида ўтган шоирлар (уларнинг ичида Темурийзода шоирлар ҳам бор) асарнинг VI-VII қисмларида ва асар хотимасида қайд этилган тарихий воқеалардан, Хуросон сарбадорлари ҳақида келтирилган маълумотлар зўр қимматга эгадир. Давлатшоҳ Самарқандийнинг “Тазкират ут-шуаро” асари (матни) Бомбай (1887), Лондон (1901) ва Техрон (1958), шаҳарларида чоп этилган. Ундан айрим парчалар рус, француз, турк ва немис тилларида эълон қилинган. Асарнинг инглизча тўла нашри Э.Г.Браур тарафидан амалга оширилган. Унинг ўзбек тилига таржимаси 1900 йили Хивада Муҳаммад Рафиъ тарафидан амалга оширилган. Битта қўлёзма нусхаси Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Шарқшунослик институти кутубхонасида 7016 рақам остида сақланмоқда.

Мовароуннаҳр ва Хуросоннинг XV аср сўнгги чораги ва XVI-аср бошларида ижтимоий-сиёсий тарихи Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сияр” ва Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”сида кенг баён этилган. Хондамир (1475-76-1535) истеъдодли сермахсул олим бўлиб, у Хуросон ва Мовароуннаҳрнинг XV-XVI асрнинг биринчи чорагидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётига бағишланган ўнга яқин йирик асарлар ёзиб қолдирган. Улар орасида олимнинг “Ҳабиб ус-сияр фи ахбор ва афроз ул-башар” (“Инсон хабарлари ва фарзандларида дўстнинг таржимойи ҳоли”) асари алоҳида ўрин тутди. Бу катта асар умумий тарих типиде ёзилган ва уч жилддан иборат. 1524 йили ёзиб тамомланган. Лекин, олим асар устида яна кўп йил иш олиб борди ва 1529 йили уни поёнига етказди. Аммо асарнинг фақат бир қисми – учинчи жилднинг учинчи ва тўртинчи қисмлари оригинал бўлиб, уларда, ката фактик материаллар асосида, Хуросон ва Мовароуннаҳрда сўнгги Темурийлар: Султон Ахмад, Султон Муҳаммад ва Султон Ҳусайн Бойқаро даври тарихи кенг ёритиб берилган. “Ҳабиб ус-сияр”да бой тарихий материалдан ташқари, этнографик (турк қавмларидан барлос, арғин, қипчоқ, жалойир, қўнғурот ва бошқаларнинг мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли), ижтимоий-иқтисодий характердаги (тарихий амирлар ва суюрғал эгаларининг давлат ва жамиятда тутган ўрни, солиқ ва қиримлар) маълумотлар, Темурийлар давлатнинг маъмурий тузилиши, марказий давлат аппарати, катта-кичик мансабдорлар ва уларнинг ҳуқуқ ва вазифалари, мамлакатнинг маданий ҳаёти, яъни олимлар, шоирлар, мусиқашунослар, хаттотларнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида ҳам қимматли маълумотлар учратамиз. “Ҳабиб ус-сияр”нинг қўлёзма нусхалари кўп ва жаҳоннинг қўлёзмалар сақланаётган кўпчилик кутубхоналарида мавжуд. Асардан айрим парчалар инглиз, француз, ўзбек ва рус тилларига таржима қилиниб, нашр этдирилган.

Мавзуни ўрганишда Темурийзода Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530)нинг жаҳонга шуҳрат таратган “Бобурнома”си, Клавихонинг “Эсдаликлари” ва Иоганн Шильтбергернинг “Саёҳатлари”ни эсламай бўлмайди. Бобурнинг “Бобурнома”си ва умуман бу улуғ инсоннинг илмий-адабий мероси жаҳон илмий жамоатчилигига маълум. Бу ҳақида кўп нарса ёзилган. Шунинг учун ҳам биз “Бобурнома” да Мовароуннаҳрнинг XV-аср охири ва XVI бошларидаги ижтимоий-сиёсий аҳволи ҳақида келтирилган факт ва материалларни шунчаки эслатиб ўтишни лозим топдик. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг даври ҳақида келтирилган факт маълумотлари, хулосалари ўзининг ҳаққонийлиги ва муфассаллиги билан ажралиб туради. Масала шундаки, у бу воқеа ва ҳодисаларни ўз кўзи билан кўрган, ўзи гувоҳлик берган. Бобур Темурийлар салтанатининг инқирозига улар ўртасида бирлик ва яқинлик йўқлигидан, ўзаро феодал кучайиб кетганлигидан, деб ҳисоблайди. “Бобурнома”да XV охири ва XVI аср бошларида Фарғона водийсида, Тошкент ва унинг теvarак-атрофида, Хўжанд, Самарқанд ва Хисор вилоятларида истиқомат қилиб турган турк-мўғул қавмлари, хусусан қипчоқ, чарос (чурос), мўғул, барлос, минг, чўғроқ, манғит, ўтарчи ва Туркистон теvarагида кўчиб юрган қавмлар ҳақида зикр этилган воқеаларнинг урф-одатлари ҳақида қимматли маълумотлар келтирилади. Бу маълумотлар этнограф олимлар учун, хусусан ўзбек, қозоқ ва Марказий ҳамда Ўрта Осиёдаги бошқа туркий халқларнинг этник тарихини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Асарда карвон йўллари, Мовароуннаҳр, Хуросон, Афғонистон ва Бадахшоннинг шаҳар ва қишлоқлари, ўша ерларда истиқомат қилиб турган халқлар, уларнинг урф-одатлари ва машғулотлари ҳақида келтирилган Жўғрофий маълумотлар ҳам зўр қимматга қимматга эга. Бобур эсдаликларида ўзи босиб ўтган юртларнинг табиати, наботот ва ҳайвонот дунёси ҳақидаги маълумотлар ҳам алоҳида ўрин тутади. Бобурнинг Темурийлар давлатининг тузилиши ва Темурийлар армияси ҳақида келтирилган маълумотлари ҳам муҳим аҳамият касб этади. Умуман олганда “Бобурнома” кўп қиррали асар бўлиб, у нафақат тарихий манба, балки жуғрофия, ботаника, экономика соҳаларида қимматлидир. Асарнинг қўлёзма нусхалари Англия, Хиндистон, Русия, Ўзбекистон, Тожикистон ва бошқа мамлакатларнинг кутубхоналарида сақланмоқда. Унинг эски ўзбек тилидаги матни И.Н.Ильминский 1857, А.Бевеиж (1905), С.Мирзаев ва П.Шамсиев (1960) лар тарафидан чоп этилган. Асарнинг форсча, инглизча, фраунцузча, туркча, русча ва ҳозирги замон ўзбек тилига қилинган таржималари бор. (1982 й.)

“Бобурнома”нинг энг яхши нашри А.Бевеиж амалга оширган нашр ҳисобланади.

Амир Темур саройидаги муҳитни у ердаги тартиб қоидаларни ўрганишда 1404 йл Самарқандга келган Кастилия қироли Генрих III (1390-1407)нинг элчиси Руи Гонсалес де Клавихонинг “Кундалиги” катта аҳамиятга эга. Ўша пайтда Клавихо Амир Темурнинг хотинлари, келинлари ва набираларини ҳам кўрган, Темурнинг ўзи билан учрашган; саройдаги ҳаётни кузатган. Шу сабабдан унинг “Кундалиги” Темур давлатнинг ички ҳаётини ўрганишда унинг Оврупа давлатлари билан олиб борган муносабатлари тарихини ўрганишда катта роль ўйнайди. Клавихонинг “Кундалиги”да Амир Темур ва авлоди тасарруфида бўлган халқлар ва мамлакатларнинг умумий аҳволи, уларнинг урф-одати ҳақида шунингдек Темурнинг келиб чиқиши, унинг ота-боболари, Сохибқироннинг амри билан қурилган ва бунёд этилаётган маҳобатли қасрлар, масжиду, мадрасалар, бозор расталар ҳақида ҳам қимматли маълумотлар учратамиз. Клавихонинг “Кундалиги” эски испан тилида 1582 йили Савилья (Испания)да, орадан икки аср ўтиб, 1779 йили Амирохо тарафидан, 1782 йили Антонио Санчо тарафидан чоп этилган. Бу нашрларнинг энг қимматлилари 1582 йиллари амалга оширилган нашрлар ҳисобланади. Асар 1943 йили Мадридда Ф.Лопес эстрада тарафидан, зарур изоҳлар билан қўшиб, қайта нашр қилинган. Клавихонинг мазкур асари рус тилига таржима қилиниб, 1881 йили Н.И.Срезневский, 1990 йилда эса И.С.Миронова тарафидан чоп этилди. Мукамал нашр И.С.Миронованики деб ҳисобланди.

Амир Темур даври тарихини ўрганишда, айниқса Олтин ўрда, Туркия ва Болқон мамлакатларининг XIV асрнинг сўнгги чораги XV аср бошларидаги сиёсий аҳволини ўрганишда Бавариялик Иоганн Шилтбергернинг “Саёхатнома”си ҳам диққатга сазовордир. И.Шилтбергернинг “Саёхатнома”си XV-XIX асарлар мобайнида Оврупо мамлакатларида шуҳрат топди. Шу давр ичида асар олти марта нашр этилди, шундан тўрттаси XV асрда 1859 йилда асар немис ва инглиз тилларида чоп этилди. И.Шилтбергер асарининг аҳамияти овруполик бир груҳ шарқшунос олимлар: Катмер, Девизак, Сен-Мартин, Ҳаммер, Пургиталь ва бошқалар тарафидан эътироф этилди. И.Шилтбергер “Саёхатномаси”нинг жиддий камчиликлари йўқ эмас. Буни вақтида муаллифнинг ўзи тан олган эди. У бундай деб ёзган: “Таъриф ва тафсифлар жуда ҳам тўла эмас. Чунки асрликда бўлганим сабабли, истаганимни қилаолмадим”. Лекин, бу асарни диққат-эътибор билан ўқиб чиқиш шуни кўрсатдики, унда кичик Осиё, Болқон мамлакатлари ва Олтин Ўрданинг XIV асрнинг 80-90 йилларидаги сиёсий аҳволи ҳақида муҳим факт ва маълумотлар

учрайди. Амир Темур ва унинг Эрон билан Озарбайжонда ҳукмронлик қилган авлоди тарихига асарнинг XIV-XXIV боблари бағишланган (21-30 бетлар), хусусан XXIV бобда бу ҳақда кўпроқ маълумот учратамиз. Муаллиф бу бобда ўзининг қандай қилиб Темурийзода Абубакрнинг 1398 йилда Эрон ва Озарбайжондаги ноиб қўлига аср тушиши, мадад истаб Табризга келган олтин ўрдалик шаҳзода Чекра ўғлоннинг ҳаёти ҳақида ҳикоя қилади.

Мақола сўнггида яна икки муҳим асар: “Муъиз ул-ансоф” (“Ҳурматли кишиларнинг насабномаси”) ва Фасих Аҳмад Ҳавофий (1375-1442)нинг “Мужмали Фасихий” (“Фасихийнинг тарихлар мажмуаси”)га қисқача тўхталиб ўтамыз. “Муъиз ул-ансаб”нинг муаллифи номи юқорида тилга олинган Ҳофиз Абру деб фараз қилинади. Ҳофиз Абру “Шуъаби панжгона”да араблар, хиндлар ва фарангийларнинг келиб чиқишига оид қисман Чингизийлар, яъни XIII-XIV асрларда Мовароуннаҳрни идора қилган Чигатойхон авлоди, Темур ва Темурийлар шажарасини келтирган. Бу асар Амир Темур ва авлодининг келиб чиқишини ўрганишда муҳим кўмакчи қўлланма вазифасини ўтиш мумкин. “Муъиз ул-ансаб” бизгача уч нусхаси етиб келган. Булардан биттаси Туркияда Тупқопи сарой кутубхонасида 2152 рақамда сақланади. Тўла эмас; Бойсункур мирзо “Альбоми”дан олинган минатюралари бор. Иккинчиси Париж миллий кутубхонасида сақланади (тартиб рақами ОЧ 467). Ва, ниҳоят, Британия музейида сақланиб турган нусха (безакли XVII аср). Америкалик таниқли шарқшунос олим Ж.Вуд шу нусха асосида Темур ва тўрт ўғли авлодининг шажарасини тузди ва китоб ҳолида эълон қилди.

Фасих Аҳмад Ҳавофийнинг “Мужмали Фасихий” асарига келсак, у ўзига ҳос қомусий маълумотнома бўлиб, дунёнинг яратилишидан то муаллифнинг замонигача шарқ мамлакатларида, шунингдек Мовароуннаҳр билан Хуросонда бўлиб ўтган муҳим воқеалар, машҳур кишилар олимлар шоирлар давлат арбоблар, бунёд этилган улуғ бинолар, масжидлар, мадрасалар, карвонсаройлар сув иншоотлар ҳақида қимматли маълумот беради. Асарда бўлиб ўтган воқеалар йилма-йил кўрсатилган ва бу ундан фойдаланишни бирмунча енгиллаштиради. Фасих Аҳмад Ҳавофийнинг “Мужмал-и Фасихий” асари устозимиз академик Дилором Юсупова томонидан батафсил ўрганилган ва алоҳида китоб шаклига келтирилиб халқимиз эътиборига хавола этилган.

FRANSIYANING YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI BILAN MIGRATSION MASALALAR BORASIDAGI HAMKORLIK TARIXI. SHENGEN KELISHUVI

SAYDULLAYEV Sirojiddin Asatullayevich

Alfraganus univesiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Xalqaro munosabatlar va tarix” kafedrası o‘qituvchi

sirojiddin.asatullayevich@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, Fransiyaning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan migratsion masalalar borasidagi hamkorligi tarixi va Shengen kelishuvining o‘rni va ahamiyati batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Migratsiya jarayonlari, Yevropa Ittifoqi, Integratsiya jarayonlari, Siyosiy qochoqlar, Noqonuniy migratsiya, Shengen kelishuvi, Yevropa Kengashi, Migrantlar savdosi*

ABSTRACT

The article examines in detail the history of cooperation between France and the European Union on migration issues, as well as the role and importance of the Schengen Agreement.

Keywords: *Migration processes, European Union, Integration processes, Political refugees, Illegal migration, Schengen Agreement, Council of Europe, Migrant trafficking*

KIRISH

Fransiyaning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan migratsion masalalar borasidagi hamkorligi tarixi, migratsiya jarayonlarining xalqaro xususiyat kasb etishi va integratsiyalashuv jarayonlarining muhimligi bilan ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi, o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya maqsadlariga erishish uchun, migratsiya masalalarini doimiy ravishda muhokama qilib kelmoqda. 2050-yillarga kelib, Yevropa Ittifoqi aholisi darajasini saqlab qolish uchun yiliga 949 ming chet elliklarni qabul qilish zarurati tug‘iladi. Bu raqamlar, migrantlar va ularning avlodlarining Yevropa Ittifoqi aholisi sonidagi ulushining 75% ga yetishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Umumyevropa migratsiya tizimi, G‘arbiy Yevropa davlatlaridan muhojirlarning kirib kelishini yo‘lga qo‘yish va Sharqiy Yevropa davlatlarida maqbul sharoitlar yaratish maqsadida faoliyat yuritadi. Yevropa migratsiya modelining asosiy xususiyatlari siyosiy qochoqlar sonining kamayishi, qurolli mojarolar zonalarida

emigrantlar sonining o'sishi va ichki chegaralarda nazoratni kuchaytirish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Shengen kelishuvi, Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi migratsiya masalalarini boshqarish uchun muhim hujjat bo'lib, ichki chegaralarni bekor qilish va erkin harakatlanishni ta'minlash maqsadida tuzilgan. Ushbu kelishuv, 1985-yilda imzolanganidan so'ng, 1995-yilda kuchga kirgan va bugungi kunda 29 ta davlatni qamrab oladi. Shengen hududi, migratsiya jarayonlarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi va Fransiya, bu jarayonda yetakchi davlatlardan biri sifatida o'zining migratsiya siyosatini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Migratsiya jarayonlari ma'lum bir hudud doirasi bilan cheklanmasdan, balki xalqaro xususiyat kasb etishi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, integratsiya jarayonlarining eng yuqori va samarali shakllangan tuzilmalaridan biri hisoblangan Yevropa Ittifoqi uchun migratsiya masalasi tarixiy davrlardan muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan va hozirda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. 2050-yillarda Yevropa Ittifoqi aholisi 2000-yillar darajasida saqlash uchun yiliga 949 ming chet elliklarni qabul qilish kerak; mavjud iqtisodiy faol aholi sonini saqlash uchun 1,4 mln., iqtisodiy faol va nafaol aholi o'rtasidagi nisbatni kamayib ketishining oldini olish uchun esa 12.7 mln chet elliklarni qabul qilishi kerak bo'ladi. So'nggi holatda immigrantlar va ularni avlodlarini Yevropa Ittifoqi aholisi sonidagi ulushi 75% ni tashkil qilishi mumkin bo'lar edi¹⁹⁰.

Xalqaro migratsiya jarayonlarining o'ziga xos tajribaga ega bo'lgan modeli sifatida Umumyevropa migratsiya tizimi modelini ko'rsatib o'tish mumkin. Umumyevropa migratsiya tizimi modeli Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga G'arbiy Yevropa davlatlaridan muhojirlarning kirib kelishini yo'lga solish va muhojirlarning ketib qolishiga to'sqinlik qiluvchi mamlakatlar, eng avvalo, Sharqiy Yevropa davlatlarida maqbul ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni vujudga keltirish maqsadlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Yevropa migratsiya modeliga xos bo'lgan eng asosiy xususiyatlar quyidagilardir: siyosiy qochoqlar miqdori keskin kamaygan holda migratsiya xususiyatining sezilarli o'zgarishi; qurolli mojarolar zonalarida emigrantlar sonining barqaror o'sib borayotganligi; Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli migratsiya jarayonlarining jadallashuvi; o'sib borayotgan migratsiya almashuvini hisobga olgan holda tashqi va ichki xavfsizlikni ta'minlovchi me'yoriy bazani yaratishga intilish; ichki chegaralarda

¹⁹⁰Глуценко Г.И. Влияние международной трудовой миграции на развитие мирового и национального хозяйство. –М.: «Наука». 2006. – С. 28.

chegara nazoratini bekor qilish bilan birga ichki chegaralarda yana-da ta'sirchanroq nazoratni ta'minlash; Yevroittifoq darajasida jinoyatchilikning oldini olish va bartaraf etish borasida birgalikda jadal ishlar olib borish; muammoli masalalarni hal qilishning muqobil usullari to'g'risidagi axborotlarning keng oshkoraligi va ularga erishishning osonligi, jabr ko'rganlarga zararni qoplashga tegishli huquqiy hujjatlarni o'zaro e'tirof etish va minimal me'yorlarni belgilash va hokazolar¹⁹¹.

Yevropada iqtisodiy integratsiyaning kuchayib borishi migratsiya jarayonlariga ham bevosita daxldor ekanligini ko'rish mumkin. G'arbiy Yevropaga migrantlar oqimining kirib kelishi asosan ikkinchi jahon urushi tugallangandan so'ng kuchaya boshladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropada immigratsiya markaziy muammolardan biriga aylandi. Yevropa Kengashining "Migratsiyani boshqarish strategiyasi" materiallarida qayd etilishicha, o'tgan asrning 90-yillariga kelib Yevropa mamlakatlarining migratsiya lug'atida "transzit migratsiyasi", "to'liq bo'lmagan migratsiya", "mehnat turizmi", "migrantlar savdosi", "kunlik transchegara – mayatniklik migratsiya" atamalari paydo bo'ldi. Yevropaning ko'p qismida vaqtinchalik migrantlarning oila qurishlari yoki yangi oilalar vujudga kelishi oqibatida doimiy migratsiya paydo bo'ldi. Shuningdek, Yevropa Kengashi islohotlarida migratsiya sohasidagi xalqaro strategiya ishlab chiqish jarayonida turistik sayohatga chiqqan yoki xizmat safarida bo'lgan ko'p sonli migrantlar ham hisobga olinishi lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan. G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi migrantlar qabul qilishning turli ko'rinishlari orasida siyosiy boshpana berish alohida ajralib turadi. 1998-2002-yillari G'arbdan boshpana qidirganlar soni 400-420 ming atrofida bo'lgan. Ushbu davrda Yevropa davlatlaridagi immigrantlar miqdori sezilarli darajada yuqoriga ko'tarildi. XX asr oxirlariga kelib Yevropada qonuniy immigrantlar miqdorining o'zi 18,2 mln kishiga yetgani ham alohida e'tiborga molik jihatdir¹⁹². Shu sababdan Yevropa davlatlari migratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va boshqaruvni nazorat qilish ushbu davlatlar oldidagi eng asosiy vazifa hisoblanadi. Xususan, Yevropa Kengashi o'zining migratsiya sohasidagi boshqaruvchilik rolini Yevropa ijtimoiy xartiyasi, Inson huquqlar bo'yicha Yevropa sudi ko'magida amalga oshirmoqda. Yevropa ijtimoiy xartiyasining bir qator moddalari migrantlar va ularning oilalari huquqlari va manfaatlarini bevosita himoya qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, Yevropa ijtimoiy xartiyasi nafaqat qonuniy, balki noqonuniy migrantlarning huquqlarini ham himoya qiladi. Inson huquqlar bo'yicha Yevropa sudi amaliyotidan ko'plab misollar, hatto migratsiya

¹⁹¹ Джунайдуллаев Д. А. Ўзбекистон минтакаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштартиш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т.: 2012. – Б. 40-41.

¹⁹² Соколова Т.С. Политика регулирования иммиграционных потоков и интеграции иммигрантов в ведущих европейских странах // Человек. Сообщество. Управление. 2009, №1. – С.78.

noqonuniy bo'lganda ham bu sud migrantlarning sha'ni, huquq va erkinliklarini hurmatlash, ularning shaxsiy va oilaviy hayoti, ular yashab turgan mamlakat ma'muriyati bilan o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish huquqini himoyalaydi¹⁹³. Shu bilan birgalikda, migrantlarning erkin harakatlanishi, ularning bir davlat hududidan boshqasiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldini olish, qolaversa Yevropa integratsiya jarayonlarida umumiy migratsiya siyosatini olib borish maqsadida o'zaro shartnomalar va kelishuvlar ishlab chiqilgan. Bulardan eng asosiysi sifatida Shengen kelishuvini keltirib o'tish mumkin.

Shengen kelishuvi (Lyuksemburdagi shahar-qishloq nomidan olingan) uning ishtirokchilari hisoblangan davlatlar hududida ichki chegaralarni bekor qilish, tashrif buyuruvchilarning butun hudud bo'ylab erkin harakatlanishi va sayohat qilishini yo'lga qo'yish maqsadida tuzilgan kelishuvdir. Ushbu kelishuv 1985-yil 14-iyunda yettita davlat – Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya, Ispaniya, Portugaliya va Lyuksemburg tomonidan imzolangan. Biroq, ushbu kelishuv oradan roppa-rosa o'n yil o'tgach, ya'ni 1995-yil martda kuchga kirdi. Shengen kelishuvi a'zolari ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida umumiy hudud – Shengen hududini yaratishgan. Shengen hududi 42673 km dengiz chegaralari va 7721 km quruqlik chegaralarini egallaydi. Bugun kunda Shengen hududiga 29 ta davlat kiradi. Bular: Fransiya, Germaniya, Italiya (Livignoni hisobga olmaganda), Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Belgiya, Vengriya, Gretsiya (Afonni hisobga olmaganda), Daniya (Grenlandi va Farer orollarisiz), Islandiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Norvegiya (Shpisbergenni hisoblamaganda), Malta, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Polsha, Finlandiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Bolgariya, Xorvatiya, Ruminiya, Niderlandiya Estoniya, Lixtenshteyn. Bulardan 25 tasi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hisoblanadi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, sanab o'tilgan mamlakatlar orasida Yevropa Ittifoqi a'zolari hisoblanmagan mamlakatlar (Lixtenshteyn, Shvetsariya, Norvegiya, Islandiya) ham Shengen hududiga kiritilgan. O'z navbatida, Shengen hududiga kirmagan Irlandiya va Kipr kabi Yevropa Ittifoqi a'zolarini ham alohida qayd etish joiz. Biroq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari fuqarolarining o'z mamlakati Shengen hududiga kirmasa-da, butun Yevroittifoq bo'ylab erkin harakatlanish huquqi mavjud¹⁹⁴. Bundan tashqari Shengen hududi ishtirokchilarining a'zo mamlakatning istalgan hududida erkin harakatlanish huquqini ta'minlash maqsadida Shengen vizasi joriy etilgan. Shengen vizalari shaxslarga Shengen mamlakatlari hududlarida 180 kun ichida maksimal 90 kun Shengen zonasida qolish va sayohat qilish imkoniyatini

¹⁹³Джунайдуллаев Д. А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштарииш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т.: 2012. – Б. 42.

¹⁹⁴ Europe without borders. The schengen area // European commission. www.europa.eu/home-affairs

beradi. Shengen vizalari bir qator ko‘rinishlarga ega: *A, B, C*. *A* va *B* toifadagi vizalar Shengen mamlakatlari orqali tranzit qiluvchi shaxslarga beriladi. *C* toifadagi vizalar esa Shengen mamlakatlariga tashrif buyuruvchi mehmonlar, turistlar va biznes hamkorlarga taqdim etiladi. Shu bilan birgalikda *A* toifadagi vizalar Shengen guruhi davlatlariga aviaqatnov orqali tashrif buyuruvchilar uchun beriladi. *B* toifadagi vizalar yerusti transportining istalgan turida Shengen hududidagi bir yoki bir qancha mamlakatlar orqali keladigan shaxslarga taqdim etiladi. *C* toifadagi vizalar esa qisqa muddatli vizalar deb nomlanib, Shengen hududida 90 kundan ko‘p bo‘lmagan miqdorda harakatlanuvchi shaxslarga beriladi. *C* toifadagi vizalarning bir qancha kategoriyalari mavjud. Masalan, *C1* Shengen hududida 30 kungacha qolish huquqini beradi, *C2* va *C3* toifadagi vizalar 90 kungacha muddatda beriladi. Shundan *C2* yarim yil davomida viza olish imkoniyatini bersa, *C3* bir yil davomida olish mumkinligini anglatadi. Har bir Shengen vizasi foydalanishiga qarab *birmartalik*, *ikkimartalik* va *ko‘pmartalik* vizalarga bo‘linadi. Birmartalik viza shaxs yil davomida 30 kun tashrif buyurish huquqiga ega bo‘lib, 20 kun kelish va yana 10 kun qolish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tashrif buyuruvchi 30 kundan darhol foydalanishi zarur. Ikki martalik vizada esa ushbu muddatni ikki qismga ajratish mumkin. Ko‘pmartalik viza Shengen hududidagi mamlakatlardan bittasiga beriladi, biroq fuqaro kelishuvga a‘zo har qanday mamlakatga kirish huquqiga ega. Ko‘pmartalik viza bir oydan bir yilgacha muddatda rasmiylashtiriladi, biroq sayyohlar jami 90 kundan ziyod bo‘lmagan muddatda chegarada qolishi mumkin.

Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biri hisoblangan Fransiya Shengen kelishuvining tashabbuskorlari sirasiga kiradi. Fransiya bilan birgalikda Shengen mamlakatlarining migratsiya siyosati o‘z ichiga bir qator asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- tashqi chegara nazoratini kuchaytirish;
- migrantlar oqimi nazoratini kuchaytirish bo‘yicha milliy va xalqaro darjada chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- noqonuniy migratsiya va noqonuniy bandlik bilan kurash olib borish;
- qochoqlarni boshpana bilan ta‘minlash tizimi takomillashtirish yuzasidan qabul qiluvchi va bufer mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish¹⁹⁵.

1998-yil boshlaridan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari doimiy ravishda immigrantlar qabul qiluvchi mamlakatlarga aylanib qolishdi. Bu esa migratsiya jarayonlarida quyidagicha siyosat olib borishni taqozo qila boshladi:

¹⁹⁵ Судоплатов П.А. Миграционная политика стран Евросоюза. М.: Российская академия наук, 2006. - С.11.

- fuqarolikka qabul qilishning yanada liberal usullarini qayta tayyorlash va ishlab chiqish;
- fuqarolikka qabul qilish muddatini qisqartirish (15 yoshdan, ko'pchilik mamlakatlar uchun 7-8 yosh);
- xorijliklarga nisbatan ksenofobiya va rasizmni batomom bartaraf etish borasida maxsus qonunchilik aktlarini qabul qilish;
- kelib chiqish tamoyilini doimiy va vaqtinchalik yashash joyi tamoyiliga o'zgartirish;
- oilalarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar¹⁹⁶.

Shengen kelishuvi joriy etilishi bilan Shengen hududiga migrantlar oqimi kirib kelishi kuchaya boshladi. Mana shunday sharoitda immigrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlar noqonuniy migratsiya muammosi bilan to'qnash kela boshladi. Tabiiyki, Yevropaning "muhojirlar Makkasi" deya e'tirof etilgan Fransiya uchun bu muammo chigal tus oldi. Shengen kelishuvi imzolangan qadar har bir davlat ushbu muammoni mustaqil ravishda hal etardi, biroq chegara nazorati bekor qilingandan so'ng Fransiya uchun Shengen hududi doirasida migratsiya jarayonlarini boshqarish zarurati yuzaga keldi. Shu boisdan Fransiya hukumati oldida noqonuniy immigratsiya masalalariga qarshi kurash rejasini ishlab chiqish vazifasi turardi.

Fransiyaning immigratsiya masalalari bo'yicha vaziri Erik Besson Fransiya hukumati agar noqonuniy immigrantlar qay tarzda kelganligi to'g'risidagi ma'lumotni ayirboshlashsa, vaqtinchalik noqonuniy yashash uchun ruxsat berishga tayyorligi to'g'risidagi buyruqni imzoladi. Bundan Fransiya hukumati noqonuniy migratsiya oqimining asosiy yo'nalishlarini aniqlab, zarur choralarni oldindan ko'rish va bu bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadini amalga oshirishni rejalashtirdi. Fransuz davlat arbobi Aleksandr Latsaning ta'kilashicha, noqonuniy migrantlar davlatdan ko'ra, ularni Fransiya jo'natgan jinoiy tuzilmalardan ko'proq qo'rqadi. Kimki hukumatga bu haqida xabar bersa, hukumat ushbu shaxslarga yetarli darajada imkoniyat yaratib beradi¹⁹⁷. Shu bilan birgalikda hukumat Yevropa Ittifoqi doirasida migratsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, "Fransiya Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biri sifatida o'zaro muvofiqlashtirilgan migratsiyani Yevroittifoq faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb hisoblaydi"¹⁹⁸.

Ta'kidlash joizki, Shengen kelishuvi Yevropa mamlakatlarida erkin harakatlanish huquqini kafolatlasada, vaqt o'tishi bilan ko'pchilik a'zolarining,

¹⁹⁶ Зайончковская Ж.А. Трудовая миграция в СНГ: социальные и экономические эффекты. М.: 2003. - С.35.

¹⁹⁷ Анатолий Поморцев. Европа выгоняет мигрантов. <http://www.rbcdaily.ru/2009/02/06/world/400726>

¹⁹⁸ Fransiya ichki ishlar vazirligining rasmiy sayti <http://www.vie-publique.fr/actualite/alaune/europe-vers-politique-commune-immigration.html>.

jumladan Fransiyaning ham immigratsion qonunchiligi keskin ko‘rinish olishiga sabab bo‘la boshladi. Qolaversa, migratsiya doirasida o‘zaro muvofiqlashtirilgan siyosatning ijobiy roli mavjudligiga qaramay, migratsiya bilan bog‘liq turli masalalarda mamlakatlar o‘rtasida qarama-qarshi yonashuvlar vujudga keldi. Masalan, Fransiya va Buyuk Britaniya chegarada tartibni saqlash masalasida turli xil pozitsiyani egallashgan. Buyuk Britaniya Fransiyaning Yevropa Ittifoqida chegara tartibini markazlashtirish g‘oyasiga qarshi chiqqan. Shuningdek, Buyuk Britaniya immigrantlar va qochoqlar to‘g‘risidagi milliy qonunlarni bir xillashtirishga qarshi chiqib, bu borada mustaqil qaror qabul qilish huquqini o‘zida saqlashga harakat qildi¹⁹⁹.

Fransiyaning Yevropa Ittifoqi doirasida migratsiya muammolarini hal qilishga alohida va jiddiy e‘tibor qaratgan davlat deb hisoblash mumkin. Ushbu mamlakat YI doirasida migratsiyaga doir bir qancha loyihalar tashabbuskori hisoblanadi. Xususan, 2008-yil 7-iyulda Kannada bo‘lib o‘tgan Yevroittifoq ichki ishlar va adliya vazirlari o‘rtasidagi uchrashuvda Fransiya “Qochoqlarni taqdim qilish va immigratsiya to‘g‘risidagi pakt” loyihasini namoyish etdi. Ushbu loyiha YI mamlakatlarida immigratsiya siyosatini muvofiqlashtirish va umumiy prinsiplarni qabul qilish uchun yaratilgan.

XULOSA

Fransiya Respublikasida migratsiya siyosatini shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Buyuk fransuz burjua inqilobida fransuzlar va xorijliklar o‘rtasida milliy tenglikni ta‘minlash siyosati olib borildi. Birinchi jahon urushida Fransiya koloniyalaridan immigrantlar oqimining kuchayishi natijasida ularni arzon ishchi kuchi va harbiy frontda ishtirok etishlari uchun jalb qilish siyosati amalga oshirila boshlandi. Migrantlar oqimini nazorat etish va ularni o‘z manfaatlariga munosib tarzda faoliyat yuritishida migrantlar faqat arzon ishchi kuchi bo‘lib qolmasdan, balki malakali bo‘lishini ta‘minlash masalasi ikkinchi jahon urushidan keyingi Fransiya migratsiya siyosatida amaliy ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Fransiya XX asrning ikkinchi yarmi oxirlariga kelib migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan nazorat qilish va boshqarishni oldingi davrlarga nisbatan kuchaytira boshladi. Agar qiyosiy tahlil asosida e‘tibor qaratsak, Fransiya migratsiya siyosatining tarixiy-an‘anaviy ishtirokchilari yevropaliklar hisoblangan bo‘lsa, Fransiya mustamlakalari mustaqillikka erishgach, Fransiyaning asosiy immigrantlari shimoliy afrikalik va osiyolik shaxslar bo‘lganini ko‘rish mumkin.

¹⁹⁹ Марина Боровик. Стратегии формирования иммиграционной политики ЕС. Выпуск 5(21). 2006. - С.14.

Shengen kelishuvi dastlab Yevropa davlatlarini iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan edi. Yevropaning mustamlakalari mustaqillikka erishgach, migratsiya to'liqlari butun Shengen hududi bo'ylab tarqala boshladi. Tabiiyki, eng ko'p koloniyalarga ega bo'lgan Fransiyaga Shengen hududidan qonuniy muhojirlar bilan birgalikda, noqonuniy muhojirlar ham kirib kela boshladi. Shu boisdan Fransiya Shengen vizalari masalasida zarur choralar ishlab chiqishni o'z migratsiya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilamoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR YO'YXATI

1. Глущенко Г.И. Влияние международной трудовой миграции на развитие мирового и национального хозяйства. –М.: «Наука». 2006. – С. 28.
2. Джунайдуллаев Д. А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштариш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т.: 2012. – Б. 40-41.
3. Соколова Т.С. Политика регулирования иммиграционных потоков и интеграции иммигрантов в ведущих европейских странах // Человек. Сообщество. Управление. 2009, №1. – С.78.
4. Джунайдуллаев Д. А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштариш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т.: 2012. – Б. 42.
5. Europe without borders. The schengen area // European commission. www.europa.eu/home-affairs
6. Судоплатов П.А. Миграционная политика стран Евросоюза. М.: Российская академия наук, 2006. - С.11.
7. Зайончковская Ж.А. Трудовая миграция в СНГ: социальные и экономические эффекты. М.: 2003. - С.35.
8. Анатолий Поморцев. Европа выгоняет мигрантов. <http://www.rbcdaily.ru/2009/02/06/world/400726>
9. Fransiya ichki ishlar vazirligining rasmiy sayti <http://www.vie-publique.fr/actualite/alaune/europe-vers-politique-commune-immigration.html>.
10. Марина Боровик. Стратегии формирования иммиграционной политики ЕС. Выпуск 5(21). 2006. - С.14.

ONLAYN TA'LIMDA SOTSIALIZATSIYA VA IJTIMOY ALOQALARNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

XUDAYBERGANOVA Gulnora Tuxtabayevna

*Osiyo Xalqaro Universiteti, "Ijtimoiy fanlar va texnika" fakulteti, "Ta'limda axborot texnologiyalari" yo'nalishi 1-kurs magistranti
gulnoraxt@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada onlayn ta'limning ijtimoiy jihatlaridagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari chuqurroq tahlil qilinadi. Shuningdek, onlayn ta'limning afzalliklari ilmiy asoslanib, mavjud muammolarni hal qilish chora-tadbirlari nazariy izohlanadi.

***Kalit so'zlar.** Onlayn ta'lim, masofaviy ta'limning muammolari, raqamli muhitda ta'limning imkoniyatlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно анализируются проблемы социальных аспектов онлайн-образования и пути их решения. Также научно обоснованы преимущества онлайн-образования и теоретически объяснены меры решения существующих проблем.

***Ключевые слова:** Онлайн-образование, проблемы дистанционного образования, возможности образования в цифровой среде.*

ABSTRACT

This article provides a more in-depth analysis of the problems of the social aspects of online education and ways to solve them. Also, the advantages of online education are scientifically based, and measures to solve existing problems are theoretically explained.

***Keywords.** Online education, problems of distance education, opportunities for education in a digital environment.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida onlayn ta'lim zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Bu format ko'pchilik uchun qulay va iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, masofadan bilim olish imkonini beradi. Onlayn ta'lim zamonaviy talqinida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.


Birinchiidan, moslashuvchanlik tamoyili tufayli talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lib, bu zamonaviy hayot sur'atlariga moslashish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Ikkinchiidan, onlayn ta'lim individual yondashuvni ta'minlab, har bir talabaning bilim olish sur'ati va o'zlashtirish uslubini hisobga oladi, bu esa o'quv jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Uchinchiidan, interaktivlik imkoniyatlari virtual platformalar orqali talabalar va o'qituvchilar o'rtasida jonli muloqotni yo'lga qo'yib, o'quvchilarning faolligini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashni ta'minlaydi. Nihoyat, globallik xususiyati tufayli onlayn ta'lim geografik chegaralarni yo'q qiladi va dunyoning istalgan nuqtasidan ta'lim olish imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayonini universallashtiradi va global bilim makonining shakllanishiga zamin yaratadi. Zeror, T.Soxranyayeva tadqiqotlariga ko'ra, ta'lim tizimining samaradorligi, avvalo, uning faoliyat natijalarining aniq o'lchanuvchanligi va iqtisodiy jihatdan asoslanishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi va uning alohida elementlarini samaradorlik nuqtayi nazaridan baholashning muhim mezon – bu ularning turli ijtimoiy guruhlar va shaxslarning hozirgi ehtiyojlarini qondirishga qanchalik hissa qo'shayotganida namoyon bo'ladi[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Masofaviy ta'lim shakllarining ilmiy asoslari sifatida biz olim Z.Abduraximov izlanishlarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, Z.Abduraximovning tadqiqotlari davomida tibbiyot xodimlari uchun onlayn masofaviy ta'lim shakllarini qo'llash masalasi chuqur ilmiy tahlil qilinib, uning amaliy ahamiyati va samaradorligi asoslab berilgan. Mazkur izlanishlarda zamonaviy texnologiyalar yordamida tibbiyot sohasidagi kadrlarning malakasini oshirish va ularga masofadan sifatli ta'lim berish imkoniyatlari keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari onlayn ta'limning nafaqat vaqt va joy jihatidan qulay ekanligini, balki tibbiy ko'nikmalarni mustahkamlash va doimiy yangilab borishda samarali platforma bo'la olishini ko'rsatgan[2]. Lekin, onlayn ta'limning afzalliklari bilan birga, uning ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq muammolar ham mavjud bo'lib, ular shaxsiy rivojlanish va jamoaviy muloqot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi(1-jadval).



1-jadval. onlayn ta'limning shaxsiy rivojlanish va jamoaviy muloqot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar va talabalar nafaqat bilim olishadi, balki bir-birlari bilan muloqot qilish, fikr almashish, turli jamoa tadbirlarida qatnashish orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Onlayn ta'limda esa bu imkoniyatlar cheklangan. Virtual darslar vaqtida talabalar o'zaro faqat texnologiyalar orqali muloqot qiladilar, bu esa jonli muloqotning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Natijada, ayniqsa yosh avlodda kommunikatsion va emotsional qobiliyatlarning rivojlanishi sekinlashadi.

Sotsializatsiya jarayonining susayishi nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki kelajakdagi ishchi muhitda jamoaviy ishlash qobiliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ko'plab sohalarda ish beruvchilar nafaqat bilim, balki samarali jamoaviy muloqot qobiliyatini ham qadrlashadi. Agar bu ko'nikmalar onlayn ta'lim jarayonida rivojlanmasa, kelajakda talabalar mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Xususan, tadqiqotchi B.Primov axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini o'rganib, ularni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilgan[3].

Onlayn ta'limda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi yuzma-yuz muloqotning yo'qligi muhim muammolardan biridir. An'anaviy ta'limda o'qituvchilar talabalar ehtiyojlarini osonroq aniqlay oladilar, ular bilan hissiy aloqa o'rnatadilar va zarur bo'lganda individual yondashuvni qo'llaydilar. Onlayn ta'limda esa bu imkoniyatlar cheklangan. Virtual darslarda talabalar o'zlarini ko'pincha izolyatsiya qilingan his qiladilar va o'qituvchi bilan ochiq muloqot qilish imkoniyati kamayadi. Bu esa ta'lim sifatiga va talabalar motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

P.Dronovanning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, masofaviy ta'lim sharoitida kasbiy sotsializatsiya samaradorligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida axborot ta'lim texnologiyalari resurslaridan samarali foydalanish, masofaviy ta'lim

platformalarining xilma-xilligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirish muhim o‘rin tutadi. Jumladan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning guruh bilan samarali muloqotini ta’minlash, guruh faoliyati natijalarini integratsiya qilish, ta’lim mashg‘ulotlarini yozib olish imkoniyatlari va platformaning yuqori xavfsizlik darajasini ta’minlash kabi omillar masofaviy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalarning o‘rni nafaqat o‘quv jarayonining texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi, balki kasbiy rivojlanish va ijtimoiy integratsiyaga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Onlayn ta’lim texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, talabalar ko‘p vaqtlarini kompyuter yoki smartfon ekranlari qarshisida o‘tkazadilar. Bu jarayon ko‘pchilikda texnologik qaramlikni rivojlantirishi, ijtimoiy faoliyatni pasaytirishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, uzoq vaqt onlayn faoliyat bilan shug‘ullanish odamlarning ijtimoiy faolligini kamaytirib, ularni real hayotdagi muammolardan uzoqlashtiradi.

Yuqoridagi fikrlarga ilmiy asoslangan holda tadqiqot natijasida biz nazariy jihatdan onlayn ta’limdagi sotsializatsiya va ijtimoiy aloqalarning muammolarini hal qilish chora-tadbirlarini jadval shaklda ifodaladik(2-jadval).

INTERAKTIV TA’LIM USULLARINI RIVOJLANTIRISH

Virtual muloqotni jonlantirish uchun videokonferensiyalar, guruhli muhokamalar, onlayn o‘yinlar va loyihalar orqali talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish mumkin. Bu usul faqat bilim olishni emas, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

GIBRID TA’LIM TIZIMINI QO‘LLASH

Onlayn va an’anaviy ta’limni birlashtirgan holda, o‘quvchilarga yuzma-yuz muloqot qilish imkonini yaratish zarur. Bu yondashuv ijtimoiy aloqalar va bilim olish jarayonini muvozanatlashtiradi.

O‘QITUVCHILAR UCHUN MAXSUS TRENINGLAR TASHKIL QILISH

O‘qituvchilarga virtual ta’lim muhitida samarali muloqot usullarini o‘rgatish, ularga talabalar ehtiyojlarini virtual shaklda ham aniqlash ko‘nikmalarini berish muhim.

RAQAMLI DETOKS VA IJTIMOY FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISH

Talabalarni faqat texnologiyaga qaram bo‘lib qolishdan saqlash uchun ularga real hayotda faoliyat yuritishga imkon beruvchi dasturlarni joriy etish lozim. Masalan, onlayn va oflayn tadbirlarni birlashtirish, sport va madaniy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash.

2-jadval. Onlayn ta‘limdagi sotsializatsiya va ijtimoiy aloqalarning muammolarini hal qilish chora-tadbirlar.

Onlayn ta‘lim zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy jihatlariga oid muammolar yetarli darajada e‘tibor talab qiladi. Sotsializatsiya va ijtimoiy aloqalarni cheklamaslik uchun innovatsion ta‘lim usullarini joriy etish, ta‘lim jarayoniga gibrid yondashuvni qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun mos sharoit yaratish zarur. Mazkur chora-tadbirlar ta‘lim tizimining barqarorligini ta‘minlashga yordam beradi va onlayn ta‘limning afzalliklarini to‘liq amalga oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:

1. Сохраняева Т.В. К вопросу о социализирующем потенциале практик онлайн-обучения. // Социально-политические науки, 5, 2017. - с. 42.
2. Абдурахимов З.А. Тиббиёт ходимларини малакасини оширишда журнал ва онлайн масофавий таълим шакллари кўлланиши: Тиббиёт фан. д-ри(DSc) ... дисс. – Т., 2020., – 181 б.
3. Примов Б.А. Ахборот оқими жадаллашувининг ёшлар маънавий-ахлоқий тарбиясига таъсири (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. – Т., 2020., – 147 б.
4. Дронова П.Д. Проблемы профессиональной социализации в условиях дистанционного обучения. // Научные труды Московского гуманитарного университета, 2021, №5. - с. 36.
5. Johnson, R. “Digital Divide and Its Impact on Education”, Education Technology Journal. Chicago: University of Chicago Press, 2020. – 19 bet.
6. Smith, J. “Online Learning in the Post-Pandemic Era: Challenges and Opportunities”. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 278 bet.
7. Athabasca University. “Community of Inquiry Framework”, Onlayn ta‘lim bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari. Vancouver: Athabasca University Press, 2013. – 22 bet.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРУЮЩЕГО ОЦЕНИВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛЕ

Нехочина Лола

*Преподаватель Наманганского государственного
педагогического института*

Оценивание рассматривают как мощное и многоплановое воздействие на обучающегося. Оно влияет на ход учебной деятельности, успешность, мотивацию, на формирование определенных черт личности ребенка. В истории педагогики оценочный компонент имел различные требования: от телесных наказаний до отсутствия оценок вообще.

В современной школе оценивание – это средство воздействия на обучающегося с целью развития его самостоятельности, активности, ответственности и пр. В этой связи особо актуальной становится задача формирования у обучающегося правильно уметь оценивать свою деятельность и ее результаты, изменения, которые происходят в предмете деятельности и в самом себе.

Изучению оценивания в ходе школьного обучения посвящен целый ряд работ. Отметим, на наш взгляд, основополагающие, к числу которых можно отнести концепцию Б.Г. Ананьева, теорию оценивания в контексте развивающего обучения Д.Б. Эльконина – В.В. Давыдова, труды Ш.А. Амонашвили и др.

В работах исследователей постулируются следующие положения: 1) оценивание – мощный мотивационный компонент обучения, способствующий развитию и улучшению результатов учебной деятельности; 2) верно организованное оценивание позволяет сформировать у обучающихся умение осуществлять анализ причин неудач в ходе выполнения определённой деятельности; развивающее оценивание требует создания необходимых условий для организации особого характера сотрудничества учителя и обучающегося, обучающихся между собой, который должен строиться на взаимоуважении, доверии, эмоциональной безопасности; 4) оценивание – средство объективации собственных изменений, способствующее становлению дифференцированной, адекватной и рефлексивной личностной самооценки.

Изучение новой темы урока русского языка должно включать три основных этапа: вводно-мотивационный, операциональнопознавательный и рефлексивно-оценочный. В ходе первого этапа обучающиеся осознают, для

чего им необходимо изучать данную тему и что им придётся осваивать; в ходе второго – происходит осознание содержания темы и овладение учебными действиями; на последнем этапе осуществляется рефлексирование и анализ своей деятельности.

В этом случае одной из главных целей является формирование рефлексивной деятельности, которая становится способностью обобщать и адекватно оценивать свою деятельность и её продукт. Как отмечает М.А. Пинская, это обуславливает внедрение в современной школе системы формирующего оценивания, которая отвечает принципам системно-деятельностного подхода. Она даёт возможность получить учителю информацию о том, насколько эффективно и успешно обучение.

В контексте технологии формирующего обучения происходит осуществление обратной связи, которая позволяет корректировать процесс обучения в плоскость результативности и эффективности. Такая технология имеет определённые преимущества и позволяет: - наметить образовательный результат, который подлежит формированию и корректной оценке в отношении каждого обучающегося, и организовать в соответствии с этим свою деятельность; - вовлечь обучающегося в активную образовательную и оценочную деятельность (Н.В. Бородкина).

Важно отметить, что под оценкой в современной дидактике понимают процесс, в ходе которого соотносятся реальные результаты в образовании с целями, которые были запланированы учителем. К основным функциям оценивания причисляют: информационную, контролирующую, регулирующую.

Однако при рассмотрении существующей системы оценивания, принятой в школе, становится очевидным, что эта система не всегда выполняет обозначенные выше функции.

Система оценивания, интегрированная в образовательную практику, – постоянный процесс. Характер этапа обучения определяет применение двух видов оценивания: стандартное оценивание (констатирующее, суммирующее, итоговое) и формирующее оценивание (текущее, диагностическое, внутреннее). Стандартное оценивание включает определённый набор мероприятий контрольного характера на этапе завершения разделов, тем. Контрольные задания содержат принципиально значимые блоки полученных знаний, сформированных умений и навыков в ходе изучения учебного материала. Стандартное оценивание – средство определения объёма изученного и усвоенного материала за определённый период. Применение формирующего оценивания в ходе дисциплин филологического цикла осуществляется для

получения информации о текущем состоянии с целью определения ближайших шагов для установления перспективы (для корректировки методов, приёмов, форм обучения; учёта возрастных и индивидуальных особенностей обучающегося и пр.).

В дальнейшем полученная информация позволит улучшить работу учителя / преподавателя по устранению недочётов. Такое оценивание с учётом «внешней оценки» (оценивание обучающегося учителем) включает и «внутреннюю» оценку в виде самооценки, взвимооценки и комбинированной оценки. Этот подход способствует не только количественному улучшению результатов, но и их качественному изменению. М.А. Пинская отмечает, что стандартное оценивание и формирующее оценивание выполняют одни и те же функции в образовательном процессе, а именно: 1) обучающую; 2) воспитательную; 3) ориентирующую; 4) стимулирующую; 5) диагностическую; 6) формирующую самооценку учащихся. Но стоит отметить, что стандартное и формирующее оценивания предусматривают разные цели.

Первое преимущественно применяется с целью подведения итога обучения и дополнения контрольных процедур и тестовых заданий в ходе текущей работы; оно включает выставление отметок и текущую фиксацию достижений. Формирующее же оценивание может использоваться для получения актуальной информации в определённый момент, для тщательного учёта достижений каждого обучающегося.

Переход от стандартной (традиционной) модели оценивания к формирующему оцениванию предполагает расставить акценты следующим образом:

- 1) с традиционных письменных работ на учебные проекты, творческие и исследовательские работы, составление тестов, проблемных вопросов;
- 2) с неявных критериев оценивания на чёткие и всем понятные критерии оценивания;
- 3) с оценивания учителем на оценивание с участием обучающихся;
- 4) с принципов отметочной конкуренции на сотворчество и сотрудничество;
- 5) с оценки результатов на оценивание анализа и синтеза, интерпретации и понимания;
- 6) с оценивания знаний на оценивание умений и навыков;
- 7) с принципов важности и значимости оценки (отметки) на значимость учения;

8) с итогового и суммарного оценивания на динамическое оценивание результатов.

И.С. Фишман и Г.Б. Голуб отмечают, что формирующее оценивание предполагает оценку достижений учащихся учителем, который их обучает, то есть человеком, находящимся внутри процесса обучения тестируемых учащихся. Оно ориентировано на конкретного ученика, призвано выявить пробелы в освоении учащимся того или иного элемента содержания образования, с тем чтобы восполнить их с максимальной эффективностью, и не предполагает сравнения результатов разных учащихся. По определению А.М. Пинской, это скорее не балльная, а словесная, описательная система, понимаемая как «оценивание для обучения».

Прежде всего формирующее оценивание (внутреннее оценивание) позволяет определить индивидуальные достижения результатов каждого обучающегося, при этом оно не предполагает сравнение результатов, продемонстрированных разными школьниками, и административных выводов по результатам обучения. Вид оценивания называется формирующим, поскольку оценка ориентирована на конкретного обучающегося, направлена на выявление пробелов в освоении школьниками учебного материала. Это позволяет восполнить «слабые» места максимально результативно. Образно раскрыть суть формирующего оценивания можно с помощью развёрнутой метафоры, которую приводят в своей работе «Формирующая оценка образовательных результатов учащихся» И.С.Фишман и Г.Б. Голуб: «Если представить учеников в образе растений, то внешнее (суммирующее) оценивание растений есть процесс простого измерения их роста.

Результаты измерений могут быть интересны для сравнения и анализа, но сами по себе они не влияют на рост растений. Внутреннее (формирующее) оценивание, наоборот, сродни подкормке и поливу растений, являя собой то, что напрямую влияет на их рост». Авторы сравнивают традиционную оценку с измерением роста растения, а формирующую – подкормкой и поливом, которые непосредственно влияют на его рост. В зарубежной педагогике широко обсуждались преимущества и особенности организации для обучения формирующего обучения. Имеются интересные рекомендации и выводы, которые мотивируют целесообразность использования такой системы оценивания.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. ERKINZHANOVNA, F. K. Metaphor Explanation Methods When Studying Artistic Text. *JournalNX*, 6(07), 298-301.

2. Файзуллаева, Х. Э. (2021). Обогащение русской речи студентов общезыковыми метафорами. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1133-1136.
3. Fayzullaeva, H. E. (2021). THE POSTMODERN NATURE OF A. BITOV'S NOVEL "PUSHKIN HOUSE". *Science and education*, 2(2), 313-315.
4. Файзуллаева, Х. Э. (2020). Работа по фразеологии при изучении имени числительного. *Science and Education*, 1(2), 574-577.
5. Fayzullayeva, H. E., Toshmatova, M. T. Q., & Sobirova, F. I. Q. (2024). The appearance and development of slavic writing. *Science and Education*, 5(6), 402-405.
6. Fayzullayeva, H. (2024). OLD SLAVONIC LANGUAGE IN THE FAMILY OF INDO-EUROPEAN LANGUAGES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 458-462.
7. Akramova, E. I., & Fayzullayeva, H. E. (2024). Artistic features of folk drama. *Science and Education*, 5(12), 380-383.

AHMAD DONISH – O‘RTA OSIYODA MA’RIFAT ASOSCHISI**ABDURAHMONOV Xolboy To‘xtayevich***Alfraganus Universiteti, Mustaqil tadqiqotchi*

+998977321006

ANNOTATSIYA

Tojik xalqining buyuk farzandi Ahmad Donish Buxoro amirligining qomusiy olimi, pedagog, islohotchi, olim, yozuvchi, faylasuf, mutafakkir, shoir, davlat arbobi bo‘lgan. XIX-asr oxiri- XX-asr boshlarida Ahmad Donish ijodi ta’sirida ziyolilarning ilg‘or qismining uyg‘onishi nafaqat Buxoro amirligida, balki O‘rta Osiyoda ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Ularning asosiy g‘oyasi hukmron tabaqadan va byurokratik apparatdan oddiy mehnatkash xalqqa nisbatan o‘zboshimchalikni cheklashni, iqtisodiyot, fan va madaniyatni rivojlantirish chora-tadbirlarini ko‘rish, ta’lim tizimini isloh qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘zboshimchaliklarini ta’minlashni talab qilish edi. Buxoroning nochor fuqarolariga nisbatan elementar va demokratik huquqlar va boshqalar...

Shu bois Ahmad Donisha shaxsi va uning ijodi tariximizning sahifasilarida yorqin o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *Ahmad Donish, Ma’rifatparvar, Buxoro, O‘rta Osiyo, Rossiya, ziyolilar, Amir tuzumi, Musulmon ruhoniylari, Madrasa, Jadidlar.*

АННОТАЦИЯ

Великий сын таджикского народа Ахмад Дониш — энциклопедист, просветитель, реформатор, ученый, писатель, философ, мыслитель, поэт, государственный деятель Бухарского эмирата. В конце XIX — начале XX века пробуждение прогрессивной части интеллигенции под влиянием творчества Ахмада Дониша происходило не только в Бухарском эмирате, но и в Средней Азии. Их главная идея состояла в том, чтобы ограничить произвол правящего класса и бюрократического аппарата над рядовыми трудящимися, принять меры по развитию экономики, науки и культуры, реформировать систему образования, обеспечить произвол государственной власти и управления. тел. было требовать. Элементарные и демократические права для нуждающихся граждан Бухары и т.д....

Поэтому личность Ахмада Дониша и его творчество занимают яркое место на страницах нашей истории.

